

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**



B. Aliev, O.Yuldashev

**o'zbekistonda demokratik jamiyat qurish
nazariyasi va amaliyoti**

DARSLIK

TOSHKENT – 2016

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

***“O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH NAZARIYASI
VA AMALIYOT” kafedrası***

B. ALIEV, O.YULDASHEV

**“O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” (Darslik) – T.:
“Iqtisodiyot”, 2016 – 178- bet. (2015-2016 o'quv yiliga mo'ljallangan va yangilangan)**

TOSHKENT – 2017

Mazkur darslik O'zbekistonda davlat mustaqilligiga erishlgandan keyin, yangi demokratik jamiyat qurilishi va siyosiy islohotlarning amalga oshirilishiga keng o'rin berilgan. Bular bilan birga-huquqiy demokratik davlat qad rostdashiga, fuqarolik jamiyatining shakllantirilishi va iqtisodiy islohotlarning chuqurlashtirish jarayonlariga e'tibor qaratilgan. Shular asnosida ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlash omillari, ma'naviy-ruhiy va milliy qadriyatlarning tiklanishi hamda Respublikaning jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashi kabilarga e'tibor berilib, tahlil qilingan.

Darslik 2 bo'lim va 10 ta mavzudan iborat. Har bir mavzu yakunida hulosalar, tayanch so'zlar, nazorat va muhokama uchun savollar, mavzuga oid adabiyotlar ro'yxati hamda har bir mavzuga tegishli jadvallar berilgan.

Ushbu ma'ruza matni iqtisodiyot oliy o'quv yurtlari bakalavriat yo'nalishlari uchun mo'ljallangan. Ma'ruza matni Toshkent Davlat Iqtisodiyot universitetining "O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi, amaliyoti va huquq" kafedrasidan tayyorlangan.

В данном учебнике раскрывается сущность национальной независимости Узбекистана, проводимых политических реформ в период построения демократического, правового государства, формирования гражданского общества, а также углубления экономических преобразований. Вместе с тем, в нем рассматриваются вопросы обеспечения общественно-политической стабильности в Республике, духовно - нравственного возрождения, укрепления национальных ценностей и роль Узбекистана в мировом сообществе.

Учебник состоит из 2 частей и 10 тем. В конце каждой темы даны заключения, опорные слова, вопросы для обсуждения и контроля, литература и схемы. Данный учебник подготовлен коллективом кафедры «Теории и практики построения демократического общества в Узбекистане» и предназначен для бакалавриата экономических вузов.

The essence of national independence of Uzbekistan, the performance of political reforms in the period of building a new society, the legal democratic society, formation of citizens society, deepening the economic reforms are revealed in the economic in the present manual. The matters of providing social and political stability in the Republic of Uzbekistan, national regeneration, strengthening of national values and the role of Uzbekistan in the world community.

The manual consists of two parts and ten themes. The conclusion, key words, questions for discussing and control, the used literature and schemes are given at the end of every theme. The present manual is designed for students of bachelor degree of the economic educational institutions. The manual was prepared by the department staff of «Theory and practice of building the democratic society in Uzbekistan».

KIRISH

Xalqimiz O'zbekiston davlat mustaqilligi e'lon qilinganligining 22 yilligini munosib kutib olishga katta tayyorgarlik ko'rmoqdalar. O'tgan tarixan qisqa davr ichida o'zbek milliy davlatchiligi shakllanib, uning mustahkam qaror topish jarayoni samarali va tez kechmoqda. Prezidentimiz I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19 yilligi tantanalaridagi ma'ruzasida ta'kidlab o'tganidek, "Bir haqiqatni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz darkor. Bunday zamonda, bunday sharoitda erishilgan yutuqlarga mahliyo bo'lmasdan, havolanishga berilmasdan, tez o'zgarib borayotgan dunyo bilan hamqadam bolib yashash, vujudga kelgan vaziyatni hushyor aql-idrok bilan baholash, yuz btrishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarning oldini olishga qodir bo'lgan mamlakatgina muvaffaqiyat qozonishi mumkin"¹.

"O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" fani biz qurayotgan yangi jamiyatning mohiyatini nazariy va amaliy jihatdan ochib berish yo'lidagi urinishlardan biridir. Shu o'rinda eslatib o'tish kerakki, ushbu fanni o'rganishga bo'lgan e'tibor va qiziqish tobora ortib bormoqda. Demokratik, insonparvar jamiyat qurish, uning nazariy asoslarini puxta o'rganish va amalga oshirilayotgan ishlarni chuqur tahlil qilish "O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" fanining bosh maqsadidir. Ushbu fan o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turuvchi bilimlar majmuigina emas, bu yo'nalishdagi muayyan sohalarga oid asosiy g'oyalar tizimidir. Bu tizimda ijtimoiy voqea-hodisalar, ular o'rtasidagi muhim aloqa va bog'lanishlar aniq voqelik bilan chambarchas holda tadqiq etilgan. Shu nuqtai nazardan qaraganda, "O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" fanining jahon sivilizatsiyasi tarixiy tajribalariga asoslangan va respublikamizning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, odil demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish borasidagi nazariy masalalarni tadqiq etadi hamda uni amaliyotchilar uchun dastur sifatida taklif qiladi.

"O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" fani ijtimoiy voqelikning o'ziga xos qonuniyatlarini kashf etish asosida jamiyatdagi jarayon va hodisalarni tahlil qiladi, tushuntiradi va ilmiy xulosalar chiqaradi. Shu bois, ushbu fan ijtimoiy ehtiyoj sifatida vujudga keldi va shakllanmoqda. Shu bilan birga, u barcha fanlarning ijtimoiy taraqqiyotdagi o'rnini belgilaydi. U o'z mantiqiy tuzilishga, ilmiy tahlil usullari va vositalariga ko'ra, mustahkam nazariy manbaga asoslanadi. Masalan, bunga Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning 1948 yil 10 dekabrda qabul qilingan "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"ning asosiy qoidalari misol bo'la oladi.

Mazkur deklaratsiya demokratik, odil davlat va fuqarolik jamiyati qurishning muhim mezonini va fanning nazariy asosi bo'lib xizmat qiladi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq O'zbekiston o'z taraqqiyot yo'lini aniq belgilash sari dadil qadam tashladi. Bu davr Vatanni erkin, kuchli va ravnaq topayotgan diyorga aylantirishga, jahon hamjamiyatiga kirish, davlatlararo ko'p qirrali aloqalarning eng maqbul yo'llarini izlash davri bo'ldi. Bu sa'i-harakatlar hosilasi o'laroq, O'zbekistonga xos va mos yo'l tanlandi. Bu yo'l ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishda, jahon tajribasini shuningdek, xalqimizning turmush tarzini, an'analarini, urf-odatlarini har tomonlama hisobga olishga asoslangan. Bu esa konstitutsion asosga ega bo'lgan, respublika aholisining manfaatlariga to'la mos tushadigan taraqqiyot yo'lidir.

Aynan shunday rivojlanish O'zbekiston xalqining munosib turmush kechirishini ta'minlashga kafolat bo'ladi, milliy an'analar va madaniyatning yuksalishini, ma'naviy-ahloqiy qadriyatlarining tiklanishini ta'minlaydi.

Ijtimoiy yo'naltirilgan, "barqaror bozor iqtisodiyoti ochiq tashqi siyosatga asoslangan kuchli demokratik huquqiy davlatni va fuqarolik jamiyatini barpo etish pirovard maqsad bo'lib qolishi kerak"². Ushbu yo'lni amalga oshirishga, demokratik jamiyatni barpo etishga Prezident

¹ Karimov I.A. Bizning yo'limiz – demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo'lidir". "Xalq so'zi", 2011yil 8 dekabr.

² Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1.-T.: "O'zbekiston". 1996, 39-b.

I.A.Karimov ilgari surgan besh tamoyil asos qilib olindi. Bu tamoyillar faqat mamlakatimizdagina emas, boshqa davlatlarda ham tan olingan.

Jahonda ideal demokratik jamiyat ham, mukammal huquqiy davlat ham yo'q. Har bir demokratik jamiyat va huquqiy davlat o'ziga xos xususiyatga ega. Ushbu fan mana shu muhim xulosaga tayangan holda, demokratik jamiyat, huquqiy davlat qurishning ahamiyatini O'zbekiston misolida tushuntirishga intiladi. Sinfilylik va partiyaviylik g'oyalardan mutlaqo xoli bo'lgan bunday jamiyatda iqtisodiyot mafkuradan ustun qo'yilmaydi, insoniylik, milliy istiqlol va tiklanish, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik g'oyalari esa muhim o'rinni egallaydi. SHu jihatdan olganda, u fanda yaxlit, yaqqol va aniq shaklda mujassam ifoda etiladi.

Demokratik jamiyat qurish sharoitida nazariya bir yoki bir nechta, tor doiradagi ijtimoiy-siyosiy guruhlar, shu jumladan, yagona millat manfaatlarinigina emas, balki butun insoniyatning yuksalishiga xizmat qiladigan g'oyalarga tayanishi kerak. Zero, hozirgi ilm-fan, texnika rivoji va taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari insoniyatning er yuzida qanday keskin ijtimoiy-siyosiy vaziyatda yashashi va faoliyat ko'rsatishi masalasini ko'ndalang qilib qo'ymoqda. Agar ushbu muammo o'zaro maqbul va manfaatli yo'llar bilan emas, aksincha, sinfiy manfaatlar nuqtai nazaridan hal qilinsa, umumbashariy falokat muqarrardir. Bu falokatning oldini olish endilikda jamiyatda tutgan ijtimoiy o'rni va mavqeidan qat'i nazar, barcha insonlarga bog'liq. Uni bartaraf etish sinfiy va guruhli manfaatlarni ustun qo'yishni inkor etadi. Natijada, ijtimoiy totuvlik birinchi va hal qiluvchi o'ringa chiqadi. Shunga ko'ra fanning nazariy va metodologik asoslariga yangicha, zamonaviy fikrlash talablari taqozosi bilan yondoshish zarur. Bu umuminsoniy qadriyatlarning biri bo'lgan milliylikni sinfiylikdan ustun qo'yishdir. Bu muammolarni hal etmay, demokratik jamiyat qurish, uning mafkurasini va nazariyasi muammolarini echish g'ayri tabiiydir.

Yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda "O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" fanining asosiy vazifasi va o'ziga xos tomoni shundaki, u jamiyatni yaxlit, bir butun ijtimoiy jarayon sifatida o'rganadi hamda hozirgi davrga mos ravishda tadqiq etadi.

O'zbekistonda demokratik jamiyat barpo etishda jahon xalqlarining tarixiy tajribalari, xalqimizning boy va qadimiy merosi hamda sharqona turmush tarzining o'ziga xos jihatlari, shuningdek, komil insonni tarbiyalash bilan bog'liq ilmiy-falsafiy qarashlar va amaliy tajribalarni ham fanning nazariy asosi sifatida o'rganish mumkin.

Shubhasiz, yuqorida tilga olingan masalalarni o'rganish va mulohaza qilish talabalarda yuksak manaviy fazilatlarni kamol toptirish, milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish yoshlarni tarixiy an'analarga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat va Vatanga muhabbat hamda istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalashga ko'maklashadi.

Prezident I.A.Karimovning "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" asarida juda aniq va mukammal qilib ta'riflanganidek, "O'zbekiston kelajagi buyuk davlat. Bu—mustaqil, demokratik, huquqiy davlatdir. Bu— insonparvarlik qoidalariga asoslangan millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e'tiqodidan qat'i nazar fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlab beradigan davlatdir"¹. Shu jihatdan olganda "O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" fani yangi o'quv dasturi doirasiga qaratilgan masalalar siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy-ma'naviy hayotimizni ko'p qirralarini qamrab olgan bo'lib demokratik huquqiy davlat fuqarolik jamiyatini qurish haqida keng ma'lumotlarni beradi.

Talabalar ushbu fanni o'zlashtirish jarayonida O'zbekiston zaminida adolatli jamiyat to'g'risidagi dastlabki qarashlar, uning manbalari va rivojlanishi haqidagi bilimlarga ega bo'ladilar. Bu O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning o'ziga xos xususiyatlari, o'tish davrining barcha mamlakatlar uchun umumiy qonuniyat ekanligi, I.A.Karimov tomonidan O'zbekistonning "Evolyutsion-tadrijiylik" asosida demokratik jamiyatga o'tishga doir nazariy kontseptual metodologiyasi mohiyatini ifoda etadi. O'z navbatida ular demokratik jamiyat qurishning milliy va umumbashariy tamoyillari, demokratik fuqarolik jamiyatini barpo etishning nazariy va amaliy asoslarini puxta o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

¹ Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura.T.1.-T.: "O'zbekiston". 1996, 44-b.

Hech shubha yo'qki, O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanida ilgari surilgan nazariy xulosalar, mamlakat siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy-ma'naviy hayotida ro'y berayotgan chuqur o'zgarishlarni aks ettiradi. Shu bilan bir qatorda, O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning yangi chop etilgan "Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch", "Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish", "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" asarlari, 2010 yil 27 yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatning qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimiz", 2010 yil 29 yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yilda respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning yakunlari va 2013 yilda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalariga bag'ishlangan "Bosh maqsadimiz - keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davov ettirish" mavzusidagi ma'ruzasi hamda "Obod turmush yili" Davlat Dasturlaridagi g'oyalar bilan boyitilgan. Bu bilimlar talabalar siyosiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirishga, o'zining yangilanayotgan jamiyatimizdagi o'rnini yaxshiroq anglab olishga yordam beradi.

Ma'ruzalarni tayyorlashda mualliflar o'z ilmiy–nazariy tajribalari darajasida mustaqillikning mohiyatini, murakkabliklarini, eng dolzarb muammolari-yu, uning namoyon bo'lish shakllarini, huquqiy asoslari va ma'naviy zaminlari hamda uning rivojlanish qonuniyatlarini dastur doirasida tahlil etishgan.

Bular bilan bir qatorda, ma'ruzada bosh strategik maqsad bo'lgan fuqarolik jamiyatining mustahkam poydevorini qurish ahamiyati ustida ham so'z yuritilgan.

Mualliflarning ba'zi fikrlari bahsli, munozarali bo'lishi mumkin. Bahs, munozara bor joyda haqiqatni anglash engillashadi. Shuning uchun unda ko'tarilgan va tahlil etilgan masalalar yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini bildirgan kasbdoshlarimizga mualliflar oldindan o'z minnatdorchiligini izxor etadilar.

1–BO'LIM O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH NAZARIYASI VA RIVOJLANISHI

1–MAVZU: O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH NAZARIYASI VA AMALIYOTI FANINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI. DEMOKRATIK JAMIYAT TO'G'RISIDAGI DASTLABKI QARASHLAR VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

1.1 O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanining predmeti, ob'ekti, uslubi hamda uning manbalari.

Har bir fanning boshqa fanlardan farqini aniqlab beradigan predmeti buladi. Mazkur ma'noda «O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti» fani qanday fan, qanday muammolar bilan shug'ullanadi, uning tadqiq va bilish ob'ektini nima tashkil etadi degan savollarga aniq va ravshan javob berish lozim bo'ladi.

«O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti» fani predmeti deganimizda jamiyat hayotining barcha jabhalari, ya'ni ijtimoiy - siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy sohalarining mohiyatini chuqur talqin etadigan va ko'lamini keng bo'lgan ilm-fan sohasini anglaymiz. Avvalo ushbu fan xalqimizning tarixiy tajribasiga tayanadi, uning ijobiy samaralarini tanqidiy o'rganib, amaliy hayotga tatbiq etadi. Tarix saboqlariga amal qilgan holda salbiy oqibatlarga olib kelgan, o'zini oqlamagan aqidalardan va yo'nalishlardan jamiyat manfaatlarini muhofaza qilishni o'rgatadi, hushyorlikka undaydi.

Shu bilan birga "O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" fanining demokratik jarayonlarga tatbiq qilinishi zarur bo'lgan huquqiy vositalarini, davlat, siyosiy partiyalar, jamoat, nodavlat notijorat tashkilotlarining jamiyat tarkibidagi o'rni va o'ynaydigan roli masalalarini ifoda qiladi. Bu esa fanning predmeti qamrovini kengaytiradi. Dastlabki fuqarolik jamiyatining kelib chiqishi, uning rivojlanishiga doir nazariy qarashlarni ifoda etadi. Xorijiy tajribalar, fuqarolik jamiyati institutlarining shakllanishi, rivojlanishi tamoyillarini o'rganish va uni tadqiq etish, bu sohadagi o'z echimini kutayotgan masalalar, muammolar yuzasidan ilmiy tahlillar, xulosalar, takliflar hamda tavsiyalarni berishni ushbu fan o'z zimmasiga kiradi.

Yangi jamiyat qurishda demokratiyaning ilg'or jahon tajribasini chuqur o'rganish, jamiyat rivojiga doir milliy tarixni anglash, millat mintalitetini hisobga olish va milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish asosidagina barpo etish mumkin. Biz o'rganayotgan fan aynan shu jihatlariga e'tibor qaratadi.

Ushbu fan demokratik jamiyat qurish jarayonida o'rin olgan ob'ekt va sub'ekt mutanosibligi tabiatini, ularning amal qilish doirasini, ko'lamini, ularning mamlakat shart-sharoitlarida namoyon bo'lish xususiyatlarini ham o'rganadigan va o'rgatadigan fandır.

Demokratik davlatda sodir bo'ladigan o'zgarishlar siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy-ma'naviy va axloqiy o'zgarishlar orqali yuzaga kelar ekan, demokratik huquqiy davlat o'z ichki siyosatini jamiyat hayotining barcha sohalariga tatbiq etadi. O'zbekiston ichki siyosatining negizi ijtimoiy yo'lantirilgan bozor iqtisodiyotini qurishdan iborat. Ushbu maqsadni har jihatdan asoslash O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fani doirasiga kiradi. Lekin, o'zining demokratik jamiyat qurishdagi muvaffaqiyatlari jahon hamjamiyati bilan hamkorlikning samarasiga ko'p jihatdan bog'liq. Mazkur yo'nalishga asoslangan holda shuni alohida ta'kidlash lozimki, ushbu fan ob'ektiv qonunlarga asoslangan ichki va tashqi siyosatning asosiy tmonlari, yo'nalishlari, mazmuni, uslubi, vosita - shakllarini belgilab, kundalik hayotga tatbiq etish haqidagi fan hamdir.

Demak, "O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" fanining predmeti-mamlakatda demokratik jamiyatning shakllanishi, fuqarolik jamiyati qurilishi, qaror

topishi va amal qilishining dunyoda e'tirof etilgan umumbashariy va milliy tamoyillariga asoslanadi. Ayni paytda, uning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda erkin, demokratik, adolatli fuqarolik jamiyatini qurish yo'llari va qonuniyatlarini o'rganish, bu fanning predmeti va ob'ektini tashkil etadi.

“O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanining ilmiy-tadqiqot ob'ekti ichki siyosatning negizi bo'lgan ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tishni ilmiy nazariy jihatdan o'rganish bo'lsa, uning ikkinchi ob'ekti demokratik huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati qurish yo'llari va usullarini tadqiq etishdir.

Jamiyat taraqqiyotining belgilovchi omili bo'lgan ma'naviyat va ma'rifat masalalarini o'rganish, ularni tahlil etish, milliy-ma'naviy o'zgarishlarning davlat, jamiyat qurilishida aks etish va uning ahamiyati hamda istiqbollari aniqlash fanning yana bir ob'ektidir. Uning navbatdagi muhim ilmiy tadqiqot ob'ekti bu xalqaro munosabatlarni o'rganishni tashkil etadi. Bu esa davlatning omilkor va manfaatdor tashqi siyosati mohiyatini, asosiy mazmunini, usul va vositalarini shakllantirishda nazariy– metodologik rol o'ynaydi. O'z navbatida mamlakat ichki siyosatini uyg'unlashtirish va faoliyatini barqarorlashtirish yo'llarini ishlab chiqishda qo'l keladi. Shu bilan birga “O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fani muammolarni ilmiy tadqiq qilish va o'qitish uslublari juda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Avvalambor, ushbu fan muammolariga amaliy yondoshish jarayonida muhim e'tiborni unda mavjud bo'lgan tatbiqiy yo'nalishlarga qaratish lozim.

Hozirgi kunda asosiy yondoshish uslubini tobora sinergetik (birgalikda, hamkorlikda, hamoxang harakatda) uslub egallab bormoqda. Mazkur uslub fanlararo ilmiy-tadqiqot olib borish yo'llarini anglatib, uning mohiyatini o'z - o'zidan uyushish, vujudga kelish, amal qilishini tashkil etadi.

Shuni anglash muhimki, umuminsoniy qadriyatlarning har qanday guruh, milliy, irqiy, jinsiy, e'tiqodiy, boshqa manfaatlar va qadriyatlardan ustivorligi hozirgi davrda umuminsoniy manfaatlar va qadriyatlar oqimida hamkorlik qilish uchun keng o'rin egallab kelmoqda.

Ushbu fanning ilmiy-uslubiy vositalari orasida tanqidiy dialektik uslub muhim o'rin egallaydi. Ushbu uslub sinergetika uslubi bilan birgalikda hamoxang bosh metodologik uslubni tashkil etadi va fan muammolari echimining samarador hamda omilkor bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi. Mazkur uslubning samaradorligi va omilkorligi demokratik tamoyillarning rang-barangligi asosida ziddiyatlar nazariyasi va uning echimlarining oqil yo'llarini izlab topish, xilma-xil g'oyalar va ta'limotlarning raqobatli bahslashuvi, qadriyatli mo'ljallar, shaxs va ijtimoiy guruhlarning o'zaro mutanosibligini belgilab berish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Sotsiologik uslub–ichki va tashqi siyosat yuritishning jamiyat taraqqiyotidagi mushtarak qonuniyatlari bilan uzviy bog'liqligini, siyosiy tizim amal qilishiga, iqtisodiy munosabatlar, ijtimoiy tizim, mafkura va ma'naviyatga ta'sir o'tkazishini tadqiq va tahlil etish imkoniyatlarini ochib berishi bilan birga ushbu fanni rivojlanishiga metodologik zamin bo'lib xizmat qiladi. Mazkur uslubning ham sinergetik va tanqidiy–dialektik tadqiqot uslublari bilan uzviy hamda mantiqiy bog'lanib ketganligi natijasida demokratik davlat faoliyati jarayonlarini, shaxs–ijtimoiy guruh jamiyat tizimining barcha sohalari bo'yicha fuqarolik jamiyati shakllanib amal qilishini oldindan ilmiy tahlil qilishda katta ilmiy–amaliy samaralarni vujudga keltirishi muqarrar.

“O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanining maqsadi: bu fan o'zbek xalqi tarixida, jumhuriyatimizda istiqomat qilayotgan barcha xalqlar hayotida ro'y bergan chinakam buyuk voqea mustaqillikka erishishi, uning mohiyatini, murakkabliklarini va ularning namoyon bo'lish shakllarini va rivojlanish qonuniyatlarini hamda O'zbekistonning jahon hamjamiyatida o'rin egallashi kabi masalalarni o'rganishga yo'naltirilgan.

Fanning asosiy vazifalari;

- O'zbekistonning o'z taraqqiyot yo'li, uning shart–sharoitlari, asoslari va o'ziga xos xususiyatlarini aks etuvchi bilimlar bilan qurollantirish;

- talabalar ongini, ijtimoiy ruhiyati va tafakkurini mustaqillik talablariga hamda bozor ehtiyojlariga javob beradigan tarzda tarbiyalash;

- milliy istiqlohning mehnatsevarlik, insonparvarlik, vatanparvarlik haqidagi buyuk g'oyalarni va milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarni talabalar ongiga singdirish;
- Prezident I.A.Karimov asarlaridagi nazariy qoidalar, dasturiy yo'riqlardan foydalanib, talabalarning g'oyaviy-siyosiy bilim saviyasini oshirish, ma'naviy dunyosini kengaytirish;
- milliy istiqlol g'oyalarini turmushga tadbqiq etuvchi, amaliy ishga, faol voqelikka aylantiruvchi etuk mutaxassislarni tarbiyalashni ta'minlash;
- mustaqillik sharoitida tanlangan ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotga erishish yo'llarini ma'naviy, mafkuraviy salohiyot tushunchasining mazmun mohiyatini ochib berish;
- milliy istiqlol mafkurasida yoshlarni, xalqimizni birlashtirish va yanada jipslashtirish;
- fuqarolarda demokratik jamiyat talablariga javob beradigan duneqarash, fikrlar xilma-xilligi, erkinlikni qadrlash, inson qadr-qiymati, sha'ni va or-nomusini hurmat qilish bilan bog'liq qadriyatlarni shakllantirish.

Bu vazifalar fuqarolarimizni mamlakatda ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish, demokratik qadriyatlarni hurmat qilish orqali ularni bunyodkorlik ishlariga safarbar etishda yaqqol namoyon bo'ladi. Bu fan ana shunday ulug' va bunyodkorlik ishlariga xizmat qiladi.

«O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti» fanining manbalari:

- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi;
- O'zbekiston Respublikasi qonunlari;
- O'zbekiston Respublikasi farmonlari va qarorlari;
- Vazirlar Mahkamasi qarorlari;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 1991–2008 yillarda chop etilgan 1–15 jildlik asarlari, «Bizning bosh maqsadimiz– jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir», «O'zbekiston demokratik taraqqiyotning yangi bosqichida», «Yangilanish va barqaror taraqqiyot yo'lidan yanada izchil harakat qilish, xalqimiz uchun farovon turmush yaratish–asosiy vazifamizdir» kabi ilmiy asarlari, ma'ruzalari, yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga bag'ishlab nashr etilgan kitoblar, monografiyalar, matbuot sahifalari va jurnallarda chop etilgan maqolalar, I. Ergashev va boshqalar tomonidan chop etilgan «O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti» va B.Aliev va boshqalar muallifligidagi «O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti» darsliklari metodologik manbalardir.

1.2. Ushbu fanning asosiy tushunchalari, qonuniyatlari va uning boshqa ijtimoiy – gumanitar fanlar orasida tutgan o'rni.

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fani O'zbekistonda mustaqil bilim sohasi sifatida ma'naviyatimizning tarkibiy qismi bo'lib shakllanayotgan hozirgi davrda uning qonunlari, kategoriyalari va tushunchalari yaxlit ilmiy tizimni yaratish vazifasi, dolzarb ilmiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Boshqa fanlarda bo'lgani kabi ushbu fanning o'ziga xos bo'lgan, mohiyati, mazmuni, asosiy ilmiy izlanishlarini yo'naltiradigan qonun, kategoriya va tushunchalari mavjud bo'lib, ular mazkur fan hamda bilim sohasining samarador va omilkor amal qilish jarayonlarini aks ettiradi.

Biz o'rganiyotgan fan o'z ichiga jamiyat hayotining barcha sohalariga tegishli keng qamrovli tushunchalarni olgan bo'lib, ular O'zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyatining shakllanishi, bunyod bo'lishi va amal qilishini nazariy va amaliy jihatdan asoslashga yordam beradi.Ularning uch ko'rinishda izohlash mumkin:

- ijtimoiy–gumanitar fanlarga tegishli bo'lgan umumiy tushunchalar. Masalan, jamiyat, tsivilizatsiya, erkinlik, huquq, qonun, madaniyat, taraqqiyot, demokratiya;
- ijtimoiy siyosiy fanlar bilan yaqin bo'lgan tushunchalar: huquqiy davlat, xususiy mulk, fuqarolik jamiyati, siyosat, siyosiy hokimiyat, siyosiy tashkilotlar, siyosiy tizim, siyosiy tartibot, siyosiy plyuralizm, siyosiy ong, siyosiy madaniyat va hokazolar;

Bevosita O'zbekistonning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib ishlatiladigan tushunchalar. O'zbekistonning o'ziga xos va mos taraqqiyot yo'li, demokratiya, dunyoviy davlat,

demokratik huquqiy davlat, demokratik jamiyat, demokratik ong, demokratik jamiyatning milliy–ma'naviy negizlari, milliy davlatchilik, demokratik jamiyatga o'tish davri, o'zbek modeli, demokratik jamiyatning umumbashariy qadriyatlari va tamoyillari, O'zbekistonda fuqarolik jamiyati qurilishining ustuvor yo'nalishlari, jamiyat hayotini erkinlashtirish va demokratiyalash, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot, O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan hamkorligi va hokazolar.

Quyidagi tushunchalar O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning asosiy mohiyatini o'zida aks ettiradi: O'zbekiston taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan boshqa mamlakatlarning tajribasini va shu bilan birga, respublikaning o'ziga xos xususiyatlari, yashash sharoitlari, an'analari, urf–odatlar, xalqning turmush tarzini hisobga oluvchi o'z yo'lidan maqsad sari dadil borishi, O'zbekiston Respublikasi demokratik davlat qurishining bosh yo'lidir.

«O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti» fani demokratik davlat fuqarolik jamiyatini qurishning mexanizmi, vositalari hamda amaliyotini o'rganishda muayyan qonunlarga tayanadi va amal qiladi. Fan qonuniyatlariga O'zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyatining shakllanishi, bunyod etilishi va amal qilishi bilan bog'liq qonuniyatlar kiradi. Bu o'rinda u umumiy qonuniyatlarga tayanadi va xususiy alohidalikni hisobga oladi.

Masalan, O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning o'ziga xos qonuniyatlari:

- demokratik jamiyat qurishda milliy xususiyatlarni hisobga olish qonuni;
- demokratik jamiyat qurishning milliy–ma'naviy qadriyatlar bilan bog'liqligi;
- o'ziga xos xususiyatlarni, O'zbekiston iqtisodiy, ijtimoiy–siyosiy hayoti bilan aloqadorligi

qonuni;

- O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning umumbashariy qonuniyatlari.

Fan amal qiladigan qonunlar ko'lemi turli xil bo'lib, mamlakat ichki hayoti, umumbashariy demokratik taraqqiyot xalqaro tizimlar bilan bevosita daxldordir. Jamiyat hayotining barcha sohalarini erkinlashtirish, jamiyatda demokratiya, fikr va vijdon erkinligi tamoyillarini, kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga o'tish, umuminsoniy qadriyatlarni qaror toptirishni nazarda tutadi.

Bu qonunlarni ikki guruhga ajratish mumkin:

Birinchisi, davlat hokimiyati va mamlakat ichki siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotida amal qiladigan qonunlar bo'lib, u o'z ichiga:

- a) jamiyat siyosiy, iqtisodiy hayotini erkinlashtirish;
- b) jamiyatni demokratiyalash asosida fuqarolik jamiyatini qurish;
- v) siyosat va ijtimoiy–iqtisodiy, madaniy, ma'rifiy hayot munosabatlari;
- g) shaxs, jamiyat va davlat tizimida inson manfaatlarining ustuvorligi.

Ikkinchisi, xalqaro munosabatlarda iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy–ma'rifiy aloqalar bilan bog'liq bo'lib ular:

- a) xalqaro xavfsizlik va o'zaro ishonchni rivojlantirish;
- b) xalqaro va davlatlararo ixtiloflarni bartaraf etishning siyosiy vositalari;

v) umumbashariy muammolarni bartaraf etishning siyosiy, iqtisodiy, madaniy yo'llari, turli mamlakatlar, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy hamkorlikni yo'lga qo'yish va rivojlantirish.

«O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti» fani o'rganadigan qonuniyatlarning asosiy guruhlari:

- demokratik davlat fuqarolik jamiyati haqidagi kontseptsiyalar va nazariyalarning paydo bo'lishi, amal qilishi va rivojlanish qonuniyatlarini;
- davlat xokimiyatining mazmuni va xarakterining o'zgarishi, kuchli davlatdan kuchli jamiyatga o'tish qonuniyatlari;
- mamlakat iqtisodiy hayotini erkinlashtirish va demokratiyalashtirish qonuniyatlari;
- milliy–ma'naviy negizga tayanish qonuniyatlaridan iborat.

Mazkur fan boshqa ijtimoiy–gumanitar fanlarning erishgan yutuqlariga, ular ishlab chiqqan tushuncha va kategoriyalarga, dalil va raqamlarga, bu fanlardan tabiati, mazmuni, harakat doirasi ochib berilgan mushtarak qonuniyatlarga ham tayanadi va foydalanadi.

Shunday qilib, ushbu fanning qonun, kategoriya, tushunchalari hozirgi kunda yaxlit bir tizimga kirib borayotgan va muayyan bir qolipga tushayotgan bir davrni qamrab oladi. Bu jarayon esa biz o'rganayotgan bilim sohasini tobora mustaqil fan va o'quv darsi sifatida shakllanib, mustaqil O'zbekiston fuqarolari ijtimoiy-siyosiy tafakkurida muhim sifat o'zgarishlar vujudga kelishiga, ular qurayotgan jamiyatning ilg'or, rivojlangan va jahon hamdo'stligidan munosib o'rin egallashiga xizmat qiladi.

«O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti» fani qator ijtimoiy va gumanitar fanlar bilan ya'ni, «O'zbekiston xalqlari tarixi», «Siyosatshunoslik», «Iqtisodiyot nazariyasi», «Bozor iqtisodiyoti», «Falsafa», «Sotsiologiya», «Davlat huquqi asoslari», «Ma'naviyat - ma'rifat asoslari» kabi fanlar qatoridan mazkur fanning ham mustahkam o'rin egallab borayotganligi tufayli yuqorida nomlari zikr etilgan barcha bilim sohalarining o'zaro hamkorligi, nisbatan munosabati masalalari o'ta dolzarb ahamiyatga molik bo'lib bormoqda.

Falsafa hamda uning o'zak qismi bo'lgan dialektika va bilish nazariyasi «O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti» fanining mustaqil fan o'quv darsi sifatida shakllanishida va rivojlanishida hal qiluvchi nazariy-metodologik ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, hozirgi kunda izchil va shiddatli sur'atlarda sodir bo'layotgan siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayot jarayonlarini ilmiy tadqiq va talqin qilishda dialektika mushtarak qonuniyatlarining hamda bilish nazariyasi uslublarining qo'llanishi muhim ijobiy samaralarga olib kelishi muqarrar.

Mustaqil O'zbekiston jamiyatining hozirgi va istiqboldagi rivojlanish muammolari bilan uzviy bog'liq holda ilm-fan, hamda ta'lim-tarbiya tizimida sotsiologiya tobora keng va chuqur ahamiyat kasb etmoqda. Sotsiologik tadqiqotlarning demokratik jamiyat faoliyatiga tobora keng tatbiq etilayotganligi biz o'rganayotgan fan ilmiy-nazariy muammolarining tobora izchil tarzda o'z echimini topayotganligida namoyon bo'lmoqda.

Turli g'oyalar va ta'limotlarning vujudga kelishi va rivojlanib borishi masalalari siyosiy tarix va fuqarolik tarixi erishgan va erishayotgan yutuqlar bilan chambarchas bog'liqdir. Ular ilmiy tadqiq qilib ishlab chiqqan tamoyillar O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fani tamoyillarining shakllanishi va amal qilishi uchun o'ta muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Ularda o'tmish saboqlari bilan hozirgi davr siyosiy-ijtimoiy hayoti muammolarini mutanosib tarzda taxlil etish orqali istiqbol taraqqiyoti yo'nalishlarini aniq va omilkor belgilab rejalashtirish jarayonlari siyosiy tarix va fuqarolik tarixi tadqiqotlarining asosiy xulosalariga hamoxang tarzda amal qilishi, umuminsoniy taraqqiyot qonuniyatlariga aylanib borayotganligi bejiz emas albatta.

Huquqshunoslik-adliyashunoslik bilim sohasi bilan mazkur fan tamoyillarining uzviy bog'liqligi ular o'rtasidagi ilmiy, nazariy, metodologik mutanosiblik qonuniyatlarining amal qilishidan kelib chiqadi. Demokratik jamiyatning huquqiy asoslari, uning ijtimoiy tenglik, jamiyatni davlat vositasida siyosiy boshqarish muammolari, tashqi siyosat yuritishda xalqaro huquq qoidalariga rioya etish zarurati masalalarini O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti hamda huquqshunoslik-adliyashunoslik fanlari doirasida hamkorlikda hal etilishi umuman olganda ilmiy qoida kuchiga ega. Mana shularning bari mazkur fanning birgalikda, hamkorlikda amal qilishini taqazo etadi.

Fuqarolik jamiyatini amal qilish sohalar orasida iqtisodiyot asoslarini ishlab chiqish va amaliy hayotga tatbiq etish etakchi faoliyat turi hisoblanadi. SHuning uchun ham mazkur fanning o'ta muhim mavzusi iqtisodiyot nazariyasi bilan uzviy aloqadorlikda bo'lib, mamlakat iqtisodiy kuch-qudrati zaminida ichki va tashqi siyosat yuritish tamoyillarini ham hamkorlikda ishlab chiqadilar.

Yuqorida bayon etilgan fikr-mulohazalardan shunday xulosa kelib chiqadi, O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar yutuq-xulosalariga tayanib, mazmunan boyib boradi va o'z navbatida o'zining ilmiy-nazariy yutuqlari, tamoyillari, xulosalari bilan ularni ham mazmunan boyitib boradi.

O'zbekistonda demokratik jamiyat barpo etishda jahon xalqlarining tarixiy tajribalari, xalqimizning boy va qadimiy merosi hamda sharqona turmush tarzining o'ziga xos jihatlari,

shuningdek, komil insonni tarbiyalash bilan bog'liq ilmiy-falsafiy qarashlar va amaliy tajribalarni ham kursning nazariy asosi sifatida o'rganish mumkin.

Shubhasiz, yuqorida tilga olingan masalalarni o'rganish va mulohaza qilish talabalarida yuksak ma'naviy fazilatlarini kamol toptirish, milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish, yoshlarni tarixiy an'analarga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalashda ko'maklashadi.

“O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fani inson manfaati, erkinligi va qadr-qimmatiga xizmat qiluvchi tinchlik, mehnat, ozodlik, birodarlik, adolat va baxt kabi umuminsoniy qadriyatlarga asoslanib, demokratik jamiyat qurishning umumbashariy ilg'or g'oyalarini amalga oshirishning qulay usul va yo'nalishlarini o'zida aks ettiradi.

Demak, “O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanining maqsadi talabalarimiz va keng jamoatchilikni Prezidentimiz asarlarida ilgari surilgan ilmiy g'oyalar bilan yaqindan tanishtirish hamda bu ta'limotlarni amaliy hayotga to'g'ri qo'llashga o'rganishdan, talabalarning intellektual kamolotga erishishlarida yordam berishdan iboratdir.

Fanning nazariy asoslari bu mamlakatimizda demokratik odil fuqarolik jamiyatini qurish yo'lida amalga oshirilayotgan ishlar, jamiyatda bo'layotgan tub o'zgarishlarning maqsad va mohiyatini, amalga oshirish usullarini to'g'ri anglashga, respublikada bo'layotgan iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'naviy va ma'rifiy o'zgarishlar jarayonining amaliy usullari majmuasini to'g'ri tushunib, bilib olishga yordam berishdan iboratdir.

Kelajak sari intilish, taraqqiyot va yuksalishning ta'minlanishi uchun respublikamizda amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlarning nazariy asoslarini, amaliy uslublarini tushunib olish va o'zlashtirish g'oyat muhim. Bu ayniqsa, ertaga mamlakatning kelajagi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olishi kerak bo'lgan bo'lg'usi mutaxassislar, umuman yoshlar uchun zarurdir.

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanining hozirgi kundagi ahamiyati va uning rolini ortib borayotganligini qanday izohlash mumkin?

- Ushbu fanni o'rganish hozirda jadal kechayotgan islohotchilik va yangilanish harakati davrida ijtimoiy ehtiyojgina emas, balki hayotiy zaruriyat hamdir;

- demokratik huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati qurish bilan bog'liq jarayonlarning mazmun-mohiyatini chuqur ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan o'rganishga bo'lgan qiziqishning ortirishidir;

- hozirgi davrda har bir fuqaroning siyosat bilan shug'ullanishiga bo'lgan ehtiyojining ortishi jadal ravishda yuz berayotgani demokratik jarayonlar bilan belgilanadi;

- mamlakatda tadbirkorlik faoliyatining avj olishi, uning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida tobora salmoqli bo'lib borayotganligi tadbirkorlik sub'ektlari zimmasiga chuqur bilish va ko'nikmalarni egallash mas'uliyatini yuklaydi;

- fuqarolarning siyosiy madaniyati va faolligini oshirish, jamiyatni ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy sohalarida bo'layotgan voqea va jarayonlarning mohiyatini chuqur anglab etish, demokratik jamiyatga xos bo'lmagan holatlarning oldini olish uchun uning asosiy kafolatlaridan biri mamlakatimizda fuqarolarning huquqiy va siyosiy faolligini rivojlantirish ehtiyojlarining ortishi;

- O'zbekiston jahon hamjamiyati safidan munosib o'rin olishi, xalqaro munosabatlarda umuminsoniy qadriyatlarning qaror topishi, terrorizmning o'ta xavfli xalqaro siyosiy hodisaga aylanayotgani ushbu holatni atroficha o'rganishni taqazo etadi.

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanining o'ziga xos xususiyati shundaki, uning nazariy, amaliy va tatbiqiy tomonlari dialektik hamda ajralmas birlikda o'z ifodasini topadi. Bu fan faqat nazariy xulosalar, ilmiy natijalar bilan cheklanib qolishi ob'ektiv ravishda mumkin emas, chunki ijtimoiy fanlar orasida eng harakatchan, tez sur'atlarda o'zgaruvchan bilim sohasidir. Uning nazariy yutuqlari amaliyotda tasdiqlanishi, samara keltirishi bilan uning ilmiy-metodologik zamini yanada mustahkamlanib boradi, amaliyotga tatbiq qilinishi zarur bo'lgan taklif va tavsiyanomalarni yanada ko'proq ishlab chiqara boradi hamda pirovardida odamlar uchun, ularning baxt-saodati uchun juda zarur, foydali, juda hayotiy fanga va bilish doirasiga aylanib boraveradi.

1.3 O'zbekiston zaminida adolatli jamiyat haqidagi g'oya, qarashlarning vujudga kelishi, manbalari va rivojlanishi.

Insoniyat tarixida davlat va turmushning turli jamoaviy birliklari paydo bo'lgandan boshlab adolatli va farovon jamiyat qurishga qaratilgan umid va orzular ham kurtak ochdi. Necha ming yillardan buyon turli xalqlar kishilik manfaatlari va ehtiyojlarini ro'yobga chiqarish uchun har tomonlama imkoniyatlar topishga qobil bo'lgan insoniy birlik—adolatli fozil jamiyatga intilib yashaganlar.

O'zbekiston hududida vujudga kelgan adolatli jamiyat haqidagi qarashlar uzoq tarixiy o'tmishga ega bo'lib, u eramizdan avvalgi to'rt minginchi yillarda vujudga kelgan. Dastlabki diniy va dunyoviy ta'limotlar "Avesto" (asli Avasto)-zardushtiylik (zaroastrizm) dinining muqaddas kitobida yoritilgan.

Eramizdan oldingi birinchi ming yillikda tugal holda shakllanib, o'zida Markaziy Osiyo xalqlarining eramizdan avvalgi to'rt ming yillik tarixini ifodalagan. «Avesto» mohiyatan demokratik g'oyalarni mujassamlashtirgan falsafiy tizimni ifodalaydi.

Zardushtiylik ta'limoti Markaziy Osiyo ibtidoiy jamoa davrida mavjud bo'lgan tabiat kuchlarini ilohiylashtiruvchi e'tiqodlarga nisbatan progressiv ta'limotdir. U behuda qon to'kuvchi, qurbonliklar, harbiy to'qnashuvlar, bosqinchilik hujumlarini qoralab, o'troq, osoyishta hayot kechirishga, mehnatga, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanishga da'vat etadi.

Mafkura jihatidan zardushtiylik g'oyat kuchli ta'limot bo'lib, u insonning ma'naviy, iqtisodiy va madaniy hayotini mutanosib holda progressiv rivojlantirishda katta imkoniyatlarga ega edi. Zardushtiylikda eng noyob g'oyalardan biri insonning tabiat bilan bir butunligi, tabiatni suyiste'mol qilish evaziga undan o'zini ayrim holda tasavvur qilib, hayot tarzini olib borganda inson farovonlikka erisha olmaydi, degan fikr mavjud bo'lib, bu ta'limotda zardushtiylar tabiatni, er, suv, daraxt, o'simlik, jonivorlarni e'zozlash, erni ishlab, sug'orib, bog'-rog', ekinzor qilishi, suvni muqaddas tutishi shart edi.

Yaxshi niyat, adolat, diyonat, qudrat, iroda kabi sifatlar zardushtiylik ta'limotida nazarda tutilgan ezgulikning yovuzlik ustidan hukumron bo'lishining ma'naviy omillaridir.

Zardushtiylikda Sharq tafakkuriga, o'zbek milliy dunyoqarashiga meros bo'lib kelgan muhim sifatlardan biri inson erki, ozodligi, o'zligini Vatan, tuproq, o'ziga tegishli bo'lgan hudud ozodligi orqali idrok etishdir.

Insoniyat doimo yaxshilikni yoqlab, yomonlikka qarshi kurashadi, yaratuvchanlik va bunyodkorlik unga xos bo'lgan buyuk fazilatlaridir. Bu o'zbek xalqiga ham xos bo'lgan fazilatdir.

Xalqimizning miloddan avvalgi VI-IV asrlarda Ahamoniy shohlari, 329-327 yillarda Iskandar Zulqarnayn, VII asrning oxiri VIII asrning boshida arab bosqinchilari, XIII asr birinchi yarmida mo'g'il istilochilariga qarshi kurash, o'z milliy davlatchiligini tiklash yo'lida olib borgan qahramonliklari buning yorqin dalilidir.

IX-XII asrlarda somoniylar, qoraxoniylar, g'aznaviylar, saljuqiylar, xorazmshoxlar sulolasi tomonidan mintaqada asos solingan davlatlar nafaqat o'zbek xalqi, balki jahon xalqlari tarixida ham chuqur iz qoldirgan. Muhammad Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy kabi allomalarning o'lmas asarlari jahon fanini boyitdi. Mutasavvufilar: Hoja Yusuf Hamadoniy, Ahmad Yassaviy, Abdulxoliq G'ijduvoni, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro; muhandislar: Imom Buxoriy, Imom Termiziyning ta'limotida aks etgan komil inson g'oyalari, adolat haqidagi qarashlar jamiyatning sog'lom ma'naviy - ahloqiy

ruhini saqlash va mustahkamlashga xizmat qildi. Bu g'oyalar Vatan va xalq manfaati yo'lida fidoiylilik va insonparvarlikni ulug'laydi. Ular milliy-ma'naviy qadriyatlar sifatida xalqimiz madaniyati, adabiyoti va san'atida, jumladan, Mahmud Qoshg'ariy, YUSuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Lutfiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Rumiy, Mirzo Abdulqodir Bedillar ijodida chuqur o'rin egalladi.

Sharqda, ya'ni Turonzaminda jamiyat rivoji va bunyodkorlik g'oyalari xususiyada Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy qarashlari o'ziga xos o'rin tutadi. «Al-muallim as-Soniy» («Ikkinchi muallim»), Sharq Aristoteli deb nom olgan Abu Nasr Forobiy (873-950 y.y.) o'zining «Fozil odamlar shahri», «Fuqarolik siyosati», «Baxt saodatga erishuv haqida» kabi asarlarida olijanob jamiyat, adolatli tuzum haqidagi o'z fikr - mulohazalarini bayon qilib, o'z davri uchun izchil ta'limot yaratdi. U har tomonlama etuk, barcha aholini baxt-saodatga, ilm-ma'rifatga olib boruvchi ideal jamoa haqidagi g'oyalarni olg'a surdi.

Abu Nasr Forobiyni «Risola fi arii aql al shabanat al-fadila» («Fozil shahar aholisining fikrlari») asari jamiyat haqidagi falsafiy, qomusiy asar bo'lib, u utopik xarakterdagi asar deb baholangan bo'lsada, undagi demokratik g'oyalar o'sha davr kishilarigagina emas, butun bir kelajak avlodni umuminsoniy demokratik taraqqiyotga yo'naltiruvchi kuchga egaligi, mohiyat-e'tibori bilan ko'rinib turibdi. Mazkur asarda insonparvar mutafakkir sifatida klassik jamiyatning urushlar, qashshoqlik, eksplutatsiyadan holi bo'lish, umumiy baxt, adolat g'alabasi, huquq tengligi, do'stlik, o'zaro yordamlashish, bir-birini hurmatlash, yuksak madaniyatga ega bo'lgan er kurrasini yaxlit jamiyat sifatida tasavvur etadi.

Jamiyat hayotining barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirayotgan vatandoshlarimiz uchun buyuk mutafakkirning quyidagi o'g'itlari o'ta qadrlidir. «Insoniy vujudan maqsad-eng oliy baxt-saodatga erishuvdir, avvalo, baxt-saodatning nima va nimalardan iborat ekanligini bilishi, unga erishuvni o'ziga g'oya va eng oliy maqsad qilib olish, butun vujudi bilan maftun bo'lishi kerak». Buyuk mutafakkir talqinini chuqur anglagan har bir kishiga ma'lumki, inson o'zining maqsad va vazifalarini faqat ma'rifatchilik faoliyati bilangina tasavvur qila oladi.

O'zbek milliy ma'naviy va demokratik tafakkur taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan allomalardan biri, dunyo ilm fani taraqqiyotida muhim o'rin tutgan alloma Abu Ali ibn Sinodir (980-1037 y.y.). Ibn Sino ijodida gumanistik xarakterdagi demokratik g'oyalar o'ziga xos xususiyatga ega bo'lish, Forobiy falsafiy ta'limoti kabi sotsiologik kontseptual xarakter kasb etmagan. Ibn Sino ko'proq inson ozodligi va farovonligi masalalari, ma'naviy-ruhiy omillar bilan o'lchanadi deb ta'kidlagan. Allomaning bizgacha etib kelgan 240 ta asaridan aksariyati tibbiyot va falsafa sohalariga tegishlidir. Mazkur asarlarning mohiyatida inson farovonligi, baxti, kamolati, uning ruhiy takomillashuvi orqali jismoniy kamolatga erishuvi va uning natijasida ruhan-jisman sog'lom insonning oliy baxt, ilohiy borlikni anglagan saodati g'oyasi yotadi.

Xulosa qilib aytganda Abu Ali ibn Sinoning komil insonni shakllantirishga doir qarashlarida ilk uyg'onish davrimutafakkirlari kabi ma'naviy qadriyatlarning moddiy hayot qadriyatlaridan ustun qo'yishga moyillik kuchliligi sezilib turadi.

Albatta, hozirgi davrga kelib, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar fuqarolik jamiyatini shakllantirish omillaridan biri sifatida o'zini namoyon qilganligi mutafakkir ilgari surgan g'oyalarning nechog'lik ahamiyatga molik ekanligini bildiradi. Zero, zamonaviy jamiyat va davlatni ma'naviyat va axloqiy qadriyatlar asosida barpo etish mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning eng muhim va ustivor tamoyillaridan biridir.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048 y.y.) ijodiyotidagi jamiyatga oid fikrlarda ham o'z davri uchun g'oyat progressiv bo'lgan demokratik yo'nalishdagi qarashlarni ko'rish mumkin. Beruniy aniq fanlar sohasida insoniyatga qanchalik yangilik va kashfiyotlar bergan bo'lsa, gumanitar fan sohalarida ham o'chmas iz qoldirdi.

Beruniy ta'limotida kishilik jamiyatining farovonligi va tengligi masalasi ko'rib chiqilgan, unga asosan ilm-fan insonni farovonlikka olib boruvchi, jamiyat rivojini tezlashtiruvchi omildir, hukumdorning vazifasi yuqori va quyi tabaqa vakillari o'rtasida adolat o'rnatish, kuchli va ojizlar o'rtasida tenglikni barqaror etishdan iborat. Allomaning fikricha, jamiyat tinchligining garovi tenglik va ijtimoiy adolatdir, tenglik hukumron erda qayg'u va nohaqlik barham topadi. Beruniy o'z asarlarida jamiyatdagi oliyanoblik, oliyximmatlik, mardlik kabi xususiyatlar faqat aslzodalarga taalluqli degan chirik tushunchani keskin tanqid qilib, rad etadi.

O'zbek tili va ma'naviy qiyofasi, tafakkur tarzi, madaniyatining shakllanishida alohida o'rin tutgan alloma Alisher Navoiy (1441-1501 y.y.) bo'lib uning ijodiyoti asosida insoniyat jamiyatining asosiy omili bo'lgan inson, uning baxt-saodati, ma'naviy qiyofasi masalasi yotadi.

Alisher Navoiy falsafasida ideal davlat haqidagi siyosiy nazariya komil inson haqidagi ahloqiy nazariya bilan uzviy bog'liqlikda olib qaralgan

Bu ta'limotga asosan ideal farovon davlat bu davlatda yashovchi kishilarning komil ma'naviyatsiz bo'lishi mumkin emas. Demak, ilg'or G'arb demokratik nazariyatlarida faqatgina XIX-XX asrlarda shakllangan bu kabi nazariya Alisher Navoiy davrida o'zining kontseptsiya shaklidagi ko'rinishiga ega edi. Alisher Navoiy yaratgan ideal jamiyat haqidagi ta'limotni yana shuning uchun ham kontseptsiya deb olib qarash mumkinki, alloma bunday jamiyatga borishning amaliy uslublarini ham o'z asarlarida badiiy obrazlar orqali ko'rsatib bera olgan. Alisher Navoiy insoniyatni «Axli ma'ni» va «Axli suvrat»dan iborat deb ko'rsatadi. «Ahli ma'ni» yuksak tafakkur sohiblaridir. Bu toifaga mansub bo'lishi uchun inson erkin, dovyurak, haqiqatparvar, burch va mas'uliyatni his etuvchi, kamtar, kuch va tazyiq ishlatishdan holi, xalq va din uchun fidoyi, imonli, hayoli o'zga insonlar uchun hamdard, har qanday zulmga qarshi bora oladigan, adolat oldida har qanday boylik, izzat, nafs va manfaatlaridan voz kecha oladigan, o'z fikriga ega bo'lishi lozim.

Alisher Navoiy zamondoshi, Husayn Voiz Koshifiy (1440-1505 y.y.) o'z davridagi jamiyat va davlat tizimini tahlil qilar ekan, jamiyat barqarorligini, uning a'zolari o'rtasida adolat va insoniylik qadriyatlarini yuksalishi hukumdor va davlat mansabdorlarining ma'naviy boyligi bilan bog'laydi. Bu qadriyatlar hozirgi davr uchun ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Amir Temurning «Temur tuzuklari», Nizomulmulkning «Siyosatnoma» kitoblarida davlat idorasi va ahli fuqaroga munosabatda adolat, insof, diyonat, el-yurt tinchligi va obodligi bosh g'oya sifatida ilgari surilgan. Bu g'oyalar Temuriylar davlati g'oyaviy tamoyillarining ustuvor yo'nalishi edi.

Ko'hna Turon o'z boshidan kechirgan buyuk tarixiy voqealar ichida Amir Temurning bunyodkorlik g'oyalari va amaliy faoliyati katta ahamiyatga ega. U garchi fothlar qatoridan o'rin olib, behisob jangu-jadallarni boshidan kechirgan bo'lsa-da, asosiy maqsadi bunyodkorlik va yaratuvchilik bo'lgan. Jumladan, u «Temur tuzuklari»da: «Agar fuqarodan birining uy-imorati buzilib, tuzatishga qurbi etmasa, kerakli uskunalarni etkazib berib, unga yordam berilsin», deb ko'rsatma beradi. SHu o'rinda, yurtboshimizning Amir Temur o'z davlatini aql-zakovat va huquqiy asos bilan idora etgan, desak, adolatdan bo'ladi, degan fikrlari nihoyatda o'rinlidir. Zero, Sohibqironning Movarounnahr, Xuroson va boshqa joylarda bunyod etgan inshootlari, uning o'zi va temuriylar sulolasi davridagi madaniyat, fan, adabiyot sohasidagi yutuqlar bunga misol bo'la oladi.

XVII-XIX asrlarda umummilliy manfaatlar o'rniga tor va cheklangan, shaxsiy va sulolaviy manfaatlar ustun qo'yilishi, jamiyat hayotida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash va ilm-ma'rifatni rivojlantirishga etarlicha e'tibor berilmagani o'zbek davlatchiligining tanazzulga yuz tutishiga, mustaqillikning qo'ldan berilishiga, Turkistonda

mustamlakachilik tuzumi o'rnatilib, pirovardida milliy davlatchilikning yana bir bor tugatilishiga olib keldi. SHunga qaramasdan, chuqur tarixiy ildizlarga ega bo'lgan milliy g'oyalar tamomila yo'q bo'lib ketmadi. Aksincha, mustamlakachilik sharoitida ular milliy davlatchilikni tiklash, milliy taraqqiyot va istiqbol uchun kurash bayrog'i sifatida yana ilgari surila boshladi.

Bu intilishlar XIX asrda ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan chiqqan Ahmad Donishning ilg'or qarashlarida, Qonida erklikka, mustaqillikka bo'lgan intilish xamon yashab, jo'sh urib kelayotgan turkistonliklarning mustamlakachilik zulmiga qarshi kurashi bir daqiqa bo'lsa ham to'htamadi.

Mustamlakachilik zulmi va siyosatining o'zi XIX asr oxiriga kelib, Turkistondagi mahalliy musulmon xalqlari uchun «yo hayot, yo mamot» masalasini yuzaga keltirdi. Jadidchilik harakatining yirik namoyondasi Abdulla Avloniyning «Tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir», - deb aytishi bejiz emas edi.

«Jadid» so'zi arabcha «**yangi**» degan ma'noni anglatadi. Shuning uchun ham tarixda yangi usuldagi maktablar «Jadid maktablari», ularning ijodkor va tashkilotchi hamda tarafdorlari «Jadidlar» deb nomlandi. Jadidlarning umumiy dunyoqarashi va fikr-maslak birligi, ilmiy-pedagogik va adabiy- badiiy, ijodiy hamda amaliy faoliyati asosida yuzaga kelgan madaniy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy va demokratik harakat «Jadidchilik» deb ataldi.

Jadidlar mustaqillik va istiqbolga erishishning moddiy va ma'naviy zaminini yaratish masalasiga alohida e'tibor berdilar. Ular mahalliy sanoatni rivojlantirish, milliy banklarni ochish yo'llari, sug'orish inshootlarini qurish, qishloq xo'jaligini, ichki va tashqi savdoni taraqqiy ettirish, mamlakatdan foydali, qazilma va boshqa boyliklarni tashib ketilishini cheklash va tayyor mahsulotni eksport qilishga erishish, ishlab chiqarishga fan-texnika yutuqlarini olib kirish kabi dolzarb muammolarni ko'tarib chiqdilar.

Jadidlar mamlakatning ozodligini, mustaqilligini zamonaviy bilimlar bilan qurollangan etuk mutaxassislersiz tasavvur eta olmadilar. Shu munosabat bilan mahalliy xalqning bolalaridan zamonaviy kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor berdilar. Bu masalani hal etish uchun jadidlar maxsus jamiyatlar, jamg'arma fondlari tuzdilar.

Eski maktabda bolalar o'qish va yozishni 5-6 yilda o'rganib, savod chiqarsa, jadid maktablarida buning uchun o'rta maktabda ikki yil va hatto 6 oy kifoya qilardi. Bu maorif sohasidagi behad katta kashfiyot edi.

Jadid maktablari, darsliklari va ularda o'qitish jarayoni milliy ruh va milliy ozodlik mafkurasi asoslariga bo'ysundirilgan edi. SHuni ham aytish kerakki, jadid maktablari yosh avlodga faqat milliy ruhnigina emas, balki umuminsoniy qadriyat va baynalmilalnikni ham singdra boshladi.

Turkistonda sho'ro hokimiyati, kommunistlar xukumronligi o'rnatilgach, jadidchilik harakatining yangi davri boshlandi. SHuni alohida ta'kidlash lozimki, sho'ro adabiyotida jadidchilikning bu davri haqida qariyb xech nima aytilmadi. Aniqrog'i aytishga ma'lum maqsadni ko'zlab imkon berilmadi.

Munavvarqori Abdurashidxon o'g'li boshliq sobitqadam jadidlar esa sho'ro hukumati va kommunistik targ'ibot-tashviqotga qarshi uyushgan holda mustaqillik kurashini o'tgan asrning 20-yillari oxirlarigacha uzliksiz davom ettirdilar. Buning uchun ular avvalo, bol'shevistik «ilg'or» va «millatparvar» siyosatning o'zidan foydalandilar.

O'zbekistonda jadidlar sho'ro hokimiyati o'rnatilishi bilanoq ta'qib va qatag'on qilina boshladi. 20-yillar oxiridan 30-yillar oxirigacha bu ommaviy tus oldi. Jadidlar asosan «burjua mafkurachisi», «millatchi», «xalq dushmani», «aksilinqilobchi» deb aybladilar.

Xulosa shuki, jadidchilik ongli harakat. Shuning uchun ham u kuchlar nisbatini to'g'ri hisobga olgan holda o'zining bosh strategik maqsadi-jamiyatni taraqqiy ettirish uchun maktab, ma'rifat, matbuot, adabiyot, maorif va madaniyatdan taktik yo'l sifatida foydalandi.

Jadidchilik harakatining maqsad va mohiyati uning shioridan ham ma'lum. O'z davrida millatga ma'naviy-mafkuraviy ota bo'lgan Munavvarqorining ko'rsatishicha, jadidlarning eng yaxshi ko'rgan shiori «Ozodlik», «Tenglik» va «Adolat» bo'lgan.

Shunga qaramay, jadidchilik ongli madaniy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy, mustamlakachilikka qarshi antifeodal va demokratik harakat bo'lgan edi.

U ijtimoiy adolat, tenglik va ozodlik uchun istiqlol bayrog'ini baland ko'tarib kurashdi. Vatan va millatning ozodligi uchun kurashda engildi, biroq tarixda ibratli tajriba qoldirdi.

XX asr boshida yuzaga kelgan jadidchilik harakatining taraqqiyparvar namoyandalari- Behbudiy, Fitrat, CHO'lpon, Munavvar qori, Abdulla Avloniy ijodi va faoliyatida yanada jo'jqa tutib oldi. Jadidlar Turkistondagi xalqlarni birlashtirish va butun o'lkaning milliy mustaqilligi uchun kurash g'oyasini ilgari surdilar. Turkistonda bosqinchi qizil armiya va sovet tuzumiga qarshi ko'tarilgan istiqlochlilik harakatining mafkurachilari ham aynan jadidlar bo'ldilar. Biroq, mustabid sovet tuzumi bu g'oyalarga qarshi g'ayriinsoniy mafkurani ilgari surib, xalq manfaatlarini inkor etdi. Bu g'oyalar real hayot tabalariga javob bermas, xalqning an'anaviy turmush tarziga, jamiyat taraqqiyoti qonunlariga mutlaqo zid edi. Ular milliy istiqlolni tan olmas, milliy qadriyatlarni toptar, diniy e'tiqodga qarshi kurash asosiga qurilgan edi. Lekin, mustabid xukumat ularni xalqqa tan oldirish uchun jon - jahdi bilan kurashdi. Bu siyosat ayovsiz kurashlar, ta'qib, tazyiq va zo'ravonliklardan iborat edi. O'sha yillardagi mash'um qatag'onlar bu kurashning fojeali namoyon bo'lishi edi.

Xulosa qilib aytganda, Vatanimizda yashagan buyuk mutafakkirlarning ilmiy merosi va amaliy faoliyatlari nafaqat milliy qarashlarimizning tarixiy-nazariy ildizlarini tashkil etadi, balki, ularning ilmiy merosi hozirgi davrda fuqarolik jamiyati qurish sohasidagi islohotlarda paydo bo'layotgan ko'plab muammolarni bartaraf etishga xizmat qiladi. SHuningdek, ular qoldirgan boy meros mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni tashkil etishning ma'naviy-ahloqiy manbalari bo'lib xizmat qiladi.

1.4. Mustaqillik va O'zbekistonning demokratik o'zgarishlar sari yo'l tutishi.

80-yillarning oxirida O'zbekistonda qilingan har bir ish, qo'yilgan har bir qadam mustaqillikni ta'minlash uchun bo'ldi. Mustaqillik sari qo'yilgan eng muhim siyosiy, huquqiy qadam 1990 yil 20 iyunda O'zbekiston SSR Oliy Sovetining ikkinchi sessiyasida «Mustaqillik Deklaratsiyasi» ning qabul qilinishi bo'ldi. Bu Deklaratsiyada shunday deyiladi: «Xalqaro huquq qoidalariga, umumbashariy qadriyatlarga va demokratik printsiplarga asoslanib, O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qiladi. O'zbekiston SSR Oliy Soveti umumxalq muhokamasi asosida demokratik, huquqiy davlat tuzishga qaror qilganini bildiradi». Bu O'zbekistonni yangi yo'ldan mustaqil ravishda, o'z taqdirini o'zi hal qilgan holda borishini bildiruvchi qat'iy qaror edi.

SHu kundan boshlab respublikada O'zbekistonning iqtisodiy va siyosiy hayotiga doir masalalar mustaqil tarzda hal qilina bordi.

Bu borada ba'zi misollarni keltirish mumkin. Jumladan, 1991 yil 22 iyulida O'zbekiston SSR Oliy Kengashi Prezidiumi «O'zbekiston SSR hududida joylashgan, ittifoqqa bo'ysunuvchi davlat korxonalari, muassasalari va davlat tashkilotlarini «O'zbekiston SSRning huquqiy tobeligiga o'tkazish to'g'risida» Qaror qabul qilib, jumladan, unda

«O'zbekiston SSRning «Mustaqillik Deklaratsiyasi»ga amal qilib, bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida mehnat jamoalari manfaatlarini himoya qilish va uning xo'jalik mustaqilligini ta'minlash maqsadida respublika hududida joylashgan, ittifoqqa bo'ysunuvchi davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlari O'zbekiston SSRning huquqiy tobeligiga o'tadi», – deb qayd qilindi.

O'tgan asrning 80–yillarining ikkinchi yarmi mobaynida respublikaning iqtisodiy–siyosiy mustaqilligini qo'lga kiritish borasida ham katta ishlar qilindi. Masalan, 1989 yil 21 oktyabrda o'zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. O'zbekiston SSR Oliy Sovetining 1989 yil 25 noyabrda bo'lgan yig'ilishida «O'zbekiston SSRni iqtisodiy va sotsial rivojlantirishning 1990 yilgi Davlat plani to'g'risida»gi masalani muhokama qiladi, unda respublikaning iqtisodiy mustaqilligiga oid muhim tadbirlar belgilandi. SHu o'rinda hali mustabid tuzum davrida «O'zbekiston byudjetini shakllantirish printsiplari haqida deklaratsiya» (1990 yil 10 noyabr') qabul qilinganligini mustaqillik yo'lida tashlangan navbatdagi muhim qadam sifatida baholash mumkin.

O'zbekiston SSR Oliy Sovetining 1990 yil 24 martida bo'lib o'tgan sessiyasida boshqaruv tizimini tubdan isloh qilish va prezidentlik lavozimini ta'sis etishga oid qaror qabul qilindi. Bu hujjatda, jumladan, shunday satrlar bor:

«Demokratik jarayonlarni yanada rivojlantirish, siyosiy o'zgarishlarni chuqurlashtirish, konstitutsion tizimni, fuqarolarning huquqlarini, erkinliklari va xavfsizligini mustahkamlash, O'zbekiston SSR davlat hokimiyati va boshqaruvi oliy organlarining o'zaro aloqasini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Oliy Soveti **qaror qiladi:**

«O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining Prezidenti lavozimi ta'sis etilsin!».

Qaror matniga jiddiyoq e'tibor beraylik. Unda quyidagilarni ko'rish mumkin:

Birinchidan, demokratik jarayonlarni yanada chuqurlashtirish ham, siyosiy jarayonlarni takomillashtirish va konstitutsiyaviy tizimni mustahkamlash ham mantiqan tom ma'nodagi mustaqillikni talab etadi va uning zahirida markazga bo'ysunmaslik, o'z taqdirini o'zi belgilash tamoyili yotadi. Zotan, qaysidir darajada bo'lmasin, eng kichik masalalar bo'yicha ham kimgadir tobe bo'linsa, yuqorida aytilgan talablarning birontasiga ham erishib bo'lmaydi.

Ikkinchidan, O'zbekiston SSR davlat hokimiyati va boshqaruvi oliy organlarining o'zaro aloqasini takomillashtirish–bu, bevosita partiya yakkahokimligini bartaraf etish, demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish, xalq va hokimiyat, fuqaro va davlat o'rtasidagi munosabatlarni yaqinlashtirish, ya'ni jamiyatda sog'lom ijtimoiy–siyosiy, ma'naviy–ruhiy muhitni qaror toptirish, uni asta–sekinlik bilan turmush tarziga aylantirish imkoniyati, demakdir. Bu esa pirovardida respublika o'z taraqqiyot yo'lini ishlab chiqadigan va uni amalga oshiradigan Prezident lavozimini joriy etishni taqozo etadi.

Tarix haqiqatini tiklash, asrlar mobaynida shakllangan an'analar va urf–odatlarimiz, qadriyatlarimizni joy–joyiga qo'yish uchun, eng avvalo, siyosiy va huquqiy jihatdan mustaqillik kerak edi. Aks holda, totalitar tuzum tish–tirnog'i bilan ittifoqdosh respublikalar va kichik xalqlarga zug'um qilayotgan bir paytda bu xususida gapirish xom xayoldan boshqa narsa emas edi. Ana shu nuqtai nazardan Prezidentimiz O'zbekistonni tom ma'noda mustaqil mamlakat sifatida tan oldirish yo'lini tutdi. SHuning uchun ham respublikada prezidentlik

boshqaruvi tizimini joriy etganidan keyin ko'p o'tmay «Mustaqillik Deklaratsiyasi»ni qabul qilishni O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Oliy Sovetidan so'radi.

1990 yil 18 iyunda bo'lib o'tgan XII chaqiriq respublika Oliy Sovetining ikkinchi sessiyasi "Mustaqillik Deklaratsiyasi" qabul qilishni kun tartibiga kiritishni va kechiktirmasdan shu sessiyada uni qabul qilishni so'radi.

«Mustaqillik deklaratsiyasi» deputatlar tomonidan moddama–modda, bandma–band muhokama etilgandan so'ng qabul qilindi.

«Mustaqillik deklaratsiyasi»ning kirish qismida shunday so'zlar yozib qo'yilgan:

Xalqining davlat qurilishidagi tarixiy tajribasi va tarkib topgan boy an'analari, har bir millatning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini ta'minlashdan iborat oliy maqsadi haqi, O'zbekistonning kelajagi uchun tarixiy mas'uliyatni chuqur his etgan holda xalqaro huquq qoidalariga, umumbashariy qadriyatlarga va demokratiya tamoyillariga asoslanib, O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qiladi».

Kun tartibida muhim masala–O'zbekiston Mustaqilligi haqida qonun qabul qilish turar edi. Chunki, har bir milliy jumhuriyatning chinakam teng huquqliligi va mustaqilligi ta'minlangandagina tanazzuldan chiqish mumkin edi. Buning uchun haqiqiy mustaqillik yo'lidagi barcha to'siqlar olib tashlanishi, har bir jumhuriyat so'zda emas, balki amalda tenglar orasida teng bo'lishi lozim edi.

Ana shu maqsadni ko'zlab, jumhuriyat Oliy Kengashining XII chaqiriq navbatdan tashqari sessiyasi 1991 yil, 31 avgustda o'z ishini boshladi.

Oliy Kengash deputatlari «O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini e'lon qilish to'g'risida» Qaror qabul qilgach, «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida Oliy Kengash bayonoti»ni moddama–modda muhokama qilganidan so'ng «O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining asoslari to'g'risida»gi Qonunini qabul qildilar. O'zbekiston SSRning nomi «O'zbekiston Respublikasi» deb o'zgartirildi. 1 sentyabr' 1991 yildan boshlab «Mustaqillik kuni» sifatida milliy bayram va dam olish kuni deb e'lon qilindi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi haqidagi bu hujjatlar o'zbek xalqi asriy orzusi ro'yobga chiqqanligining huquqiy ifodasi bo'ldi.

O'zbekiston erishgan mustaqillikni mustahkamlashda xalq tomonidan uning ma'qullanishini hisobga olib, mamlakatda referendum o'tkazishga qaror qilindi. 1991 yil 18 noyabrda Oliy Kengash VIII sessiyasi O'zbekiston Respublikasi referendumini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qildi. SHunga muvofiq 1991 yil 29 dekabrda: «Siz O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat deb e'lon qilinishini ma'qullaysizmi?»–mavzuida referendum o'tkazildi. O'zbekiston Respublikasining mustaqil davlat deb e'lon qilinishini yoqlab, referendumda qatnashganlarning 98, 2 foizi ovoz berdi.

O'zbekiston mustaqil respublika deb e'lon qilinishi faqat mamlakat xalqi emas, balki jahon jamoatchiligi tomonidan ham qoniqish bilan kutib olindi. Buni mustaqillik kunlarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga kelgan tabriklardan ham bilsa bo'ladi. Jumladan, AQSHning o'sha paytdagi Prezidenti Jorj Bush I.A.Karimov nomiga yuborgan telegrammada shunday deydi: «Qadrli janob Prezident! SSSR tarqalgandan so'ng, Sizning mamlakatingizda yuz bergan tarixiy o'zgarishlar munosabati bilan shuni ma'lum qilamanki, Amerika Qo'shma SHtatlari O'zbekistonni mustaqil davlat sifatida tan oldi».


Mustaqillikka erishilishi bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga demokratik me'yor va tartibotlarga to'la mos keladigan umumxalq saylovi o'tkazildi.

1991 yil 29 dekabrda ommaviylik, tenglik va yashirin ovoz berish yo'li bilan to'g'ridan-to'g'ri saylash huquqi asosida tarixda birinchi marta O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga muqobillik asosida umumxalq saylovi bo'lib o'tdi.



1995yil 26martda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolat muddatini 1997 yildan 2000 yilgacha uzaytirish masalasi bo'yicha umumxalq referendumini bo'lib o'tda.


2002 yil 27 yanvardan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy vakolat muddatini 5 yildan 7 yilga uzaytirish bo'yicha referendum o'tkazdi.

Ushbu referendumga ko'ra 2007 yil dekabrda bo'lib o'tgan umumxalq saylovlarida Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga qayta saylandi. pirovardida odamlar uchun, ularning baxt-saodati uchun juda zarur, foydali, juda hayotiy fanga va bilish doirasiga aylanib boraveradi



«O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti».





MILLIY MUSTAQILLIK UCHUN KURASH BOSQICHLARI.

Birinch bosqich
1860-1904 yillar

Mustamlakachilik asoratiga tushilishining ijtimoiy-siyosiy saʼbaʼlarini ochib beruvchi manbalarni oʻrganilish orqali shu davrdagi milliy tarqoqlik, davlat boshqaruvi ishlarida maʼrifatsizlik, mahalliy amaldorlarning nafs va riyokorlik botqogʻiga botganligi.

Ikkinchi bosqich
1904-1918 yillar

Turkiston milliy davlat mustaqilligi uchun kurashda ozodlik harakatlarining oʻziga xos xususiyatlari hamda shart-sharoitlarini siyosiy jihatdan tahliliga eʼtibor qaratish. Bunda jadidlarning mustaqillik uchun kurash gʻoyalari nazarda tutiladi.

Uchinchi bosqich
1918-1991 yillar

Milliy mustaqillik uchun kurash. “Qoʻqon muxtoriyati” va uning magʻlubiyati. Oʻzbek ziyoliylarining mustaqillik uchun olib borgan kurashi 30-40 yillarda, soʻngra 50-60 yillarda turli koʻrinishlarda amalga oshganligi. XX asrning 80-yillaridagi “Oʻzbeklar ishi”, “Paxta ishi”, 1990 yil 24 mart I.A.Karimov Oʻzbekistonning Prezidenti boʻlib saylanishi. 1991 yil 31 avgust Oʻzbekiston Respublikasining mustaqilligi eʼlon qilindi.

MUTAFAKIRLARNING ADOLATLI JAMIYAT HAQIDAGI QARASHLARI.

Abu Nasr Forobiy (873-950 yy) “Sharq Aristoteli” nomini olgan qomusiy olim. 160 dan ortiq asarlar yaratgan. “Mantiqqa kirish kitobi”, “Isbot kitobi”, “Falsafara izohlar”, “Musiqqa haqida katta kitob”, “Inson a’zolari haqida kitob”, “Lug’atlar haqida kitob”, “Shaharni boshqarish”, “Fazilatli xulqlar” kabi asarlari jahon madaniyatiga qo’shilgan katta hissadir.

Abu Ali ibn Sino (980-1037 y.y) O’rta Osiyo tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy fikrlarining buyuk namoyondasi, tibbiyot, falsafa, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy ta’limot tarixiga ulkan hissa qo’shgan mutafakkirdir. Uning “Ishorat va Tanbihot”, “Risolatu tadbiri manzil”, “Qush tili” kabi asarlari bevosita davlat boshqaruvining adolatini arvar va axloqiy asoslariga bag’ishlanadi.

Alisher Navoiy (1441-1501 yy) O’zbek mumtoz adabiyotining asoschisi, mutafakkir va davlat arbobi. O’zbek tili jozibasini o’z “Xamsa”si bilan butun olamga ko’rsatgan buyuk so’z san’atkori. “Badoyi ul-bidoya”, “Navodir ul-nihoya”, “Zubdud ul- tavorix”, “Chor kitob”, “Majolis un-nafois”, “Mahbub ul-qulub” kabi asarlarni ham bizga meros qilib qoldirgan.

Mahtumquli (1733- 1782 yy) turkman klassik adabiyotining otasi, zabardast lirik shoir va mutafakkir. U ezilgan mehnatkash ommaning zulm va zo’ravonlikka qarshi noroziligini ifodalovchi “Zamonlar”, “Axtardi”, “Ko’inning hayoti” she’rlarida turkman qabilalarining birlashuvini, adolatli davlat tuzishini orzu qilgan. Uning poeziyasida vatannarvarlik g’oyalari kuchlidir.

Ahmad Donish (1827-1897 yy) uning siyosiy qarashlari Buxoro amirligida davlat tuzilishini isloh qilish zarur deb hisoblaydi, o’zi tuzgan loyihada davlat bir guruh kishilarga emas, balki butun xalq manfaatlariga xizmat qilishi kerak.

Avaz O’tar (1884- 1919 yy) Xorazmning isyonkor shoiri. U. “Hurriyat”, “Til”, “Xalq”, “Maktab” kabi she’rlarida millat taqdirini va kelajagini yangicha talqin etadi.; Xalq tushunchasiga keng ma’noda qarab, uni rivojlangan millatlar bilan tenglashtirishga da’vat etadi.

Furqat (1859-1909 yy) ma’rifatparvar shoir. U xalq baxt saodatini ilm-madaniyatni egallashda ko’radi. U xalq fojeasining, og’ir va musibatli hayotining birdan-bir sababini nodonlik, jaholat deb biladi. Shuning uchun zo’r ehtiros va g’ayrat bilan xalq o’rtasida ilm-ma’rifat va madaniyatni targ’ib qilishga kirishadi

Muqimiy (1850-1903 yy) o’z qarashlarini satira va hajviyalarida aks ettirgan. (“Tanobchilar”, “Maskovchi 6oy ta’rifidan”, “Avliyo” va boshqalar) Muqimiy jamiyatdagi butun hodisalarni xalq nuqtai nazaridan baholab uning manfaati uchun tinmay kurashgan

Jadidchilik harakati-ma'rifatchilik g'oyasi sifatida

“Jadid” arabcha yanri deran ma’noni anrlatadi. Yanri usuldari maktabalar -“Jadid maktablari”

Jadidlarning umumiy dunyoqarashi va fikr–maslak birliri, ilmiu pedagogik va adabiy-badiiy, ijodiy hamda ilmiy faoliyat asosida yuzaga kelgan madaniy–ma’rifiy, ijtimoiy–siyosiy va demokratik harakat “jadidchilik” deb ataladi.

Jadidchilikning bosh straterik maqsadi Vatanni ozod qilish, millatni ijtimoiy g’aflat uyqusidan uyg’otish va jamiyatni taraqqiy ettirish uchun maktab, ma’rifat, matbuot, adabiyot va madaniyatdan taktik yo’l sifatida foydalanish.

Jadidchilik harakatining shiori «Ozodlik», «Tenrlik» va «Adolat”.

Jadidchilik harakati asoschilari: Mahmudho’ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxon o’g’li, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho’lpon, Ubaydullaho’ja Abdullaho’jaev, Toshpo’latbek Norbo’tabekov va boshqalar.

Qisqa xulosalar

Mustaqilligimizning dastlabki o’n olti yilligini o’z ichiga olgan tarixan qisqa davrda mamlakatimiz hayotida odamlar turmushida keskin burilish yasaldi. Turmush tarzimiz o’zgardi, tafakkurimiz kengaydi.

Mustaqillik yillari ijtimoiy siyosiy - jarayonlarni tezkorligi, voqea va hodisalarning shiddatligi, inson taqdiriga daxldor bo’lgan dunyoviy muammolar serqirra hayotning barcha jabhalarini qamrab olgan umumiy qarashlarimizdan tortib, eng kichik yumushlarimizgacha bo’lgan barcha hodisalarni o’zida mujassam etadi.

«O’zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti» fani aynan shu asosda qurilgan bo’lib, unda O’zbekistonning davlat mustaqilligiga erishishi, yangi jamiyatga o’tish davrida siyosiy islohotlarning amalga oshirilishi, O’zbekistonda huquqiy demokratik davlat qurilishi, fuqarolik jamiyatining shakllantirilishi, iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga doir tadbirlar, mamlakatda ijtimoiy–siyosiy barqarorlikni ta’minlash omillari, ma’naviy–ruhiy poklanish va milliy qadriyatlarning tiklanishi hamda O’zbekistonning jahon hamjamiyatidan munosib o’rin olishi kabi masalalar qamrab olganki, bular mustaqil O’zbekiston fuqarolari siyosiy tafakkurining vujudga kelishiga, ulardagi vatanparvarlik tuyg’ularini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Madaniy–ma’rifiy tarix, siyosiy ta’limotlar, xalq kamolati, tafakkuriy hayot, ijodiy yaratuvchilik qobiliyatining shaxodatnomasidir. Jahonga mashhur olimu–adib, san’at va ma’rifat arboblarni etishtirib, Qadimiy Sharq madaniyati va falsafasiga bebaho ulush qo’shgan xalq tarixi va adabiyoti bu ma’noda bag’oyat boy va rang–barangdir.

Millatning ko’zini ochish, o’zligini anglash uchun Prezidentimiz aytganidek, tarix bilan qurollantirish lozim. Bu borada ayniqsa istiqlool arafasi va mustaqillik davri tarixi chuqur o’rganilishi kerak. Bu davr eng kam o’rganilgan davrdir. Yosh avlod, xususan, bugun ishlab

chiqarishga qadam qo'ygan oliy maktabda ta'lim olayotganlarning ko'pi 10–15 yil ilgari tarixini ham etaricha bilmaydi.

Bugungi yosh avlod mustaqillik uchun kurash qanday sharoitlarda kechgani, xalqimiz istiqlolgacha qanday iztirobli, og'ir kurash yo'lini bosib o'tganini bilib olishi kerak.

Tayanch so'zlar

O'zbekistonning o'ziga xos «taraqqiyot yo'li», erkinlik, mustaqillik, demokratiya, qonun ustivorligi, «demokratik jamiyat», «demokratik jamiyatning milliy-ma'naviy negizlari», «milliy-ma'naviy qadriyatlar», O'zbekiston iqtisodiy hayotining demokratlashuvi, fuqarolik jamiyati, «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot», «O'zbekiston va jahon hamjamiyati». Dastlabki davlatchilik nazariyalari, «Avesto», «Temur tuzuklari», uyg'onish davri, qayta qurish, oshkoralik, xilma - xillik, mafkuraviy yakkahokimlik, «paxta ishi», «kadrlar desanti», milliy tiklanish, davlat tili, Prezidentlik boshqaruvi, siyosiy suverenitet.

Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. “O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanining predmeti qanday, uning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
2. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanining asosiy manbalari nimalardan iborat?
3. Ushbu fanning qonuniyatlari va kategoriyalarini tushuntirib bering?
4. Ushbu fanning boshqa siyosiy-huquqiy fanlar bilan o'zaro bog'liq tomonlari qanday, farq qiluvchi tomonlari bo'lsa tushuntirib bering?
5. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning umumjahon e'tirof etgan qonuniyatlarini tushuntirib bering?
6. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanini o'rganishning ahamiyati nimada?
7. “Kuchli davlatdan kuchli jamiyatga o'tish” kontseptsiyasining mohiyatini tushuntirib bering?
8. Abu Nasr Forobiyning demokratik g'oyalarini tushuntirib bering?
9. Amir Temurning adolatli saltanat va jamiyat boshqaruvida qonun ustivorligiga doir qarashlari qaysi tarixiy asarda o'z aksini topgan?
10. Milliy mustaqillik to'g'risidagi g'oyalar necha bosqichga bo'linadi?

Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston, 2011. 3-33-b.
2. “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili” Davlat dasturi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. “Xalq so'zi” 2011 yil 21 yanvar'.
3. “O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 20 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. “Xalq so'zi” 2011 yil 7 aprel'.
4. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. T.1.-T.: O'zbekiston, 1996.- 36-85-b.
5. Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. - T.: O'zbekiston, 2007.- 3-48-b.
6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch.-T.:O'zbekiston, 2008.- 176 b.
7. Karimov I.A. “Eng asosiy me'zon – hayot haqiqatini aks ettirish”.-T.: O'zbekiston, 2009.- 24 b.
8. Karimov I.A. “Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari” – T.: O'zbekiston, 2009.- 56 b.

9. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi "Xalq so'zi", 2010 yil 13 noyabr'.
10. Karimov I. A. "Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qilsin". "Xalq so'zi", 2011 yil 23 yanvar.
11. Karimov I.A. "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida". -T.: "O'zbekiston", 2011. - 1-31-b.
12. I. A. Karimovning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 20 yilligi tantanalaridagi nutqi. "Xalq so'zi", 2011 yil 1 sentyabr'.
13. Karimov I.A. "Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir". "Xalq so'zi", 2012 yil 8 dekabr.
14. Karimov I.A. "Bosh maqsadimiz - keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davov ettirish". "Xalq so'zi", 2013 yil 20 yanvar.
15. Aliyev B., Hoshimov T., Yuldashev O. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. Darslik .-T.: Iqtisodiyot.2008. 5-33-b.
16. Aliyev B., Yuldashev O., Qahhorova M. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. O'quv qo'llanma.-T.: "Iqtisodiyot". 2011. 3-30-b.
18. Yuldashev O. Mustaqil taraqqiyot yo'li. -T.: "Iqtisodiyot". 2011. 34 b.

2-MAVZU: MUSTAQILLIK VA DEMOKRATIK JAMIYAT QURISHNING «O'ZBEK MODEL» O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK JAMIYATNI BARPO ETISHDA «O'TISH DAVRI»NING ZARURLIGI VA UNING XUSUSIYATLARI.

3.1 Demokratik jamiyat qurishning turli xil milliy modellari va O'zbekistonda uning o'ziga xos xususiyatlari

Mustaqillik O'zbekiston xalqi uchun o'ziga xos istiqbol va taraqqiyot yo'lini tanlash, yangi jamiyat qurish uchun o'z andozasini ishlab chiqishdek noyob, shu bilan birga murakkab vazifani yukladi. O'z vaqtida bunday vazifani uddalash O'zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat, odamlar o'rtasida tarkib topgan munosabatlar, ularning dunyoqarashi, jumladan, diniy e'tiqodi, ruhiyati va xulq - atvor normalari shuni taqazo etar edi. Ayni chog'da, O'zbekistonning o'z ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish andozasini ishlab chiqishda rivojlangan mamlakatlarning ko'p asrlik tajribalarini o'rganish. O'zbekiston xalqining turmush tarzi va an'analari tayanish lozim edi.

SHuning uchun ham O'zbekiston mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq jahon va o'zimizning amaliyotimizdan olingan barcha umumiy tajribani rad etmagan holda o'z ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy taraqqiyot yo'lini tanlab olishga kirishdi.

Bozor munosabatlariga o'tishning yo'llari xilma-xildir. Bozor iqtisodiyoti va islohotlarining negizini tashkil qiluvchi yo'llarning xilma - xilligi, erkin bozor raqobatchiligi iqtisodiyotning davlat tomonidan tartibga solishi bilan qay darajada qo'shib olib borishi, ularning ijtimoiy yo'nalishi hal qilayotgan katta iqtisodiy muammolarning ustivorligi bilan bog'liqdir.

Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining «O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li» nomli asarida bozor munosabatlariga o'tishning xilma-xil yo'llari tahlil etiladi. Jumladan, «Amerika»cha modelda erkin bozor munosabatlarini ayniqsa kuchli rol o'ynagan bo'lsa, «Yapon» va «Frantsuz» modellari xo'jalik faoliyatini tashkil qilishda davlatning ishtiroki anchagina katta ekanligi, «Nemis» va «Shved» andozalarida ijtimoiy yo'nalish niqoyatda ustivor bo'lgan. Xalqaro moliya tashkilotlari (Xalqaro Valyuta fondi, jahon banki, Yevropa Tiklanish va taraqqiyot banki va boshqalar)ning faol qatnashuvida ishlab chiqilgan Lotin Amerikasi va Afrika mamlakatlarining andozalarida asosiy e'tibor iqtisodiyotni barqarorlashtirishga, byudjet kamomadini keskin kamaytirishga, ilk bosqichda narx-navoni erkin qo'yib, keyinchalik tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishga qaratish ko'rsatib o'tiladi. Sharqiy Yevropa mamlakatlari ham xuddi shunday usulda, ammo «Falaj» («Shok») holatida bozor sari borganligini ko'rsatdi.

Bozor munosabatlariga o'tishning O'zbekiston modeli jahon tajribasini, davlat va jamiyatni yangilash hamda o'zgarishlarning yangi yo'lini bosib o'tgan mamlakatlar to'plagan tajribasining eng yangi jihatlarini o'zida mujassam etgan. O'zbekiston uchun o'zi tanlab olgan yo'l ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan, respublikaning manfaatlariga, shart-sharoitlari va xususiyatlariga eng ko'p darajada mos keladigan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgan.

O'zbekiston modelining asosli va to'g'ri ekanligini hozirgi kunda nufuzli xalqaro iqtisodiy tashkilotlar, jahon mamlakatlari e'tirof etib, tan olganligi quvonchli bir hodisadir.

I.A.Karimov 1992 yil 2 iyulda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X-sessiyasida «Istiqlol yo'llari va muammolari» mavzuida nutq so'zlar ekan, «Biz ijtimoiy taraqqiyot va yangilanish borasida o'z yo'limiz bor, deb e'lon qildik. Bozor iqtisodiyotiga o'tar ekanmiz, milliy-ruhiy turmush tarzimizni, xalqimiz urf-odatlarini, an'analarimizni, kishilarning fikrlash tarzini hisobga olamiz»¹ – deydi.

Prezident I.A.Karimov o'zining «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» nomli asarida O'zbekiston istiqlolining nazariy asoslari chuqur tahlil etildi. Unda O'zbekiston istiqlolining ham nazariy, ham amaliy muammolari ilmiy jihatdan o'rganilib, jamiyat siyosiy rivojining, iqtisodiy taraqqiyotining, ma'naviy poklanishning asosiy yo'l-yo'riqlari yangicha yondoshuvlar asosida ko'rsatib berildi.

Ma'lumki, jahonning deyarli barcha mamlakatlarida jamiyatning bir holatdan ikkinchi holatga o'tishi hal qiluvchi bir necha ijtimoiy muammolar bilan uzviy bog'liq.

Bular:

- Davlatning islohotlarni o'tkazishdagi bunyokorlik roli;
- Jamiyatning moddiy, ma'naviy va ijtimoiy imkoniyatlarini safarbar etish;
- O'rta xol sinfni shakllantirish;
- Xalqaro hamkorlikni yanada takomillashtirish masalalaridir.

I.A.Karimov taraqqiyotning O'zbekiston uchun maqbul yo'lini ishlab chiqar ekan, avvalo, mamlakatda yaratilajak jamiyat qanday mazmun kasb etishiga e'tibor beradi va uning fikricha, O'zbekistonda bunyod etiladigan jamiyat barcha «izm»lardan va u qanday joylanishidan qat'iy nazar adolatli, xalqchil, insonparvar jamiyat bo'lmog'i lozim.

I.A.Karimov mamlakatning dastlabki yillaridagi rivojlanish jarayonlarini chuqur tahlil qilib, O'zbekiston davlat qurilishi va iqtisodiyotini isloh qilish dasturining o'zagi sifatida ko'yidagi beshta asosiy qoidani o'rtaga tashladi:

I. Iqtisodiyotning mafkuraviy maqsadlarga bo'ysundirilmasligi va siyosatdan ustunligi.

Bunda iqtisodiyotni mafkuradan holi etish– demokratik va bozor o'zgarishlarining asosi qilib qo'yildi. Birinchi navbatda iqtisodiy negizni (bazisni) barpo etish va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish yangi jamiyat qurishning eng muhim sharti ekanligi uqtirildi. Iqtisodiyot mafkuraviy taziqlarsiz, o'ziga xos ichki qonunlarga muvofiq ravishda rivojlanishi lozim. O'zbekistonning ijtimoiy bozor iqtisodiyotida o'z andozasini yaratishdagi yangi muhim elementlar qatorida quyidagilarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

- kishilarning farovonligini oshirishni ta'minlaydigan ijtimoiy yo'nalish;
- makroiqtisodiyotni o'stirish;
- iqtisodiy boshqaruv metodlarini joriy etish;
- davlat tomonidan boshqarilishidan uzoqlashtirish, jamiyat hayotini erkinlashtirish, ayniqsa iqtisodiyotni erkinlashtirish;
- iqtisodiyotga chet el sarmoyalarini jalb qildirish;
- aholining ijtimoiy jihatdan kam taminlangan qatlamlarini himoya qilib kuchli ijtimoiy siyosat o'tkazish.

Bozor mexanizmlarini ishga solish uchun avvalo:

- mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish siyosatini o'tkazish;
- bahoni bosqichma-bosqich erkinlashtirish;
- bozor infratuzilmasini shakllantirish;

¹ Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T. «O'zbekiston», 1994, 13-bet.

- aholini ijtimoiy himoya qilish.

2. Davlatning bosh islohotchiligi tamoyili. Davlat-iqtisodiy o'zgarishlarning tashabbuskori va bosh islohotchisidir. Ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan hozirgi bozor-davlat tomonidan tartibga solib turadigan bozordir. Davlat iqtisodiy faoliyatining huquqiy asoslarini, o'ziga xos "bozor shart-sharoitlari"ni vujudga keltiradi va tasdiqlaydi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida davlat iqtisodiy erkinliklarning kafolati bo'ladi. Ijtimoiy muammolarni hal qiladi. Davlat bozor institutlarini yaratish uchun qulay sharoit tug'diradi. Vujudga kelayotgan ishbilarmonlik tuzilmalari qaror topishi va rivojlanishiga ko'maklashish-davlatning burchidir. Ayniqsa, maqsadga qaratilgan tuzulma siyosatini amalga oshirishda davlatning ahamiyati ayniqsa katta. Bozor sharoitida iqtisodiyotni davlat yo'li bilan tartibga solish, iqtisodiyotning davlat sektorining rivojlanishini boshqarish hamda ijtimoiy muammolarni hal etish yo'li bilan bevosita, huquqiy va iqtisodiy vositalar yordamida bilvosita amalga oshiriladi.

3. Jamiyat hayotida qonun ustuvorligi. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni huquqiy ta'minlash ham zarur. Ijtimoiy yo'naltirilgan madaniy-ma'rifiy bozor xo'jaligini tegishli ravishda huquqiy jihatdan taminlamasdan turib, bunday xo'jalikni shakllantirishni tasavvur qilib bo'lmaydi. Ijtimoiy yo'naltirilgan qonunchilik asosini yaratish-bu faqat o'tish davrining majburiy shartigina bo'lib qolmay, balki huquqiy davlatni barpo etishning o'ziga xos xususiyati hamdir. Qonunlar hayotiy, amaliyot bilan o'zaro bog'liq bo'lishi va undan kelib chiqmog'i kerak. Qonun hujjatlari bevosita ta'sir ko'rsatish kuchiga ega bo'lishi kerak. Qonunga bo'ysunish kerak. Qonunning ustuvorligi-huquqiy davlatning asosiy printsiptir, qonun oldida hamma baravardir. Huquqiy madaniyatning yuqori darajada bo'lishi huquqiy davlatning o'ziga xos xususiyatidir. Huquqiy davlatning elementlari: a) qonun ustuvorligi, b) qonun oldida hammani tengligi, v) hamma o'z ish faoliyatini qonun doirasida bajarishi, g) hokimiyat organlarining bo'linishi kabi printsiplariga amal qiladi.

4. Kuchli ijtimoiy siyosat-iqtisodiy o'zgarishlarning ishonchli kafolati. Kuchli ijtimoiy siyosat printsiplari quyidagilardan iborat:

- aholini ish bilan ta'minlash va mehnat bozorini takomillashtirish (2001 yil 13 fevralda O'zbekiston Prezidentining "Mexnat to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi. Bu Mehnat vazirligi va Ijtimoiy ta'minot vazirligi negizida tashkil topdi);
- daromad siyosatini yurgizish, pul daromadlari;
- ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy kafolatlar, kam ta'minlanganlarni ijtimoiy qo'llab quvvatlash;
- aholiga ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish;
- xalqning moddiy turmush sharoitini yaxshilash;
- har kimning mehnatiga va har kimning qobiliyatiga yarasha printsipti ta'minlash. Adolat, bu - kishilar o'rtasidagi tenglikni nazorat qilishdir, toki bir toifa boshqa toifa ustidan hukmron bo'lmasin, har qaysi tabaqa ushbu qoidaga rioya qilsin.

5. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning bosqichma-bosqich tadrifiy yo'li. Bu "SHok terapiya" yo'lidan tubdan farq qilib, bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tishni taqazo etadi. YA'ni iqtisodiyotda, siyosatda, ijtimoiy sohada, ma'naviyatda va boshqa sohalarda islohotlar birdaniga amalga oshirilmasdan bosqichma-bosqich o'tishni ko'zda tutadi. Bugungi kunda Yevropadagi sobiq sotsialistik davlatlardan Pol'sha, Vengriya, Chexiya, Slavakiya, Albaniya, Ruminiya, Bolgariya, "Shok terapiya" yo'lidan bormoqda. Ular mulkni davlat tasarrufidan birdaniga chiqarib, iqtisodiyotni erkinlashtirish siyosatini yoppasiga qo'llaganlar. Sababi ularda mulk, ya'ni xususiy mulkka bo'lgan psixologiya oldindan shakllanib, xususiy sektor faoliyat ko'rsatib kelgan. O'zbekistonda esa xususiy mulk sobiq SSSR davrida yo'q qilingan edi. SHu sabab mulkni davlat tasarrufidan birdaniga chiqarsa fuqarolar ongida hali xususiy mulkka bo'lgan ijtimoiy ong shakllanmaganligi boisdan bu yomon oqibatlariga olib kelishi mumkin edi.

Ana shu muhim qoidalar, O'zbekistonning mustaqil rivojlanish va taraqqiyot yo'liga asos qilib olindi, hamda yangi jamiyatga o'tish davrining negizini tashkil etdi. O'tgan davr mobaynida bu qoidalarning amalga oshirilishi respublikada ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni, eng muhimi, bozor munosabatlarini joriy etish yo'lidan izchil harakat qilishni ta'minladi.

2.2. “Dunyoviy davlat” qurishda “O‘zbek modeli”ning jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy hayot sohalarida namoyon bo‘lishi.

“Dunyoviylik” degan tushuncha nimani ifoda etadi? U diniy etiqodning ijtimoiy–madaniy hayot, qolaversa umummilliy taraqqiyotdagi ahamiyatini inkor etadimi? Agar inkor etmasa, dinning hayotiy voqelikdagi rolini u qanday tushunadi? Ana shu savollarga aniqlik kiritilgan holdagina mutaqillik yillari davomida O‘zbekistonda dunyoviy jamiyat qurilishi yo‘lida amalga oshirilayotgan sa’y–harakatlarning tub mohiyati ravshanlashadi.

Afsuski sobiq tuzum davrida chiqarilgan dinga oid ommaviy qarashlarda “Dunyoviylik” tushunchasini mantiqiy izohlab beradigan ilmiy ta’rifni topish qiyin. Hatto, eng mashhur izohli lug‘atlarda dunyoviy tushunchalar va talablarga javob beruvchi degan izoh bilan cheklangan.

Dunyoviylik tushunchasi plyuralistik, ya’ni xurfiylik tamoyiliga asoslanadi. Ijtimoiy–iqtisodiy taraqqiyotning dunyoviy tamoyili tomonidan dinning jamiyat hayotidagi o‘rni tushunish ham bag‘oyat muhim masala. Qisqa qilib, ushbu tushunchani dinning ijtimoiy hodisa sifatida ilmiy tushunishga asoslangan yondoshish deb ta’riflash mumkin. SHundan kelib chiqqan holda, dunyoviy jamiyat qurish pirovard umummilliy maqsad darajasiga ko‘tarilgan mamlakatlarda din, har qanday boshqa ob’ektiv hayotiy hodisa kabi, muhim ijtimoiy–madaniy omil sifatida e’tirof etiladi. SHuning uchun ham bugungi xalqaro hamjamiyatda mutloq ko‘pchilikni tashkil qilgan demokratik dunyoviy davlatlar tajribasi ular taraqqiyotining tamal toshi bo‘lib xizmat qilayotgan g‘oya aslo xudosizlikka asoslanmaganligi yaqin o‘tmishimizdagiga o‘xshash dahriy jamiyatni anglatmasligini ko‘rsatib turgani isbot talab qilmaydigan haqiqatdir.

Dunyoviy taraqqiyot yo‘lidan borayotgan mamlakatlardagi dinga bo‘lgan munosabat demokratik plyuralizm, ya’ni xurfiylik tamoyiliga asoslanganligi tufayli ularda din hayotdagi ijtimoiy–madaniy va ma’naviy ruhiy muhit rang–barangligini ta’minlovchi xilma–xil tarixiy qadriyatlar silsilasidagi teng huquqli bo‘g‘in sifatida qabul qilingan.

Yana bir bor ta’kidlaymiz: demokratik dunyoviy taraqqiyot yo‘lidan borayotgan mamlakatlarda din rang–barang ma’naviy–madaniy va tarixiy qadriyatlar tizimidagi teng huquqli bo‘g‘in, u boshqa bo‘g‘inlardan zaiflik ham, yoki ustunroq ham emas. O‘zbekistonda barpo etilayotgan dunyoviy taraqqiyot negizi qilib belgilangan xurfiylik tamoyili ham zikr etilgan tajribalar idrokiga asoslangan. Din demokratiya va xurfiylikka asoslangan dunyoviylik bilan murosqa qilishga asoslangan. Ushbu tamoyil demokratik taraqqiyotning xalqaro miqyosda e’tirof etilgan oliy mezon bo‘lib xizmat qilayotgan BMTning «Fuqarolik va siyosiy huquqlar bo‘yicha Xalqaro pakti»ning diniy e’tiqod va vijdon erkinligiga oid uchinchi qismidagi 18, 20 va 23–moddalariga to‘liq hamohangdir.

Dunyoviy taraqqiyot yo‘lidan borayotgan bizning mamlakatimizdagi dinshunoslik fani va uning predmeti vazifalari ham yuqorida bayon etilgan voqelikdan kelib chiqadi. Aniqroq qilib aytganda, dinshunoslikning bugungi vazifasi–dinga qarshi kurash yoki uni tashviqot qilish ham emas, balki dinni hayotiy rang–baranglikni tashkil etuvchi ijtimoiy hodisalardan biri sifatida o‘rganish, uning mazmun–mohiyatini tahlil etish, aniqlash va talabalar ongiga singdirib borishdan, ularda tug‘ilayotgan savollarga hozirjavob bo‘lish, yoshlarni diniy taassub va undan oziqlanuvchi diniy zo‘ravonlik botqog‘iga tortilishining oldini olishdan iboratdir.

O‘ziga xos va mos taraqqiyot yo‘lidan borayotgan O‘zbekiston rivojlanishi diniy omilning mutlaqo yangicha idroki, din va xususan islomning jamiyat taraqqiyotidagi haqiqiy roli va o‘rni mavjud voqelikka tayanishi bilan o‘tishi davridan tubdan farqlanib turadi.

Dunyoning ko‘pchilik davlatlari, xususan, rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, din dunyoviy davlat tuzumi bilan nafaqat murosqa qilishga, balki umummilliy yuksalish yo‘lida u bilan samarali hamkorlik qilishi mumkin.

Dinning qurilayotgan jamiyatimizdagi o‘rni, eng avvalo konstitutsion maqomi bilan belgilanadi. O‘zbekiston Konstitutsiyasiga muvofiq barcha fuqarolarning vijdon erkinligi kafolatlangan. Har bir inson xohlagan dinga e’tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy tashkilotlar va birlashmalarning davlatdan ajratilgani hamda ularni qonun oldida tengligi belgilab qo‘yilgan.

Prezidentimiz I.A.Karimovning “O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida, xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” kitobida dunyoviy jamiyat qurish yo‘lidan borayotgan mamlakatimizda davlatning din bilan munosabatlari mazmun va mohiyatini belgilovchi asosiy tamoyillar qatoriga:

dindorlarning diniy tuyg‘usini hurmat qilish;

- diniy e‘tiqodlarni fuqarolarning yoki ular uyushmalarining xususiy ishi deb tan olish;
- diniy qarashlarga amal qiluvchi fuqarolarning ham, ularga amal qilmaydigan fuqarolarning ham huquqlarini teng kafolatlash hamda ularning ta‘qib qilishga yo‘l qo‘ymaslik;
- ma‘naviy tiklanish, umuminsoniy ahloqiy qadriyatlarni qaror toptirish ishida turli diniy uyushmalarning imkoniyatlaridan foydalanish uchun ular bilan muloqat qilish yo‘llarini izlash zarur;
- diniy buzg‘unchilik maqsadlarida foydalanishga yo‘l qo‘yib bo‘lmasligini e‘tirof etish, kiritilgan.

Dunyoviy jamiyat qurishni ko‘zlagan davlatimizning dinga munosabatini belgilovchi zikr etilgan konstitutsion mezonlar, Prezidentimiz fikrlari va “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar” haqidagi O‘zbekiston Respublikasi qonunidan quyidagi ikkita asosiy xulosa kelib chiqadi:

Birinchidan, O‘zbekistonda barpo etilayotgan demokratik huquqiy davlat va dunyoviy jamiyat qurish kontseptsiyasi din madaniy–ma‘naviy omillar umum silsilasiga kiruvchi barcha milliy qadriyatlar qatorida teng huquqli qadriyat sifatida tan olinadi. Mustaqil rivojlanish yillarida ushbu mezonning hayotga nechog‘lik izchil tatbiq etilayotganini faqat qalbi ko‘r, adolatga xusumat bilan munosabatda bo‘lgan kimsalargina inkor etishi mumkin.

Ikkinchidan, sof diniy ehtiyojlarni qondirishdan tashqarida bo‘lgan har qanday g‘arazga erishish yo‘lida diniy omildan foydalanishga intilish qa‘tiyan man etiladi.

Demak, davlatimizning dinga nisbatan munosabati qandaydir muvaqqat taktik mulohazalar bilan belgilanmaydi, balki dinning ijtimoiy hayotdagi muhim omilligi idrok va e‘tirofiga tayanadi. Davlat dinning O‘zbekiston fuqarosini tarbiyalashdagi cheksiz imkoniyatlariga ishonadi.

Bayon etilganlardan aniq va ravshan ko‘rinib turganidek, jamiyatimiz yangilanishi dasturidagi dunyoviy davlat tushunchasi dinning ijtimoiy - madaniy hayotdagi rolini aslo inkor etmaydi. Aksincha, shakllanayotgan yangi sharoitlarga umuman din, xususan Islomning ijtimoiy - madaniy hayotdagi muhim o‘rni va vazifalarining chuqur idrokini ko‘rsatib turibdi. Demak, dunyoviy tabiatga ega davlatimiz dinning barkamol insonni voyaga etkazishdek nozik va mas‘uliyatli ishdagi cheksiz imkoniyatlaridan foydalanishga intiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bizning tushunchamizdagi dunyoviy davlat, tuzum–har qanday madaniyat negizida muayyan diniy dunyoqarash yotishi e‘tirofiga tayanadi. O‘zbekona an‘analar negizida esa islomiy omilning roli muhimligini tan oladi.

Bozor munosabatlariga o‘tishning «O‘zbek modeli»ning nazariy jihatini atroflicha va chuqur o‘rganish mamlakatimizning salohiyat va imkoniyatlari, ishlab chiqarish kuchlari rivoji, infratuzilmasi, yurtimizning tabiiy va intellektual resurslari, demografik vaziyati, aholining ongi, bilimi, kasbi, turmush shart - sharoitlari kabi omillarni hisobga olgan holda rivojlanish kontseptsiyasini Islom Karimov iborasi bilan aytganda o‘zimizga xos va o‘zimizga mos yo‘limiz yanada samaraliroq ro‘yobga chiqishiga xizmat qilmoqda.

«O‘zbek modeli»ning iqtisodiy munosabatlarni isloh qilish bilan bir davrda davlat qurilishi, jamiyatni demokratiyalashtirish, mulkdorlar sinfini va xususan, o‘rta sinfni shakllantirish ijtimoiy tuzilmani takomillantirish, kadrlar tayyorlash, madaniy me‘ros va ma‘naviyat bilan bog‘liq bir qator sohalarni qamrab olgani uning o‘ziga xos ustivor xususiyatlardan biridir.

Jamiyatimiz yangi ichki va tashqi vaziyatga kirib borishi bilan taraqqiyotning «O‘zbek modeli» o‘z chegara shartlarini uzviylik asosida transformatsiya¹ qildi. Jumladan, respublikamizda demokratik o‘zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning ustivor yo‘nalishlaridan biri–bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, kuchli

¹ Transformatsiya–bir holatdan boshqa holatga o‘tish.

bozor infratuzilmasini yaratish, barqaror va o'zaro mutanosib, mustahkam iqtisodiyotning muhim sharti bo'lgan erkin iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishdan iborat. Mazkur yo'nalish o'zbek modelining birinchi tamoyili, ya'ni iqtisodiyotni siyosat va mafkuradan xoli etish siyosatining mantiqiy davomidir.

O'zbek modelida hech qachon iqtisodiy munosabatlarni mutloqlashtirish nazarda tutilmagan. Bu tamoyillar iqtisodiyotni erkinlashtirish, mulkdorlar sinfini shakllantirish, tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, ular turli maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladigan iqtisodiyot emas, balki iqtisodiyot masalalarini hal qilishga, inson uchun munosib turmush sifatlarini ta'minlashga, yo'naltirilgan siyosatga asoslanadi. O'tgan davr ushbu xulosalarning to'g'ri ekanligini to'liq isbotladi.

Davlat o'zining islohotchilik funksiyasini ishonchli ravishda bajardi. O'tgan yillar davomida davlatimiz yangi jamiyatga o'tish jarayonini tartib orqali amalga oshirilishini ta'minladi, etakchi islohotchilik vazifasini hayot talablariga muvofiq bajara oldi, deyishga to'liq asosimiz bor. Buning sabablaridan biri, boshqaruv tizimida hududiy hokimiyat vakolatlarini kengaytirish, mahalliy hokimiyatga qator masalalarni «yuqori»ning ko'rsatmalarini kutib o'tirmasdan, mustaqil hal qilish uchun imkoniyatlar yaratib berilganligidadir. Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning 9 - sessiyasidagi Prezidentimiz ma'ruzasida qayd qilinganidek: «Hozirning o'zidayoq mamlakat byudjeti daromad qismining 56 foizi va xarajat qismining 52 foizini xududiy byudjetlar tashkil etmoqda. Shu tariqa davlat byudjetining daromadlar va xarajatlar bilan bog'liq kattagina qismi xududlar tomonidan nazorat qilinmoqda»¹.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, davlat faoliyati iqtisodni rivojlantirish borasidagi chuqur ustuvor yo'nalishlarni, qabul qilingan qonunlar va huquqiy normalarni so'zsiz bajarilishi, tashabbus va tadbirkorlikni rivojlantirish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida raqobat muhitini qaror toptirish borasida sezilarli natijalarga erishdi.

Davlat va jamiyatning yuqorida ko'rsatilgan vazifalarining bajarilishi taraqqiyotning asosiy shartlaridan biri bo'lishi qonun ustuvorligi, qonun oldida barchaning tengligiga olib kelmoqda. Bu tamoyilni amalga oshirish uchun sud hokimiyatini mustahkamlanishi, sudlarning mustaqilligini ta'minlash, ularning faqat qonunlarga bo'ysunishi o'z natijasini ko'rsatmoqda. Natijada odamlarda sobiq Ittifoq davrida shakllangan, hokimiyatning bu tarmog'iga jazolovchi idora sifatida qarash o'rniga unga insonning haq - xuquqlarini, adolatni himoya qiluvchi tuzilma sifatida yondoshish ko'nikmasi shakllanib bormoqda.

O'zbek modelining to'rtinchi tamoyili sifatida bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida kuchli ijtimoiy siyosat yuritish sohasida qator tadbirlar amalga oshirildi, uning ijobiy natijasini ko'rmaslik mumkin emas. Mustaqillik yillarida hukumatimiz tomonidan bir qator davlat dasturlari qabul qilinib, amalga oshirildi. Bularning barchasida xalqimizni ijtimoiy jihatdan qo'llab - quvvatlash asosiy ustuvor vazifalardan biri qilib belgilandi. Masalan, Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish uchun davlat byudjetining 38 foizi ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish jarayonini amalga oshirish yo'lida sarflanmoqda. Bu mablag'larning asosiy qismi mutloq yangi bo'lgan o'rta maxsus, kasb - hunar ta'lim turi, ya'ni akademik litseylar va kasb - hunar litseylarining moddiy bazasini yaratish va mustahkamlashga qaratilgan.

Hozir o'rta maxsus kasb-hunar ta'limiga ega bo'lgan yoshlar egallagan bilimlar tufayli hayotga mustaqil shaxs sifatida kirib kelib, o'z o'rnini topmoqda. Natijada, kelgusi 5-7 yil ichida ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamning keskin kamayishi ta'minlanadi. Bu esa kuchli ijtimoiy siyosatning eng muhim maqsadi va natijasidir.

O'zbekiston hukumati tomonidan ishlab chiqilgan yosh milliy mustaqil davlatlar taraqqiyotiga doir ham nazariy ham amaliy, ilmiy qoidalar, yo'l- yo'riqlar O'zbekiston mustaqil rivojlanishining 16 yili davomida hayot sinovidan muvaffaqiyatli o'tdi, boshqa mustaqil rivojlanish yo'lga o'tgan davlat siyosatlari rivojlanishning "O'zbek modeli"ni jahon tan olgan to'g'ri yo'l deb baholadilar.

¹ Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. T. 2002.

O'zbekistonning bozor munosabatlariga bosqichma – bosqich o'tish tamoyili asosida rivojlanayotganligi bir tomondan, avvaldan meros bo'lib qolgan barcha ijobiy tomonlarni chuqur o'zlashtirish imkonini berdi, ikkinchi tomondan esa isloh qilishning asosiy bosqichlarini aniq ajratib berdi. Bu bosqichlarning har biri uchun aniq maqsadlarni, unga erishish vositalarini belgilab, ularni izchillik bilan amalga oshirishga sharoit yaratdi.

Davlatimiz tomonidan qabul qilinayotgan va hayotga joriy etilayotgan ijtimoiy–iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy sohalariga tegishli ustivor vazifalar biz bosib o'tgan barcha bosqichlar davomida yaratilgan poydevor asosiga qurilgan bo'lib, u jamiyatimizni yanada qudratliroq bo'lishga xizmat qilmoqda.

Prezident I.A.Karimovning 2007 yil 12 fevralda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yilda ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanish yakunlari hamda 2007 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan majlisida ilgari surilgan ustivor vazifalar, O'zbekiston Konstitutsiyasining 14 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida «O'zbek modeli»ning besh tamoyilidan biri kuchli ijtimoiy siyosatni amalda ro'yobga chiqarish yo'lidagi davlat olib borayotgan izchil siyosatini ko'rinishi sifatida 2007 yilni "Ijtimoiy himoya yili" deb e'lon qilinishi, "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonuni va u bilan bog'liq ravishda "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga (89–moddasi, 93–moddasi 15 - bandi, 102–moddasi ikkinchi qismiga) tuzatishlar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinishi besh tamoyilni amalda joriy bo'layotganiga isbotdir.

2.3. «O'tish davri»ning asosiy yo'llari, «tadrijiy» rivojlanish yo'lining mohiyati va uning O'zbekistonda o'ziga xos xususiyatlari.

«O'tish davri» nima, mohiyati qanday, nima uchun barcha mamlakatlar ushbu bosqichni bosib o'tishlari zarur, bu jarayonlar nega turli mamlakatlarda turlicha sodir bo'ladi? Nega ularning muhlati barcha davlatlarda turlicha davom etadi. O'tish davrida munosabatlar tizimi qanday holatda bo'ladi? O'tish davrining o'ziga xos jihatlari nimada? SHu va boshqa savollar talabalarni qiziqtirishi tabiiy.

Agar qiyosiy tahlil etish mumkin bo'lsa, o'tish davri jamiyat ijtimoiy - siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy sohalaridagina sodir bo'lmay bu tabiatda, insonning evolyutsion taraqqiyotida ham yuz beradi. Tabiatda bir sifat chegarasining shakllanishida muayyan davr o'tadi va bu davrda ko'pdan - ko'p o'zgarishlar sodir bo'ladi yoki inson o'z umri davomida bolalikdan o'spirinlikka o'sib, ulg'ayib ongi o'sib boradi. O'tish davri barcha davlatlar taraqqiyoti jarayonida yuz beradigan oraliq hisoblanadi. U barcha mamlakatlar uchun umumiy qonuniyatdir. Davlatlar yuksak taraqqiyot darajasiga birdan ko'tarila olmaydi, balki u avvalo shakllanadi va ma'lum taraqqiyot bosqichlarini o'z boshidan o'tkazadi. Yangi iqtisodiy negizni shakllanishi, xalqning ijtimoiy va ma'naviy jihatdan uyg'onishi sobitqadam va astoydil harakat qilish yo'li bilan g'oyat katta qiyinchiliklarni engib o'tish orqali amalga oshadi.

O'tish davri nima, nima uchun u shunday nomlanadi? O'tish davri ijtimoiy - iqtisodiy, siyosiy tuzum emas, balki mamlakatlarning ularga o'tishi uchun zarur bo'ladigan zaminlarni shakllantirishga ketadigan tarixiy oraliq bosqich hisoblanadi. Uning boshlanishi mamlakatlarda bo'ladigan eng avvalo siyosiy o'zgarishlar va uning zaminida esa iqtisodiy, ijtimoiy hamda ma'naviy sohalaridagi o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lsa, «poyoni», «oxiri» yangi vujudga kelgan jamiyatning o'z imkoniyatlarini to'la yuzaga chiqara bilishi, zamon nuqtai nazaridan barqaror taraqqiyot uchun imkoniyatlarning ta'minlanganligi bilan bog'liq bo'ladi.

O'tish davri keng va o'ta murakkab jarayon bo'lib, davlatlar taraqqiyotining bir bosqichidan ikkinchi bosqichiga o'tib borishi bilan bog'liq davr hisoblanadi. Uning kengligi shundaki, o'tish davri boshlanishida yuzaga keladigan muammolarning ko'lami nihoyatda keng bo'lib, uni echishda

aniq andozalarni ya'ni bir mamlakat tajribalarini ikkinchisida aynan qo'llab bo'lmashligi bilan bog'liq bo'ladi.


Bir ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy tuzumdan ikkinchisiga o'tish uchun zarur bo'ladigan "o'tish davri" yoki oraliq bosqichning muhlati ana shu yangi yuzaga kelgan ijtimoiy - iqtisodiy, siyosiy tuzum o'z imkoniyatlarini to'la yuzaga chiqarib barqaror taraqqiy qilish jarayoni yuzaga kelishi bilan tugaydi. Demak o'tish davrining poyoni (oxiri) bor ekan. Poyoni yoki o'tish davrining oxiri yangi tuzumning normal ishlashi ta'minlanganligi sharoiti yuzaga kelishi bilan tugaydi.

"O'tish davri" nazariyasining shakllanish evolyutsiyasini o'rganish, unga doir hozirgi davrdagi nazariy qarashlar va amaliyotni tahlil etish jarayonlari ko'rsatadiki, mamlakatlar o'zlarining yuksak taraqqiyot darajalariga ma'lum oraliq bosqichlarni bosib o'tmasdan erisha olmaydilar.

"O'tish davri" mavzusi jamiyatshunos olimlar tomonidan eng kam o'rganilgan sohadir. To'g'ri insoniyatning porloq istiqboli bo'lgan fuqarolik jamiyatiga doir umumiy tushunchalar bu jamiyat unsurlarining qadimgi davrdan boshlab yangi davrgacha bo'lgan nazariy talqinlari ilmiy tahlil etiladi. XX asrga kelib uni rivojlangan mamlakatlar amaliyoti asosida yanada takomillashtirishga doir turli nazariy qarashlar, talqinlar jamiyatni o'rganishning ilmiy - uslubiy yondoshuvlari mavjud, ular haqida ko'plab monografiyalar chop etilgan.

Ma'lumki mamlakatlar fuqarolik jamiyatiga faqat o'tish davri orqali bosqichma - bosqich erisha oladilar. Har qanday o'tish davri muayyan jarayonni o'z ichiga oladi. Bir holatdan ikkinchi maqsadli holatga, bir tizimdan ikkinchisiga o'tish sodir bo'lishi uchun muayyan chegara (o'tish) shartlari bajarilishi kerak. Sababi, mamlakatning bir ijtimoiy-siyosiy tuzumdan ikkinchisiga o'tishi juda murakkab jarayon hisoblanadi. Bu jarayonda taraqqiyotga to'siq bo'lgan avvalgi davlat siyosiy hayoti, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy negizlari bilan bog'liq barcha mexanizmlarni tugatib, o'rniga yangi taraqqiyot negizlariga javob beradigan yangi mexanizmlarni shakllantirishni taqozo etadi.

Demokratik jamiyatga o'tish



Olimlar tomonidan mavjud tizimdan maqsadli tizimga o'tish ya'ni o'tish davrining aniq chegarasini belgilash masalasida aniq nazariy xulosaga kelinmagan. O'tish davri nazariyasi deganda mamlakatlarning ma'lum bir ijtimoiy taraqqiyotdan, ikkinchisiga o'tish uchun zarur bo'lgan oraliq bosqich, uni o'rganish, tadqiq qilish natijasida shakllangan, ilmiy asoslangan qarashlar tizimi tushuniladi.

O'tish davri chegarasi haqida aniq, asosli ilmiy taxminlarsiz jamiyat hayotida yuz beradigan jarayonlar haqida g'oyalarni ishlab chiqib amaliy hayotga qo'llash mumkin emas. "O'tish davri" haqidagi nazariy qarashlar, xorijiy tajribalar va milliy an'analar o'yg'unligi asosida qiyosiy o'rganilsa, uning milliy manfaatlariga muvofiq jihatlarni mamlakatdagi islohotlarni chuqurlashtirish jarayonlariga tatbiq etishda o'zining ijobiy natijasini beradi.

YUqorida o'tish davri tushunchasiga berilgan ta'rifdan ko'rinib turganidek, u barcha mamlakatlar uchun umumiy bo'lgan qonuniyatlar sifatida ko'zga tashlanmoqda. Bugun yuksak rivojlangan yoki rivojlanayotgan, yohud endigina rivojlanish tomon qadam tashlagan mamlakatlarning bir iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy tuzumdan ikkinchisiga o'tish jarayoni, aynan ikkinchisini takrorlamaydi. Ularni amalga oshirish ham davlatlar va unda yashayotgan xalqlarning mintaliteti bilan chambarchas bog'liq. Chunki, har bir mamlakat nafaqat o'zining tuzilishi, iqtisodiy taraqqiyot darajalari, imkoniyatlari, intellektual salohiyati bilan biri ikkinchisidan farqlanadi, xuddi shuningdek o'z xalqining mintaliteti, turmush tarzi, urf-odatlar va qadriyatlari bilan ham farq qiladilar. Ularni hech qachon bir qolipga solib bo'lmaydi. Unga harakat qilish samara bermaydi, aksincha og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkin.

O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «biz boshqa davlatlarning rivojlanish jarayonida to'plagan va respublika sharoitiga tatbiq qilsa bo'ladigan barcha ijobiy tajribalardan

foydalanish imkoniyatlarini istesno qilmaymiz. Ayni chog'da biron-bir andozadan, hatto u muayyan mamlakatda ijobiy natijalarga olib kelgan bo'lsa ham, ko'r-ko'rona nusxa ko'chirish mutlaqo nomaqbuldir. Shunisi aniq - ravshanki, muayyan vositalar va usullar qaysi mamlakat uchun mo'ljallangan bo'lsa, ular o'sha mamlakatlarga xos bo'lgan alohida sharoitdagina ijobiy samara berishi mumkin. Aksincha, jozibador bo'lishiga qaramay, aslida begona, yot andozalar sun'iy ravishda tiqishtirilgan joylarda iqtisodiy islohotlar muqarrar ravishda barbod bo'laveradi».¹

Shuning bilan birga demokratik jamiyatga o'tishning barcha mamlakatlar uchun umumiy bo'lgan qonuniyatlari ham mavjud. Jumladan, siyosiy tizimni isloh qilish, bozor munosabatlarini shakllantirish, insonning o'z ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqarish uchun shart-sharoitlarni vujudga keltirish, jamiyat taraqqiyotida yuksak intellektual salohiyat ustuvorligini ta'minlash va boshqa bir qator qonuniyatlari barcha mamlakatlar uchun umumiy hisoblanadi. Ular barcha mamlakatlarning o'ziga xosligini hisobga olgan holda demokratik jamiyatga o'tishga xalaqit bermaydi.

O'zbekiston umumiy qonuniyatlarni inkor etmagan holda o'tish davrining dastlabki yillariga xos bo'lgan amaldagi siyosiy hokimiyatni tugatish, siyosiy tizimni isloh qilish, markazlashtirilgan tartibda rejalashtirilgan va boshqaruvning ma'muriy-buyruqbozlik uslubidan bozor iqtisodiyotiga o'tish-bu mavjud xo'jalik yuritish usulini tamoman tugatib yangicha xo'jalik yuritish tizimini joriy etish uchun poydevor yaratish, ma'naviy-ma'rifiy sohada amaldagi zo'ravonlikdan qutilish, xalqning ma'naviy-ahloqiy qadriyatlarini tiklash kabilari bilan izohlanadi.

«O'tish davri» qanchalik turili-tuman bo'lmasin bari bir barcha ijtimoiy - iqtisodiy va siyosiy tuzumlar uchun zarurdir. Chunki, u har bir vujudga keladigan yangi jamiyat uchun zamin tayyorlash imkoniyati hisoblanadi. Bu zamin nafaqat iqtisodiy, shuning bilan birga shu jamiyatda yashaydigan insonlarning o'zlarini ham yangi jamiyatga munosib qilish uchun ham zarur bo'ladi.

Endi mamlakatlarning turli ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy taraqqiyot bosqichlaridan demokratik tamoyillar amal qiladigan jamiyatga o'tishning xususiyatlari ustida to'xtalamiz.

Qadimda sodir bo'lgan taraqqiyot bosqichlarida (quldorlik, feodalizm, kapitalizm) o'tish davri mavjud bo'lgan. Lekin ularning biridan ikkinchisiga o'tishi ob'ektiv ehtiyoj sifatida birining ichida ikkinchisi shakllanib kelgan, davlat va uning ijtimoiy - iqtisodiy munosabatlari shakllan o'zgargan bo'lsa ham mazmunan u bari bir ommani itoatda ushlab turishga, uning ustidan hukmronlik qilishga qaratilganligicha qolavergan.

Demokratik jamiyatda esa, eng avvalo siyosiy tuzum tubdan o'zgarib, xalqning hokimiyatni bevosita yoki bilvosita boshqaruvi amalga oshiriladi. Demokratik jamiyatga o'tishda siyosiy sohada davlatning amaldagi mexanizmlari tugatiladi. Uning o'rniga qurilayotgan jamiyat manfaatlariga javob beradigan mexanizmlari shakllantirilib boriladi. Iqtisodiy sohada bozor munosabatlari qaror topadi. Taraqqiyot ommaning o'z moddiy manfaatdorligini erkin qondira olishi asosida umumiy iqtisodiy rivojlanish sodir bo'ladi. Ma'naviy - ma'rifiy sohada inson omili, uning qadr - qimmati yuksak qadriyat darajasiga ko'tariladi, jamiyat yuksak intellektual kuch asosida rivojlanishi reallikka aylanadi. Ana shuning uchun ham O'zbekiston demokratik jamiyatni o'z ideali sifatida qabul qildi.

O'tish davri bir nechta bosqichlarni bosib o'tadi, u ma'lum muddatdan keyin o'z payoniga etadi va jamiyat ilgariga qaraganda yuqori taraqqiyot bosqichida yashay boshlaydi. Bir ijtimoiy - iqtisodiy, siyosiy tuzumdan ikkinchisiga o'tish uchun zarur bo'ladigan «o'tish davri» yoki aniqrog'i oraliq bosqichning muhlati ana shu yangi yuzaga kelgan ijtimoiy - iqtisodiy, siyosiy tuzum o'z imkoniyatlarini to'la yuzaga chiqarib barqaror taraqqiy qilish jarayoni yuzaga kelishi bilan tugaydi, demak u oxiri yo'q bo'lgan jarayon emas ekan.

2.4. O'zbekistonda tadrijiy islohot yo'lining hayotga tatbiqi va uning natijalari.

¹ Karimov I.A. O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishining o'ziga xos yo'li. T.: «O'zbekiston».1993, 14-bet.

Hozirgi demokratik taraqqiyot yo'ldan rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, o'tish davrining uchta yo'li mavjud ekanligini aytish mumkin. Bular : «Klassik», «Inqilobiy», «Evolutsion» yo'llardir.

«Klassik» yo'lining xususiyati shundaki, u uzoq tarixiy davr davomida amalga oshiriladi va u siyosiy sohada qancha burxonlar bo'lishiga qaramay asosiy o'tishning islohatlari iqtisodiy sohada amalga oshiriladi va bunda xususiy mulkchilik etakchi o'ringa ko'tarilishiga erishiladi. Ushbu tadbirlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi ijtimoiy - siyosiy va ma'naviy sohalarida islohotlarni amalga oshirish imkonini beradi.

Bu tanlagan yo'l asosan Yevropa mamlakatlari va AQShga xos bo'lib, dastlab aholining ko'pchiligining noroziligiga, so'ng esa qarshilik ko'rsatishiga sabab bo'lgan va bunday kayfiyat aholi farovonligining o'sib borishi bilan so'nib, o'zining samarasini bera boshlagan va bu 2 - 2,5 asr chamasi davom etgan.

Ushbu bosib o'tilgan vaqt moboynda hozirgi rivojlangan demokratik davlatlarda iqtisodiy sohada erishgan ulkan yutuqlar zaminida demokratik qadriyatlar shakllanishi orqali huquqiy davlat bilan uzviy bog'liq holda fuqarolik jamiyatlari ham mazmun va mohiyat kasb etib bordi. Aniqroq qilib aytganda, kapitalistik mamlakatlarning turg'unlik holatiga tushib qolganligi va undan qutilishning birdan-bir to'g'ri yo'li iqtisodiy islohotlarni o'tkazish, shu orqali uning rivojlanishi uchun yangi yo'lni ochish sabab bo'ldi.

Bu yo'ning klassik (an'anaviy) deb atalishiga sabab shuki, mamlakatlarning demokratik jamiyatga o'tishi dastlab xuddi ana shu ko'rinishda namoyon bo'ldi va bugun yuksak taraqqiyotga erishgan aksariyat mamlakatlar ana shu yo'ldan bordilar.

Demokratik jamiyatga o'tishning ikkinchisi «inqilobiy» yo'l bo'lib, uning xarakterli xususiyati shundaki, unda tub islohotlarni o'tkazish, avvalgi tizimni va tarkib topgan iqtisodiy munosabatlarni batamom sindirishni talab etiladi. Bunisi «Falaj bilan davolash usuli» («SHokovaya terapiya») deb ataladi. Jahon ijtimoiy taraqqiyoti tajribasi shuni ko'rsatadiki, inqilobchilik, murosasizlik quldorlikdan feodalizmga, feodalizmdan kapitalizmga o'tish davrlariga nisbatan o'rinli bo'lgan, chunki u davrlarda kishilar jamiyat taraqqiyoti qonunlarini bilmaganlar, jamiyat taraqqiyotidagi ziddiyat va qarama - qarshiliklarni hal etmay boshi berk ko'chaga kirib qolgan va bunday vaziyatlarda ijtimoiy portlash va sakrash zarur bo'lgan.

XX asrning 80 - 90 yillarida G'arbiy Yevropaning ba'zi davlatlari shunday yo'l orqali yangi tuzimga o'tganlar. Bu davlatlarda vujudga keltirilgan katta iqtisodiy salohiyat va ko'pchilik aholining turmush tarzi nisbatan yuqori bo'lganligiga asoslanib, dastlab siyosiy sohada keskin o'zgarishlarni amalga oshirish, so'ng iqtisodiy sohada islohotlarni o'tkazish orqali demokratik jarayonlarni rivojlantirishga qaratildi. Shunday yo'l orqali mamlakat siyosiy hayoti bir tizimdan ikkinchisiga o'tdi. Bu o'z navbatida mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy - ma'rifiy sohalarining o'zgarishiga olib keldi. O'tishning bu yo'lini sobiq jahon sotsializmi tizimiga kirgan ayrim mamlakatlar o'z boshlaridan o'tkazdilar. Ularning ayrimlarida masalan, Pol'shada bu jarayon murakkab kechdi.

XX asr o'tish davri masalalarini hal etishning eskirgan shakllaridan voz kechishni, uning o'rniga muzokara hamda mubohasalar orqali konsensus, ya'ni hamma uchun maqbul umum qarorni topishni, ziddiyat va qarama - qarshiliklarni inson ongi, aql-zakovati, tahlil qobiliyatiga tayanib hal qilish yagona to'g'ri yo'l va inson nomiga yarashadigan usul ekanini anglashga olib keldi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda ana shu yo'ldan borib, inson ongi - zakovatining mahsullarini, ya'ni fan, texnika va texnologiya yangiliklarini o'zlashtirishni asosiy vazifa qilib qo'ygan AQSh, Germaniya, Frantsiya, Yaponiya kabi davlatlar hozirgi zamonning rivojlangan mamlakatlariga aylandilar. Mustaqil O'zbekiston xuddi shunday yo'lni tanladi.

Bu uchinchi yo'l bosqichma-bosqich, ya'ni evolyutsion yo'l. Eski iqtisodiy munosabatlarni bosqichma-bosqich yangi bozor munosabatlariga aylantira borib, samarali bozor munosabatlarini shikastsiz vujudga keltirish. Bunga O'zbekiston, Markaziy Osiyo davlatlari va MDHning ba'zi birlari kiradi. Bosqichma-bosqich o'tish bu:

- ijtimoiy rivojlanishning tadrijiy o'zgarishlari;
- jamiyat taraqqiyotining bir davridan ikkinchisiga o'tish shakllaridan biri;

- jamiyat hayotining turli sohalarida islohotlar olib borish usuli. Bosqichma–bosqich o'tish eskilik o'rniga yangiliklarni uzluksiz, izchil shakllantirish va yangi sifatni yuzaga keltirishni anglatadi. U jamiyat o'zgarishining inqilobiy yo'lini rad etadi.

Unga xos bo'lgan xususiyatni aniqlashtirib quyidagicha izohlash mumkin. Mamlakatda amaldagi siyosiy hokimiyat tugatilib, o'rniga yangi hokimiyat vujudga kelishi bilan eski keskin, bir zarb bilan tugatilmasdan bosqichma–bosqich, vazminlik bilan tugatilib boriladi. Hatto, ularning ayrim imkoniyatlaridan ham foydalanib boriladi. Xuddi ana shu jarayonda iqtisodiy islohotlarni olib borishda va boshqa yo'nalishlarda yangi munosabatlar shakllantiriladi.

Nima uchun asta–sekin, bosqichma - bosqich o'tish zaruriyati tug'iladi? Bunday yo'ning O'zbekiston xususiyatlaridan kelib chiqib izohlaydigan bo'lsak uning sabablari quyidagicha:

Birinchidan, mamlakatimizda vujudga kelgan iqtisodiy vaziyat, oilalar aksariyat ko'pchiligining turmush darajasi pastligi, eski tuzumga moslashganligi xalqning dunyoqarashi, moddiy boyliklarni yaratishga bo'lgan munosabati, siyosiy madaniyati etarli darajada emasligi bo'lsa;

Ikkinchidan, tashkiliy, siyosiy, iqtisodiy, moliyaviy - kredit tizimlarini o'zgartirish, tegishli huquqiy asosni, bozorning infratuzilmasini barpo etish, xodimlarni tayyorlash uchun vaqt kerak. Ishlab chiqarishni tashkil etish va qayta jihozlash uchun talab qilinadigan texnologik vaqt omilini ham hisobga olish kerak. Nihoyat talab va taklifning mutanosibligiga asoslangan qonunlar amal qila boshlagunga qadar eski tasavvurlar va normalarni o'zgartirish uchun vaqt kerak bo'ladi.

Uchinchidan, kishilarning tafakkurini, odat tusiga kirgan qoidalarni o'zgartirish uchun muhimdir. Har bir bosqichda kishilarning tafakkurini o'zgarishlarni qabul qilishga tayyorlab, ularni amaliy ishlar bilan yangi tuzumning afzalligiga ishonitirib, boshqa mamlakatlarda yuz yillar davomida barpo etilgan qadriyatlarga erishish mumkin.

O'tishning evolyutsion yo'lining ijobiy tomoni shunda, madaniy hayotga asta–sekinlik bilan moslashtirib boriladi. Bu esa jamiyatda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan sotsial portlashlarning oldini olish, qarama - qarshiliklarni bartaraf etish imkoniyatini beradi.

Xullas, taraqqiyotning bosqichma–bosqich (evolyutsion) yo'li hozirgi kunda dunyo mamlakatlarining ayniqsa, mustaqillikni qo'lga kiritib, rivojlanishning demokratik yo'lini tanlagan davlatlar uchun eng samarali yo'ldir.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'llarigina emas, balki uning andozalari ham xilma - xildir. Bu andozalar turli mamlakatlarning milliy xususiyatlari va an'analari bilan farq qiladi. Andozalarni amalga oshiruvchi muayyan mamlakatga mansubligiga qarab ajratiladi. Masalan, Germaniya, Janubiy Koreya, Turkiya, Argentina, Pol'sha, Amerikacha andozalari, Lotin Amerikasi va Afrika andozalari, Janubiy–SHarqiy Osiyoning sanoati rivojlangan mamlakatlari–Singapur, Malayziya, Tayvan, Gonkong va hokazo andozalardir.

«O'zbekistonning sohta inqilobiy sakrashlarsiz, fojiali oqibatlarsiz va kuchli ijtimoiy larzalarsiz, evolyutsion yo'l bilan normal madaniyatli taraqqiyotga o'tish–tanlab olingan yo'ning asosiy mazmuni va mohiyatidir»¹.

O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgan dastlabki kunlardan o'z taraqqiyot yo'lini ishlab chiqishga astoydil kirishdi. Bu yo'l Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan besh tamoyilda o'z ifodasini topdi. O'zbekistonning o'z yo'li respublikani rivojlantirishning quyidagi asosiy o'ziga xos xususiyatlari va shart–sharoitlarini har tomonlama hisobga olishga asoslandi:

Birinchidan, u aholining tafakkur va milliy–tarixiy turmush tarzini, xalq an'analari va urf–odatlarini har tomonlama e'tiborga olish, ijtimoiy jihatdan uyushib yashashning jamoa shakli O'zbekiston xalqiga tarixan xos bo'lib, uning an'anaviy turmush tarzi bilan chambarchas bog'liq. Bu narsa oila manfaatlarining ustivorligiga, aholi hayot faoliyatining jamoaga sodiqligida, mahalla shaklini avaylab asrash va mustahkamlashda namoyon bo'ladi. SHuningdek o'zbeklar diyoriga, o'z Vataniga mehr–muhabbat, mehnatsevarlik, bilinga, ustozlarga, ajdodlarga nisbatan hurmat–ehtiros O'zbekiston aholisiga xos fazilatdir.

¹ Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'li. T.: «O'zbekiston»..1992, 10-bet.

Ikkinchidan, respublika qulay jug'rofiy-siyosiy mavqega ega. O'zbekiston xududi tarixan eng qadimgi savdo yo'llari tutashgan, tashqi aloqalar va madaniyatlarning bir-birini o'zaro boyitish jarayoni avj olgan joy bo'lib kelgan. Hozir ham O'zbekiston Markaziy Osiyoning o'z mustaqil energetika va suv tizimlariga ega markazi bo'lib, ko'pgina masalalarda qo'shni respublikalarni bog'lovchi bo'g'in xizmatini o'taydi.

Uchinchidan, o'ziga xos demografik vaziyatga ega ekanligi. O'zbekiston tug'ilish darajasi va aholining tabiiy o'sishi yuqori bo'lgan mamlakatlar jumlasiga kiradi. Bolalar tug'ilishi jihatdan O'zbekiston Markaziy Osiyoda Tojikistondan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Aholining yarmidan ko'prog'i qishloq joylarida yashaydi va asosan dehqonchilik bilan shug'ullanadi. Aholi tarkibida 60 foizdan ko'prog'i bolalar, o'smirlar, 25 yoshgacha bo'lgan yigit - qizlardir.

To'rtinchidan, Respublika milliy tarkibining o'ziga xosligidir. Etnik tarkibda tub aholi ustun mavqeni egallaydi. SHu bilan bir vaqtda respublika hududida o'z madaniyati va an'alariga ega bo'lgan 136 dan ziyod millat vakillari yashab kelmoqda. O'zbekistonning milliy rang - barangligi, barcha etnoslarning birgalikda hamjihatlikda jamiyatni yangilashda faol harakat qilishni taqazo etadi.

Beshinchidan, tabiiy-iqlim sharoitlarining o'ziga xosligi. O'zbekistonda quyoshning yil davomida 250 - 270 kun zenitda bo'lishi, dehqonchilik tarmog'ini rivojlantirish, alohida qimmatli texnik ekinlarni va chorvachilik mahsulotlari etishtirish imkoniyatini beradi.

Oltinchidan, O'zbekiston Respublikasining siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini himoya qilish, uning qudratli mamlakatlar safiga tezroq kirib borish imkonini beradigan etarli salohiyatga ega.

O'zbekiston-juda katta tabiiy va iqtisodiy imkoniyatlarga ega bo'lgan mamlakat. Zaminida boyliklarga ko'p O'zbekistondek davlatlar jahon xaritasida ko'p emas.

O'zbekistonda Mendelev davriy jadvalining deyarli barcha elementlari topilgan. Hozirga qadar 2,7 mingdan ziyod turli foydali qazilma konlari va ma'dan namoyon bo'lgan istiqbolli joylar aniqlangan. Ular 100 ga yaqin mineral xom-ashyo turlarini o'z ichiga oladi. SHundan 60 dan ortig'i ishlab chiqarishga jalb etilgan. 900 dan ortiq kon qidirib topilgan bo'lib, ularning tasdiqlangan zahiralari 970 milliard AQSh dollarini tashkil etadi. SHu bilan birga umumiy xom-ashyo potentsiali 3,3 trillion AQSh dollaridan ortiqroq baholangan¹.

Respublika dunyoda oltin zahiralari bo'yicha 4-o'rinda, uni qazib olish bo'yicha 7-o'rinda, mis zahiralari bo'yicha 10-11-o'rinda, uran zahirasi bo'yicha 7-8-o'rinda turadi. Hozir qidirib topilgan zahiralar negizida 400 ga yaqin kon, shaxta, kar'er, neft-gaz konlari ishlab turibdi.²

O'zbekiston o'zining keng tarmoqli sanoati bilan ham ajralib turadi. Sanoatda hozirgi zamonning bir qator eng muhim tarmoqlari rivojlanib bormoqda. O'zbekistonning iqtisodiy potentsialida og'ir sanoatning hissasi salmoqli o'rinni egallaydi. Uning yarmidan ko'prog'ini transport, avtomobilsozlik, elektrotexnika, to'qimachilik hamda qishloq xo'jalik mashinasozligi, kimyo va tog'-kon sanoati tarmoqlari tashkil etadi.

Respublikaning eng muhim boyligi uning xalqidir. Inson salohiyati eng faol, eng bunyodkor omil bo'lib, u mamlakatning islohotlar va tub o'zgarishlar yo'lidan ilgarilab borishini ta'minlaydi. Hozir respublika qudratli mehnat salohiyatiga ega. Mehnat zahiralari butun aholining deyarli 50 foizini tashkil etadi. Har yili 210 - 220 ming kishiga ko'payib bormoqda.

O'zbekistondagi mehnat salohiyatining muhim xususiyati-uning ta'lim darajasi yuqoriligidir. Savodxonlik darajasi 99,06 foizni tashkil etadi. Mehnat zahiralarning umumiy va professional ta'lim darajasi ham yuqoridir. 15 va undan katta yoshdagi har 1000 kishiga hisoblaganda oliy va

¹ Karimov I A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6.T.: «O'zbekiston». 1998, 132-b.

² Karimov I.A..O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida:xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: «O'zbekiston». 1997, .217-bet

³ Karimov I.A..O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida:xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: «O'zbekiston». 1997, 219-bet

⁴Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. «Xalq so'zi». 2002 yil 30 avgust

to'liqsiz oliy ma'lumotlilar 143 kishini tashkil etadi. Ta'lim olish 11,4 yilga etdi. Har 1000 kishining 200 nafari o'rta maxsus ma'lumotli mutaxassislardir¹.

Ettinchidan, o'tgan yillar davomida ma'lum qadriyatlarga ega bo'lgan kishilarning muayyan ijtimoiy ongi shakllanganligini ham e'tiborga olish kerak. «Eng asosiysi va eng muhimi, yurtimizda yashayotgan odamlar, ularning tafakkuri, hayotga, o'z atrofida yuz berayotgan barcha voqealarga bo'lgan munosabati o'zgarmoqda. Avvalambor, kishilarning ongini, hayot tarzini shakllantiradigan ijtimoiy munosabatlar butunlay yangicha ma'no–mazmun kasb etmoqda»². YUqorida qayd etilgan o'ziga xos shart–sharoitlar ham alohida, ham birgalikda hozirgi bosqichda O'zbekiston ichki va tashqi siyosatining o'ziga xos xususiyatlarini belgilab beradi.

O'tgan 16 yillik davr qo'yilgan maqsadlarni, tanlangan yo'lni hayotni o'zi ishonarli tarzda va yaqqol tasdiqladi. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda demokratik jamiyatga o'tishning bosqichlarini izchillik bilan bosib o'tilar ekan, ularning har biri Prezident I.A.Karimov asarlari, ma'ruzalarida chuqur tahlil etilmoqda, ular xalqimiz tomonidan to'la quvvatlanmoqda. Yangi jamiyat qurish sari tashlangan birinchi qadamlar eng to'g'ri yo'l ekanligini ko'rsatmoqda. Ammo hayot davom etmoqda, sharoit o'zgarmoqda, mavjud qadriyatlar urniga boshqasi kelmoqda. Bunday xol respublikamizda emas, butun dunyo miqyosida sodir bo'lmoqda.


Hozirgi kunning eng muhim vazifasi mamlakatimizda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida yuz bergan islohotlarni yangi pog'onaga ko'tarishdan iboratdir. Bunda bosqichma–bosqichlikni davomiyligini saqlash katta ahamiyatga ega. Shu munosabat bilan Prezidentimizning 2005 yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida, 2007 yil 12 fevralda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisida qilgan ma'ruzasida demokratik islohotlarning ustivor yo'nalish va vazifalari belgilab berildi. Bu demokratik islohotlarni bosqichma–bosqich izchillik bilan amalga oshirishdan guvohlikdir.

O'zbekiston ana shunday betakror xususiyatlarga, buyuk salohiyatga ega bo'lgan jannati makondir, shuning uchun biz Vatanimizni sevamiz, u biz uchun bamisoli nafas olayotganimiz, musaffo havo kapidir. Biz uning ma'rifatli farzandlarimiz. Saodatli kelajakka hozir, har daqiqada ulush qo'shmoq, Vatanga muhabbat, vatanparvarlikning asl ko'rinishidir. Vatanga munosib farzand bo'lish, qadrdon tuproq bilan chambarchas bog'liqlikni teran idrok etish, unga chin farzandlarcha munosabatda bo'lish, undan bir hissa narsa olinsa, yuz hissa qilib qaytarish, Vatanni anglash va ardoqlashning bir ko'rinishidir. Biz O'zbekiston deb atalmish beqiyos Vatanimizning buguni haqida so'z yuritganda istiqlol kamdan kam avlodlarga nasib etuvchi ne'mat ekanini anglab olishimiz zarur.

Bir tizimdan ikkinchisiga, markazlashtirilgan tartibda rejalashtirilgan va boshqaruvning ma'muriy–buyruqbozlik uslubidan, bozor iqtisodiyotiga o'tish–bu mavjud ho'jalik yuritish tizimini joriy etishdir. Bu bir sifat holatidan ikkinchisiga o'tishdir. Bu odamlar uchun mutlaqo yangi hayot falsafasidir. Shunga ko'ra, u bir vaqtning o'zida bo'ladigan tadbir sifatida amalga oshirilishi mumkin emas, balki bir qancha bosqichlarni o'z ichiga oluvchi uzoq davrni talab qiladi”.


I.A.Karimov

Taraqqiyotning “O‘zbek modeli”




“O‘zbek modeli”ning hayotiyligi

Mustaqil rivojlanishning o‘tgan davrini umumlashtirish va tahlil etish, isloh qilishning O‘zbekiston modeli asosli va to‘g‘ri bo‘liḡ chiqdi deḡ aytishga to‘la asos bor. Bugun uni obro‘li xalqaro iqtisodiy tashkilotlar, jahonning ko‘pgina mamlakatlari tan olmoqda. Eng asosiysi hayotning o‘zi uni tasdiqlamoqda.



Dunyoviy davlat tamoyillari



Bozor iqtisodiyotiga o'tish modellari

Andozalar		Bozor iqtisodiyoti yo'llari
Amerikacha andoza		Erkin bozor munosabatlari kuchli
Yapon va fransuz andozasi		Ho'jalik faoliyatini tashkil etishda davlatning ishtiroki katta
Nemes va shved andozasi		Ijtimoiy yo'nalish ustivor
Lotin Amerikasi va Afrika andozasi		Iqtisodiyotni barqarorlashtirishga, byudjet kamomadini keskin kamaytirishga, narx-navoni erkin qo'yib, keyinchalik tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan.
Sharqiy Yevropa: Pol'sha, Vengriya, Bolgariya, Rossiya. Markaziy Osiyo: Qozog'iston.		“Falaj” (Shok) holatida bozor sari bormoqalar.
Janubi- Sharqiy Osiyoning sanoati rivojlangan davlatlari: Singapur, Janubiy Koreya, Tayvan, Malayziya, Filippin, Gongkong.		Import mollari o'rniga o'zlariga mahsulot ishlab chiqarish strategiyasini tashqi dunyoga mo'ljallangan eksportni rag'batlantirish strategiyasi ila almashtirish bilan bog'liq ichki muammolarni hal qilish.

O'tish davri xulosalari


Birinchidan, o'tish davrida turli xildagi tartibsiz jarayonlar sodir bo'ladi. Bu o'z navbatida ayrim holatlarda omma hayotida katta fojealarni keltirib chiqaradi.

Ikkinchidan, feodalizm munosabatlari sharoitida yashayotgan mamlakatlarda demokratik jarayonlarni chetdan «eksport» qilib bo'lmaydi. Demokratiya shakllanishi uchun shart - sharoit yuzaga kelishi va imkoniyat yaratilishi lozim.

Uchinchidan, «O'tish davri» ijtimoiy - iqtisodiy, siyosiy tuzum emas, balki unga o'tish uchun zarur bo'ladigan zaminlarni shakllantirishga ketadigan tarixiy oraliq bosqichidir.

To'rtinchidan, «O'tish davri» qanchalik turli - tuman bo'lmasin bari bir barcha ijtimoiy - iqtisodiy va siyosiy tuzumlar uchun zarurdir.

O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'li xususiyatlari



Qisqa xulosalar

O'zbekiston – o'ziga xos mustaqil taraqqiyot yo'lini tanlab olgan davlat. Bu yo'l jahonda o'zbek modeli deb tan olingan rivojlanish yo'lidir. Uning ratsional mag'izi jamiyatni inqilobiy tarzda emas, balki evolyutsion – tadrijiy ravishda isloh etishni nazarda tutadi.

«O'zbek modeli»ning tarkibidagi beshta tamoyillar O'zbekistonning o'z istiqlool va taraqqiyot yo'lining asosini, o'tish davri dasturining negizini tashkil etadi. Ularning amalga oshirilishi mamlakatimizda ijtimoiy - siyosiy barqarorlikni, eng muhimi bozor munosabatlarini izchil joriy etishni ta'minlamoqda.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, fuqarolik jamiyatini shakllantirish taraqqiyotning «O'zbek modeli»ga xos asosiy yo'nalishlar qatoriga kiradi. Bu esa mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq yagona to'g'ri yo'lni tanlaganimiz va undan sobitqadamlik bilan borayotganligimizni yana bir karra tasdiqlamoqda. «O'zbek modeli» jamiyat taraqqiyoti jarayonida rivojlanib boradigan va hayot talablariga javob beradigan tamoyillar majmui ekanligining yorqin dalilidir. Dunyoviy jamiyat qurish pirovard umumiylik maqsad darajasiga ko'tarilgan O'zbekistonda din har qanday boshqa ob'ektiv hayotiy xodisalar kabi, muhim ijtimoiy–moddiy omil sifatida e'tirof etiladi.

Mustaqil O'zbekiston o'zining ichki va tashqi siyosatida Islom dini qobig'ida ifoda etilgan umuminsoniy qadriyatlarga jiddiy o'rin ajratadi. Islom dini xalqimizning moddiy va ma'naviy hayotining shakllanishida, yurtimizning jahon madaniyatining yirik maskaniga aylantirishida muhim ahamiyat kasb etishi shubhasizdir.

O'tish davri shartlarini bajarish uchun muayyan vaqt kerak. Bu vazifalarni bajarish jamiyat a'zolaridan maqsad sari intilish, chidamlilik va harakatchanlikni, liderlardan esa tashabbuskorlik, qat'iyatlilik va yuksak jasorat talab qiladi. SHunday paytda, mustaqillik tashqi hamda ichki tahdidlar va qarshiliklarga dosh bergan holda, barcha islohotlarning, o'tish davri vazifalarning amalga oshirishini ta'minlab beruvchi asosiy vositadir. Mavjud ulkan resurslar, aql - ziyo va ishlab chiqarish potentsiali davlat mustaqilligi bilan birgalikda, respublikada iqtisodiyotni yangilash, uni ma'rifiy rivojlanish yo'liga o'tishga doir tub islohotlarni amalga oshirishga shart - sharoit va imkoniyat yaratadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. O'zbekiston tanlagan taraqqiyot yo'lining o'ziga xos jihatlari nimalardan iborat?
2. «O'zbek modeli»ning asosini belgilaydigan tamoyillar qaysilar?
3. «O'zbek modeli» jamiyat ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayot sohalarida qanday namoyon bo'lmoqda?
4. Dunyoviy taraqqiyot yo'li—bu qanday yo'l, uning diniy, islom taraqqiyot yo'lidan farqi nimada?
5. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning qanday modellarini bilasiz?
6. Nima uchun mustaqillikni qo'lga kiritgan barcha mamlakatlar uchun «o'tish davri» zarur va umumiy qonuniyat hisoblanadi?
7. O'tish davrining «klassik», «inqilobiy», «evolyutsion» yo'llari mavjud. Ularning har biriga qisqacha izoh bering?
8. Qaysi mamlakatlar bozor iqtisodiyotiga o'tishda “Inqilobiy” yo'lni tanlaganlar?
9. O'tish davrining aniq belgilab qo'yilgan chegarasi bormi? Yoki u uzluksiz jarayonmi?
10. Bugun O'zbekiston demokratik jarayonlarni chuqurlashtirishning qanday vazifalarini izchillik bilan amalga oshirishdan iborat bo'lgan o'tish davrini o'z boshidan kechirmoqda?

Tayanch so'zlar:

Taraqqiyotning o'ziga xos yo'li, milliy xususiyatlar, milliy modellar, «O'zbek modeli», besh tamoyil, bosqichma - bosqich o'tish, dunyoviy davlat, milliy davlat, islom taraqqiyot yo'li, diniy qadriyatlar, inson huquqlari, inson erkinliklari, manfaatlar ustivorligi, huquqiy asoslar, vijdon erkinligi.

O'tish davri, o'tish yo'llari, klassik yo'l, evolyutsion yoki bosqichma - bosqich o'tish yo'li, o'tish davrining o'ziga xosligi, xususiyatlari, shart - sharoitlari, zaminlari, evolyutsion yo'l afzalliklari, o'tish davri chegarasi, O'zbekistonda o'tish davrining uchta bosqichi

Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. “O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 20 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. “Xalq so'zi” 2011 yil 7aprel'.
2. Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. - T.: O'zbekiston, 2007.- 3-48-b.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch.-T.:O'zbekiston, 2008.- 176 b.
4. Karimov I.A. “Eng asosiy me'zon – hayot haqiqatini aks ettirish”T.: O'zbekiston, 2009.- 24 b.
5. Karimov I.A. “Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari” - T.: O'zbekiston, 2009.- 56 b.
- 8.Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi “Xalq so'zi”, 2010 yil 13 noyabr'.

9. Karimov I. A. "Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qilsin". "Xalq so'zi", 2011 yil 23 yanvar.
10. Karimov I.A. "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida". -T.: O'zbekiston, 2011.- 1-31 betlar
11. I. A. Karimovning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 20 yilligi tantanalaridagi nutqi. "Xalq so'zi", 2011 yil 1 sentyabr'.
12. Karimov I. A. "Bizning yo'limiz – demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo'lidir". "Xalq so'zi", 2011 yil 8 dekabr'.
13. Karimov I.A. "Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir". "Xalq so'zi", 2012 yil 8 dekabr.
14. Karimov I.A. "Bosh maqsadimiz - keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish". "Xalq so'zi", 2013 yil 20 yanvar.
15. Aliyev B., Hoshimov T., Yuldashev O. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. Darslik. -T.: Iqtisodiyot.2008. 34-59-b.
16. Aliyev B., Yuldashev O., Qahhorova M. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. O'quv qo'llanma.-T.: "Iqtisodiyot".2011. 30-53-b.
17. Yuldashev O. Mustaqil taraqqiyot yo'li. -T.: "Iqtisodiyot". 2011. 34 b.

3- MAVZU. O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK JAMIYAT QURISHNING MILLIY, UMUMBASHARIY TAMOYILLARI VA QADRIYATLARI.

3.1 Demokratik jamiyatning milliy, umumbashariy tamoyillari va qadriyatlar tushunchasi.

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning milliy, umumbashariy tamoyillari va qadriyatlarining metodologik asoslari, ilmiy va amaliy jihatlar Prezident I.A.Karimov asarlari, nutqlarida keng hamda chuqur yoritilgan. Ma'lumki, «tamoyil» tushunchasi–yo'nalish, rus tilida qo'llaniladigan «tendentsiya» so'zi esa, asli lotinchadan kelib chiqqan bo'lib, «tamoyil» atamasining muqobilidir. Prezident I.A.Karimov asarlarida «tamoyil» va «yo'nalish» so'zlari sinonim sifatida qo'llanib kelinmoqda. Agar bu so'zlarning ma'nosiga e'tibor qaratilsa, ular jamiyatning turli jabharlarida ob'ektiv, takrorlanuvchi, ustuvor hodisa sifatida ko'zga tashlanadi. Demak, jamiyat hayotida «tamoyil» yoki «yo'nalish» ma'lum bir jarayondagi qonuniyatini o'zida aks ettiradi.

Prezident I.A.Karimov «O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'li», «O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li», «O'zbekistonning siyosiy - ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari» nomli risola va asarlarida O'zbekistonning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda chinakam demokratik davlat barpo etishning tamoyillari, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini, vujudga keltirish yo'llari va xalqning ma'naviy - ahloqiy qadriyatlarini mustahkamlashdan iborat bo'lishi ko'rsatilgan. Ushbu asarlarda mamlakat siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy–ma'naviy sohalarida olib boriladigan davlat siyosatining asosiy tamoyillari dalillar asosida yoritib berilgan. U taraqqiyotning «O'zbek modeli» degan nomni olgan bo'lib, unda tamoyil degan tushuncha o'zining to'liq ifodasini topgan. Aynan ana shu tamoyillarda bir tomondan milliylik, ikkinchi tomondan umuminsoniylik yo'nalishlari uyg'unlashdi yoki uning dialektik mutanosibligi o'z aksini topdi. «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida» kitobida ushbu tushunchalar, vazifalar, ustivor yo'nalishlar tarzda ifodalangan. «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» risolasida XXI asr arafasi va uning dastlabki yillarida mamlakatning rivojlanish strategiyasi, islohotlarni chuqurlashtirish va jamiyatni yangilash borasidagi faoliyati ustivor yo'nalishlar sifatida berilgan.

Prezidentimiz I.A.Karimov 2006 yil mamlakatni ijtimoiy - iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2007 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustivor yo'nalishlariga

bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasidagi ma'ruzasida, ustivor vazifa, asosiy ustivor yo'nalish, ustivor masala tushunchalari o'z ifodasini topgan.

Yuqorida keltirilgan dalillarga suyanadigan bo'lsak, «tamoyil», «yo'nalish», «ustivor vazifa» tushunchalari jamiyatning turli jabhalarida ob'ektiv, takrorlanuvchan, ustivor vazifa sifatida namoyon bo'lar ekan, u ma'lum bir jarayondagi qonuniyatni o'zida aks ettiradi.

Demokratik jamiyat barpo etishda milliy, umumbashariy tamoyillarning uyg'unligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Demokratik jamiyat qurishning dunyoda e'tirof etilgan bir qator tamoyillari mavjud. Ularga insonning o'z xohish-irodasini erkin bildirishi hamda uni amalga oshirilishi, ozchilikning ko'pchilikka bo'ysunishi, barcha fuqarolarning teng huquqliligi, davlat va jamiyat boshqaruvida qonun ustivorligi, davlatning asosiy organlarini saylanishi va boshqalar kiradi. Ana shu tamoyillar deyarli barcha rivojlangan mamlakatlar konstitutsiyalarida o'z ifodasini topgan.

Demokratiya har bir mamlakatning tarixiy an'analari, milliy xususiyatlari, milliy qadriyatlarini o'ziga singdirgandagina haqiqiy ijtimoiy kuchga aylanadi.

O'zbeklarning milliy ahloqi, uzoqni ko'ra bilib ish qilishi va andishasi, insoniy munosabatlar borasidagi samimiyati, halolligi, oqko'ngilligi, oilaviy munosabatlar, qo'ni-qo'shnichilikdagi adolat, mehr-muhabbati, yoshlar va kattalarga bo'lgan hurmati O'zbekistonda amal qilayotgan demokratiyaning muhim tamoyillaridir.

O'zbekistonda demokratik jamiyat barpo etishda milliy tamoyillarning asosini tashkil etuvchi qadriyatlar ham alohida o'ringa egadir. Qadriyat nima, u qanday tushunchani anglatadi? Qadriyat voqelikdagi muayyan hodisalarning iqtisodiy, ijtimoiy va ma'rifiy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llaniladigan tushuncha.

Qadriyat deyilganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarining manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va shu tufayli ular tomonidan baholanib, qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne'matlari, hodisalari majmui tushuniladi.

Qadriyatlar tarixiy va zamonaviy bo'lishi mumkin. Qadriyatlarning xilma - xil shakllari bor: moddiy, ma'naviy, umumbashariy, mintaqaviy, huquqiy, ilmiy, hayotning ijtimoiy tuzilishiga xos bo'lgan-milliy, sinfiy, partiyaviy va boshqalar. Qadriyatlar dunyoni bilishning maqsadi, bilimlarimizni haqiqatga mos kelish darajasini aniqlash mezonini yoki ideal tarzda ham namoyon bo'ladi. Qadriyatlarning asosiy funksiyasi ham ana shular bilan bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 23 aprelda «Respublika «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazini tashkil etish to'g'risida»gi, 1996 yil 9 sentyabrdagi «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi faoliyatini takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish to'g'risida»gi Farmonlarida, 2006 yil 26 avgustda «Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy - ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorida quyidagi qadriyatlar to'g'risida so'z yuritiladi:

- Vatan eng oliy makon, u menikidir;
- mulkning eng oliy shakli-intellektual mulk va inson faoliyatining eng asosiy turi;
- vaqt eng oliy boylik;
- umuminsoniy qadriyatlar;
- moddiy qadriyatlar;
- milliy qadriyatlar;
- mahalliy qadriyatlar;
- tabiiy qadriyatlar;
- iqtisodiy qadriyatlar;
- ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar;
- ma'naviy qadriyatlar;
- ahloqiy qadriyatlar;
- diniy qadriyatlar;
- oilaviy qadriyatlar;
- shaxsiy qadriyatlar;
- demokratik qadriyatlar;

- mintaqaviy qadriyatlar va hokazolar.

Qadriyatlar insoniyat tarixi davomida sekin-asta shakllanadi. Ularning miqdori va sifatining ortishi insoniyat taraqqiyoti qanchalik yuqorilashganligini ko'rsatadi. Qadriyatlarning mahalliy, milliy, mintaqaviy va umuminsoniy deb to'rt turga (guruhga) bo'lamiz chunki, «qadriyat» tushunchasi muayyan vaziyat va sharoitlarda shakllanadi. Jamiyat rivojlana borgan sari jahonning barcha xalqlariga tegishli, ya'ni umuminsoniy qadriyatlar ko'payib boraveradi va bu o'zgarishlar insoniyat o'z rivojida qanday yangi cho'qqilarni egallashining belgisi bo'ladi.

Mahalliy qadriyatlarning eng etuklari va umummilliy manfaatlarga moslari asta - sekin saralanib, umummilliy darajaga ko'tariladi. Milliy muhit qadriyatlarni yaratish va saralashning asosiy manbasidir. U mahalliy qadriyatlarning eng yaxshilarini o'z darajasiga ko'taradi va ularni etuklikka etkazib jahon miqyosiga olib chiqadi va umuminsoniy qadriyatlarni har bir kishining boyligiga aylantiradi.

Qadriyatlarning asosiy uch turi (guruhi) ustida to'htalamiz. Birinchisi, milliy qadriyatlar bo'lib, ular muayyan elat, millatga, uning uzoq va yaqin ajdodlariga xos bo'lgan qimmatli boylikdir.

Milliy qadriyatlarni asliga keltirish va rivojlantirishda xalqimizning ko'p asrlik an'analari, madaniyati, urf-odatlar, har-xil bayramlari, boy qadimiy me'rosi o'zining alohida o'rni va ahamiyatiga ega. Madaniy-ma'naviy merosimiz, asriy an'alar-o'tmishdan, avlod-ajdodlarimizdan bizlarga etib kelgan, bugungi hayotimiz uchun xizmat qilayotgan eng katta ma'naviy boylik, buyuk hazinadir. «Bu xazina insonga hayotda barqarorlik bag'ishlaydi, uning qarashlari shunchaki boylik orttirish yo'lida kun ko'rishga yo'l qo'ymaydi, moddiy qiyinchilik kunlarida irodani mustahkamlaydi»¹.

«Milliy qadriyatlar silsilasida diniy qadriyatlar alohida o'rin tutadi. Oldimizga qo'ygan ezgu maqsadlarga erishishda,—deydi Prezidentimiz «Turkiston—press» nodavlat axborot agentligi muxbiriga bergan interv'yusida,—milliy qadriyatlarimiz va o'zligimizga sadoqat bilan hayot kechirishda muqaddas dinimizning o'rni va ahamiyati beqiyos. Nega deganda, insoniylik, mehr - oqibat va muruvvat singari xalqimizga mansub bo'lgan fazilatlar aynan shu zaminda ijod etadi va rivojlanadi»².

Bugun mustaqil O'zbekiston sobiq sho'rolar davrida qo'ldan bergan barcha ma'naviy qadriyatlarni qaytarib oldi. Qisqa muddat ichida bu qadriyatlar ilmiy - adabiy, ko'rgazmali yohud sahna asarlari shaklida qayta-qayta nashr etilmoqda, namoyish qilinmoqda. Ammo nazarimizda, asl sharqona-o'zbekona qadriyatlarimizni targ'ibot-tashviqot qilishning zamonaviy shakllarini, xalqimizga, ayniqsa yoshlarimizga teranroq ta'sir etadigan yo'l va usullarni qidirib topishimiz kerak. Yoshlarimiz xatti-harakatida ba'zan ko'zga yaqqol tashlanib qolayotgan mol-dunyoga o'chlik va hokazolarning chuqur ildiz otishiga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Zotan komillik-ma'naviy tarbiyaning tamal toshi ayni bolalik va yoshlik paytlarida qo'yiladi.

Qadriyatlarning ikkinchi turi mintaqaviy qadriyatlar bo'lib, ular muayyan jug'rofiy mintaqalariga, masalan, Markaziy Osiyo xalqlariga xos bo'lgan moddiy, ijtimoiy, ma'naviy boyliklardir. Bunday qadriyatlar ayniqsa, bu o'lkadagi mutafakkirlarning tabiiy - ilmiy, badiiy meroslarida yaqqol ko'rinadi.

Boshqa qadriyatlar kabi bularning shakllanishining ob'ektiv va sub'ektiv asoslari bor. Ob'ektiv asoslari shundan iboratki, bu qadriyatlar yuzaga keltirilayotgan, shakllantirilayotgan davrda o'sha mintaqada ishlab chiqarish resurslari va moddiy hayot rivojlanayotgan bo'ladi. Sub'ektiv asoslar esa shundan iboratki, o'sha davrda dunyoviy ilm, madaniy muassasa, ta'lim-tarbiya o'choqlari nisbatan ko'payadi, bu soha doirasiga donishmandlar ilm - fan namoyondalari chiqadilar. Masalan, IX - XII asrlarda butun bir boshli olimlar guruhi ilm-ma'rifat maydoniga kirib keldilar.

¹ Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura.-T.: «O'zbekiston». 1996, 78-b.

² Karimov I.A. «Xalq so'zi». 2007 y. 27 fevral.

Mintaqaviy qadriyatlarda turli elatlarning umumiy birligi, bir - biriga yaqinligi, mehnat faoliyati, kasb-kori, malakalari, turmush tarzi va moddiy hayotga xos mushtarak jihatlar namoyon bo'ladi. Bunday qadriyatlar Markaziy Osiyo xalqlariga xos bo'lgan moddiy, ijtimoiy, ma'naviy boyliklardir.

Qadriyatlarning uchinchi turi umuminsoniy qadriyatlar bo'lib, ular butun insoniyatga, jahon xalqlariga tegishli bo'lgan ilm-fan, iqtisodiy (moddiy), siyosiy, ijtimoiy, ahloqiy, badiiy, diniy, xurfiylik boyliklaridan iborat.

Qadriyatlar orasida asosiy, belgilovchi, etakchi o'rinni umuminsoniy qadriyatlar egallaydi. Ular uzoq va yaqin o'tmishdagi, hozirgi davrdagi moddiy jihatlardan g'oyat qimmatli, o'chmas iz qoldirgan, mangu yashaydigan, butun ijtimoiy manfaati, ehtiyoji ezgulikka xizmat qiladigan umuminsoniy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy boyliklardir.

Umuminsoniy qadriyatlar ikki qismga, chunonchi, moddiy va ma'naviy umuminsoniy qadriyatlarga bo'linadi. Bulardan birinchilariga, asiri-antiqa obidalarini-me'morchilik binolari, milliy san'at buyumlari, tasviriy san'at asarlari kiradi. Ularga uy-ro'zg'or buyumlari, hunarmandchilik asbob - uskunalarining eng noyoblari va hokazolar kiradi. Ikkinchisiga, ilm-fan, muvaffaqiyatlari, yirik asarlar, kashfiyot-ixtirolar, ma'naviy madaniyat durdonalari, xurfiylilik, umuminsoniy ahloqiy printsiplar, me'yorlar va qoidalar kiradi.

Madaniy qadriyatlar insoniyatga madaniy yashash va faoliyat ko'rsatish imkoniyatlarini bersa, ma'naviy qadriyatlar unga hayotning mazmunini chuqurroq tushunish, jamiyat qonun-qoidalaridan samarali foydalanish, kundalik xatti-harakatlarda ma'naviy manfaat, ijtimoiy, ahloqiy imkoniyatni beradi.

Umuminsoniy moddiy va ma'naviy qadriyatlar o'z ijobiy ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydi. Oltin zanglamas, quyosh qoraymas deganlaridek, ular ham doimo qadimiy va navqiron bo'lib turaveradi. Bularni abadiy qadriyatlar, umumijtimoiy, goho umumbashariy qadriyatlar deb ataydilar. Inson ozodligi, salomatligi, har bir shaxsning yashash, bilim olish, keksayganda ijtimoiy himoyalash imkoniyati bilan dialektik tarzda bog'liq bo'lgan qadriyatlar o'z ahamiyatini doim saqlab qolaveradi.

Demak, umuminsoniy qadriyatlar tushunchasi butun jamiyat ahamiyatiga ega bo'lgan, insoniyatning mavjudligi, o'tmishi, bugungi va keljagini, yashashning asosiy yo'nalishlari, qonun-qoidalarini, talab va tartiblarining eng avvalo ozodlik, erkinlik, tinchlik, demokratiya tufayli shakllangan inson baxt-saodati kabi umuminsoniy ma'no va mazmun kashf etadigan qadriyatlardan iborat deyish mumkin.

Umuminsoniy qadriyatlar qandaydir o'zgarmas, aqidaviy tushunchalar emas. Davrlar o'tishi, sharoit, talab va ehtiyojlarning o'zgarishi bilan ularning mazmuni, baholash mezonlari ham o'zgarib boradi. Lekin bu o'zgarishlardan qat'iy nazar, umuminsoniy qadriyatlar odamlarni jipslashtiruvchi, mazmun-maqсадlar, ijtimoiy, ma'naviy kamolatining muayyan yo'llari uchun birgalashib kurashishga, harakat qilishga chorlovchi ijtimoiy hodisadir. Umuminsoniy qadriyatlar turli davlatlar, xalqlar o'rtasidagi ko'prik vositasini o'tab, odamlarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi, hamjihatlik va hamfikrlikka chorlovchi kuch vositasini o'tab, odamlarni bir - biriga yaqinlashtiruvchi, hamjihatlik va hamkorlikka chorlovchi kuch vositasini o'taydi. Ma'naviyat borasida ham umuminsoniy qadriyatlar xalqlarning barcha madaniyatlarini yaqinlashtiruvchi va ularni tezroq kamol topishiga imkon yaratib beradi.

«Bizning ma'naviy qadriyatlarimizni hozirgi demokratik jamiyatning qadriyatlari bilan uyg'unlashtirish kelajakda yanada ravnaq topishimizning, jamiyatimiz jahon hamjamiyatiga qo'shilishining garovidir»¹.

3.2. Milliy tamoyillar va qadriyatlarning demokratik jamiyat qurishda aks etishi.

¹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.-T.: «O'zbekiston». 1997, 151-bet.

² Fenomen-favqulodda (kamdan-kam uchraydigan) hodisa.

Yangi tarixiy davr–milliy istiqlol davri mamlakatimiz tarixiga ma’rifat davri, ma’rifatliylilik davri sifatida kirib kelmoqda. Istiqlol g’oyalari asosida bosh islohotchilik vazifasini bajarayotgan davlat odamlar ongi va tafakkurida tub burilishlar yasash, har qanday islohotlarni fuqarolar qalbi orqali o’tkazish yo’lini tanladi. Kishilarni bugunga va kelajakka munosabatlarini o’zgartirish muayyan manfaatlarga yondoshish ruhiyatini yangilash orqali asta - sekinlik bilan ularni ma’rifatli, komil inson qilib voyaga etkazishga olib boradi.

Tarixiy tafakkur va tarix falsafasi ma’rifatli jamiyat qurishning muhim omili bo’lib xizmat qiladi, zotan o’tmishni anglash, uni to’g’ri tushunish orqali kishilar ongi va ruhiyatida jiddiy o’zgarishlar yasashga, shu orqali hayotni, turmush tarzini, oxir - oqibatda esa jamiyatni ma’naviy isloh qilishga erishiladi.

Insoniyat tarixi–bu har birimizga bog’liq bo’lgan, o’zligimizni ko’rsatadigan, bizning olis shajaramizni, naslu–nasabimizni, insoniy qadru - qimmatimizni belgilaydigan muqaddas va mo’tabar voqealardir. Biz uni shunday tushunishimiz va shunday qabul qilishimiz kerak. Agar o’tmishimizga shunday munosabatda bo’lsak, ana shu yuksaklikdan turib unga qarasakkina, tarix ayni tafakkur mahsuliga aylangan taqdirdagina bizni ma’naviy jihatdan boyitishi, ruhiyatimizga qudrat baxsh etishi mumkin bo’ladi. Ana shu jihatdan olib qaraganda bugun hayot shajarasini davom ettirayotgan, o’ziga xos tarix yaratayotgan odamlarning dunyoqarashlari, ma’naviy - ruhiy kechinmalari, insoniy sha’ni nimalarga bog’liqligi, uning ildizlari qayoqqa etib borishi va qanday ma’naviy sarchashmalardan ozuqa olayotganligi aniq bo’ladi. U bevosita tarix va tarixshunoslik bilan bog’liq ekanligi ko’zga yaqqol tashlanadi. Agar tarix chindan ham falsafa va tafakkur mahsuliga aylansa, zamondoshlarimizning o’tmishi kimlarga borib taqalishi ayon bo’ladi va hayotda o’z o’rnimizni belgilashimizga, o’zimizning kimligimizni anglab olishimizga yordam beradi.

Gegel’ tabiriga ko’ra tarix davlatchilikdan boshlanadi. «Xalq davlat qurilishsiz hech qanday tarixga ega emas»,–deydi alloma. Ana shu nuqtai - nazardan qaraganda, milliy davlatchiligimiz tarixining qariyb uch ming yilligini nishonlash arafasida turgan xalqimiz o’z taqdirini butun insoniyat taqdiri, kishilik tarixi taqdiri bilan bog’liq holda ko’radi. Ayni ana shu taqdirdoshlik, insoniyat tarixining ana shu ibtidosi bilan bog’liq bo’lgan bugungi yangi jamiyat qurayotgan xalqimiz qiyofasini ko’rsatmoqda.

BMT Bosh Asambleyasi 48 - sessiyasida so’zga chiqqan O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov, «Biz uch ming yillik tarixga egamiz» degan edi. Har bir o’zbek, o’z millati va uning tarixi to’g’risida o’ylar ekan, «xalqimiz qachon va nimadan boshlangan?» degan savolni o’ziga yoki boshqalarga berishi muqarrar. Xalqimiz ming yillar davomida Amudaryo va Sirdaryo oralig’ini va uning atroflarini o’zlashtirib, insoniyat moddiy va ma’naviy madaniyatining maskanlaridan biriga o’z mehnati, sadoqati, muhabbati, izchilligi natijasida aylantirganlarning hammasi xalqimizning ildizlari, ajdodlari deb bilish tarixiy haqiqatdir va u bilan faxrlansa arziydi.

O’zining qadimiy davlatchilik an’analari bilan jahon davlatchiligi ilg’or tajribalarini uyg’unlashtirib, sintezlashtirgan holda «O’zbek modeli»ni dunyoga taqdim etmoqda. O’zbek xalqining fenomeni¹ jahon mehrobida paydo bo’lmoqda.

O’zbek xalqi tarixi, uning kechishi bevosita tarix falsafasi va tarixiy tafakkuri orqali bugun xalqni uyg’otmoqda, ular diqqatini o’ziga tortmoqda.

Tarixiy tafakkur va tarix falsafasi ma’rifatli jamiyat qurishning muhim omili bo’lib xizmat qiladi. Zotan, o’tmishni anglash, uni to’g’ri tushunish orqali kishilar ongi va ruhiyatida jiddiy o’zgarishlarga erishishga, shu orqali hayotni, turmush tarzini, oxir - oqibatda esa jamiyatni ma’naviy isloh qilishga erishiladi. Buni nimalarda ko’rishimiz mumkin?

Birinchidan, tarixni anglash orqali hayotni anglash qobiliyati shakllanadi.

Ikkinchidan, tarixiy tafakkur va tarix falsafasi orqali bugungi hayot mazmuni chuqurroq tushuniladi va istiqbolni ko’rish falsafasi dunyoga keladi. Bu har bir insonning o’ziga xos tafakkur tarzini shakllantirish orqali shaxs sifatidagi o’zligini vujudga keltirishga, fe’l-atvorining shakllanishiga xizmat qiladi.

Uchinchidan, tarixni o'rganish orqali mustamlakachilik ta'sirida va kommunistik zo'ravonlik mafkurasida o'zligini yo'qotgan fuqaroni uyg'otishga, o'zligini anglashga, o'z haq - huquqlarini himoya qila oladigan barkamol shaxs sifatida shakllanishga da'vat etadi.

To'rtinchidan, ajdodlari buyuk bo'lgan, jahon tsivilizatsiyasi va insoniyat taraqqiyotiga juda katta hissa qo'shgan madaniyatga daxldor fuqaro qalbida o'tmishni o'rganish orqali milliy g'ururning uyg'onishi, mamlakat mustaqil taraqqiyot yo'lini tanlagan bir paytda katta ijtimoiy-ma'naviy qudrat va ulkan siyosiy iroda kuchi bo'lib xizmat qiladi.

Beshinchidan, har bir fuqaroni ma'naviy-ruhiy va ahloqiy jihatdan yangilash orqali jamiyatni yangilash, turmush tarzini yangilash kabi g'oyatda chuqur, keng miqyosli islohot amalga oshiriladi.

Aslini olganda, tarix faqat o'tmish haqidagi ma'lumotlar yoki tushunchalarni ifodalash bilan cheklanmaydi. Uning buyuk qudrati, tarbiyaviy kuchi, murabbiylik mohiyati o'tmishni o'rganish, tadqiq etish orqali bugunni baholash, bugunni anglash, bugungi odamlarni tushunish va ularni yo'lga solish borasidagi fikrlarni, g'oyalarni o'zida mujassam etganida namoyon bo'ladi. Prezident I.A.Karimov tarixga ana shunday nuqtai nazardan qaraydi va uning barcha imkoniyatlarini inson ma'naviyatiga to'la safarbar etish zarurligini asoslab beradi.

O'zbek xalqi tarixi, uning kechishi bevosita tarix falsafasi va tarix tafakkuri orqali bugun odamlarni uyg'otmoqda, ular diqqatini o'ziga tortmoqda. Zamondoshlarimiz ongi, qalbi orqali butun o'tmish o'z yutuqlari va muammolari bilan yaxlit holda jonlanmoqda. Shu asosda xalqimizning ma'naviy qudratiga, ruhiy tayanchiga aylanmoqda, olis istiqbolni belgilashda o'ta muhim omil sifatida xizmat qilmoqda.

3.2 O'zbekistonda demokratik jamiyat barpo etishda milliy va umumbashariy qadriyatlarning uyg'unlashuvi va uning tarixiy ahamiyati

Mamlakatimizda demokratik jamiyat barpo etishda milliy va umumbashariy qadriyatlarning uyg'unlashuvi taraqqiyotning zaruriy qonunidir. Umumbashariy tamoyillar va qadriyatlar qandaydir o'zgarmas, aqidaviy tushunchalar emas. Davrlar o'tishi, sharoit, talab va ehtiyojlarning o'zgarishi bilan ularning mazmunan baholash mezonlari ham o'zgarib boradi. Lekin bu o'zgarishlardan qat'iy nazar, umuminsoniy qadriyatlar odamlarni jipslashtiruvchi, ma'lum maqsadlar, ijtimoiy, ma'naviy yo'llar uchun birgalashib kurashishda, harakat qilishda chorlovchi ijtimoiy hodisalardir. Umuminsoniy qadriyatlar turli davlatlar, xalqlar o'rtasidagi ko'priklar vositasini o'tab, odamlarni bir - biriga yaqinlashtiruvchi, hamjihatlik va hamkorlikka chorlovchi kuch vositasini o'taydi. Ma'naviyat borasida ham umuminsoniy qadriyatlar xalqlarning barcha madaniyatini yaqinlashtiradi va ularning tezkor kamol topishga imkon beradi.

O'zbekistonda erkin, adolatli jamiyat qurish vazifasini amalga oshirish jarayoni demokratiyaning umuminsoniy va milliy - ma'naviy qadriyatlari uyg'un ekanligi e'tirof etiladi. Demokratiyaning asosiy belgisi aniq olgan u yoki bu mamlakatda xalqni oliy hokimiyatning amalga oshiruvchi manbai ekanligini e'tirof etishdir.

Har bir xalqning milliy ongida shu xalqqa xos va mos bo'lgan, tarixan shakllangan asosiy jihatlar borki, u shu xalqning ruhiyatini, mentalitetini, xarakterini o'zida aks ettiradi va ular mamlakatning siyosiy tizimida o'zining izlarini qoldirmasligi mumkin emas. Albatta dunyo taraqqiyotida demokratiya umuminsoniy qadriyat sifatida turli xalqlar, millatlar tafakkuri va turmush tarziga singanligi e'tirof etilgan, shunga mos ravishda e'tirof etilayotgan, amal qilib kelinayotgan boshqarish uslubidir. Bu umumiy qonuniyat. Ayni paytda, ana shu umumiy qonuniyatning ikkinchi muhim bir jihatini hisobga olmaslik ham mumkin emas. Bu har bir xalqning hayot tarzi, mintaliteti, demokratiyani his etish, anglash, tushunish va unga amal qilish xususiyatining mavjudligi bilan bog'liq. Hamma xalqlar uchun yagona siyosiy idora etish uslubi, yagona jamiyat andozasi yo'q. Birini ikkinchisidan afzal ko'rish ham mumkin emas. Umuminsoniy qadriyatga aylangan demokratiyaning hamma uchun muhim va ahamiyatli bo'lgan jihatlarni tan olib, uni har bir xalqning milliy - ma'naviy ruhiyati asosida qaror toptirish va umuminsoniy hodisaga aylanishini e'tirof etmaslik jamiyat rivojiga, demokratik taraqqiyot mantig'iga to'g'ri

kelmaydi. Demokratiya qanchalik umuminsoniy ma'no va qadriyat kasb etmasin, uning negizini, unga ruhiy kuch-quvvat beradigan, uni boyitib turadigan, rang-barangligini ta'minlaydigan jihat bu «milliylik», «milliy ruhiyat» milliy-ma'naviy qadriyatlardir. Demokratiya milliylikni, milliy ruhiyatni hisobga olmasa, unga tayanmasa, o'z mohiyatiga zid bo'lib qoladi.


Bugun «milliy davlatchilik», «milliy demokratik davlatchilik», umuminsoniy qadriyatlar inson ma'naviy, ijtimoiy kamolatini qandaydir alohida, boshqalardan ajralgan tomoni emas, balki ular umuminsoniy milliy va mintaqaviy qadriyatlarning umumlashgan ifodasidir. Umuminsoniy qadriyatlar butun insoniyatga xos qadriyatlar asosida tashkil topadi va rivojlanadi. Ular ayni vaqtda barcha milliy qadriyatlarning bir-biriga yaqinlanishi va rivojlanishiga xizmat qiladi.

Insonparvarlik g'oyalarga sadoqat, demokratiya, ijtimoiy adolat hamma erda barqaror bo'lishiga intilish, inson huquqlarini poymol etilishiga yo'l qo'ymaslik, xalqlarning milliy mustaqillik uchun bo'lgan kurashlarini himoya qilish, kishilarni do'stlik, hamkorlik va hamdardlikka chorlash, hamma erda tinchlik, osoyishtalik qaror topishga harakat qilish, atrof-muhitni toza saqlash umuminsoniy qadriyatlarning hozirgi kunda katta ahamiyatga kasb etayotgan jihatlaridir. Mintaqaviy qadriyatlar ham umuminsoniy qadriyatlar bilan chambarchas bog'langan.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unlashuvi shunga olib keladiki, butun insoniyat tomonidan qo'lga kiritilgan fan, texnika, madaniyat, ijtimoiy ishlab chiqarish munosabatlarini rivojlantirish borasidagi yangi jihatlar, demokratiya, qonunchilik, adolat borasidagi yutuqlardan ham iborat bo'lib, ulardan oqilona foydalanish respublikamizni jahondagi rivojlangan davlatlardan biriga aylantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda qadriyatlar jamiyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida shakllangan va rivojlangan, o'tmishda, hozirgi kunda va kelajakda ham ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta'sir etadigan, kishilar ongiga singib, ahamiyat kasb etgan moddiy, ma'naviy boyliklardir. SHu nuqtai-nazardan, tarixiy tajriba, an'analarning meros bo'lib o'tishi-bularning barchasi yangi avlodlarni tarbiyalaydigan qadriyatlarga aylanib qolishi lozim.

Demak, milliy qadriyatlar umuminsoniy demokratik tamoyillar bilan uyg'unlashtirilsa, shundagina jamiyat taraqqiyotining rivojlanishida uning o'rni alohida ahamiyatga ega bo'ladi.



Qadriyat turlari

Milliy qadriyatlar	Milliy qadriyatlar—millat uchun muhim va jiddiy ahamiyatga ega bo'lgan moddiy va ma'naviy boyliklar majmudir. Milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, kelajari, uni tashkil etgan avlodlar, qarashlar, milliy ong, til, ma'naviyat va madaniyat bilan uzviy holda namoyon bo'ladi.
Mintaqaviy qadriyatlar	Turmush sharoitlari, tili, madaniyati, dini, urf-odatlarini bir-biriga yaqin bo'lgan xalqlar qadriyatidir. Markaziy Osiyo xalqlarining milliy qadriyatlaridagi xos jihatlari: a) turkiston makoni va ona yurtga ehtirom; b) avlodlar xotirasiga ehtirom; v) kattalarra hurmat, yoshlarra izzat; g) insoniy muomalada mulozamat; d) xayo, andisha, vazminlik, sabr-toqat kabilarninr ustivorliri
Umuminsoniy qadriyatlar	Umuminsoniy qadriyat tushunchasi butun jamiyat ahamiyatiga ega bo'lgan insoniyatning mavjudligi qonun-qoidalarini, talab va tartiblarini, odamlarning eng azaliy orzu-umidlarini va ideallarini o'zida aks ettiradigan qadriyatlarning umumiy shakllarini ifodalaydi. Umuminsoniy qadriyat tushunchasining ob'ektiv asosi jamiyatdir.
Demokratik qadriyatlar	Insonparvarlik g'oyalariga sadoqat, demokratiya, ijtimoiy adolat, hamma sohada barqaror bo'lishiga intilish, inson xuquqlari poymol etilishiga yo'l qo'ymaslik, hamma xalqlarning milliy mustaqillik uchun bo'lgan kurashlarini himoya qilish kishilarni do'stlik, hamkorlik, hamdardlikka chorlash, hamma yerda tinchlik, osoyishtalik qaror topishiga harakat qilish, atrof-muhitni toza saqlash umuminsoniy qadriyatlarning hozirgi kunda katta ahamiyat kasb etayotgan jihatidir.

Mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy negizlari

Umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik

Xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish

Insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi

Vatanparvarlik

Qisqa xulosalar

Qadriyatlarni inson yaratadi, boyitadi, yangilaydi. U hamma vaqt ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta'sir etib, ijtimoiy ahamiyat kasb etgan moddiy, ma'naviy boyliklardir. Qadriyatlar o'tmish bilan bugungi kunni va kelajakni bog'laydigan vosita rolini o'taydi. Qadriyatlar milliy, mintaqaviy va umuminsoniy ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Qadriyatlar orasida asosiy, belgilovchi, etakchi o'rinni umuminsoniy qadriyatlar egallaydi. Uning zaminida eng avvalo ozodlik, erkinlik, tinchlik, demokratiya tufayli shakllangan inson baxt - saodati kabi umumijtimoiy ma'no va mazmun kashf etadigan qadriyatlar yotadi.

O'zbekistonda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligiga asoslangan holda, insonni kamolotga etaklaydi, hayotda, jamiyatda o'z mavqeiga, o'rniga, nufuziga ega bo'lishini ta'minlaydi, pirovard natijada demokratik davlat fuqarolik jamiyatini qurishning garovi hamdir.

Tayanch so'zlar

Qadriyat tushunchasi, milliy qadriyatlar, mintaqaviy qadriyatlar, umumbashariy qadriyatlar, milliy va umumbashariy qadriyalar uyg'unligi, qadriyatlarning tarixiyliigi va zamonaviyliigi. Demokratik qadriyatlar, milliy qadriyatlar va demokratik tamoyillar.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Qadriyat, bu nima degani? Qadriyatlarning mohiyati va ularning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni qanday?
2. Qadriyatlarning eng muhim ikki turi mavjud: bular milliy qadriyatlar va umuminsoniy qadriyatlar. Ularning har ikkalasining mohiyatini ochib bering?
3. Demokratik jamiyatni umuminsoniy va milliy qadriyatlarsiz tasavvur etish mumkinmi? Agar mumkin bo'lmasa uning sababini asoslang?
4. Umuminsoniy qadriyat deganda umumijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi narsalar, xodisalar tushuniladi. Ana shu narsalar, hodisalar, tushunchalar nima va siz uni qanday tushunasiz?
5. Milliy qadriyatlar va demokratiya tamoyillari o'rtasidagi mutanosiblikka erishishning jahondagi sinalgan tajribasi bormi?

6. O'zbekistonda adolatli demokratik jamiyat qurishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning mutanosibligi amaliy hayotda o'zini qanday namoyon etmoqda?
7. Milliy qadriyatlarning demokratik jamiyat qurishdagi roli qanday?
8. Milliy qadriyatlarning zamonaviyligini tushintirib bering?
9. Mintaqaviy qadriyatlarni umummilliy qadriyatlardan farqi nimada?
10. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unlashuvi nimani anglatadi?

Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.:O'zbekiston, 2010.-3-36-b.
2. "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" Davlat dasturi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. "Xalq so'zi" 2011 yil 21 yanvar'.
- 3."O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 20 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori."Xalq so'zi" 2011 yil 7aprel'.
4. Karimov I.A. Adolat qonun ustuvorligida. T.10.-T.: O'zbekiston, 2002. 26-52-b.
5. Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. - T.: O'zbekiston, 2007.- 3-48-b.
1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat –engilmas kuch. - T.: Ma'naviyat. 2008.- 176 b.
2. Karimov I.A. "Eng asosiy me'zon – hayot haqiqatini aks ettirish" T.: O'zbekiston, 2009.- 24 b.
3. Karimov I.A. "Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" - T.: O'zbekiston, 2009.- 56 b.
9. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi "Xalq so'zi", 2010 yil 13 noyabr'.
10. Karimov I. A. "Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qilsin". "Xalq so'zi", 2011 yil 23 yanvar.
11. Karimov I.A. "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida". –T.: O'zbekiston, 2011.- 157-192-b.
12. I. A. Karimovning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 20 yilligi tantanalaridagi nutqi. "Xalq so'zi", 2011 yil 1 sentyabr'.
13. Karimov I. A. "Bizning yo'limiz – demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo'lidir". "Xalq so'zi", 2011 yil 8 derabr'.
14. 13. .Karimov I.A. "Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir". "Xalq so'zi", 2012 yil 8 dekabr.
- 15..Karimov I.A. "Bosh maqsadimiz - keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davov ettirish". "Xalq so'zi", 2013 yil 20 yanvar.
- 16.Aliyev B., Hoshimov T., Yuldashev O. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. Darslik .-T. "Iqtisodiyot", 2008. -59-84-b.
17. Aliyev B., Yuldashev O., Qahhorova M. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. O'quv qo'llanma.-T.: "Iqtisodiyot".2011. 53-65-b.

II. Bo'lim. O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK, FUQAROLIK JAMIYATINI BARPO ETISH ASOSLARI

4-Mavzu. QONUN USTUVORLIGI DEMOKRATIK FUQAROLIK JAMIYATI QURILISHINING ASOSI. MILLIY-MA'NAViy NEGIZLARGA TAYANISH- DEMOKRATIK JAMIYAT QURISHNING ZARURIY SHARTI.

4.1 O'zbekistonda demokratik, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurilishida qonun ustuvorligi tamoyilining mohiyati, mazmuni hamda uning mustahkamlanishi.

O'zbekistonda qonun ustuvorligiga asoslangan huquqiy demokratik davlat, fuqarolik jamiyatini barpo etish jamiyatimiz rivojining siyosiy va konstitutsiyaviy maqsadi etib belgilangan. Qonun ustivor bo'lgan davlat haqida uzoq va yaqin o'tmishdan turli-tuman qarashlar, nazariyalar, orzu - niyatlar olg'a surilgan.

Qonun ustuvorligi tamoyiliga asoslangan davlat insoniyatning eng yuqori tsivilizatsiyasining mahsulidir. Uning asosiy alomatlari faqat so'nggi davrdagi nazariy qarashlar va tajribalar asosida emas, balki minglab yillar mobaynida to'plangan adolatli va fozil jamiyat qurish an'analari va tajribalaridan oziqlanib kamol topadi.

Qadimgi yunon falsafasining buyuk namoyondasi Suqrot odil qonunlar hukm suruvchi shahar davlatining e'tiqodli tarafdori bo'lgani holda, siyosiy erkinliklarni aqlga tayanib ishlab chiqilgan va adolatli qonunlarning hukmronligi bilan bog'lagan.

Qonunchilik Arastu fikricha, siyosatning bir qismidir. SHuning uchun qonunchining san'ati davlat tuzumining xususiyatlarini qonunlarda to'g'ri aks ettirishdan iborat

Forobiy uyg'onish davrida mutafakkirlar, hokimlar va fuqarolarni adolatga, qonunlarga amal qilishga undagan.

Qonun ustivorligi tushunchasi buyuk davlat arbobi Amir Temurning vasiyati, siyosiy dasturi bo'lishi «Temur tuzuklari»da ham yuqori darajada ta'kidlanishi bilan birga sohibqironning o'zi qonunlar ustivor bo'lishiga amal qilgan.

«...Davlat agar dinu oyin (qayda rasm, tartib, odat, ravish) asosida qurilmas ekan, tura - tuzukka bog'lanmas ekan, unday saltanatning shukuxi, qudrati va tartibi yo'qoladi. Bunday saltanat yalang'och odamga o'xsharkim, uni ko'rgan har kimsa nazarini olib qochadi. Yohud kassu - nokas tap tortmay kirib chiqadigan tomsiz, eshigi - tusig'i yo'q uyga o'xshaydi».¹

Qonunning ustivorligi davlat va jamiyat hayotining muqaddas tamoyillaridan biridir. Ijtimoiy - siyosiy turmushda qonun muqaddas sanalib, uni yuksak e'tiborga ega bo'lishining boisi, sababi shuki, unda xalqning xukumron irodasi, xohish istagi, manfaati va intilishlari o'zining mujassam ifodasini topadi. Shunday ekan, qonunning ustivorligi qanday tamoyillarda o'zini namoyon qiladi:

–qonunga xos barcha xususiyatlarning, shu jumladan davlat va jamiyat hayotining muhim masalalarini qonun yordamida hal etilishining normativ mustahkamligi;

–davlat organlari va jamoat tashkilotlari qo'llanadigan barcha huquqiy aktlar orasida qonun ustivorligi belgilab qo'yilganligi;

–barcha qonunchilik tamoyillariga rioya etilishi konstitutsiyaviy tarzda mustahkamlab qo'yilganligi;

–qonunning yuridik kuchgi boshqa normativ aktlardan yuqoriligi belgilab qo'yilganligi;

–konstitutsiyaviy nazoratni amalga oshirilishi.

Qonun–bu huquqiy davlatdagi fuqarolarning erkinligi, tengligini, tartib va uyushqoqligini, sotsial adolatni ta'minlab berishda himoyachidir.

Qonun inson huquqlari va xalqning huquqlari, shaxsning daxlsizligi va xavfsizligi, o'y - joyga bo'lgan huquqi, o'z taqdirini o'zi belgilash huquqlarini himoya qilish kafolatidir. Har qanday kamsitish, cheklashlar mumkin bo'lmagan holat deb tushuniladi. Yuqoridagi holatlardan kelib chiqib huquqiy davlat quyidagi tamoyillarga asoslanadi: «Qonun yo'li bilan taqiqlanmagan hamma narsaga ruxsat beriladi».

¹ Temur tuzuklari. -T.: «Gofur Gulom». 1991, 54-bet.

Qonun ustivor bo'lgan davlatda qonunning ustivorligi shuni bildiradiki, barcha joriy qonunlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlar Konstitutsiya asosida va unga muvofiq bo'lishi talab etiladi. Birorta ham qonun yoki normativ - huquqiy hujjat unga zid bo'lmasligi kerak.

Qonun ustivorligi amal qilgan jamiyatda ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy shuningdek tashqi munosabatlarni tartibga solib turuvchi mukammal hujjatlarning mavjud bo'lishi, amal qilishi, tegishli davlat idoralari nazorati ostida barcha sub'ektlar tomonidan ularning bajarilishi talab etiladi. Bu yo'nalishda hozirdayoq ko'plab huquqiy aktlar yaratildi va amaliyotga kiritildi.

Me'yoriy huquqiy hujjatlar o'z mohiyati va mazmuni jihatidan demokratik, adolatli, insonparvar bo'lib, davlat va fuqarolar o'rtasidagi barcha munosabatlarni, hokimiyatni bo'linishi tamoyilini, konstitutsiyaning va qonunning ustivorligini, davlat idoralari huquqiy maqomi hamda vakolatlarini to'liq belgilab beraveradi.

Qonun ustivor bo'lgan huquqiy davlatda fuqarolar bilan davlat o'zaro huquqlar va burchlar orqali bog'liqdirlar. Fuqarolarning huquqlari va erkinliklari daxlsiz bo'lib, hech kim ularni sudning qarorisiz o'z huquqlaridan mahrum etishi yoki cheklashi mumkin emas. Ayni vaqtda fuqarolarning o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishlari boshqa fuqarolarning davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlariga zid bo'lmasligi lozim.

Fuqarolarning huquqlari, hamda erkinliklari konstitutsiyada o'zining mukammal ifodasini topgan va «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi»ning deyarli barcha printsiplal qoidalarini o'ziga singdigan. Insonning hayoti, shaxsi va erkinligi daxlsizdir. O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar qonun oldida tengdirlar. Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo'yiladi hamda ijtimoiy adolat printsiplariga mos bo'lishi shart (18 - modda).

Huquqiy davlatda inson oliy qadriyat hisoblanib, uning huquqlari, qadr-qiymati, shaxsning benazirligi, erkaklar va ayollarning teng huquqliligi qonun izmi bilan muhofaza qilinadi. Hech kim azob - uqibatga yoki vahshiylikka, insonlikka isnod bo'lgan jazoga mustahiq bo'lmaydi. Har bir inson, maboda uning Konstitutsiya berib qo'ygan huquqlari buzulgidek bo'lsa, sudlar tomonidan o'z huquqlarini samarali tarzda tiklanishi huquqiga egadir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida asosiy huquqlar bilan bir qatorda burchlar mustahkamlangan bo'lib, ular jamiyatimiz fuqarolarini ijtimoiy-siyosiy faolligini rag'batlantiradi.

Fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qiymatini hurmat qilishga majburlar (48 - modda), fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy-ma'rifiy merosini avaylab asrashga majburdirlar (49 - modda), fuqarolar atrof - tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar (50 - modda), fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'implarni to'lashga majburdirlar (51 - modda). O'zbekiston Respublikasini himoya qilish-O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majburdirlar (52 - modda).

Fuqarolarning barcha huquq erkinliklari va burchlari yagona tamoyil asosida amalga oshiriladi. Bu tamoyillar ichida fuqarolarning yuridik tengligi alohida ajralib turadi. Yuridik tenglikning asosiy ma'nosi shundan iboratki, qonun umumiy yagona mohiyat kasb etib barcha fuqarolar uchun bir xildir. Yangilanayotgan jamiyatimizda bir xil qonunlar, hamma va har birimiz uchun bir xil intizom amal qiladi. Qonunlarning barcha davlat va jamoat organlari, mulk shaklidan qat'iy nazar barcha tashkilot, muassasa va korxonalar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan so'zsiz amalga oshirilishi va og'ishmay ijro etilishi shart, bu umumiylik, qonuniylikning asosiy belgisi va mazmuni hisoblanadi.

Qonun ustivor bo'lgan O'zbekiston Respublikasida qonunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin - qizlar, fahriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar va boshqa jamoat birlashmalari manfaatlarini muhofaza etadi, ularga ijtimoiy turmushda ishtirok etish uchun teng huquqiy erkinlik yaratib beradi.

Ayni paytda huquqiy davlat O'zbekistonning davlat mustaqilligiga, hududiy yaxlitligiga va xavfsizligiga rahna soladigan, milliy va diniy adovatni avj oldiradigan, urush va zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi Konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib quyuvchi, xalqning demokratik erkinliklari va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi partiyalar va jamoat birlashmalari, nodavlat-notijorat tashkilotlarini tuzishni va faoliyatini ta'qiqlaydi. Misol o'rnida: tahlillarni ko'rsatishicha 2004 yil boshida O'zbekistonda 5,5 ming nodavlat - notijorat tashkilotlari faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, keyingi yillarda 300 dan ortig'i o'z faoliyatlarini to'htatdilar. Sababi, ular «inson huquqlari» va «xayriya» kabi sohta va qalbaki shiorlar ostidagi faoliyati bilan jamiyatda beqarorlikni yuzaga keltirish, vaziyatni keskinlashtirish, «sohta demokratik ekspansiya»ni hayotga tatbiq etishdan iborat noqonuniy xatti-harakat bo'ldi. Ularning faoliyati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 57-moddasiga binoan zid bo'lgan harakat deb belgilandi.

4.2. Davlat hokimiyati tizimining bo'linish printsipli va O'zbekistonda parlament taraqqiyotining yangi bosqichi.

Konstitutsiyaning 11-moddasiga muvofiq «O'zbekiston Respublikasi Davlat hokimiyatining tizimi-hokimiyatning Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi printsipligiga asoslanadi». Asosiy qonunda ana shu uchta hokimiyat idoralarining o'zaro uyg'un faoliyat vositalari, shuningdek, bu idoralarning o'zaro bir - birini tiyib turish tizimini vujudga keltiruvchi qoidalarda mustahkamlangan.

Oliy Majlis qonun chiqaruvchi vazifasini bajaruvchi konstitutsiyaviy organdir. Oliy Majlis Oliy davlat vakillik organi u ikki palatali bo'lib, qo'yi-Qonunchilik palatasi, yuqori-Senatdan iborat. Qonunchilik palatasi saylov okruglari bo'yicha, ko'ppartiyaviylik asosida saylanadigan 120 deputatdan, yuqori palata Senat 100 ta senatordan iborat bo'lib, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining har biridan 6 kishidan, jami 84 nafar senator saylanadi. Senatning 16 nafar a'zosi fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida, hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo'lgan, alohida xizmat ko'rsatgan eng obro'li fuqarolar orasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari va Senat a'zolari umumiy, teng va to'g'ridan - to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish orqali saylanadilar. Quyi palata deputatlari o'z saylovchilarining shuningdek, o'zini deputatlikka nomzod etib ko'rsatgan tegishli siyosiy partiyalar vakillari hisoblansa, senatorlar esa tegishli hokimiyatning vakillik organining vakili hisoblanadi.

Parlamentning yalpi majlisi har ikki palataning tashkiliy shaklidir. Har ikki palata qonunlar muhokamasini tashkil etish uchun o'zini yalpi majlisiga yig'iladi. Parlamentda davlat ichki va tashqi siyosatining eng muhim masalalari muhokama etiladi. Biroq, qoida sifatida, qonun loyihalarini tayyorlash bo'yicha ishning asosiy qismi Qonunchilik palatasining qumitalar majlislarida amalga oshiriladi. Qumita va komissiyalar O'zbekiston Respublikasi qonunlarining ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradilar. Parlament o'z qumitalarini hukumatda vazifalarning taqsimlanishiga muvofiq ravishda tasdiqlaydi. Jumladan, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish masalalari, xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar, byudjet, bank va moliya masalalari bo'yicha qumitalar mavjud. Bu alohida ahamiyatga ega, negaki, parlamentning byudjetni taqsimlashdan iborat suveren huquqini amalga oshirishga imkon yaratadi. Xalqaro normalarga muvofiq, Oliy Majlisning «Inson huquqlari bo'yicha vakili instituti» joriy etilgan.

Qonun loyhasi tashabbuskorlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 83 - moddasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, o'z davlat hokimiyatining oliy vakillik organi orqali Qoraqalpog'iston Respublikasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori egadirlar.

Qonun Qonunchilik palatasi qumitalari tomonidan tayyorlangandan so'ng uning yalpi majlisida muhokama etilib, tasdiqlangandan so'ng o'n kundan kechiktirmay O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga yuboriladi. Senat ma'qullagan qonun imzolanishi va e'lon

qilinishi uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga o'n kun ichida yuboriladi. Prezident ushbu qonunni 39 kun ichida imzolashi va e'lon qilishi mumkin.

Agar O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati tomonidan qonun rad etilgan taqdirda u Qonunchilik palatasi deputatlari tomonidan qayta ko'rib chiqiladi. Qayta ko'rib chiqish jarayonida deputatlar umumiy sonining uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovoz bilan qonunni yana ma'qullasalar, qonun imzolanish va e'lon qilinish uchun Prezidentga Qonunchilik palatasi tomonidan yuboriladi.

Qabul qilingan qonunlar jamiyatda hamjihatlikni saqlashga, iqtisodiyotni barqarorlashtirishga, tadbirkorlik erkinligiga, fuqarolarning moddiy farovonligiga, inson huquqlari va erkinliklarining himoya qilinishiga, O'zbekiston Respublikasining jahon miqyosidagi obro'sini oshirishga xizmat qiladi. Oliy Majlis ishida asosiy e'tibor jamiyatda Konstitutsiya va qonunlarning ustivorligini qaror toptirishga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlariga rioya etilishiga qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida aks ettirilganidek, O'zbekiston Prezidentlik Respublikasi ko'rinishidagi davlat hokimiyati tizimiga ega. U O'zbekiston Respublikasida davlat boshlig'idir. O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tomonidan umumiy, teng va to'g'ridan - to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan etti yil muddatga saylanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, konstitutsiya va qonunlarga rioya etishning kafolatidir. U davlat nomidan chet davlatlar bilan tuziladigan shartnomalarni imzolaydi, o'z xuzurida akkreditatsiyadan o'tgan diplomatik va boshqa vakillarning ishonch va chaqiruv yorliqlarini qabul qiladi. Mamlakat ichkarisida va xalqaro munosabatlarda O'zbekiston xalqi nomidan ish ko'radi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari ko'rib chiqishi va tasdiqlashi uchun Vazirlar Mahkamasi Bosh vaziri nomzodini taqdim etadi. Bosh vazir taqdimiga binoan Vazirlar Mahkamasi a'zolarini tasdiqlaydi va lavozimidan ozod etadi.

2006 yil noyabr oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov tomonidan qonun tashabbuskorligi huquqi tartibida Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritilgan «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga (89 - moddasi, 93 - moddasi 15 bandi, 102 - moddasi ikkinchi qismiga) tuzatishlar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Prezidenti O'zbekiston Respublikasida davlat boshlig'i hisoblanadi.

Prezident vakolatlari hamda vazifalarining shu tarzda qayta taqsimlanishi, hech shubhasiz, davlat qurilishi sohasida boshlangan demokratik jarayonlarni yanada chuqurlashtirish, Bosh vazirning vakolatlarini oshirib, uning ma'suliyatini sezilarli darajada kuchaytirish imkonini beradi.

Qonunga muvofiq Bosh vazir Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etadi va unga rahbarlik qiladi, uning samarali ishlashi uchun shaxsan javobgar bo'ladi. U Vazirlar Mahkamasining majlislariga rahbarlik qiladi, uning qarorlarini imzolaydi. O'zbekiston Respublikasi qonunlarida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlarida nazarda tutilgan boshqa vazifalarni bajaradi.

Mustaqillik yillarida ijro etuvchi hokimiyat tizimida talay o'zgarishlar ro'y berdi, davlat qurilishidagi hozirgi ustivorliklar, hokimiyat va boshqaruvni demokratlashtirish, bozor iqtisodiyoti talablariga moslashtirish va joylarga ko'chirishni oqilana uyg'unlashtirishga muvofiq ravishda belgilanmoqda. Masalan, boshqaruv tizimlarini isloh qilish doirasida vazirliklar va idoralarning talay qismi uyushmalar, korporatsiyalar, kontsernlar va boshqa birlashmalarga aylantirildi, bu ularning bozor munosabatlariga bevosita qo'shilishi imkoniyatini yaratdi.

Sud hokimiyati nima va u qanday tashkil etiladi? Davlatda qonun ustivorligi, qonunchilik o'z - o'zidan amalga oshmaydi. qonunlarni hayotga tatbiq etishda ularni qo'riqlashda, eng muhimi, agarda ular buzilsa, tiklashda sud hokimiyatining mavqei ulkandir. Amaldagi qonunlarni nazorat qilish, ularni hayotga tatbiq etishni ijro hokimiyati amalga oshiradi. Ana shu qonunlar ijrosi davrida buzilish sodir bo'lsa, u holda huquqni tiklash sud tomonidan amalga oshiriladi. Sudning qarori, hukmsiz biron - bir shaxs ozodlikdan, mulkdan mahrum etilishi mumkin emas. Demokratiyaning asosiy qoidalaridan biri ham shunda.

Davlat, huquq mavjud bo'lar ekan, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan huquqiy

buzilishlar bo'lib turadi. Sud hokimiyati barcha davlat va jamoat organlari, mulk shaklidan qat'iy nazar barcha tashkilot, muassasa va korxonalar, mansabdor shaxlar va fuqarolar tomonidan qonunlar so'zsiz amalga oshirilishi va og'ishmay ijro etilishini nazorat qiladi, shuning uchun ham uni takomillashtirish, mutahkamlash, jamiyatni barqarorlashtirish, jinoyatni kamaytirish, huquqbuzarlikning oldini olish ham demakdir.

Hozirgi kunda O'zbekistonda sud hokimiyatini shakllantirish, sud tizimini takomillashtirish doirasida salmoqli ishlar amalga oshirildi. Sud hokimiyatining mustaqilligini ta'minlovchi huquqiy asoslar yaratildi. «Sudlar to'g'risida», «Konstitutsiyaviy sud to'g'risida», «Advokatlar faoliyatining kafolatlari va advokatlarni himoya qilish to'g'risida»gi qonunlar shular jumlasiga kiradi.

Sud islohatlari jarayonida moddiy, protsessual huquqni yuzaga keltiruvchi muhim kodekslar qabul qilindiki, bular orasida fuqarolik va fuqarolik - protsessual, mehnat, jinoyat va jinoyat - protsessual kodekslari, ma'muriy javobgarlik to'g'risida kodeks va boshqalar bor. O'zbekistonda sud hokimiyatining bir-biridan mustaqil uch turdagi sud organlari amalga oshirildi. Bular O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi va uning tizimlari, xo'jalik sudi. Bu uch turdagi sud organlarining vazifa va vakolatlari turlichadir.

Sud organlarining fuqarolar haq-huquqlarini himoya qilishdagi roli beqiyos. Sud fuqarolarning haq-huquqini boshqa fuqarolar tomonidan buzilishini muhofaza etibgina qolmasdan, fuqarolar huquqini har qanday, hatto davlat, davlat tuzilmalari, jamoat birlashmalari tajovuzidan ham himoya qiluvchi tashkilot, eng ishonchli najotdir.

Xulosa qilib aytganda, davlat hokimiyatini uchga bo'lish sun'iy ravishda ko'p hokimiyatlikka olib kelmaydi. Davlat hokimiyati tizimiga kirgan har bir hokimiyat amaliy ish yuritishda bir-biriga qarama-qarshi ish olib bormaydi. Ularning har biri o'z maqomiga ega bo'lgani bilan biri ikkinchisidan ajralib qolgan xolda ish yuritmaydi. Davlat hokimiyati tizimining bunday bo'linishi, hokimiyatni o'ta markazlashtirishdan, yakka siyosiy partiyaning yoki yagona yuqori mansab egasining qo'lida bo'lishidan saqlaydi.

«Davlat qurilishi va boshqaruv sohasidagi eng muhim vazifa bu qonunchilik hokimiyati bo'lishi mamlakat Parlamentining roli va ta'sirini kuchaytirish, hokimiyatning qonunchilik, ijro va sud tarmoqlari o'rtasida yanada mutanosib va barqaror muvozanatga erishishdan iborat»¹.

O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tishning Prezidentimiz I.A. Karimov tomonidan ishlab chiqilgan besh tamoyilida qonunni hamda adolatni, haqiqatni jamiyatimizda qaror topishini ta'minlashga alohida e'tibor berilgan. Ijtimoiy adolatni hayotga joriy etilishining ilmiy namunasi sifatida ilgari surilgan besh tamoyildan to'rtinchisi qonun ustuvorligiga bag'ishlangan. Demak, qonunning hamma narsadan ustun bo'lishi, qonunga itoatkorlik printsiipi O'zbekistonda demokratik, odil fuqarolik jamiyati qurishning bosh yo'nalishidir.

Qonunga og'ishmay itoat etilgan jamiyatdagina demokratiya qaror topadi va mustahkam bo'ladi. Barcha demokratik institutlar, huquq va erkinliklar qonun vositasi bilan joriy etiladi.

Prezidentimizning «Adolat-qonun ustuvorligida»,—degan hayotiy tamoyiliga qat'iy amal qilib yashash g'oyasi fuqarolik jamiyatini shakllantirishning asosiy yo'nalishlaridan birini tashkil etadi. Xo'sh, nima uchun bu tamoyilning ahamiyatiga asosiy e'tibor qaratiladi? Buning sababi shundaki, qonun ustuvorligi, birinchidan, mamlakatdagi barcha aholining millati, tili, irqi, diniy e'tiqodi, ijtimoiy ahvoli va boshqa bir qator belgi - xususiyatlaridan qat'iy nazar barcha fuqarolar tengligini ta'minlaydi, ularning huquqlari poymol etilishiga yo'l qo'yilmaydi; ikkinchidan, qonun xalq manfaati, xohish irodasiga muvofiq qabul qilinadi, shuning uchun ham unga itoat qilish, uning ustuvorligini e'tirof etish shu mamlakatda yashayotgan har bir insoning fuqarolik burchi hisoblanadi. Mazkur tamoyilning buzilishi yoki poymol etilishi ijtimoiy tabaqalar, siyosiy kuchlar o'rtasida ziddiyatlar paydo bo'lishiga olib keladi. Bunday beqarorlikdan esa fuqarolar manfaatdor emas. Shuning uchun ham, qonun ustuvorligini ta'minlashda, birinchi navbatda, ularning manfaatlarini yuzaga chiqarish nazarda tutiladi.

¹Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz-jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. T.: «O'zbekiston», 2005. 36-bet.

O'z navbatida, davlat ham o'z aholisi tinchligi, jamiyat barkamolligini himoya qilishda, o'ziga yuklatilgan mas'uliyatdan kelib chiqqan holda, qonunlarning poymol etilishi yoki buzilishining oldini olish imkoniyatlarini ishga soladi. Yana ham aniqrog'i, bordiyu ayrim siyosiy kuchlar yoki ijtimoiy guruhlar g'ayriqonuniy harakatlarga yo'l qo'yadigan bo'lsa, davlat mamlakat aholisining umum manfaatlaridan kelib chiqqan holda, o'z kuchidan foydalanishga majbur bo'ladi. Bu o'z navbatida, taraqqiyotga salbiy ta'sir qiluvchi jarayonlarning oldini olish imkonini beradi.

Yuqorida bayon etilgan mulohazalardan ko'rinib turibdiki, qonun ustuvorligini ta'minlash nafaqat, iqtisodiy sohadagi islohotlarning samarali borishi, shuningdek fuqarolarning huquqlari va tinchligini ta'minlash, ularning farovon hayot kechirishi uchun kerak bo'lgan shart - sharoitlarni yaratish va fuqarolik jamiyatiga o'tishning asoslarini ishlab chiqish imkonini beradi. Qonun ustuvorligiga erishishning yana bir muhim imkoni shundaki, u fuqarolarning jamiyatda yaratilgan barcha ijtimoiy adolat tamoyillariga amal qilishiga imkon yaratadi.

Qonun ustuvorligiga erishish oldida barchaning tengligini ta'minlash lozimligi masalasiga katta ahamiyat berilmoqda. Eng avvalo huquq - tartibot ishlarini, qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni xalqaro mezon va andozalarga moslashtirish zarur, ma'lumki, ayni paytda jahonda mazkur masalaga doir etnish xil andoza mavjud. Bularning hammasi jahon hamjamiyatida tan olingan tamoyillar hisoblanadi. O'zbekiston hozir ana shu andozalardan 20 tasiga qo'shilganligi, uning qisqa muddatda demokratiyani turmush tarziga aylantirish borasida amalga oshirilgan katta yutug'i hisoblanadi.

Prezidentimiz I.A.Karimov mustaqillik yillarida bosib o'tilgan yo'l, to'plangan tajribalar va imkoniyatlarni tahlil qilar ekan, huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatini yangidan ko'rib chiqish, uni jahonning eng ilg'or tajribalari bilan boyitish kerakligini uqtiradi.

Inson huquqlarini kafolatlash va bu sohadagi normativlarni amalga oshirish ustidan nazoratni kuchaytirishning eng zamonaviy shakllarini vujudga keltirish zarur. Jumladan, Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili instituti hamda huquqparvar jamoat tashkilotlarining mavqe va maqomini ko'tarish, inson huquqlarini himoya qilish Ombudsman instituti, jamoatchilik fikrini o'rganish instituti, amaldagi qonunchilik Monitoringi instituti, inson huquqlari milliy markazi singari tashkilotlar ishini rivojlantirish, takomillashtirish hamda boshqa bir qator institutlarni tashkil etish zarur.

Prezidentimiz masalaning xuddi ana shu jihatiga e'tibor berar ekan, inson huquqlari va erkinliklariga rioya qilish borasida yangi qadriyatlar va ko'nikmalarni shakllantirishga alohida e'tiborni qaratadi.

Har bir kishi o'z huquqlarini aniq va ravshan bilishi, huquqlari va erkinliklarini himoya qila olishi lozim. Buning uchun avvalo, mamlakatimiz aholisining huquqiy madaniyatini oshirish lozim. SHu bilan bir vaqtda har bir inson o'zboshimchalikdan, qonunsizlikdan o'z huquqlarini himoya qiladigan idoralar mavjudligiga amin bo'lishi kerak.

4.3. Milliy-ma'naviy negizlar tushunchasi, mazmuni va mohiyati hamda mustaqillik, demokratik jamiyat qurilishida uning yangicha mazmun kasb etishi.

Yangi tarixiy davr-milliy istiqlol davri mamlakatimiz tarixida ma'rifat davri, ma'rifatlilik davri sifatida kirib kelmoqda. Istiqlol g'oyalari asosida bosh islohotchilik vazifasini bajarayotgan davlat kishilar ongi va tafakkurida tub burilishlar yasash, har qanday islohotlarni fuqarolar ongi, tafakkuri va qalbi orqali o'tkazish yo'lini tanladi. Ana shu yo'l odamlarning o'tmishiga, bugungi va kelajakka bo'lgan munosabatlarini o'zgartirish, muayyan manfaatlarga yondoshish texnologiyasini yangilash orqali asta sekinlik bilan ularni ma'rifatli, komil inson qilib voyaga etkazishga olib keladi. Fuqarolarning ma'rifatliligi orqali ma'rifatli jamiyat barpo etiladi.

Mustaqillik zaminini mustahkamlash mamlakat barqarorligi va taraqqiyotini ta'minlashning muhim sharti bu ma'naviyatdir. Mustaqillik iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar bilan bir qatorda odamlar ongi va dunyoqarashida, odob - ahloqi, imon-e'tiqodi, bilimi, saviyasi va ruhiyatida,

madaniyati va ma'naviyatida, ta'lim - tarbiyasida ham tub asosli o'zgarishlar bo'lishini taqozo etadi.

Prezident I.A.Karimovning 1992 yil e'lon qilingan va dasturiy ahamiyat kasb etgan «O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'li» kitobining alohida bobi «Mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning milliy - ma'naviy negizlari» deb nomlanadi va unda ilk bor ma'naviy merosni tiklash va jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish masalalari batafsil tahlil etiladi. Kitobda o'zbek xalqining ma'naviy - axloqiy negizlari quyidagicha talqin etiladi:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimiz ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilish;
- vatanparvarlik.

Ma'naviyatsiz kelajak yo'q. «Zero biron - bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib, o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi».¹ Shuning uchun mamlakat kelajagi unda yashayotgan kishilarning ongi, ma'naviyati darajasi bilan bog'liq. Inson ruhiyati sog'lom bo'lsa, o'zligini anglasa shaxsga aylanadi. Kishi shaxs darajasiga ko'tarilsagina, ya'ni o'z mustaqil fikriga, duneqarashiga, chinakam insoniy fazilatlarga ega bo'lgandagina demokratiya ne'matlarining oddiy iste'molchisi emas, balki ularning faol yaratuvchisi va himoyachisiga aylanadi. Shundagina demokratiya, fuqarolik jamiyati asoslarini amalda barpo etish, inson haq - huquqlari va erkinliklarini ta'minlashi mumkin bo'ladi.

Hazrat Alisher Navoiy ta'kidlaganidek:

To xirsu havos xirmoni barbod o'lmas,
To nafsu xavo qasri baruftod o'lmas,
To zulmu sitam jonig'a bedod o'lmas,
El shod o'lmas, mamlakat obod o'lmas.²

Agar mustaqillikning ma'naviy zamini zaif bo'lsa, xalqimiz o'zining milliy tilini, madaniyati va an'alarini, hurmat qiladigan, umuminsoniy qadriyatlarni e'zozlaydigan, ulardagi oliyjanob g'oyalardan oqilona va ijodiy foydalanadigan darajadagi kamolot bosqichiga erishgan bo'lmasa mustaqillikning ma'naviy zamini baquvvat bo'lmaydi.

Odamlarning, mabodo, madaniy - ma'naviy saviyasi past bo'ladigan bo'lsa, uning salbiy ta'siri iqtisodiyotda ham, kishilarning o'zaro munosabatlari va odob - ahloqida, turmush tarzi va yurish - turishida, tijorat ishlarida ham muqarrar seziladi. Fuqarolarning imon - e'tiqodlari sustlashgan joyda mehr - oqibat ko'tarila boshlaydi, haqiqiy insoniy munosabatlar darz ketadi, taraqqiyot sustlashib tanazzul kuchaya boshlaydi. Agar vaqtida uning oldi olinib, ma'naviyatni yuksaltirish masalasiga birinchi darajali vazifa sifatida qaralmasa, uning salbiy oqibati sifatida katta ijtimoiy larzalar va ko'ngilsiz hodisalar ro'y berishi hech gap emas.

Prezidentimizning «O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'li» asarida, «ma'naviyat, millatga, har bir insonga havodek, suvdek, quyoshdek zarur va bebahodir» deb juda o'rinli ta'kidlagan.

Dunyodagi har bir davlat o'zining taraqqiyoti jarayonida ma'naviyatga ehtiyoj sezgan va sezadi. Bu tarixiy zaruriyatdir. Ma'naviyatning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati tarixning buriish davrlarida ayniqsa beqiyos bo'ladi.

Ma'naviyat insonni ruhiy poklanish va yuksalishga da'vat etadigan, inson ichki olamini boyitadigan, uning iymon - e'tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg'otadigan qudratli botiniy kuchdir. Shuning uchun ham mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish Vatanimiz taraqqiyotining ustuvor yo'nalishi, deb belgilandi.

Jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishda tarixiy xotira, ajdodlar tarixini bilish, milliy va axloqiy qadriyat hamda an'analarning, muqaddas dinimizning o'rni va ahamiyati katta. Biron - bir xalq o'z tarixini bilmay, asrlar osha yaratilgan ma'naviy merosiga tayanmay va uni yanada rivojlantirmay turib, o'z kelajagini tasavvur eta olmaydi. SHu boisdan mustabid tuzum davrida sohtalashtirilgan

¹ Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. T.: «O'zbekiston», 1998, 5-bet.

² Alisher Navoiy. Xikmatli so'zlar. T.: 1985, 14-bet.

xalqimiz tarixi yurtboshimiz I.A.Karimov tashabbusi bilan chuqur tahlil etildi, xolisona, haqqoniy yoritildi, bunga taaluqli bir qator adabiyotlar nashr etildi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek jamiyatni yuksaltirish, uning ma'naviyatini yuksak cho'qqiga ko'tarishda tarixiy xotira, ajdodlar tarixini bilish, milliy va axloqiy qadriyat hamda an'analar kabi milliy - ma'naviy negizlar alohida o'rin tutadi.

Milliy - ma'naviy negizlar deganda milliy ong, milliy ruhiyat, milliy g'urur, milliy o'zlikni anglash, milliy til, milliy hissiyot, milliy faxr - iftixor haqida gapirish kerak bo'ladi. Milliy ong milliy madaniyatning millat manfaati, millat istiqboli, millatning taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan tomonlari yig'indisidir. Milliy ong milliy madaniyat negizida shakllanadi va rivojlanadi. Milliy madaniyat milliy ongga nisbatan ancha keng.

Milliy ruhiyat-millatning ichki holati, kechinmalari, his tuyg'ulari, ma'naviy dunyosi, o'y - fikrlari, maqsad va maslakhlar, hamda qadriyatlari bilan bog'liq mulohazalar majmusidir. Er yuzidagi har bir millat o'ziga xos irodasi, his-tuyg'u, did, xulq, f'el-atvori, ko'ngil, qalb, yurak sirlari olamiga egadir.

Biz erishgan mustaqillik qanday shakllarda va mazmunan qanchalik keng hamda boy namoyon bo'lishi milliy ruhiyatimizga bog'liq. Millatimizning ichki holati o'z kuchi, imkoniyatlari va salohiyatlariga ishonch ruhi bilan sug'orilgan kechinmalari buyuk kelajakka ijobiy tuyg'u bilan yo'g'rilgan bulishi, his, o'y va fikrlari esa bunyodkorlik kayfiyatini yaratmog'i kerak. Buning uchun asosiy e'tibor millatni rivojlantirishga, uning iqtisodiyotini ko'tarishga, madaniyati va ma'naviyatini boyitishga qaratilishi kerak.

Milliy g'urur o'z xalqining tarixi, ma'naviy-axloqiy qadriyatlari, udumlari, adabiyoti, san'ati va madaniyatini bilish, hurmat qilish, qadrlash bilan bog'liq bo'lgan ijobiy insoniy fazilatdir. "O'zbek xalqining yuksak milliy qadr - qiymati, or - nomusi va shon - sharafiga uning o'ta mehribonligi va sof vijdoniyligiga asoslangan. Biz bundan keyin ham o'zbeklarning milliy g'ururini ma'naviy yuksaltirishimiz, shu bilan birga umumiy Vatanimizda biz bilan yashovchi O'zbekiston respublikasiga sadoqatli bo'lgan boshqa barcha xalqlar bilan birgalikda intilamiz".¹

Ma'naviyatimiz insonning o'zligini anglab olishda unga yordam beradi. O'zligini anglagan insongina, o'zligini anglagan millatgina kuchli davlat, erkin davlat barpo eta oladi.

Milliy jihatdan o'zligini tanigan inson millatini, Vatanini, uning o'tmish tarixini, madaniyatini, jahon tsivilizatsiyasiga unutilmas hissa qo'shgan buyuk allomalar vorislari ekanligini bilib oladi.

Milliy o'zligini anglash-olamni bilish, unda ro'y berib turgan murakkab hodisa va jarayonlar mohiyatini ilmiy faximlab olish demakdir. Milliy jihatdan o'zini anglagan insongina mamlakati va millati oldida turgan asosiy maqsad-muddaolar nimadan iboratligini tushunib etadi, o'zining el-yurt oldidagi burchi va mas'uliyatini chuqur anglaydi.

Milliy o'zlikni anglashning birinchi belgisi milliy tildir. Til birligi millatning millat bo'lib shakllanishida eng muhim shartlardan biridir. Til bo'lmasa el ham, millat ham bo'lmaydi. Til-millat tirikchiligining, uning yashab turganligi va faoliyat ko'rsatayotganligining asosidir.

O'zbek tili-Markaziy Osiyodagi eng qadimiy va boy tillardan biridir. O'zbek tilining lug'at tarkibi, fonetik va grammatik tuzilishi, yozma va og'zaki nutq shakllari xilma-xilligi, uslublari va ma'no qirralari jihatdan boy va go'zaldir. So'zimizning isboti uchun buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning o'zbek tili xazinalarini to'la ochib, bu tilning ham badiiy, ham ilmiy asarlar yaratish uchun boy imkoniyatlarga ega ekanligini namoyish qilib, so'z san'atining "Hazoyimul maoniy", "Xamsa", "Liso'nut-tayr", "Maxbubul-qulub" kabi o'lmas obidalarini, "Majolisun-nafois", "Mezonul-avzon" va "Muhakamatul-lug'atayn" singari qimmatli ilmiy asarlari yaratilganligining o'zi kifoyadir.

Jamiyatning milliy-ma'naviy negizlari demokratik davlat fuqarolik jamiyatini qo'rish, gullab yashnagan farovon hayotni barpo etishning qudratli zamini hisoblanadi. U odamlarni yagona maqsad mustaqillik uchun kurashga safarbar etadi. Bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilishni

¹ Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. T.: "O'zbekiston", 1996, 82-bet.

ta'minlash singari ulug'vor vazifalarni hal etishga yo'naltiradi. Xalqimizni ona Vatan, unga bo'lgan sevgi sadoqat tuyg'usini mustahkamlaydi.

Jamiyatimiz ma'naviy jihatdan yangilanmoqda, xalqimizda milliy g'urur, oriyat va nomus tuyg'ulari kuchayib, milliy o'zligini anglash, siyosiy onglik, siyosiy madaniyat o'smoqda. Odamlarning dunyoqarashi o'zgardi, hayotga, mehnatga munosabati, Vatanga, yurtboshimizga mehri yaxshilandi. Mamlakatimizda yagona oila, degan aqida qaror topdi. Hayotimizda qalbimiz to'rida milliy umuminsoniy qadriyatlarga intilish bilan birga, SHarq falsafasi ham munosib o'rin topayapti. Bular yangi davrning milliy mustaqilligimizning oliyjanob xususiyatlari, ma'naviyat sohasidagi buyuk samaralaridir.

Buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilik avvalo tarixda yangi hodisa emas, asrlar davomida shakllanib, kuchayib kelgan. Buyuk davlatchilik shovinizm va agressiv millatchilik deganda ayrim yirik davlatlar aholisining soni jihatidan, ko'p millatlarning atrofidagi mamlakatlar, ularning aholisi bilan o'z munosabatlarini ustunlik va mumtozlik nuqtai nazaridan amalga oshirishga intilishlarini tushunamiz. Buyuk davlatchilikdan iborat shovinistik siyosat ko'p martalab katta to'qnashuvlarga, qonli urushlar va mojarolarga olib kelganligi tarixdan ma'lum. Buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilik butun - butun xalqlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda ishonchsizlik va shubha tug'dirgan, avloddan - avlodga o'tib kelgan.

Insoniyat XXI asrga qadam tashlagan hozirgi kunda ham buyuk davlatchilik shovinizmi xavfidan qutulganicha yo'q. To'g'ri, bugungi kunda jahon hamjamiyatida uning barcha sub'ektlari o'rtasidagi munosabatlarda to'la teng huquqlilik qilmoqda. «Biroq, deb yozadi I.Karimov, – shovinistik va agressiv millatchilik inertsiasining kuchi hali shu qadar zalvorliki, bu kuch unga duch kelganlar uchun ham uni boshqalarga qaratayotganlar uchun ham naqadar xavfli ekanligini payqamaslik mumkin emas»¹.

Shovinizm qanday hollarda sodir bo'ladi? Shovinizm siyosati boshqa millat va xalqlarga nafrat va dushmanlikni avj oldirishga qaratilgan. Shovinizm go'yo to'laqonli bo'lmagan boshqa millatlar va irqalar ustidan hukmronlik qilishga da'vat etilgan bir millatning alohidaligini (mumtozligini) targ'ib etadi.

Shovinizm nimadan kelib chiqadi? Buyuk davlatchilik shovinizmi boshqa davlatlar va mamlakatlar bilan o'zaro madaniyatli hamkorlik qilishga tayyor bo'limaslikdan va madaniy hamkorlik qilishni xohlamaslikdan kelib chiqadi.

Mustaqil O'zbekiston uchun bugungi kunda buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilik tug'dirayotgan tahdillarning real xavfi quyidagilardan iborat;

Birinchidan, xalqaro, davlatlararo va elatlararo qarama - qarshilikni keltirib chiqarish.

Ikkinchidan, xalqaro - huquq va ichki davlat suverenitetimizni ro'yobga chiqarishga qarshilik ko'rsatish.

Uchinchidan, O'zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalarini chegaralashga, ularni teng huquqli bo'lmagan sharoitga solib qo'yishga urinish.

To'rtinchidan, mamlakatimiz aholisiga elektron, radio - axborot vositalari orqali mafkuraviy yo'l bilan tazyiq o'tkazish, jahon afkor ommasida O'zbekiston haqida noto'g'ri tasavvur tug'dirishga intilish.

Beshinchidan, millatlar o'rtasidagi o'zaro ishonchsizlikni keltirib chiqarish, millatlararo munosabatlarni keskinlashtirish.

Oltinchidan, yangi mustamlakachilik va yangi imperiyachilik yondoshuvlarni zo'rlab qabul qildirish, hamma sohalaridagi o'zaro manfaatli va teng huquqli hamkorlikni sekinlashtirish xavfi.

Terrorizm o'ta salbiy ijtimoiy hodisa sifatida u yoki bu ko'rinishda qadim - qadimdan ma'lum, qizig'i shundaki, o'z oldiga qo'ygan maqsadlarga erishish mumkin emasligini hisobga olgani holda terroristlar tarixning barcha davrlarida qaysi mintaqa yoki mamlakat hududida faoliyat ko'rsatishidan qat'iy nazar har doim xalq ommasining ayrim qatlam va guruhlarini "yo'ldan urish", turli yo'llar bilan ular qalbiga yo'l topish taktikasiga amal qilib kelganlar. Terrorchilik o'ta salbiy

¹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T. «O'zbekiston». 1997, 52-bet.

ijtimoiy hodisa sifatida necha asrlar davomida faoliyat yuritib kelayotgan bo'lsa, har doim xalq nomidan gapirish, uning manfaatlarini aks ettiruvchi "haqqoniy xalqparvar" harakat deb o'zini ta'riflash amaliyoti uning barcha ko'rinishlariga bosh xususiyat bo'lib qolavergan.

Terrorizmning bugungi holatiga keladigan bo'lsak shuni alohida ta'kidlash lozimki, o'zining bir necha asrlar davomida sinovdan o'tgan aholining ayrim qismi ongini zaharlash yo'li bilan hokimiyatni qo'lga kiritish amaliyotiga sodiq qolgan holda davrlar o'tishi bilan uning o'z kurash shakli, uslublari va vositalarini ustalik bilan o'zgartirib kelganligini guvohi bo'lamiz. Masalan, bir zamonlar terrorchilar planetamizning turli joylarida alohida - alohida, ya'ni bir - birlaridan batamom ajralgan holda harakat qilgan bo'lsalar, bugungi XXI asr boshlarida ular o'z "faoliyatini" mintaqaviy va hatto umumsayyoraviy darajada muvofiqlashtirish imkoniyatini qo'lga kiritayotganligini kuzatish mumkin. Prezidentimiz talqini bilan aytadigan bo'lsak, bugun insoniyat terrorchilar misolida, xalqaro miqyosida uyushgan, kerak bo'lsa bir yoki bir nechta qudratli markazlar tomonidan boshqarilayotgan siyosiyashgan xalqaro jinoiy guruhlar to'g'risida bormoqda.

Terrorizmning o'ta xavfli xalqaro siyosiy hodisaga aylanayotganligi to'g'risida so'z borar ekan, uning asosiy sabablari quyidagi ob'ektiv umumsayyoraviy ijtimoiy siljishlar bilan belgilanayotganligini guvohi bo'lamiz: avvalo asosiy sabablardan biri XX asrning oxirgi o'n yilligida deyarli butun dunyoda terror yo'li bilan aholining tutqinlikda saqlash, uning ustidan hukmronlik qilish amaliyotiga batamom zid bo'lgan demokratiyaning keng yoyilib borishi, ya'ni aksariyat mamlakatlarda siyosiy hokimiyat xalq xohish - irodasining ifodasi degan tamoyilni ustuvorlik kasb etayotganligi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi asosiy sabab siyosat, iqtisod, ijtimoiy soha va madaniyatning turli jabhalarida odamlarning ongi, dunyoqarash va tafakkuri hamda muljal va rejalariga salbiy ta'sir qiluvchi, hatto uning izdan chiqaruvchi jarayonlar kuchayishi o'z siyosiy maqsadlarini amalga oshirishning eng jirkanch yo'llarini axtarib yurgan guruhlar, shuningdek, birinchi navbatda terrorchi guruhlar uchun noyob "siyosiy - ruhiy makon" yaratilishiga borib taqaladi. Terrorizmning diniy ekstremizm bilan bugungi kunda chirmashib ketish jarayoni kechmoqda.

Bu yovuz kuchlar diniy ekstremizm va xalqaro terrorchilikni mintaqamizga yoyishga urinayotgani shundan dalolat beradi¹. Bu jihatdan diniy ekstremizm va xalqaro terrorizm bugungi kunda biri mafkuraviy tazyiq bo'lsa, ikkinchisi mafkura va siyosiy mo'ljallarni ro'yobga chiqarish, amalga oshirishning shakli hamda vositasi sifatida bir - birini to'ldirmoqda. Zotan, terrorizm oshkora noinsoniy ko'rgazma, uslub, xulq - atvor, xatti - harakat va faoliyatdan iborat jarayon, tizim sifatida diniy ekstremizmdan ko'ra yashirinroq, ikkinchi bor tayanchga ega emas.

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov bashariyat osoyishtaligiga xavf solib turgan "xalqaro terrorizm" deb atalmish siyosiy va qolaversa, olam barqarorligiga qaratilgan jinoiy hodisa to'g'risida to'xtalib: - "O'zgalar qonini to'kish hisobiga mumay daromad olishni istovchilar batamom yo'q bo'lib ketadigan zamonlar kelishiga hali ancha borga o'xshaydi. Bu toifaga kiruvchi "bizneschilar" uchun qon va nopok siyosat qorishgan pul dunyoning turli burchaklarida xalqaro qotillarni yollash va sinab ko'rish mumkin bo'ladigan majoralarni rag'barlantirish borasida eng qulay vosita ekanligi"ni alohida ta'kidlab o'tgan edi².

Zamon o'zgarib umumbashariy, siyosiy va mafkuraviy kurashning noan'anaviy shakllari ish bermay qolgandan so'ng, terrorizm, endilikda boshqa yo'llarni axtarib topmoqda. Bugungi dunyoda barcha terrorchilarni diniy qarashlari, mafkuraviy moyilligi va tafakkuridan qat'iy nazar ularni asosan ikki jihati, u ham bo'lsa behisob pul va hokimiyatga intilish qiziqtiradigan bo'lib qoldi.

Mohiyatdan, amaliyotda demokratiya va erkin iqtisodiy munosabatlar tizimiga, raqobatga qarshilik hususiyati, vatanfurushlik xalqaro terrorchilar safiga turli batamom bir-biriga o'xshamaydigan diniy maslak, millat tsivilizatsion moyillikka mansub, ammo pul va hokimiyat yo'lida intilgan kimsalarni olib kirmoqda.

¹ Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. "O'zbekiston", 2000, 29-bet.

² Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6-T.: "O'zbekiston".1998, 126-bet.

Terrorizm nima? Bu soʻz lotin tilida «qoʻrquv», «dahshat» maʼnolarini ifodalaydi. Oddiygina tushuntirganda, terror–insonlarda qoʻrquv uygʻotish, ularni dahshatga solish orqali biror maqsadga erishishni anglatadi. Hozirgi kunda terrorizm eng xavfli va oldini koʻra bilish murakkab boʻlgan jinoyatlar sirasiga kiradi. Terror koʻlaminin kengayib borayotganligi va uning aql bovar qilmas shakllarni olayotganligi jahondagi eng havotirli muammolardan biridir.

Terrorizmning bugungi mohiyatini tashkil etuvchi eng xavfli tamoyillar–qurbonlar sonining keskin koʻpayishi, jugʻrofiy va siyosiy chegaralar tushunchasining oshirilishi eng zamonaviy texnologiya va qurol - aslahadan foydalanish imkoniyatlarining beqiyos kengaygani, terroristik harakatlar sonining muntazam oshib borayotganligida oʻzini namoyon etmoqda.

Hozirgi vaqtda terrorizmning yadro, kimyoviy, biologik koʻrinishlari mavjud. Ommaviy qirgʻin qurollaridan foydalanayotgan terrorizmning oldini olish xalqaro va milliy xavfsizlik uchun birinchi darajali vazifa boʻlib turibdi. Hozirda biror–bir terrorchilik tashkiloti yadro, kimyoviy yoki biologik qurollarga ega ekanligi toʻgʻrisida maʼlumot yoʻq, shunga qaramasdan mazkur qurollarga ega boʻlish imkoniyati real mavjud. Bunday misollardan biri–hozirda AQSH va boshqa mamlakatlarga qarshi biologik hujum uyushtirish bilan bogʻliq doʻq - poʻpisalarning kuchayib borayotganidir. Bu odamzotni larzaga keltiradi.

Eng zamonaviy banklarda oʻzining oʻta mahfiy hisob raqamlarini ochgan. odamzodni harob qiladigan narkotiklarni qoʻlga kiritgan va uni ishlab chiqarish texnologiyasini oʻzlashtirgan, u diniy aqidalardan oʻta ustamonlik bilan foydalanadi.

Prezident I.A.Karimov oʻzining “Oʻzbekiston XXI asr busagʻasida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” deb nomlangan asarida va undan keyin turli darajalarda qilingan chiqishlarida terrorizmga qarshi kurash insoniyat oldida dolzarb masala boʻlib turganligiga eʼtiborni qaratib, terrorni uning manbaalari, bazalari, qurol–yarogʻ keltirish yoʻllari, taʼminot usullari, narkotiklarni tarqatish soʻqmoqlaridan mahrum qilish, ularni bartaraf etish uchun terrorga qarshi kurashuvchi xalqaro markaz tuzish singari juda qimmatli fikrlarni ilgari surgan edi.

Terrorchilik harakatlari oqibatida aynan olingan u yoki bu davlatga etkazilgan maʼnaviy va moddiy talofatlar sanogʻining adogʻiga etib boʻlmaydi. Moddiy talofatlar - ku mayli, vaqti–soati kelib, ularni oʻrni qoplanar, vayron etilgan imoratlar joyida, ehtimol, ulardan - da goʻzalroq va muhabatliroq binolar qad koʻtarar. Biroq etkazilgan maʼnaviy zararining aks sadosi asrlar osha oʻchmasligi muqarrar, bu dahshatning izlari xalqlar xotirasida abadul - abad muhrlanib qolishi aniq.

Terrorchilik degan illat tag–tomiri bilan sugʻurilib tashlanmas ekan, bu achchiq qismat dunyodagi har bir inson yoki xalqning boshiga tushishi mumkinligini bugun jahon ahli teran anglamogʻda.

4.4. Milliy va maʼnaviy oʻzgarishlarning davlat va jamiyat qurilishida aks etishi.

Mustaqillik sharofati bilan xalqimiz maʼnaviy zugʻumlardan ozod boʻldi, erkin fikrga, milliy tafakkurga, milliy tiklanishga yoʻl ochildi. Milliy tiklanish oʻz–oʻzidan sodir boʻlmaydi. Buning uchun xalq dunyoqarashini milliy istiqol ruhida isloh qilish zarur. Prezidentimiz I.A.Karimov maʼnaviy islohotlarni ahamiyati haqida gapirib, shunday degan edi:–«Moddiy islohotlar, iqtisodiy islohotlar oʻz yoʻliga, ularning hal etish mumkin, xalqning taʼminotini ham amallab turish mumkin, ammo maʼnaviy islohotlar–qullik va mutelik iskanjasidan ozod boʻlish, qadni baland tutish, ota–bobolarimizning udumlarini tiklash, ularga munosib voris boʻlishdan ogʻirroq va bundan sharafliroq vazifa yoʻq bu dunyoda»

Istiqolning dastlabki yillaridanoq maʼnaviy hayotimizda uygʻonish yuz berdi. Mustaqillikka erishgan 1991 yilda Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi keng nishonlandi. Bu toʻyga butun mamlakat boʻylab katta tayyorgarlik koʻrildi va xalqning yuksak madaniyat bayramiga aylandi. Avvalo buyuk shoirning 20 jildlik mukammal asarlar toʻplami nashrga tayyorlandi. Bundan tashqari «Lison ut - tayr», «Sabʼai sayyor», «Farhod va SHirin», «Layli va Majnun», «Hayrat - ul abror» singari shoh asarlari alohida - alohida holda bir necha ming nushada chop etildi. Bir necha ilmiy - ommabop asarlar sovgʻa sifatida bosmadan chiqarildi.

Hukumat qarori bilan 1994 yil «Ulug'bek yili» deb e'lon qilinishi, uning 600 yilligi O'zbekistonda va jahon miqyosida keng nishonlanishi ham buyuk alloma qoldirgan ilmiy merosning umuminsoniy qadriyatga aylanganligi nishonasidir.

Mustaqillik davri tom ma'noda buyuk davlat arbobi Amir Temurning qayta tug'ilish davri bo'ldi. Amir Temurga bo'lgan munosabat o'zgarishida, uning tarixiy xizmatini munosib baholashga shaxsan Prezidentning o'zi tashabbuskor bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 29 dekabrda «Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlash to'g'risida»gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yilni «Amir Temur yili» deb e'lon qilish to'g'risidagi Farmoni Amir Temur qadriyatini tiklashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu munosabat bilan Islom Karimovning 1998 yilda tarixchi olimlar va jurnalistlar bilan bo'lgan suhbatiga diqqatimizni qaratmoqchimiz: —«Biz o'zbeklar ulug', bunyodkor xalq deb dunyoga tarannum etyapmiz va aslida ham shunday. YUNESKOning Parijdagi qarorgohida Amir Temur bobomizning to'ylarini o'tkazishdan maqsad nima edi? Komil insonning, eng avvalo, buyuk davlat asoschisi, buyuk bunyodkor, ijodkor shaxs bo'lgani, fan, madaniyatga homiylik qilib, jahon tsivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo'shganini olam ahliga bildirish edi»¹.

1998 yil 24 oktyabrda xalqimizning yana bir buyuk o'g'loni, qomusiy olim Ahmad al - Farg'oniyning 1200 yillik to'yi nafaqat yurtimizda, YUNESKO qarori bilan xalqaro miqyosda keng nishonlanishi uning ilmiy merosini o'rganish borasidagi yangi-yangi tadqiqotlarga asos bo'ladi.

O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning 2006 yil Misrga tashrifida Ahmad al - Farg'oniyni haykalining ochilishida qatnashgani katta g'urur bag'ishladi.

Ahmad al - Farg'oniyni merosi insoniyatning yangi ilm chuqqilariga ko'tarishga sababchi bo'ldi, butun dunyo olimlari uchun dasturilamal bo'lib xizmat qiladi. Farg'onalik bu fozil zotning «Astronomiya asoslari» nomli shoh asari XII asrdayoq lotin va ivrit tillariga tarjima etilgan edi. Yevropada kitob nashr etish boshlangan XV asrda esa bu asarning Italiya, keyinchalik Germaniya, Frantsiya, Gollandiya va AQSh kabi mamlakatlarda qayta-qayta chop qilingani uning yuksak ahamiyatga egaligini ko'rsatadi. Inson tafakkurining bebaho mahsuli bo'lgan bu asar asrlar davomida astronomiya fani bo'yicha o'ziga xos qomus vazifasini o'tagan. Dunyoning eng nufuzli dorilfununlarida undan asosiy darslik sifatida foydalanib kelingan.

Mustaqillik yillarida Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Muhammad Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Mirzo Bobur va boshqalarning milliy madaniyatimizni rivojlantirishga qo'shgan ulkan hissalarini xalqimizga etkazildi.

2500 yillik yubileyleri o'tkazilgan ko'hna Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlari butun insoniyat uchun muqaddas ziyoratgohlarga aylandi.

Keyingi yillarda mamlakatimizning ijtimoiy - madaniy hayotida katta voqealar bo'ldi. Ozodlik, mardlik va qudrat timsoli bo'lgan Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi, hamma ajdodlarimiz dahosining bebaho yodgorligi hisoblangan «Alpomish» dostonining 1000 yilligi keng nishonlandi. Prezidentimiz Islom Karimov «Alpomish» dostonining 1000 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan nutqida bu dostonning ahamiyatiga yuksak baho berib, shunday deydi: — «Alpomish-o'zbekning o'zligini namoyon etadigan, mard va tanti xalqimizning yurak-yuragidan chiqqan, ota-bobolarimiz, avlodlardan-avlodlarga o'tkazib kelinayotgan qahramonlik qo'shig'idir. «Alpomish» dostoni-butun o'zbek xalqining ma'naviy mulkidir»².

2001 yilda Termiz shahrining 2500 yilligi va qadimgi ajdodlarimiz dinining muqaddas kitobi hisoblangan «Avesto»ning 2700 yilligi, Shahrisabz shahrining 2700 yilligi (2002 y.), Abduholiq G'ijduvoniyni tavalludining 900 yilligi (2003 y.), Qarshi shahrining 2700 yilligi (2006 y.), Ma'mun akademiyasining 1000 yilligi (2006 y.) keng nishonlandi. 2007 yilda Samarqand shahrining 2750 yilligi, 2009 yilda Toshkent shahrining 2200 yilligi nishonlanadi.

Mustaqillik yillarida Cho'lpon, Fitrat, Behbudiy, Fayzulla Xo'jaev va boshqa jamoat arbablarning yubileylarini o'tkazish yuzasidan ko'rilgan chora - tadbirlar ham ma'naviy hayotdagi muhim qadamlardir. Xususan, shu davrda Behbudiyning «Padarkush» asari, Fitratning «Qiyomat»

¹ Karimov I.A. Biz kelajagimizning o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. -T.: «O'zbekiston».1999,142-bet

² Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. T.8.-T.: «O'zbekiston».2000, 78-bet.

qissasi, «Abulfayzxon» tarixiy dramasi nashr qilindi. Cho'loning ko'pgina she'rlari «Guliston» jurnalida, «Kecha va kunduz» asari esa «SHarq yulduzi» jurnalida xalqimizga etkazildi. Hozirgi kunda ko'pgina shoir va yozuvchilarimizning she'rlari va asarlari ko'plab nusxada nashr etilmoqda. Ta'kidlash lozimki, Abdulhamid Cho'loning adabiy - badiiy merosi xalqimizning bebaho ma'naviy mulkidir. Uning har bir asari, har bir she'ri odamlarni o'zaro hamkorlikka, ijtimoiy adolat uchun kurashga, nohaqlikka nisbatan murosasizlikka da'vat etadi.

Mustaqillikning o'tgan o'n olti yili islom olamining zabardast allomalari Abu Iso at - Termiziyning 1200 yilligi, Mahmud az - Zamaxshariyning 920 yilligi, Najmiddin Kubroning 850 yilligi, Bahovuddin Naqshbandning 675 yilligi, Xoja Ahror Valiyning 600 yilligi va mashhur muhaddis Imom al - Buxoriyning 1225 yilligi keng ko'lamda nishonlanishi, yurtimizda imon, dinu - diyonatning qaytadan yuksalayotganidan darak beradi. Bu aziz va ulug' zotlarning boy ma'naviy merosi qayta jonlantirilib, bebaho asarlari chop etildi, nomlari abadiylashtirildi.

Buyuk shaxslarning xotirasiga bag'ishlab barpo etilgan yodgorliklar majmualari jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishga milliy ong va milliy g'ururni ko'tarishga hamda xalqimiz, ayniqsa yoshlar ongida mustaqillik mafkurasini shakllantirishda xizmat qilmoqda.

Ko'plab Sharq allomalarining o'nlab nodir va noyob asarlari o'zbek, ingliz, frantsuz, nemis, yapon va boshqa xorijiy tillarda nashr ettirildi.

YUNESKO homiyligida Sharq madaniyati, san'ati va tarixiga bag'ishlangan lazer disklar chiqarildi.

Vatanimiz ozodligi yo'lida shahid ketganlar xotirasini abadiylashtirish maqsadida «Shahidlar xotirasi» yodgorlik majmui, fashizmga qarshi kurashda jon fido etgan xalqimizning farzandlari xotirasini abadiylashtirish maqsadida «Xotira maydoni» barpo etildi.

Mustaqillik yillarida xalqning ulug'vor va shonli tarixiga oid 2000 dan ortiq yodgorliklar ta'mirlandi.

Mustaqillik sharofati bilan diniy qadriyatlar, diniy e'tiqod qayta tiklandi. Respublikada 17 diniy konfessiya ro'yxatga olingan va rasman faoliyat ko'rsatmoqda. 170 dan ortiq tashkilotlar ishlab turibdi va ularda O'zbekistonda yashovchi 136 millat va elat vakillari o'zlarining diniy ehtiyojlarini qondirishmoqda. 1,7 mingdan ortiq masjidlar, xristian ibodatxonalari, sinagoglar va boshqa diniy markazlar ta'mirlandi va yangidan qurildi. 10 ta diniy ta'lim muassasasi faoliyat ko'rsatmoqda. Islom universiteti ochildi. Ramazon hayiti, Qurbon hayiti, qadimiy xalq bayrami – Navro'z qayta tiklandi.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda 70 muzey, 37 teatr, 2500 kinoteatr, 3 mingdan ortiq kutubxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. O'zbekiston konservatoriyasining hashamatli binosi bunyod etildi.

Mamlakatimizda o'zbek tilining xalq va davlat turmushidagi o'rni va ahamiyati qayta tiklandi, uning ravnaqi, qo'llanishi va muhofazasi davlat tomonidan ta'minlanishi belgilab qo'yilgan. O'zbekistonda istiqomat qilayotgan barcha millat va elatlarning tillari, qadr-qimmat ham o'z o'rniga qo'yilgan.

Prezidentimiz tashabbusi bilan ta'limni tubdan isloh qilish yo'llari ishlab chiqildi. «Ta'lim to'g'risida» Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilindi.

Amalga oshirilayotgan barcha ishlardan ko'zlangan bosh maqsad: yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq erkinligi va farovonligiga erishish, komil insonni tarbiyalash, ijtimoiy hamkorlik va millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik kabi qadriyatlarni amalda qaror toptirishdan iborat.

Mustaqillikning ilk yillaridan boshlab Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz va boshqa qadimiy shaharlarimizdagi Sharq me'morchilik san'atining durdonalari bo'lmish tarixiy obidalarni saqlash, ularni qayta tiklash va ta'mirlash ishlariga katta e'tibor berilmoqda.

Bu haqida so'z yuritganda Samarqanddagi Imom Buxoriy va Imom Motrudiy ziyoratgohlari, Buxorodagi Abduxoliq G'ijduvoni va Baxovuddin Naqshband, Minorai Kalon va Masjidi Kalon majmualari, Farg'onadagi Axmad Farg'oni va Burxoniddin Marg'iloni yodgorliklari, Surxondaryodagi Hakim Termiziy va Imom Termiziy, Xivadagi Ichan Qal'a, Shahrisabzdagi Dorut - Tilovat, Qarshi shahridagi Odina va Ko'kgumbaz obidalari, Karmana shahridagi Kosim shayx maqbarasi singari bir necha o'nlab qadamjolar qad rostlab, ta'mirlanib, yangicha chiroy ochib,

minglab vatandoshlarimiz va xorijliklarning muqaddas qadamjolariga aylantirildi.

Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha Islom tashkiloti AYSESKO tomonidan Toshkent shahriga 2007 yilda "Islom madaniyati poytaxti" degan nom berilishi mamlakatimiz hayotidagi ulkan madaniy - ma'naviy voqea bo'lib, tarixiy merosimizni qayta tiklash, muqaddas dinimizning haqiqiyliги va pokligi, insonparvarligi va bag'rikengligi, hayot sinovlaridan o'tgan va o'zini oqlagan qadriyat an'alarini ajdodlardan avlodlarga etkazish borasidagi qilingan ishlarga berilgan yuksak mukofotdir.

4.5. O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning "Yuksak ma'naviyat– engilmas kuch" asarining talabalarni ma'naviy tarbiyalashdagi ahamiyati.

O'shbu "Yuksak ma'naviyat– engilmas kuch" deb nomlangan asar Prezidentimiz tomonidan 2008 yilda yozilgan bo'lib, odamzod uchun hamma zamonlarda ham eng buyuk boylik bo'lib kelgan ma'naviyatning ma'no-mazmuni, uning inson va jamiyat hayotidagi o'zni va ahamiyati, bu murakkab va sirqirra tuo'unchaning nazariy va amaliy tomonlari har tomonlama keng qamrovli fikr va xulosalar orqali tahlil etiladi. Ayni paytda istiqbol yillarida yurtimizda milliy ma'naviyatimizni tiklash, uni zamon talablari asosida rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ulkan ishlar, bu borada oldimizda turgan masad va vazifalar haqida atroflicha fikr yuritiladi. Bugungi murakkab globallashuv davrida ma'naviyat sohasida vujudga kelayotgan dolzarb muammolar, xalqimiz ma'naviyatini asrash va yuksaltirish, ayniqsa yosh avlodning qalbi va ongini turli zararli g'oya va mafkuralar ta'siridan saqlash va himoya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.

G'oyat muhim va hal qiluvchi masalalar o'rtaga qo'yilgan mazkur asardan mamlakatimizdagi oliy o'quv yurtlarining talabalari, olim va tadqiqotchilar, o'qituvchilar, ijodkor ziyoliylar, keng jamoatchilik vakillari, umuman, ma'naviyat va ma'rifat dunyosi bilan qiziqadigan barcha insonlar foydalanishlari mumkin.

Asar muqaddima 4 ta bob va xotimadan iboratdir. Muqaddimada biz xalqimizning dunyoda hech kimdan km bo'lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotganimizda, ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etishi lozim. Agar biz bu masalada hushyorlik va sezgirlikimizni, qat'iyat va mas'uliyatimizni yo'qotsak, bu o'ta muhim ishni o'z holiga, o'zibo'larchilikka tashlab quyadigan bo'lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo'g'rilgan va ulardan oziqlangan ma'naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrilib, oxir-oqibatda o'zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo'lidan chetga chiqib qolishimiz YUrtboshimiz tomonidan ta'kidlanadi.

Birinchi bob – "Ma'naviyat – insonning ulg'ayish va kuch-qudrat manbaidir" deb nomlanib, avvalo ma'naviyatni anglashda unga quyidagicha tarif beriladi: **ma'naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir.** Haqiqatdan ham "ma'naviyat" tushunchasi jamiyat hayotidagi g'oyaviy, mafkuraviy, madaniy, diniy va ahloqiy qarashlarni o'zida to'la mujassam etadi. Bu to'g'risida Prezidentimiz shunday deydi: "O'ylaymanki, er yuzida qancha inson, qancha taqdir bo'lsa, har birining o'z ma'naviy olami bor. Ma'naviyatni tushunish, anglash uchun avvalo insonni tushunish, anglash kerak"¹.

Ma'naviyatni shakllantiradigan asosiy mezonlar to'g'risida gaprilganda tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillar bo'lib xizmat qiladi. Bunga YUNESKO tomonidan ro'yxatga kiritilgan to'rt mingdan ziyod moddiy-ma'naviy obidalarimiz, ajdodlarimizning muqaddas kitobi "Avesto", yoki "Alpomish" dostoni, eng aziz bayram – "Navro'z" hamda ma'naviyatning yuksalishi bilan chambarchas bog'liq yana bir mezon-muqaddas dinimiz haqida to'xtalib o'tish zarur.

Ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligi masalasida davlatimiz rahbari uning quyidagicha umumlashtirib, insonga xos orzu-intilishlarni ro'yobga chiqarish, uning ongli hayot kechirishi

¹Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat– engilmas kuch.-T.: "O'zbekiston", 2008. 18-65,29-bet.

uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy olamni bamisoli parvoz qilayotgan qushning ikki qanotiga qiyoslaydi.

Ikkinchi bob – “Mustaqillik – ma'naviy tiklanish va yuksalish” deb nomlanib, milliy g'oya va ma'naviy hayotda ya'ni eski ijtimoiy tuzumdan mutlaqo yangi tuzumga o'tishda o'ziga qo'shimcha kuch-quvvat va madad topishda umumiy, yagona maqsad va orzu-intilish ifodasi bo'lgan milliy g'oyani tayanch va suyanch deb bilish ta'kidlanadi. “Tabiiyki, milliy g'oyamiz shu yurtida yashayotgan barcha odamlarning olijanob niyatlarini, hayotiy manfaatlarini mujassam etadigan yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi degan yuksak tushunchalarni o'z ichiga oladi”¹.

Hozirgi kunda oldimizda turgan eng muhim vazifa –milliy g'oyamizning uzviy tarkibiy qismlarini tashkil qiladigan komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik kabi tamoyillarning ma'no-mohiyatini mamlakatimizda olib bo'layotgan ma'naviy-ma'rifiy, ta'lim-tarbiya ishlarining markaziga qo'yish, ularni yangi bosqichga ko'tarish, yosh avlodimizni har tomonlama mustaqil fikrlaydigan etuk dunyoqarash egalari qilib tarbiyalashdan iborat.

Mustaqillik yillarida ma'naviyatimiz va jamiyatimizning yangilanishida ko'pgina ishlar qilinganligi ham asarda sanab o'tilgan. Masalan, prezidentlik boshqaruvini joriy qilinishi, o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qilinishi, 1993 yil 2 sentyabrda “Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida”gi qonun qabul qilinishi, ajdodlarimiz buyuk me'rosini tiklanishi va boshqalarni sanab o'tish mumkin. YOki islohotlar ma'naviy mezonini ko'radigan bo'lsak – islohg'ot-islohot uchun emas, avvalo inson uchun, uning farovon hayoti uchun xizmat qilishi kerak, degan maqsad mujassam ekanini va uning amaliy ifodasini barcha sohalarida ko'rish mumkin.

Uchinchi bob – “Ma'naviyatga tahdid – o'zligimiz va kelajagimizga tahdid” deb nomlanib, glaballashuv jarayonlaridagi ma'naviy tahdidlar ya'ni, bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko'proq kuchga egaligi ta'kidlanadi. Muxtasar qilib aytganda, yoshlarimizning ma'naviy olamida bo'shliq vujudga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida sog'lom hayot tarzi, milliy va umummilliy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg'usini bolalik paytidan boshlab shakllantirish eslatib o'tiladi. Bu to'g'risida Islom Karimov: - “fikrga qarshi qikr, hoyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish har qachongidan ko'ra muhim ahamiyat kasb etayotganligi”²ni ta'kidlab o'tadi.

To'rtinchi bob – “Vatanimiz taraqqiyotining mustahkam poydevori” deb nomlanib, inson qalbiga yo'l avvalo ta'lim-tarbiyadan boshlanishi, shu sababli tarbiya uchoqlari zimmasiga ulkan vazifalar yuklanishi, ommaviy axborot vositalarida ham ma'naviy tarbiyaga bog'liq ko'rsatuv va eshittirishlarni ko'proq va mazmunan boy shaklda o'tkazish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, Internetning beqiyos imkoniyatlaridan keng foydalanish, so'z san'ati, badiiy adabiyot, teatr, kino san'tiga ko'pgina vazifalar yuklanadi.

Ushbu bobda eng buyuk jasorat ustida thxtalib, “bu yorug' olamda eng buyuk jasorat nima, degan savolga, hech ikkilanmasdan , eng buyuk jasorat – bu ma'naviy jasorat”³, deb ta'kidlaydi Islom Karimov. Bunga misol sifatida, Platon butun umrini ilmu fanga bag'ishlagani sababli falsafa fani yangi bosqichga ko'tarilgani, Xorazm Ma'mun akademiyasida buyuk allomalar etishib chiqqanligi yoki Nikoloy Kopernik, Jordano Bruno, Galileo Galiley jasoratlari, Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur bobomizning bunyodkorlik salohiyatidagi ma'naviy jasorati, XIX asrda Mahatma Gandi, yoki o'zbek xalqining YAhyo G'ulomov, Zulfiya yoki Ozod SHarafiddinov kabi farzandlarining jasoratlari kelajak avlodga na'munadir.

Prezidentimiz tomonidan yozilgan ushbu asar xalqimizni, shu jumladan talabalarni ma'naviy tarbiyalashda ahamiyati kattadir. Ushbu asar bilan tanishgan har bir talaba ma'naviy jihaidan barkamol bo'ladi.

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat– engilmas kuch.-T.:“O'zbekiston”, 2008. 72-bet.

² Ko'rsatilgan asar,119-bet.


³ Ko'rsatilgan asar,159-bet.

Fuqarolar jamoat tashkilotlari faoliyatida va siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida ishtirok etar ekanlar, ularda qanday ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar sodir bo'lishi kuzatiladi.

Fuqarolarning siyosiy qaror qabul qilishdagi ishtiroki ularning tabiiy siyosiy-ijtimoiy his-tuyg'ularini uyg'otadi, harakatga keltiradi, bu yo'nalishga doir intilishlar shakllanadi. Yoki qisqacha aytganda, har bir fuqaroning ijtimoiylashuv jarayoni amalga oshadi.
Qarorlar qabul qilishdagi faol siyosiy harakatlar, bu jarayonda oddiy fuqarolar manfaatlari, ehtiyojlari va intilishlarining hisobga olinishi ularga erkin insoniy qadr - qimmat bag'ishlaydi. Eng asosiysi, bu qarorlarning xalq taqdiridagi ahamiyati fuqarlarda siyosiy ma'suliyat ruhini shakllantiradi.
Fuqarolarning siyosiy qarorlar qabul qilishda turli ijtimoiy guruhlarining manfaatlarini turli jamoat tashkilotlari va siyosiy partiyalar vositasida ifodalanishidan qoniqishlari ularni yanada faollashiradi, natijada o'zaro manfaatlar kelishuvi oqibatida jamiyatning barqaror bo'lishiga katta hissa qushiladi.
Bu ishtirok har bir fuqaroni o'zligini anglashga, uning jamiyatdan o'ziga munosib o'rin egallashga shart - sharoit yaratadi. O'z mamlakatiga egalik hissini shakllantirib, milliy iftixor tuyg'ulari yuksalishini ta'minlaydi.
Davlat hokimiyati barcha ijtimoiy tabaqalar va guruhlar manfaatlarini o'z siyosiy qarorlarida ifodalanishiga erishiladi, mazkur qarorlarni hayotda amalga oshishi natijasida siyosiy hokimiyat unda legitimlashadi, siyosiy qarorlarni bajarishni ta'minlashga doir jarayonlar va ma'muriy tadbirlarni amalga oshirishni jamiyat hech bir zuriqishsiz va ixtiyoriy ravishda qabul qiladi, shuningdek bu faoliyat fuqarolar tomonidan keng qo'llab-quvvatlanadi.
Bu jarayonlar jamiyatdagi ko'pchilik fuqarolarning irodasini ifodalanishiga shart-sharoitlar yaratib, jamiyat va davlat hokimiyatining demokratik tamoyillar asosida faoliyat ko'rsatish salohiyatini oshiradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, qonun ustivorligini ta'minlash, shaxs, oila, jamiyat va davlatning huquq va manfaatlari muhofazasini kuchaytirish, aholining huquqiy madaniyati va huquqiy ongini oshirish, fuqarolarning qonunga bo'ysunishi va hurmat ruhida tarbiyalash—bu rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan chinakam demokratik, huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyati qurishning nafaqat maqsadi, balki uning vositasi eng muhim sharti hisoblanadi.


Qabul qilinayotgan qonunlar va boshqa normativ hujjatlar adolatga, inson huquqi va manfaatlariga asoslangan bo'lsa




O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining tuzilishi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati		O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi
Senatorlar soni 100 ta. 84 ta senator yashirin ovoz berish natijasida Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda 6 kishidan, Qoraqalpog'iston Jo'qori Kengesi, viloyat, tuman va shaharlar davlat hokimiyat vakillik organlari deputatlari orasidan saylanadi. 16 nafar senator O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga muvofiq tayinlanadi		Deputatlar soni 150 ta Siyosiy partiyalar vakillaridan 135 nafar va "Ekologik harakat"dan 15 nafar nomzodlar ko'rsatadilar. Yashirin ovoz berish yo'li bilan 5 yil muddatga saylanadilar. Qonunchilik palatasi qonunlarni ishlab chiqish va ularni hayotga tatbiq etish, qonun ustuvorligini ta'minlash ularning asosiy vazifasi

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING TUZILISHI





FUQAROLAR HUQUQ VA ERKINLIK LARI



Siyosiy huquq va erkinliklar

32- modda. Davlat va jamiyat ishlarini boshqarish huquqiga ega.	35- modda. Vakolatli davlat orranlariga, muassasalariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat etish huquqiga ega.	33- modda. Fuqarolar mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlarga qatnashish huquqiga ega.	34- modda. Kasaba uyushmalari, partiyalar va jamoat birlashmalariga uyushish huquqiga ega.
--	--	---	---

Ma'naviy imkoniyatlar





Buyuk davlatchilik shovinizmi

Buyuk davlatchilik shovinizmi nima? Shovinizm oqibatlari

Shovinizm	Shovinizm ba'zi ko'p sonli millatlarning nafaqat ko'p millatli imperiya doirasida, balki uni o'rab turgan jo'g'rofiy-siyosiy makonda ham o'zining mutloq hukmronligini o'rnatish uchun kurashda namoyon bo'ladi
Buyuk davlatchilik shovinizmi	Buyuk davlatchilik shovinizmi boshqa millatlar va mamlakatlar bilan o'zaro madaniyatli hamkorlik qilishga tayyor emaslikdan kelib chiqadi. Uning ifodachilari harbiy imperiyalardir. Bu imperiyalarning iqtisodiy bosib olingan hududlarni ekspluatatsiya qilar va hatto ularning hayotiy manbaalari hisobiga yashar edi. Ayni chog'da bo'ysindirilgan xalqlarda ularning madaniy jihatdan va umuman milliy jihatdan norasoligi haqidagi halokatli g'oya singdirilgan edi.
Buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilik	Buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilik bir-birini to'ldiradi. Ular o'z davlati manfaatini ilgari surib, milliy qadriyalarni toptashda milliy madaniyatlar va ma'naviy qadriyatlarni oyog'osti qilishda, avtoritar tizim o'rnatishda namoyon bo'ladi. Shuningdek, o'z ta'sir doirasini boshqa mustaqil davlatlarda saqlab qolish uchun intilishda millatlar o'rtasida o'zaro ishonchsizlik to'g'risida, xalqaro huquqiy me'yorlarni inkor etishda tashqi iqtisodiy aloqalarni to'sishda namoyon bo'ladi.

MUSTAQIL O'ZBEKISTONNI RIVOLANTIRISHNING MA'NAVIY-AXLOQIY NEGIZLARI
O'zbekistonni yangilash va rivojlantirishning o'z yo'li to'rtta asosiy negizga asoslanadi:
bu negizlar:



Qisqacha xulosalar

Qonun ustivorligiga asoslangan huquqiy davlat bu insoniyatning eng yuqori tsivilizatsiyasining mahsulidir. Uning asosiy belgilari insoniyat tomonidan asrlar davomida to'ldirilib, takomillashtirilib kelindi.

CHinakam, demokratik huquqiy davlat bo'lishi uchun mamlakatda adolatli, insonparvar, demokratik qonunlar tantana qilmog'i shart. Demokratik huquqiy davlatda qonunning ustuvorligi davlat va jamiyat hayotining muqaddas printsiplaridan biridir. Ijtimoiy - siyosiy turmushda qonun muqaddas sanalib, uni yuksak e'tiborga ega bo'lishining boisi, sababi shuki, unda xalqning hukmron irodasi, hohish - istagi, manfaati va intilishlari o'zining mujassam ifodasini topadi.

Davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi, ijroya va sud hokimiyatiga bo'linishi demokratik huquqiy davlaga xosdir.

Hokimiyat bo'linishi tamoyili ham, qonunlarning ustunligi tamoyili ham huquqiy demokratik davlatning eng muhim shartlaridan biri bo'lgan holda shaxs manfaatlarining hamma narsadan ustunligini ta'minlashga qaratilgan.

Ma'naviyati yuksak bo'lgan, o'z kuchiga, o'z tanlagan yo'lining to'g'riligiga ishonch bo'lgan erda inson doimo kelajakka intiladi. U jamiyatdagi fikrlar xilma-xilligidan cho'chimaydi, balki

zamonaviy bilim va falsafiy qarashlarga hayot haqiqatiga suyangan holda har qanday g'arazli niyat, tahdid va intilishlarni fosh qilishga qodir bo'ladi.

Tayanch so'zlar

Huquqiy davlat, erkinlik, ochiq, odil demokratik davlat, davlat hokimiyati tizimi, davlat hokimiyatning uch asosiy tarmog'i: Oliy Majlis, demokratik parlamentarizm, Prezident va Vazirlar Mahkamasi, Sud hokimiyati, qonun ustuvorligi, fuqarolik jamiyati.

Ma'naviyat, ma'naviy meros, madaniyat va madaniy meros, moddiy va ma'naviy boyliklar, milliy meros, ma'rifat, ijtimoiy - madaniy taraqqiyot, madaniy merosni tiklashning tarkibiy qismlari, milliy til, ijodiyot va san'at, insoniy fazilatlar, fuqarolik ne'matlarining faol yaratuvchisi, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, dinlararo bag'rikenglik.

Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. Qonun ustuvorligining mohiyati O'zbekiston Respublikasining qaysi moddalarida belgilab berilgan?
2. Fuqarolarning Konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini ta'minlash yuzasidan parlament nazoratini amalga oshirish qanday institut zimmasiga yuklatilgan?
3. O'zbekistonda tashkil etilgan ikki palatali parlament qabul qilinadigan qonunlarni sifatli, mukammal bo'lishga xizmat qiladi. Qonunlarning mukammal bo'lishligini ta'minlovchi omillar haqida o'zingizning fikringizni ayting?
4. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga binoan davlat hokimiyati qanday tashkil etiladi?
5. O'zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyatini shakllanishida saylov tizimi va saylov huquqining ahamiyati.
6. Sho'rolar hukmronligi davrida ma'naviyat sohasida qanday siyosat olib borildi?
7. Mustaqillik yillarida ma'naviy merosni tiklash uchun qanday ishlar amalga oshirildi?
8. Ma'naviy meros va milliy madaniyatning mustaqillikni mustahkamlashdagi roli qanday, tushuntirib bering?
9. Ma'naviy yangilanishning mustaqillik bilan bog'liqligi?
10. Istiqol yillarida milliy san'atimizda qanday o'zgarishlar bo'ldi?

Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 2010. - 3-36-b.
2. "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" Davlat dasturi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. "Xalq so'zi" 2011 yil 21 yanvar'.
3. "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 20 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. "Xalq so'zi" 2011 yil 7-aprel'.
4. Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. - T.: O'zbekiston, 2007. - 3-48-b.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. - T.: "Ma'naviyat". 2008. - 176 b.
6. Karimov I.A. "Eng asosiy me'zon – hayot haqiqatini aks ettirish" T.: O'zbekiston, 2009. - 24 b.
7. Karimov I.A. "Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" - T.: O'zbekiston, 2009. - 56 b.
8. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi "Xalq so'zi", 2010 yil 13 noyabr'.

9. Karimov I. A. "Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qilsin". "Xalq so'zi", 2011 yil 23 yanvar.
10. Karimov I.A. "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida". -T.: O'zbekiston, 2011.- 157-192-b.
11. I. A. Karimovning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 20 yilligi tantanalaridagi nutqi. "Xalq so'zi", 2011 yil 1 sentyabr'.
12. Karimov I. A. "Bizning yo'limiz – demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo'lidir". "Xalq so'zi", 2011 yil 8 derabr'.
13. Karimov I.A. "Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir". "Xalq so'zi", 2012 yil 8 dekabr.
14. Karimov I.A. "Bosh maqsadimiz - keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davov ettirish". "Xalq so'zi", 2013 yil 20 yanvar.
15. Aliyev B., Hoshimov T., Yuldashev O. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. Darslik .-T. "Iqtisodiyot", 2008. -85-109-b.
16. Aliyev B., Yuldashev O., Qahhorova M. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. O'quv qo'llanma.-T.: "Iqtisodiyot".2011.- 53-65, 94-105-b.

5 - mavzu. FUQARO ERKINLIGI VA FAOLLIGINI TA'MINLASH - DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH OMILI

5.1 Fuqaro erkinligi va faolligining turlicha talqinlari. Forobiy komil inson va fozil jamoa to'g'risida.

Necha ming yillardan buyon turli xalqlar kishilar manfaatlarini va ehtiyojlarini ro'yobga chiqarish uchun har tomonlama imkoniyatlar topishga qobil bo'lgan insoniy birlik–adolatli va fozil jamiyatni yaratishga intilib yashaganlar. Jahondagi barcha xalqlar orzu umidlari aylangan fuqarolik jamiyati inson erkinligi va farovonligini ro'yobga chiqarish borasida beqiyos imkoniyatlar yaratadigan, insonni o'zini-o'zi boshqarish jarayonlarida, shaxsning hayotda tuliq namoyon etishi uchun mukammal shart - sharoitlarni borligi bilan qadriyatlidir.

Qadimgi davrlarda, jumladan Qadimgi Xitoyda adolatli jamiyat barpo etish, fuqarolar uchun insoniy shart - sharoitlarni yaratish haqidagi dastlabki izlanishlar mutafakkir Konfutsiy (Kun - tsi, er.av.551 - 479 y.y.) tomonidan amalga oshirildi. Konfutsiy oliy axloq me'yorlari namunasini shakllantirishga, komil inson timsolini yaratishga intildi. Bu timsol - tszyun' - tsi (tszyun' - janob, hukmdor, tsi - o'g'il) ya'ni olijanob ma'nosini anglatgan.

Konfutsiy jamiyatda hamma narsa mustahkam va barqaror bo'lishi uchun ijtimoiy tartibotlarni amalga oshirishga qobil, ahloqiy namuna darajasidagi o'z huquqlari va burchlarini anglagan inson timsoli mohiyatini izohlab berdi.

Platon (er.av.427 - 347 y.y.) adolatli jamiyatni barqaror yashashi uchun eng muhim bo'lgan fuqarolik jamiyatining asosiy unsurlaridan biri–erkinlik qadriyatining ahamiyatini yuksak pog'onaga ko'tardi. Bu jihatdan u hozirgi davr mutafakkirlaridan ham teranroq tarzda inson erkinligining aniq manfaatlarini barcha uchun tushunarli holatda talqin etdi.

Arestotel'ning (er.av.384 - 322 y.y.) demokratiyaga doir quyidagi qarashlari uning mohiyatini ochib beradi: demokratiyaning birinchi ko'rinishini xarakterli belgisi tenglikdir. Tenglik demokratiyaning asosiy qonuniga muvofiq shundan iboratki, mulksizlar ham, mulkdorlar ham hech narsadan biron–bir imtiyozlarga ega emaslar, oliy hokimiyat unisi yoki bunisining qo'lida to'planmagan, shu bilan birga ular ham, boshqalar ham o'zaro tengdirlar.

Qadimgi Rimning mashhur mutafakkiri Setseron (er.av.106 - 43 y.y) o'zining davlat va jamiyat rivojlanishiga doir ta'limotini yaratdi. Ideal fuqaro burchlari sifatida Setseron haqiqatni anglagan, ruhiyati ulug'vor va odob - ahloq doirasida bo'lgan o'z intilishlarini faqat ezguliklarga qaratgan insonni tushunadi. Fuqaro nafaqat boshqalarga zarar keltirmasligi, boshqalar mulkiga ko'z olaytirmasligi, undan tashqari adolatsizlikka uchragan insonlarga ko'maklashishi, umumiy

farovonlik yo'lida mehnat qilishi zarur. Fuqarolar faolligini doimo qo'llab-quvvatlab kelgan Setseron fikriga ko'ra fuqarolar erkinligini himoya qilishda xususiy shaxslar bo'lmaydi.

Adolatli jamiyat barpo etishga doir ulkan meros qoldirgan mutafakkir Abu Nasr Forobiydir (873 - 950 y.y.). Forobiyning quyidagi o'g'itlari o'ta qadrlidir: «Insoniy vujudan maqsadeng oliy baxt-saodatga erishuvdir, avvalo u baxt-saodatning nima va nimalardan iborat ekanligini bilishi, unga erishuvni o'ziga g'oya va eng oliy maqsad qilib olishi, butun vujudi bilan maftun bo'lishi kerak». Buyuk mutafakkir talqinini chuqur anglagan har bir kishiga ma'lumki, inson o'zining maqsad va vazifalarini faqat ma'rifatchilik faoliyati bilangina tasavvur qila oladi.

Forobiy ma'naviy va ma'rifiy kamolotga erishish shaxslarning o'z-o'ziga bo'lgan mas'uliligi, insoniy intizomining nechog'liq yuksaklikligiga bog'liqligini asoslab beradi. Ulug' mutafakkir komil insonlikka erishish yo'lini har bir kishi o'zi uchun muqaddas bilib, ilohiy qonun darajasida anglamog'i zarurligini ta'kidlaydi.

Forobiy o'z tasavvuridagi mukammal jamiyat va davlatning oliy maqsadi-insonlarni tom ma'noda baxt-saodatga erishuvi yo'lidagi vazifalardan kelib chiqadi.

Yuqoridagi talqinlar umumlashtirilganda, Abu Nasr Forobiyning fozil jamoaga doir ta'limotining asosiy yo'nalishi komil insonni shakllantirishga, insonni ma'naviyatli va axloqli bo'lishiga yo'g'rilganligi aniq sezilib turadi.

Komil inson, erkin va faol shaxs haqidagi g'oyalarni keng targ'ib etgan mutafakkirlardan biri, bu Abu Rayhon Beruniydir (970 - 1048 y.y.). Beruniy fozil jamiyatda yashaydigan komil insonlarning fazilatlari sifatida odamgarchilik, mardlik va muruvvatlilik kabi qadriyatlarni ta'riflaydi. Komil inson murafakkirning fikricha quyidagi fazilatlarga ega bo'lishi lozim: «Odamgarchilik, ya'ni muruvvat kishining o'zi, urug'-aymog'i va o'z ahvoriga ta'sir etish bilan chegaralanadi. Mardlik esa undan ham ustun turib, o'zidan tashqariga ham o'tadi. Mard odam o'zining halolligi, muloyimligi, irodasi mustahkamligi, chidamligi, kamtarligi, ulug'vorligi bilan tanilib, oliy darajaga ko'tariladi». Mutafakkirning e'tirof etishicha fuqaroviy jamiyat shaxsning erkinlik va faollik darajasini ta'minlashda kundalik ehtiyojlarning qanchalik qondirilishi bilan belgilanadi. Jamiyatda fuqarolarning farovonligini ta'minlovchi eng muhim omil ijtimoiy adolat qoidalariga amal qilishdir.

Ma'naviy-ma'rifiy komillik masalasi Abu Ali ibn Sino (980 - 1037y.y.) qarashlarida muhim rol o'ynaydi. Mutafakkirning fikricha ma'naviy - ma'rifiy komillikka erishuvi jamiyatni yanada takomillashtiruvni, unda adolat qoidalarining barqarorlashuvini ta'minlaydi. Fuqarolarning o'zaro hamjihatligi va hamkorligi natijasida jamiyat ma'naviy-axloqiy jihatdan sog'lomlashadi, insonlar o'rtasida o'zaro mehr-muhabbat va ishonch tuyg'ulari shakllanadi, bu bilan yovuzlik va adolatsizlik yo'liga g'ov qo'yiladi.

Alloma shoir, o'zbek adabiy tilining asoschisi Alisher Navoiy (1441 - 1501 y.y.) o'z asarlarida adolatni kuyadi. Alisher Navoiyning qarashicha adolatli jamiyatni yuksak fazilatli, ma'naviy insonlarga barpo etishi mumkin. U insoniyatni «ahli ma'ni» va «ahli suvrat»dan iborat deb ko'rsatadi. Ahli suvrat-bu toifaga mansub kishilar insoniy munosabatlarning faqat shaklu shamoyiliga muhim e'tibor beradilar. Ahli ma'ni-yuksak tafakkur sohibidir. Ularning ma'niligi shundaki, bu toifa insonlar uchun aql-idrokli bo'lish, turli munosabatlarning mohiyati va mazmunini anglash xosdir. Bu kabi insonlar o'z ehtiyoj va manfaatlarini o'zgalarniki bilan uyg'unlashgan holda idrok qiladilar. Jamiyat va xalq uchun xizmat qilish va yashashdan lazzatlanadilar. Ular har bir xatti-harakati va voqelikning oqibatini o'ylab ish tutadilar, bu dunyoning qisqa va o'tkinchi ekanligini chuqur his qiladilar. Ahli ma'nilar yaratganning ato etgan tafakkurlash fazilati vositasida dunyoni anglashga, bu yo'lda ilmu fanni egallashga va ma'rifatli bo'lishga intiladilar. Ko'rinib turibdiki, ahli ma'niga mansub bo'lish, ya'ni yuksak ma'naviyat sohibi bo'lish insonning eng oliy orzusidir.

Yangi davr G'arb mutafakkirlari insonni buyum emasligi, insonga inson egalik qilishiga yo'l qo'ymaslik, insonni inson qilib turgan yoki uning asosiy huquqiy belgisi erkinlik ekanligini ta'kidlaganlar. Ular inson erkinligi va huquqlarini ta'minlash, insoniy shaxs erkinligini saqlash va unga shart - sharoit yaratish, erkinlik, tartib va taraqqiyot, optimal siyosiy tuzum, davlatning ta'sir qilish darajasining cheklanganligi va hakovzolar ustida keng mushohada yuritadilar.

Fuqaro erkinligi va faolligi demokratik jamiyat qurishning eng muhim omili ekan, u qanday tushunchalarni o'zida ifoda etadi? Fuqaro, fuqarolik, erkinlik, tenglik, mustaqillik, fuqaro mas'uliyati, fuqaro huquqlari va erkinliklari tushunchalarining mohiyati va mazmuni qanday? «Fuqaro» so'zi «faqir» so'zidan olingan bo'lsada u zamonlar o'zgarishi bilan yangi ma'no kasb eta boshladi. Hozirda G'arb olimlari fuqaro tushunchasi o'rniga shaxs so'zini ko'proq ishlatadilar.

«Fuqarolik» tushunchasi feodalizm inqirozga uchrab, jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayot demokratiya va bozor munosabatlari zaminiga o'ta boshlaganda, hozirgi shaklda paydo bo'la boshladi va ilk bor «shaharlik», frantsuzcha «situayan», inglizcha «sitezen», ruscha «gorojanin - grajdanin» degan ma'nolarni anglatib boshladi. Mustaqillik e'lon qilingandan so'ng o'zbek tilida odatga kirib qolgan «grajdanlik» so'zi o'rniga «fuqarolik» degan atama qabul qilindi.

Fuqarolik—bu huquqiy o'rni qonun bilan mustahkamlangan shaxsning davlat ichkarisida va tashqarisida bo'lishidan qat'iy nazar, ma'lum davlatga tegishliligi aytiladi, shunday huquqqa ega shaxs «fuqaro» deb aytiladi.

Fuqarolik mas'uliyati—fuqarolarning jamiyat taraqqiyotiga ongli, ijodiy mehnati bilan hissa qo'shishi, burchini faol bajarishi, xullas o'zi va jamiyatni baxtli, farovon qilishi yo'lidagi sa'y - harakatlaridir.

«Fuqaro huquqlari»—demokratik davlatlarda xalqlarning huquqiy va haqiqiy tengligini, har bir fuqaroning erkinligini ta'minlash maqsadida konstitutsiyaviy imtiyozlardir. Insonning fuqaro sifatidagi muhim huquqiy belgisi erkinlik, tenglik va mustaqillikdir.

Erkinlik va tenglik turlicha bo'lgan tushunchalardir. Ular o'rtasidagi munosabatlar ham bir xil emas. Insonlarning ularga bo'lgan munosabatlari ham har xil. Barcha davlatlarda ham insonlar erkinlikka nisbatan ko'proq tenglikka intilganlar. U kishilar oson tushunadigan, ko'pchilik tomonidan yaxshi kutib olinadigan va ularga zavq-shavq beradigan hodisadir. Tenglik har kuni kishilarga ko'plab turli-tuman mayda quvonchlar baxsh etadi. Tenglik jozibasini doimo sezib turish mumkin va har qanday narsada va harakatda ishtirok etadi. Uning jilvalari va jozibasiga qalblar tuhfa etiladi, ko'ngillar uning lazzatli og'ushiga ixtiyorsiz kiradilar. SHunday qilib, tenglik tomonidan o'yg'otilgan intilish bir vaqtning o'zida kuchli va umumiydir. Tenglik baxsh etgan quvonchlar va zavqlar o'ziga qurbonlar va alohida urinishlar talab etmaydi. Erkinlik sharoitida yashash insondan mustaqil bo'lish zaruriyati bilan bog'liq holda kuch-g'ayrat, katta urinishlar, har safar shaxsiy tanlashlar, o'z xatti - harakati va uning oqibatlari uchun mas'ul bo'lishni talab etadi. Ta'bir joiz bo'lsa, erkinlikdan foydalanish ma'lum bir faoliyatdir. Odatda uning afzalligi, munosibligi tezda bilinmaydi. SHuning uchun ham demokratik xalqlar astoydil ter to'kib va mutasil intilish evaziga erishilgan erkinlikka nisbatan ko'proq tenglikni sevadilar. Bunday bo'lishni sababi erkin yashashga o'rganishdan qiyinroq hech narsa yo'qdir.

Erkinlik doirasi sifatida xususan quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin: fikrlash va fikr bildirish erkinligi, boshqa individlar bilan o'zaro harakatdagi erkinlik, hayotiy maqsadlarni tanlash va ulardagi erkinlik, shaxsiy taqdirini mustaqil belgilash. Bularning hammasi individning rivojlanishi, faoliyatini o'zi amalga oshirishi, shu bilan birga, tashqaridan muhtor shaxsga o'tkaziladigan tazyiqlarga to'siqlar qo'yilishidir.

Jamiyat tomonidan insonga taqdim etilgan qonunlarni yaxshi bilgan, jamiyatni inson mehnati rohatini topadigan joy deb anglab, o'z majburiyatlari va vazifalari doirasida o'z fikrini erkin bayon etishi, himoya qilishi orqali jamiyat hayotida erkin faoliyat olib borish—bu insonga berilgan mustaqillikdir.

O'zbekistonning tanlagan yo'li huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini qurishdan iborat, bu degan so'z har bir shaxs so'z erkinligi va o'z so'zini erkin ifodalash huquqi, hayot tarzini o'zgartirish erkinligi va shaxsning xavfsizlikka bo'lgan huquqqa to'la ega ekanligidir. Bu jamiyatda qonun ustivor ekanligi, odamlar erkinligi ekanligini ifodalaydi. Hayotda erkinlikni ifodalashning huquqdan tashqari boshqa shakli kashf etilmagan.

Fuqarolik faolligi deganda o'z huquq va burchlarini to'liq anglagan holda mehnati bilan o'z Vatani mustahkamlash, obru - e'tiborini oshirish, uning xalqaro maydondagi nufuzini ko'tarish uchun hamma ishlarni qilish demakdir.

Fuqaro erkinligi va faolligi haqidagi nazariy qarashlar bir necha ming yillar oldin kashf etilganligiga e'tibor berilsa, fuqarolik jamiyati insoniyat yaratgan tsivilizatsiyaning eng so'nggi xosilasi ekanligini yanada teranroq anglashga imkoniyat tug'iladi.

5.2. Inson faolligining asosiy mezonlari: hozirgi davrda inson, jamiyat va davlatlarning o'zaro munosabatlari.

Har bir odam jamiyat bilan turli-tuman aloqada bo'lib turadi. Inson moddiy hayotning shart sharoitlari muayyan davrda jamiyat ishlab chiqaruvchi kuchlari erishgan taraqqiyot darajasiga tamomila bog'liq bo'ladi. Insonning ma'naviy manfaatlari, tafakkur tarzi, ahloqiy printsiplari-hammasi jamiyat ta'siri natijasi bo'lib, ularga mavjud ijtimoiy tartibotning ham, ko'pdan - ko'p avlodlar hayoti davomida tarkib topgan milliy va umuminsoniy an'analarning ham muhri bosilgan bo'ladi.

Modomki, inson o'z tabiatiga ko'ra ijtimoiy mavjudod ekan, binobarin u o'zining haqiqiy tabiatini faqat jamiyatdagina kamol toptira oladi. Zotan, uning tabiat kuchini ayrim individlar kuchiga qarab emas, balki butun jamiyat kuchiga qarab baholash kerak. Bu erda insonning ijtimoiy tabiati uning jamiyat bilan yaxlitligida o'z ifodasini topadi. Inson ijtimoiy faoliyatdan boshqa sohada o'zini namoyon etolmaydi. Bugina emas, inson mohiyatining o'zi, avvalo, uning jamiyat hayotida qanchalar to'laqonli qatnashuvchiga, tarixiy harakatga qanchalar chuqur tortilishiga bog'liqdir. Bu haqida allomalardan biri shunday fikr bildirgan: «Jonli insonning ruhida, qalbida, joni - tanida jamiyat hayoti bor, u jamiyatning dardlari bilan kasallanadi, uning iztiroblaridan azoblanadi, uning sog'lomligidan yashnaydi, uning baxti-saodatidan lazzatlanadi».

Insonning ijtimoiy mohiyatini, uning jamiyat bilan munosabatlarini ko'zda tutib, biz shaxs tushunchasini ishlatamiz. Umuman jamiyat va xususan insonni o'rab turgan ijtimoiy muhit uning shaxsi voyaga etishiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi.

Shunday qilib, shaxs-jamiyat munosabatiga o'zaro ta'sir qilib turuvchi tizimdir. Bu erdagi ta'sirlar nihoyatda murakkab tusga ega. Bu munosabatlar insoniyat tsivilizatsiyasining butun taraqqiyoti davomida falsafa va etikaning ya'ni, axloq haqidagi ta'limotning diqqat markazida turli siyosiy bahs-munozaralarga sabab bo'lgan, adabiyot va san'atning mangu mavzularidan biri bo'lib kelgan.

Shaxs bilan jamiyatning o'zaro mutanosiblari muammosini hal etish uchun demokratik yo'lni tanlash va shu asosda shaxsni tarbiyalash zarur bo'ladi. Demokratik jamiyat qurish nazariyasi bu sohadagi vazifani ana shunday ta'riflaydi, amaliy faoliyatda vazifani ana shunday hal etadi.

Demokratik jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy taraqqiyotini shaxs kamolati bilan yakka-yakka tartibda bog'laydi, demokratik jamiyatning tarixiy xizmati ham, ana shundadir. Demokratik jamiyat taraqqiyotining asosiy mezonlari inson farovonligi, uning har tomonlama kamolati bo'lib, inson qadr - qiymatining asosiy mezonlari esa-jamiyatga xizmat qilish, jamiyatning yuksalishi va gullab - yashnashi to'g'risida g'amxo'rlik qilishi bo'lib qoladi. SHaxs bilan demokratik jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning haqiqiy asosi ana shundadir.

Davlat va shaxs o'rtasidagi yangicha munosabatlarni tushunishning asosiy g'oyasi bo'lgan demokratiyada fuqarolik instituti o'zining to'liq ifodasini topgan. Fuqarolik tushunchasi siyosiy va huquqiy kategoriya hisoblanadi. Unda izchil va aniq ravishda davlat va shaxs o'rtasidagi munosabatlar ifodalangan. Fuqarolik deganda shaxsning muayyan davlat bilan barqaror siyosiy va huquqiy aloqasi tushuniladi. Bizning yangilanayotgan jamiyatimizda bu institut yuridik nuqtai - nazardan, ayniqsa axloqiy - siyosiy jihatdan olganda shaxsning davlatga nisbatan oddiy aloqadorligiga qaraganda ko'proq narsani anglatadi. U o'zaro burchini, davlat va shaxs o'rtasidagi o'zaro javobgarlikni, ya'ni har ikki ob'ekt bir - biri bilan o'zaro ta'sirda bo'lishini xarakterlovchi chuqur aloqani ifodalaydi.

Jamiyatimizning har bir fuqarosi konstitutsiya va qonunlarda ko'rsatilgandek ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hamda shaxsiy huquq va erkinliklar bilan to'la ta'minlangan, ya'ni fuqarolik shaxsi ijtimoiy hayotining hamma sohalarida to'la huquqiy ekanligini anglatadi. Biz O'zbekiston fuqarosi deganda, avvalo u o'z mamlakatining, faoliyat ko'rsatayotgan ishlab chiqarish joyining egasi

ekanligini nazarda tutamiz, bu degan soʻz u fuqarolik institutida siyosiy–huquqiy zaminga suyangani boʻlib, uning asosi har bir kishi oʻz ongini, oʻzining jamiyat iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga javobgarlik hissini tarbiyalaydi.

Fuqarolarning huquqiy tabiati va fuqarolikning axloqiy mohiyati bir - biri bilan mustahkam bogʻlangan boʻlib, uning doirasida shaxsning yuridik majburiyati oʻz mamlakati, vatandoshlari, doʻstlari, qarindosh - urugʻlari va yaqinlari oldidagi axloqiy burchi bilan qoʻshilib ketadi.

Davlat va ijtimoiy ishlarni oʻziga va qalbiga yaqin tutgan yuqori fuqarolik hissiyotiga ega boʻlgan odam deymiz biz, unga oʻz xususiy ishiga boʻlgani kabi munosabatda boʻladi, qatʼiylik va qiziqish bilan uni hal etish yoʻllarini izlaydi. Aynan shu erda fuqarolarning davlat va xoʻjalik ishlariga egalarcha munosabat manbai yotadi, ularsiz jamiyatni yangilash, demokratiyalash mumkin emas. Odam uchun fuqarolik shaxsiyatiga ega boʻlish deganda fuqarolik zaminida boʻlgan barcha imkoniyatlarni roʻyobga chiqarish, uni faqat oʻzi uchungina emas, balki boshqa odamlar, jamiyat, davlat, xalqni nazarda tutishni anglatadi. Fuqarolik degani mehnati bilan oʻz Vatanini mustahkamlash, obroʻ–eʼtiborini oshirish, uning xalqaro maydondagi nufuzini koʻtarish uchun hamma ishlarni qilish demakdir.

Jamiyatda ijtimoiy, davlat va shaxsiy manfaatlarning birligini aks ettirilishi, huquq va burchlarning birligi tamoyili hisoblanadi. Ijtimoiy hayot amaliyoti koʻrsatganidek huquq va burchlarga turlicha munosabat bilan qarash mumkin emas, ular ongli va ijtimoiy hayotdagi faol qatnashuvi nuqtai nazaridan tengdir. Inson huquqlarini kengaytirish, chuqurlashtirish va samarali taʼminlash oʻz burchini vijdonan, halol va izchil bajarishga bogʻliq. SHuning uchun kundalik hayotda, amaliy faoliyatda fuqarolar oʻz huquqlaridan foydalanishi bilan bir qatorda intizomli, ongli, uyushgan, oʻz maʼsuliyatini chuqur xis etgan holda burchini ham bajarishi kerak, shunda fuqarolarning huquq va burchlarining mantiqiy birligi yuzaga keladi.

Huquqiy kafolat deganda odatda ijtimoiy, siyosiy, huquqiy va boshqa institutlar va qoidalar tushuniladi. Ularning yordamida shaxs (yoki jamoa) oʻzining huquqlarini amaliy ravishda roʻyobga chiqaradi. Fuqaro foydalanuvchi bu vositadan institutsiyaviy dastakni harakatga keltirish orqali maqsadga erishishga qaratilgan. Agar kafolat oʻzida muassasa institutni (masalan, ijtimoiy taʼminot organlari tizimi, prokuror nazorati, fuqarolarning davlat organlari va jamoat tashkilotlariga murojat etish instituti va h.k.) ifodalasa, u xolda huquq, erkinlik va siyosiy tizimning boshqa boʻgʻini faoliyati hisoblanadi va u fuqarolar tomonidan oʻz huquq va erkinligidan samarali foydalanishni kuchaytirishga xizmat qiladi. Jamiyatimizda fuqarolarning huquq va erkinliklarini taʼminlash davlatning asosiy funktsiyasi hisoblanib, uning ijtimoiy tabiati va insoniylik mohiyatini ifodalaydi.

5.3. Fuqarolar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, erkin va farovon hayotni barpo etishning zaruriy sharti.

Hozir siyosiy va huquqiy munosabatlar sohasida chuqur tuzilmaviy va boshqa oʻzgarishlar qilish zarurligi va vazifasi masalasiga boʻlgan eʼtibor kuchaygan. CHunki jushqin qayta qurish jarayoni kechayotgan hozirgi davrda u koʻp miqdorda murakkab muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ularning baʼzi birlariga Prezidentimiz kitoblarida va davlat hujjatlarida javob topilsa, boshqalar yuzasidan yangi qarorlarni muhokama qilish, turli qarashlar fikrlar va yondoshuvlarni qilgan holda izlab topish kerak. Belgilangan siyosiy - huquqiy qayta oʻzgarishlar dasturini muvaffaqiyatli amalga oshirish bevosita fuqarolarning siyosiy huquq va erkinliklari qanday takomillashayotganligi, kengayayotgaligiga, odam bu huquqlardan qanday natijalar bilan foydalanayotganligiga bogʻliq.

Buning birlamchi va aniq–ravshan guvohi–bu mehnatkashlar ijtimoiy faolligini oshganligidir, ular endilikda siyosiy jihatdan ancha etuk, tajribali, tashabbuskor boʻlib qoldilar. Biroq, hali davlatchilik asoslaridan tortib kundalik hayotimizning eng mayda tashvishlarigacha daxldor boʻlgan qator muammolarga birmuncha qarama - qarshiliklar mavjudligi sir emas. Hali ongimiz va tafakkurimiz tom maʼnoda mustaqillikni va uning imkoniyatlarini qamrab olganicha yoʻq. Ayrim joylarda eskicha yashash va ishlash, baʼzi bir tashkilotlar boshqaruvida rasmiyatchilik va buyruqbozlik illatlari mavjud boʻlsa, ayrim holatlarda chuqurlashib borayotgan demokratik

jarayonlar imkoniyatlarini suiste'mol qilishlar, xudbinlik va nafs girdobiga g'arq bo'lish singari g'ayri insoniy hodisalar yuz bermoqda. Bularning hammasi albatta mavjud. Ammo jamiyatimizdagi vaziyatni hozirgi boshqa mayllar belgilab, ular davlat va ijtimoiy hayotni demokratiyalash jarayonining o'sishini o'zida ifoda etmoqda. Hozirgi muhim qaror va dasturlar ko'pchilik fuqarolarning ishtirokida, fikrlar xilma - xilligining o'sishi, ularni matbuot sahifalarida va boshqa ommaviy axborot vositalarida bayon etish orqali oshkora ravishda ishlab chiqilmoqda. Bizning demokratiya maktabimizda odamlar bir - biridan o'rganmoqdalar.

Ko'p odamlar endilikda, demokratiya va oshkoralik sharoitida, birinchi martaba haqiqatdan o'zlarining shaxsiy tajribalaridan kelib chiqib, siyosatda to'g'ri qarorlarni topish qanchalik kiyin ekanligini, bunday qarorlarni qabul qilish uchun qanchalik ko'p bilish va yuqori madaniyatga ega bo'lish kerakligini, bunday qarorlarni qabul qilish uchun jamiyat barcha fuqarolarning zimmasiga qanday javobgarlik ma'suliyati yuklaganligini anglab etmoqda.

Fuqarolarning siyosiy huquq va erkinliklari majmuini kengaytirish, demokratiyani takomillashtirish, mehnatkashlarning va ular jamoalarining davlat va ijtimoiy hayot masalalarini hal etishda faol qatnashishi asosida xalqning o'z - o'zini boshqarishni ta'minlash hayotiy ehtiyojdir.

Jamiyatni rivojlantirish siyosiy institutlar ishining forma va usullarini tubdan yangilashni nazarda tutadi. Bunday harakatlardan ko'zlangan maqsad omma ijtimoiy - siyosiy ijodiyotining sifat va samaradorligini ko'tarish, davlat va jamiyat ishlarini bajarishda qatnashayotgan hammaning mustaqilligi va javobgarligini oshirishdan iborat. So'z jamiyatni chuqur demokratiyalashga qodir bo'lgan, siyosiy tizim rivojiga jo'shqinlik baxshida etish, jamiyatni yangilash talablariga javob berish maqsadida mehnatkashlarning ijtimoiy - siyosiy faolligini oshirishga qodir bo'lgan keng qamrovli o'z-o'zini boshqarish jarayonini quloch yoydirish haqida boradi. Mohiyat jihatidan fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va burchlari tizimidan xalqning o'z-o'zini boshqarishda keng foydalanish mumkin, shunday ekan siyosiy huquq va erkinliklar bu maqsadga bevosita xizmat qiladi.

Xalqning o'z-o'zini boshqarish tizimi shunday harakat qilishni nazarda tutadiki, u faqatgina rejalashtirilgan ijtimoiy - iqtisodiy o'zgarishlarni olib kelishi bilan birga, odamlarning ongi va ruhiyatida, ularning fikirlash va kayfiyatida ham burilish yasash kerak.

Jamoa uchun o'z-o'zini boshqarish ma'nosi tashabbuskorlik, o'z tashkilotini tartibga solish bo'lsa, individlar uchun esa o'z-o'zini ifodalash, o'z-o'zini tanqid, o'z-o'zini tarbiyalash, mustaqil o'qish, boshqalar uchun esa birgalikda o'z-o'zini takomillashtirish, o'z-o'zini nazorat qilish, o'zini tuta bilish ma'nosini anglatadi. Tashkilot intizomini tartibga solish va nazorat, ta'lim va tarbiya kabilarni o'z ichiga olgan ommaning mustaqil ijodiyotida qudratli man'ba joylashgan.

Mamlakatni yangilash jamiyat ichidagi barcha imkoniyatlardan to'la foydalangan barcha zahiralarni ishga solish tartibidagina yuz beradi. Eng asosiy va hal qiluvchi zahira odamlarning o'zida, ularning ongiligida, uyushqoqligida va tashabbuskorligida, o'zlarining huquq va erkinliklaridan to'g'ri foydalanishida, intizom talablarini, o'z burchini to'g'ri bajarishidir.

Xalqning o'z-o'zini boshqarishga qaratilgan yo'l demokratiyani faollashtiradi, uning mohiyati jamiyat intellektual, ma'naviy zahiralarni safarbar etishdan iboratdir. O'z-o'zini boshqarish-bu shaxsni o'z-o'zini ifodalashning yangi formalarini izlash jarayonidir. SHu kayfiyatda insonning ongi va irodasini tarbiyalash, uning tabiiy holatiga sayqal berish, uning intellektual quvvatining namoyish bo'lishiga erkin yo'l ochish, shaxsiy qobiliyat va iste'dodni namoyish etish uchun sharoit yaratish zarur.

Biz amalga oshirayotgan buyuk ishlar demokratik , huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini qurishga qaratilgan. SHaxsning siyosiy huquqlari tizimini kuchaytirish jamiyatni demokratiyalashning eng muhim tomoni bo'lib, unda faqat ichki emas shuningdek tashqi siyosatda ham bizning yangicha qarashlarimiz shakllanadi va respublikamizning xalqaro maydonda obro'sining o'rtishiga asos yaratadi.

Prezidentimiz I.A. Karimovning 2009 yilgi Vazirlar Mahkamasi yig'ilishidagi "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish - davr talabi" ma'ruzasida va "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" nomli risolasida ham fuqarolar farovonligiga katta e'tibor berilgan.

Fuqarolar siyosiy madaniyati va faoliyati

Siyosiy madaniyat insonning siyosiy hodissalar haqidagi qadriyatlarga doir tasavvurlari va uning amaliyotda namoyon bo'ladigan xulqining kodeksi yoki uning siyosiy hokimiyat sub'ekti sifatidagi faoliyatining uslubidir .

Siyosiy madaniyat–bu munosabatlar tizimini va ayni paytda avlodlar almashuvi natijasi uni tashkil etuvchi unsurlarni ishlab chiqish va qayta ishlab chiqish jarayonidir . Siyosiy madaniyat rivojlanib boruvchi demokratik hodisadir .

Siyosiy madaniyat uzoq yillar va avlodlar almashinuvi natijasida tarkib topgan siyosiy ananalar, siyosiy amaliyot, mafkura, g'oyalar turli ijtimoiy institutlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga doir kontsepsiyalar va e'tiqodlarni o'z ichida oladi .

Siyosiy madaniyat qadriyatlariga oid va she'riy tizim hisoblanadi. U o'zida siyosiy tizimdagi tayanch e'tiqodlar, ko'rsatmalar, yo'nalishlar, intilishlar timsollarini aks ettiradi va birlashtiradi .

Fuqarolar o'z siyosiy faolliklarini yuksaltirilishi, qarorlar qabul qilishda bevosita yoki vakillik organlari orqali keng ishtirok etishi, demokratik jamiyat qurish kafolatlaridan biridir.

Demokratiyasiz erkinlik bo'lishi
mumkinmi? Yo'q.

Demokratiya inson erkinligini qonunlar orqali kafolatlaydi

Demokratiya ochiq muhokoma, ijtimoiy ziddiyatlarni ifoda etish va bartaraf etish usuli

Fuqarolik va siyosiy huquqlar deklaratsiyalarda qayd qilingan erkinliklarsiz mavjud
bo'la olmaydi

Bu degani so'z erkinligi va o'z so'zini erkin ifodalash huquqi, erkin uyushmalar tuzish
huquqi, hayot tarzini o'zgartirish erkinligi va shaxsiy xavfsizlikka bo'lgan huquqi
demakdir

Bu huquqlar demokratiyaning tashkil etgani bois erkinlikdir

Fuqarolar jamoat tashkilotlari vositasida qatnashar ekanlar ularda qanday ijtimoiy - siyosiy
o'zgarishlar sodir bo'ladi

- davlat hokimiyati jamiyatdagi barcha ijtimoiy tabaqalar va guruhlar manfaatlarini o'z siyosiy
qarorlarida ifodalanishiga erishadi;


- bu jarayonlar jamiyatdagi ko'pchilik fuqarolarning irodasini ifodalanishiga shart - sharoitlar
yaratib, jamiyat va davlat hokimiyatining demokratik tamoyillar asosida faoliyat ko'rsatish
salohiyatini oshiradi.

Fuqarolarning ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etish omillari

Davlat boshqaruvida

Fuqarolik jamiyati boshqaruvida

Saylovlarda fuqarolarning faolligi



Qisqa xulosalar

Fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida fuqarolar faolligini oshirish—bu ularning yangiliklarga intilish, ularni tezkorlik bilan o'zlashtirish, ijtimoiy-siyosiy faolligi, ijodkorlik, yangi, ozod odamlarga xos fazilatlar, me'yorlar va bilimlarga egaligi, mehnat va ijtimoiy malakalari, uzoqqa mo'ljallangan strategik maqsadlarni ko'zlab yashashi va ishlashi demakdir.

O'tish davrida fuqaro faolligi kompleks holda siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida amalga oshiriladi. Fuqaro faolligini oshirish uchun ma'naviyat va ma'rifat tizimi orqali jamiyatni demokratlashtirish, jamiyatda o'zini - o'zi boshqarish tamoyilini kuchaytirish, eng avvalo odamlarni davlat qarorlarini ishlab chiqish, qabul qilish va bajarishda bevosita va bilvosita ishtirok etishiga, ular tomonidan o'z manfaatlari va millat manfaatlari uyg'unligini to'g'ri tushunishga; halol va vijdonan mehnat qilishning axloqiy asoslarini shakllantirish, o'z bilim va malakalarini tobora oshirib borishga yo'naltirilishi lozim.

Inson faolligini oshirish—bu har bir O'zbekistonlikni o'z aqli, shijoati, g'ayrati va salohiyatini ishga solgan holda boy va farovon, baxtli va saodatli qilish orqali unga erishish amaliyotini yo'lga qo'yishni ifodalaydi.

Tayanch so'zlar

Fuqaro, fuqarolik, fuqaro mas'uliyati, fuqaro erkinligi, faolligi, inson, demokratik, fuqarolik jamiyati tushunchalari, qonun ustuvorligi, davlat va jamiyat, inson faolligi, fuqaro huquqlari va erkinliklari.

Nazorat uchun savollar

1. Nima uchun fuqaro erkinligi va faolligini oshirish fuqarolik jamiyatining muhim mezonlaridan hisoblanadi?
2. Abu Nasr Forobiy insondagi jamiyatga uyushgan intilishning tabiiy tarzda kechishini qanday ifodalaydi?
3. Inson huquqlarini himoya qilish va ularni ta'minlashning asoslari qanday?
4. Fuqarolar ijtimoiy - siyosiy faolligini oshirishda fuqarolik jamiyati institutlarining o'rnini qanday?
5. Inson faolligi va ma'suliyatini oshirishning barqaror jamiyat va farovon hayot barpo etishdagi o'rnini va roli qanday?
6. Siyosiy madaniyatning plyuralistik turi qanday sharoitlar yaratilganda paydo bo'lishi mumkin?
7. Fuqarolik tushunchasi qachondan paydo bo'lgan?
8. Fuqaro erkinligi va faolligi demokratik jamiyat qurishning eng muhim omili ekanini tushuntirib bering?
9. Insonning ijtimoiylashuvi deganda nimani tushunasiz?
10. Fuqaro erkinligi va faolligini oshirish usullarini tushuntirib bering?

Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 2011. - 3-36-b.
2. "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" Davlat dasturi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. "Xalq so'zi" 2011 yil 21 yanvar'.
3. "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 20 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. "Xalq so'zi" 2011 yil 7-aprel'.
4. Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. - T.: O'zbekiston, 2007. - 3-48-b.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. - T.: "Ma'naviyat". 2008. - 176 b.
6. Karimov I.A. "Eng asosiy me'zon – hayot haqiqatini aks ettirish" T.: O'zbekiston, 2009. - 24 b.
7. Karimov I.A. "Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" - T.: O'zbekiston, 2009. - 56 b.
8. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi "Xalq so'zi", 2010 yil 13 noyabr'.
9. Karimov I. A. "Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qilsin". "Xalq so'zi", 2011 yil 23 yanvar.
10. Karimov I.A. "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida". – T.: O'zbekiston, 2011. - 157-192-b.
11. I. A. Karimovning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 20 yilligi tantanalaridagi nutqi. "Xalq so'zi", 2011 yil 1 sentyabr'.
12. Karimov I. A. "Bizning yo'limiz – demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo'lidir". "Xalq so'zi", 2011 yil 8 dekabr'.
13. Karimov I.A. "Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir". "Xalq so'zi", 2012 yil 8 dekabr.
14. Karimov I.A. "Bosh maqsadimiz - keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish". "Xalq so'zi", 2013 yil 20 yanvar.
15. Aliyev B., Hoshimov T., Yuldashev O. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. Darslik. - T. "Iqtisodiyot", 2008. - 85-109-b.
16. Aliyev B., Yuldashev O., Qahhorova M. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. O'quv qo'llanma. - T.: "Iqtisodiyot". 2011. - 53-65, 94-105-b.

6 - Mavzu. JAMIYAT IQTISODIY HAYOTINI ERKINLASHTIRISH VA DEMOKRATLASHTIRISH

6.1. Jamiyat iqtisodiy hayotini erkinlashtirish tushunchasining mazmuni.

Iqtisodiyotda insonlar o'zlarining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish maqsadida tirikchilik ne'matlarini va vositalarini ishlab chiqaradilar, iste'mol qiladilar, ma'naviy ozuqa oladilar. SHuningdek, ular taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilishga qaratilgan faoliyatlarida o'zaro munosabatga kirishadilar.

Iqtisodiy hayot kishilarning ijtimoiy, madaniy, siyosiy hayot sohalarining moddiy asosini tashkil etadi va ularning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Ayni paytda ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy soha ham iqtisodiyotga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Demak, iqtisodiyot inson hayotiy faoliyatining asosini tashkil etar ekan iqtisodiy zamini kuchli bo'lgan davlatga qanday erishish mumkin. Unga erishishning birdan-bir to'g'ri yo'li-demokratik taraqqiyot yo'lidir.

SHaxsning mulkdor bo'lishi, erkin kasb tanlashi, adolatli mehnat sharoitlarida ishlashi, o'zi istagan iqtisodiy faoliyat turi bilan erkin shug'ullanish hamda shunga muvofiq cheklanmagan daromad olishi va yaxshi yashash imkoniyatlariga ega bo'lish kabi demokratik ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini amalga oshirishni faqat ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotigina ta'minlashga qodirdir.

Mustaqillikka erishgan O'zbekiston, xalq turmush farovonligini, iqtisodiy faoliyat-tadbirkorlik erkinliklarini, eng muhimi, mulkdor bo'lish imkoniyatlarini ta'minlaydigan ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan insonparvar demokratik huquqiy davlatni va fuqarolik jamiyatini barpo etish maqsadida tub islohotlarni amalga oshirmoqda.

Ushbu islohotlarning asosiy maqsadi haqida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov: «Biz tub iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga kirishar ekanmiz, bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotni barpo etish quruq maqsad emas, degan aniq-ravshan xulosaga kelganmiz. Barcha iqtisodiy, demokratik, siyosiy islohotlarning asl maqsadi insonga munosib turmush va faoliyat sharoitlarini vujudga keltirishdan iborat»¹, deb ta'kidlagan.

Islohotlarning boqichma-bosqich amalga oshirilishi o'zining ijobiy natijalarini bermoqda. Prezidentimiz birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XIV sessiyasida (1999 yil aprel, "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda") qilgan ma'ruzasida mamlakatimiz hayotining barcha sohalarini erkinlashtirish g'oyasini ilgari surgan edi. «Iqtisodiyot sohasini yanada erkinlashtirish maqsadi, deb ta'kidlaydi yurtboshimiz, birinchi navbatda davlatning boshqaruv rolini chegaralash, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning iqtisodiy erkinliklarini hamda iqtisodiyotning barcha sohalarida xususiy mulk miqyoslarini kengaytirish, mulkdorlarning mavqei va huquqlarini mustahkamlash demakdir»².

Demokratik jarayonlar rivoji erkinlashtirishning real amalga oshishi natijasidagina sodir bo'ladi. Ammo erkinlashtirish oddiy farmon yoki qonunlarni qabul qilish bilan amalga oshavermaydi, balki u juda murakkab jarayon hisoblanadi. U iqtisodiy hayotda, ijtimoiy - siyosiy va ma'naviy - ma'rifiy sohalaridagi vazifalarning amalga oshirilishi, fuqarolarning real hayotida nechog'li namoyon bo'lishi bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Ana shu murakkab jarayonni hisobga olib davlatimiz boshlig'i erkinlashtirish kontseptsiyasini amalga oshirish jamiyatimizning barcha sohalarini o'zida qamrab olgan 6 ta ustuvor vazifani bajarishni taqozo etishini asoslab bergan edi. Bu vazifalar quyidagilardan iborat:

1. Mamlakat siyosiy, iqtisodiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirish;
2. Jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish;
3. Kadrlar masalasi;
4. Xalq turmush darajasining izchil va barqaror o'sishi, aholini yanada kuchli ijtimoiy himoya qilish;

¹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda.-T.: «O'zbekiston», 1999. 17-bet.

² O'sha joyda, 17-bet.

5. Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlash;
6. Jamiyatdagi barqarorlik, tinchlik, millatlararo va fuqarolararo totuvlikni, sarhadlarimiz dahlsizligini, mamlakatimiz xududiy yaxlitligini ta'minlash.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish—bu bozor iqtisodiyoti munosabatlari va qonunlarning amal qilishi, tadbirkorlik faoliyati erkinligi va mustaqilligini ta'minlash hamda davlatning iqtisodiyotga aralashuvini cheklashdan iborat mazmunni kasb etadi.

Xususiy mulkning iqtisodiyotda etakchi o'rinni egallashi, tadbirkorlik va tanlash erkinligi, narx erkinligi, raqobat va raqobatchilik muhiti, davlatning iqtisodiyotga va tadbirkorlik faoliyatiga aralashuvining cheklanganligi, erkin iqtisodiyot tamoyillaridir.

Bozor iqtisodiyotini chuqurlashtirish siyosatining yangi bosqichi birinchi chaqiriq Oliy Majlisning XIV sessiyasida Milliy iqtisodiyotni har tomonlama erkinlashtirish bo'yicha belgilangan aniq chora - tadbirlar majmuini amalga oshirishdan boshlandi.

Birinchidan, bu mulkchilik va uning asosida mulkdorlar sinfini shakllantirish masalasini echishga bevosita tegishlidir, boshqacha so'z bilan aytganda, respublikada bozor islohatlarini amalga oshirish jarayonining boshlanishida qo'yilgan asosiy maqsad—xususiy mulkchilik etakchi o'rin tutuvchi ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantirish maqsadini oxiriga etkazishdir.

Ikkinchidan, bu iqtisodiyotni erkinlashtirish masalasi bo'lib, u mamlakat xududida real raqobat muhitini shakllantirish bilan uzviy bog'langan.

Uchinchidan, iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayoni bank va moliya tizimlari faoliyatini takomillashtirish, bozor infratuzilmasini kompleks shakllantirish va rivojlantirish bilan uzviy bog'liqdir.

To'rtinchidan, bu turli xo'jalik faoliyatini tartibga solish va boshqarish sohasidagi masalasidir.

Beshinchidan, valyuta bozorini erkinlashtirish va milliy valyuta—so'mni erkin almashtiriladigan valyutaga to'liq konvertatsiya qilish masalasini bosqichma—bosqich echish bo'yicha aniq vazifalar turibdi.

Oltinchidan, ichki va tashqi investitsiya faoliyati uchun qulay muhitni shakllantirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha imtiyoz va kafolatlarni kengaytirish hamda ularni mustahkamlashni rag'batlantirish bo'yicha ishlar davom ettirilishi lozim.

Yettinchidan, iqtisodiyotni erkinlashtirish ko'p jihatdan korxonalarni xo'jalik faoliyatiga turli xil nazorat qiluvchi va tekshiruvchi organlarning davlat tomonidan aralashuvini cheklash bilan bog'liqdir. Bu o'z navbatida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning o'z faoliyati natijalari bo'yicha iqtisodiy va moliyaviy mas'uliyatini oshirish demakdir. Shu bilan birgalikda xo'jalik sudi, bankrotlik institutining roli kuchaytiriladi.

Umuman olganda, bozor islohatlarini chuqurlashtirish, erkin iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish, erkinlashtirish jarayonlarining tashkil etgan bo'lib bu mazmuni hukumatimizdan mamlakat iqtisodiy hayoti jo'shqinligini ta'minlash, bozor mexanizmining samarali ishlashi uchun etarli shart - sharoitlar yaratishga qaratilgan asosiy funktsiyalarining kuchaytirilishini taqozo etadi.

Davlatimiz tomonidan bozor iqtisodiyotini erkinlashtirishning har bir yangi bosqichiga tegishli iqtisodiy ustuvor yo'nalishlar va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning ustuvor vazifalari ishlab chiqilib, amaliy hayotga muvaffaqiyatli joriy etilmoqda.

Hayotimizning barcha sohalarini erkinlashtirish yo'li o'z mohiyatiga ko'ra mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha o'zgarishlarning asosiy belgilovchi bo'g'iniga aylandi.

Prezident I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi (2010 yil 27 yanvar') ma'ruzasida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning eng muhim ustuvor vazifalari haqida to'htalar ekan, asosiy ustuvor vazifa avvalgidek—bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirishdan iborat bo'lib qolaveradi, Unda:

- xususiy tarmoqni jadal rivojlantirish, uning mamlakat iqtisodiyotidagi ulushi ko'payishini ta'minlash;

- kichik biznes va fermerchilikni rivojlantirish borasidagi ishlarni chuqurlashtirish va ko'lamini kengaytirish;

- bank va moliya tizimlaridagi islohotlarni chuqurlashtirish;
- uy - joy kommunal xo'jaligini isloh qilishga jiddiy e'tibor qaratish;
- soliq siyosatini yanada takomillashtirishdan iborat deb belgilandi.

Belgilangan ushbu ustivor vazifalar davlatimiz tomonidan mamlakatda iqtisodiy sohada olib borilayotgan erkinlashtirish siyosatining mantiqan davomidir.

Prezidentimiz I.A.Karimovning 2011 yil 21 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2011 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan majlisida "Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi". ma'ruzasi islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish chora-tadbirlarini izchil amalga oshirish natijasida iqtisodiy o'sishning barqaror yuqori sur'atlari, inflyatsiya darajasining pasayishi va xalq farovonligining oshishi tendentsiyalari mustahkamlanganligi qayd etildi

6.1-ilovalar

O'zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy ko'rsatkichlari (2012 yilning 1 yanvar xolatiga ko'ra foiz hisobida).

Ko'rsatkichlar nomi	2011yil yakuni	2012 yil yakuni
Yalpi ichki mahsulot	8,5	8,3
Sanoat mahsulotlari hajmi	8,3	6,3
Qishloq xo'jaligi	6,8	6,6
Savdo sohasi	14,7	16,4
Eksporport hajmi	16,5 illiyard.doll.	15 milliard.doll.
Tijorat banklarini barqarorligi	15 ta	23 ta

6.2.Mulkchilikning xilma-xil shakllari. Raqobatning demokratik jamiyat barpo etishdagi o'rni

O'zbekistonda shakllanayotgan xususiy mulk ikki turdan iborat bo'lib: birinchisi, yakka tartibda faoliyat yurituvchi tadbirkorlarning, dehqon va fermerlarning xususiy mulki, ikkinchisi, ularning shirkat xo'jaliklaridagi paylari, aktsiyadorlik jamiyatlaridagi aktsiyalari, uyushmalardagi ulushlaridan iborat korporativ xususiy mulk, yakka va korporativ (ulushli) xususiy mulk dahlisizligi davlat tomonidan himoyalanaadi. O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolik kodeksi»da – «mulk huquqi shaxsning o'ziga qarashli mol-mulkka o'z xohishi bilan va o'z manfaatlarini ko'zlab egalik qilishi, undan foydalanish va uni tasarruf etish, shuningdek o'zining mulk huquqini, kim tomonidan bo'lmasin, har qanday buzishni bartaraf etishni talab qilishi huquqidan iboratdir. Mulk huquqi muddatsizdir»¹. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ko'rsatib o'tilgandek– «Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakldagi mulk tashkil etadi. Davlat iste'molchilarning huquq ustunligini hisobga olib, barcha mulk shakllarining teng huquqligini va huquqiy jihatdan bab-barobar muhofaza etishni kafolati»² deyiladi. Qomusda shuningdek mulkdorning ma'suliyati ham belgilab berilgan. Xususan, unda «mulkdor mulkiga o'z xohishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Mulkdan foydalanishda ekologik muhitga zarar etkazmasligi fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlarini hamda qonun bilan quriqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart»³, deb ta'kidlanadi.

Demak, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar insonga munosib turmush sharoitlarini yaratishga, kishining erkin tadbirkorlik va mehnat qilish, tanlash erkinligini hamda

¹ O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. T.1999, 164-modda.

² O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T: «O'zbekiston», 2003,11-bet.

³ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T: «O'zbekiston», 2003,11-bet.

mulkdor bo'lishdek muhim demokratik huquqlarni ta'minlashga, iqtisodiy hayotni demokratlashtirishga qaratilganidir.

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, buning natijasi o'laroq tengligini ta'minlash ishlari bosqichma - bosqich amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichida (1991–1994 y.y.) ma'muriy buyruqbozlik tizimining og'ir oqibatlarini tugatib, iqtisodiyotni barqarorlashtirish hamda Respublikaning o'ziga xos sharoitlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda bozor munosabatlarining negizlarini shakllantirish vazifalarini hal qilishga kirishildi. Buning uchun quyidagilar amalga oshirildi:

1. Islohotlarning qonuniy, huquqiy bazasini shakllantirishi. Bu davrda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, tadbirkorlik to'g'risidagi va boshqa ko'plab bozor munosabatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan qonunlar qabul qilish.

2. Kichik xususiylashtirishni amalga oshirish ko'p ukkladli iqtisodiyot negizlarini yaratish. Bu davrda asosan savdo, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish, mahalliy sanoat korxonalari, uy-joylarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlari amalga oshirildi.

Iqtisodiyotning turli tarmoqlarida xususiylashtirishga oid 20 ta davlat dasturi qabul qilindi va amalga oshirildi. Bosqich yakuniga kelib 41,5 mingta korxona xususiylashtirildi. Ularning 22 mingdan ko'prog'i aksiyadorlik va jamoaviy mulkchilik shakllariga, 18,5 mingdan ko'prog'i esa xususiy va oilaviy mulkchilik shakllariga o'tkazildi.

Qayta tashkil etish yo'li bilan 715 ta davlat xo'jaligidan 325 ta jamoa xo'jaligi, 300 ta kooperativ, 90 ta ijara xo'jaligi tuzildi. 735 ta chorvachilik fermasi aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirildi. Qishloqlarda 6,5 mingga yaqin mustaqil fermer xo'jaliklari tashkil qilindi.

Islohotlar yo'lidan aniq maqsadni ko'zlab va bosqichma-bosqich ilgariib borildi. Natijada ko'p ukkladli iqtisodiyot negizlarini, bozor infratuzilmasi hamda valyuta bozorini, shuningdek ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishning boshqa eng muhim jihatlarini tarkib toptirish imkonini berdi. Bu esa, shubhasiz, islohotlar birinchi bosqichining eng muhim yakunidir.

Iqtisodiyotda va ijtimoiy sohada yuz bergan tub o'zgarishlar uning o'z taraqqiyotida keyingi, sifat jihatidan yangi bosqichga o'ta boshlashi uchun mustahkam shart-sharoitlar hozirladi.

Iqtisodiy islohotlar ikkinchi bosqichida (1995–1999 y.y.) davlat mulkini dastlabki, kichik xususiylashtirishni tugatish, mulkni haqiqiy egalari qo'lga topshirish, tadbirkorlik uchun keng imkoniyatlar berish vazifalari belgilandi. Bu bosqichda sanoat, qurilish va transport sohalarida, agrar-sanoat kompleksining go'sht-sut, oziq-ovqat va paxta sanoati tarmoqlaridagi o'rta va yirik korxonalar xususiylashtirilishi boshlandi. Bu bosqichda ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlari yaratildi, ularning aksiyalari erkin sotishga chiqarildi.

Ushbu bosqichda ishlab chiqarishning pasayishiga barham berildi. Makroiqtisodiy barqarorlik ta'minlanib, 1996 yildan boshlab iqtisodiy o'sish yo'liga o'tildi. Iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini o'zgartirish ishlarini amalga oshirilishi natijasida respublika yonilg'i-energetika va g'alla mustaqilligiga erishildi. Shuningdek, respublika uchun tamomila yangi bo'lgan avtomobilsozlik sanoati vujudga keldi. Engil va oziq-ovqat sanoati uchun asbob - uskunalar, qishloq xo'jaligi uchun kichik mexanizatsiya vositalari ishlab chiqarishni ta'minlovchi boshqa istiqboli tarmoqlar xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari amalga oshirila boshlandi.

Bu bosqich mamlakatimizning jadal rivojlanishi, uning qudrati hamda jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tiborini kuchaytirish uchun mustahkam zamin yaratishga qaratilgan edi va bunga erishildi ham.

Erishilgan yutuqlar zaminiga suyanan holda biz mamlakatimizning rivojlanish strategiyasi, islohotlarni chuqurlashtirish va jamiyatni yangilash borasida yanada ulkan ustivor vazifalarni amalga oshirishga muvofiq bo'ldik.

Mamlakat siyosiy, iqtisodiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirish tamoyilini kengaytirish sohasidagi asosiy yo'nalishlarni belgilash va amalga oshirishga kirishdik.

«O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» asarida Prezident Islom Karimov iqtisodiy hayotni erkinlashtirishning qo'yidagi vazifalarini belgilab berdi:

Birinchidan, mulkdorlar sinfini shakllantirish masalasini tubdan hal qilish. Buning uchun xususiy mulkchilik etakchi o'rinda turadigan ko'p ukkladli iqtisodiyotni barpo etish;
Ikkinchidan, haqiqiy raqobat muhitini shakllantirish;
Uchinchidan, bozor infratuzilmasini rivojlantirish;
To'rtinchidan, tashqi iqtisodiy faoliyatni tashkil etish tizimini tubdan qayta ko'rib chiqish;
Beshinchidan, valyuta tizimi va bozorni erkinlashtirish;
Oltinchidan, davlat va turli tekshiruvchi, nazorat qiluvchi organlar tomonidan korxonalarning xo'jalik faoliyatiga noo'rin aralashishni cheklab qo'yish.

Ushbu vazifalarni hal etish uchun O'zbekistonda davlat mulkini xususiylashtirishni yanada chuqurlashtirish tadbirlari olib borildi. Natijasi: 2006 yilda davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish dasturi bo'yicha 281 ob'ekt xususiy mulk etib sotildi.

Xususiylashtirish ishlariga nisbatan munosabatlar va yondoshuvlar tubdan o'zgarimoqda, iqtisodiyotning kimyo,elektronika sanoati, qishloq xo'jaligi mashinasozligi, qurilish materiallari sanoati va boshqa etakchi tarmoqlarga qarashli korxonalarning aksiyalarini kimoshdi savdolariga qo'yish bo'yicha qat'iy choralar ko'rilmogda.

Bozor islohotlarini chuqurlashtirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish va mulk huquqini himoya qilishni mustahkamlashga qaratilgan choralarning amalga oshirilishi natijasida mamlakatimizda investitsiya muhitini yaxshilash hamda hajmi ortib borayotgan xorijiy sarmoyalarni jalb qilishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Respublikada yaratilgan qulay va preferentsiyalar tizimi tufayli 2006 yil xolatiga iqtisodiyotimizga jami 20 milliard AQSH dollardan ziyod miqdordagi xorijiy investitsiya jalb etildi. To'g'ridan-to'g'ri jalb etilgan xorijiy investitsiyalar xajmi esa faqat 2000 - 2006 yillar mobaynida 9,3 marta oshdi va 2,5 milliard AQSH dollarini tashkil etdi¹.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida kichik, xususiy biznes va tadbirkorlikni rag'batlantirish uchun soliq imtiyozlari kengaytirilmoqda 2006 yilda yuridik shaxslar daromadlari (foyda)dan olinadigan soliq stavkalari 15 foizdan 12 foizgacha, dividend va foizlardan olinadigan solig'lar 15 foizdan 10 foizgacha, yagona ijtimoiy to'lov esa 31 foizdan 25 foizgacha kamaytirildi.

So'nggi yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart - sharoit yaratish yo'lida ko'p ishlar qilindi. Davlatning biznes faoliyatiga aralashuvi keskin cheklandi, kichik biznes sub'ektlarini ro'yhatga olish jarayoni sezilarli darajada soddalashtirildi va ularning oshkoraligi ta'minlandi. Soliq stavkalari unifikatsiya qilindi va kamaytirildi, mahsulotlarni standartlashtirish va sertifikatsiyalash tizimi takomillashtirildi, birja savdolarini rivojlantirish orqali tadbirkorlarning moddiy-texnika resurslardan erkin foydalanish bilan bog'liq ko'p masalalar hal qilindi, mikrokreditlash va mikrolizing yo'li bilan tadbirkorlarga kredit berishning yangi shakllari joriy etildi.

Hozirgi kunda kichik biznesni rivojlantirish borasida bir - biri bilan chambarchas bog'langan uchta vazifa kun tartibida turibdi

Jumladan, birinchi, kichik biznes ichki bozorni zarur tovar va xizmatlar bilan to'ldiradigan iqtisodiyotning tarkibiy negizini belgilab beradigan eng muhim sektor hisoblanadi, shuningdek, aholini ish bilan ta'minlashda, uning daromadlarini oshirishda eng asosiy omil va man'ba bo'lib xizmat qiladi.

Ikkinchi, kichik beznes o'zining harakatchangligi, kam sarmoya talab qilishi hisobidan ishlab chiqarishni engilroq va tez modernizatsiya qilish, ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlarini yangilash imkoniyatiga ega ekanligi va shu tariqa bozor kon'yukturasining o'zgaruvchan talablariga yaxshi moslasha olishi bilan ahamiyatlidir.

¹ Karimov I.A. Yangilanish va barqaror taraqqiyot yo'lidan yanada izchil harakat qilish, xalqimiz uchun farovon turmush sharoiti yaratish-asosiy vazifamiz. "Xalq so'zi" 2007 yil 13 fevral

² Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish - davr talabi. "Xalq so'zi", 2009 yil 14 fevral.

Uchinchi, kichik biznes va tadbirkorlikning o'sishi bilan biz mamlakatimizda tayanchimiz va suvanchimiz bo'lish mulkdorlar o'rta sinfini shakllantirish vazifasini bevosita hal etishga erishamiz.

Bir so'z bilan aytganda—kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bugungi kunda aholi bandligini taminlaydigan va uning asosiy daromad manbai bo'lgan muhim bo'g'inga aylanmoqda.

Bularning barchasi o'zining ijobiy natijasini berdi. Faqat 2006 yilning o'zida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida qo'shimcha ravishda 290 ming yangi ish o'rni yaratildi, bu mamlakatimizda ochilgan yangi ish joylarining 50 foizdan ortig'ini tashkil etadi.

2011 yilning boshida faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining soni qariyb 400 mingga etdi yoki 2000 yilga nisbatan 2,3 marta ko'paydi. Bugungi kunda kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 48,2 foizni tashkil etmoqda¹.

Fermer xo'jaliklari amalda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining asosiy shakliga, uni barqaror rivojlanishini ta'minlashda etakchi harakatlantiruvchi kuchga aylandi.

Agar 2000 yilda etishtirilgan paxta xosilining 21 foizi fermer xo'jaliklari xissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2008 yilda bu ko'rsatgich 99,1 foizdan oshib ketdi, bashoqli

don etishtirish bo'yicha esa 2000 yilda 15 foizni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatgich 2008 yilda 79,2 foizdan iborat bo'ldi².

Birgina 2006 yilning o'zida 666 ta shirkat xo'jaligini qayta tashkil etish hisobidan 74 mingta fermer xo'jaligi tuzildi, ularning yarmidan ko'pi meva—sabzavotchilikka ixtisoslashtirilganligini ta'kidlash lozim.

Kishilar naf, foyda va daromad olish uchun intilib, o'zlarida bor bo'lgan qobiliyatlarini ishga soladilar. Raqobat iqtisodiyot sub'ektlari shaxsiy manfaatlarini ro'yobga chiqarishning chegarasini belgilaydi. Hech kimning iqtisodiy yakkahokimlik qilishiga yo'l qo'ymaydi. SHuningdek, raqobat ishlab chiqaruvchi va sotuvchilarning iste'molchi, xaridorlar manfaati, xohishini inobatga olishga, bir-biridan arzonroq va sifatliroq tovarlar ishlab chiqarish maqsadida yangi texnika va texnologiyadan foydalanishga undaydi.

Erkin tadbirkorlik, raqobat va narx tizimiga asoslangan bozor iqtisodiyotida hukumat va davlatning roli cheklangan bo'ladi. Davlat bozor mexanizmining amal qilishiga ko'maklashadi. Buning uchun davlat iqtisodiyot sub'ektlari faoliyatining qonuniy bazasini yaratib, ularning faoliyat, "o'yin" qoidalarini belgilaydi. Aholining turmush darajasining barqaror o'sib borishini, kam ta'minlangan aholi qatlamlarini ijtimoiy himoyalash, boy-kambag'allar o'rtasidagi farqlarning keskinlashib ketishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida aholi daromadlarini soliqlar, transport to'lovlari vositasida qayta taqsimlaydi. Makroiqtisodiy barqarorlikni va iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida soliq, byudjet va pul-kredit vositalari orqali iqtisodiyotni tartibga soladi. Davlat bozor mexanizmi to'la-to'kis bajara olmagan vazifalarni o'z zimmasiga olibb raqobat muhitini saqlaydi va iqtisodiyot sub'ektlarining erkin faoliyatini ta'minlaydi hamda jamiyat uchun kerak bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarishni o'z zimmasiga oladi.

Milliy iqtisodiyotimizning eksport salohiyati jadal rivojlanib, tobora raqobatga bardoshli bo'lib borayotganligi ahamiyatlidir. Birgina 2006 yilning o'zida tovar mahsulotlarini eksport qilish xajmi 31,5 foizga o'sib, 2000 yilga nisbatan 2 martadan ko'proq ordi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish haqiqiy raqobat muhitini shakllantirish bilan uzviy bog'liq. Raqobat bo'lmasa bozor iqtisodiyotini barpo etib bo'lmaydi. Raqobat natijasida, bir xil imkoniyatlar mavjud joyda, boshqalarga nisbatan bu vositalardan unumliroq foydalana oladigan ishlab chiqaruvchilar yutib chiqadi. Bu bilan raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga intilish ishlab chiqarish jarayonlarini samarali tashkil etishni, mehnat unumdorligini oshirishni, ishlab chiqarishda fan—texnika yutuqlarini qo'llashni talab qiladi. CHunki, bozor iqtisodiyoti ishlab chiqaruvchilar o'rtasida sog'lom raqobat bo'lishini taqoza etadi. Natijada mahsulotdan ishlab

¹ Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish - davr talabi. "Xalq so'zi", 2009 yil 14 fevral.

² O'sha joyda.

³ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.: «O'zbekiston», 1999, 34-bet.

chiqaruvchiga foyda keltirmaydigan korxonalar esa o'z o'zidan yopiladi. Raqobat bor joyda o'zgarishlar, yangilanishlar, sifatli mahsulotni yo'lga qo'yish, talab va taklif o'rtasidagi munosabatlarda ijobiy o'zgarishlar ro'y berishi mumkin, xullas raqobat jamiyatni harakatga keltiruvchi vositadir.

Bozor iqtisodiyoti o'zining etuklik darajasi va rivojlanish xususiyatlaridan qat'iy nazar raqobatning mavjud bo'lishini taqoza qiladi. SHu bilan birga bozor iqtisodiyoti rivojlanib borishi bilan raqobatchilik munosabatlari ham takomillashib, o'z shakllarini o'zgartirib boradi. Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov raqobatning bozor iqtisodiyotidagi ahamiyatini ko'rsatib, – «raqobat bo'lmasa, bozor iqtisodiyotini barpo etib bo'lmaydi. Raqobat–bozorning asosiy sharti, aytish mumkinki, uning qonuniyatidir»¹, - deb ta'kidlaydi.

Biznesning muvaffaqiyati bozor iqtisodiyoti institutlari, xususan, yuksak professional darajadagi mustaqil auditni, sug'urtaning zamonaviy shakllari va moliyaviy xizmatlarning boshqa turlarini keng rivojlantirishga bevosita bog'liq. Ana shu institutlarni rivojlantirish uchun yurtimizda tegishli huquqiy asos yaratilgan.

Mamlakatimizda bank–moliya tuzilishida olib borilayotgan islohatlarni yanada chuqurlashtirish va zamonaviy usullarni qo'llashni kengaytirish bo'yicha ustivor vazifalar ishlab chiqildi va ular amaliy hayotda o'z ifodasini topmoqda. Jumladan, faktoring va lizing xizmatlari kabi bank xizmatlarining yangi turlari o'zlashtirilmoqda. Akkreditivlar bo'yicha xizmatlar, plastik kartochkalar yordamida naqd pulsiz hisob - kitoblarni amalga oshirish, iste'mol kreditlari ajratish, omonatlarning e'tiborni tortadigan yangi turlarini joriy etish va boshqa xizmatlar yo'lga qo'yilmoqda.

Hullas, xususiylashtirish jarayonini chuqurlashtirish va raqobatchilik muhitini vujudga keltirish yuzasidan belgilangan tadbirlarning amalga oshirilishi bozor iqtisodiyotini tarkib toptirish yo'lida olg'a tomon yana bir amaliy qadam tashlashimizga imkon beradi.

6.3. I.A.Karimovning “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari” asari va uning ahamiyati

Ushbu kitobda 2008 yilda boshlangan va hozirgi kunning eng dolzarb masalasi bo'lgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining dunyo mamlakatlari iqtisodiy – ijtimoiy hayotiga ko'rsatayotgan salbiy ta'siri haqida tegishli fikrlar bayon qilingan. Ushbu asar ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qism: “Jahon moliyaviy inqirozining O'zbekistonga ta'siri hamda uning oqibatlarini oldini olish va yumshatishga asos bo'lgan omillar” deb nomlanib, moliyaviy inqirozi, uning ta'siri va salbiy oqibatlari, yuzaga kelayotgan vaziyatdan chiqish yo'llarini izlashdan iboratligi yoritilgan. Bu inqiroz Amerika Qo'shma Shtatlarida ipotekali kreditlash tizimida ro'y bergan tanglik holatidan boshlandi. So'ngra bu jarayonning miqyosi kengayib, yirik banklar va moliyaviy tuzilmalarning likvidlik, ya'ni to'lov qobitliyi zaiflashib, moliyaviy inqirozga aylanib ketdi. Jahon moliyaviy inqirozining AQSh, Xitoy, Rossiya kabi etakchi mamlakatlar, Evroitifoq davlatlari iqtisodiy-ijtimoiy hayotiga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatayotganligini, buning natijasida ish o'rinlari keskin qisqarib, ko'plab firma va kompaniyalar yopilayotganligini aytib o'tilgan.

Hozirgi vaqtda bir qator etakchi tahlil va ekspertlik markazlari global moliyaviy inqiroz holatini va uning yuz berishi mumkin bo'lgan oqibatlariga doir materiallarni o'rganish va umumlashtirish natijasida quyidagi xulosalarga kelmoqda.

Birinchidan, moliya-bank tizimidagi inqiroz jarayonlari deyarli butun dunyoni qamrab olayotgani, retsessiya va iqtisodiy pasayishning muqarrarliligi, investitsiyaviy faollik ko'lamining cheklanishi, talab va xalqaro savdo hajmining kamayishi, shuningdek, jahonning ko'plab mamlakatlariga ta'sir ko'rsatadigan jiddiy ijtimoiy talafotlar sodir bo'lishi mumkinligi o'z tasdig'ini topmoqda.

Ikkinchidan, avj olib borayotgan global moliyaviy inqiroz jahon moliya-bank tizimida jiddiy nuqsonlar mavjudligi va ushbu tizimni tubdan isloh qilish zarurligini ko'rsatdi. Ayni vaqtda bu inqiroz asosan o'z korporativ manfaatlarini ko'zlab ish yuritib kelgan, kredit va qimmatbaho qog'ozlar bozorlarida turli spekulativ amaliyotlarga berilib ketgan banklar faoliyati ustidan etarli darajada nazorat yo'qligini ham tasdiqladi.

Uchinchidan, moliyaviy-iqtisodiy inqirozning har qaysi davlatdagi miqyosi, ko'lami va oqibatlari qanday bo'lishi ko'p jihatdan bir qancha omillardan kelib chiqadi. Ya'ni, bu avvalo, ana shu davlatning moliya-valyuta tizimi nechog'liq mustahkam ekaniga, milliy kredit institutlarining qay darajada kapitallashuvi va likvidligi (to'lov imkoniga), ularning chet el va korporativ bank tuzilmalariga qanchalik qaram ekaniga, shuningdek, oltin-valyuta zaxirasining hajmi, xorijiy kreditlarni qaytarish qobiliyati va pirovard natijada - mamlakat iqtisodiyotining barqarorlik, diversifikatsiya va raqobatga bardoshlik darajasiga bog'liq.

To'rtinchidan, jahon moliyaviy inqirozidan imkon qadar tez chiqish, uning oqibatlarini engillashtirish ko'p jihatdan har qaysi davlat doirasida va umuman, dunyo hamjamiyati miqyosida qabul qilinayotgan chora-tadbirlarning qanchalik samaradorligiga, ularning bir-biri bilan uyg'unligiga bog'liq.

2008 yil noyabr oyida Vashingtonda, jahon yalpi mahsulotining 85 foizini ishlab chiqaradigan 20 ta yirik davlat ishtirokida bo'lib o'tgan sammit global moliyaviy inqirozning ko'lami tobora kengayib borayotganini tasdiqladi.

Bu holat O'zbekistonga ham ma'lum darajada ta'sir qilayotganligini, jumladan, Prezident o'z kitobida: "...tobora chuqurlashib borayotgan jahon moliyaviy inqirozi mamlakatimizga ta'sir ko'rsatmaydi, bizni chetlab o'tadi, degan xulosa chiqarmaslik kerak. Masalani bunday tushunish o'ta soddalik, aytilish mumkinki, kechirib bo'lmas xato bo'lur edi. Barchamiz bir haqiqatni anglab etishimiz lozim – O'zbekiston bugun xalqaro hamjamiyatning va global moliyaviy-iqtisodiy bozorning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi"¹ – deya alohida ta'kidlaganligiga e'tibor qaratilgan. Shundan kelib chiqqan holda, asarda keltirilgan mamlakatimizda jahon iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha 2009 – 2012 yillarga mo'ljallab, qabul qilingan Inqirozga qarshi choralar dasturi va undagi vazifalarga ham katta ahamiyat berish lozimligini uqtirdi.

Bu inqirozning O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishi va samaradorlik holatlariga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatayotganligini ham aytib o'tilgan.

Asarning ikkinchisi qismi: "Bank tizimini qo'llab-quvvatlash, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik yangilash va diversifikatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish - O'zbekiston uchun inqirozni bartaraf etish va jahon bozorida yangi marralarga chiqishning ishonchli yo'lidir deb nomlanib bunda. Inqirozga qarshi choralar dasturining konkret bo'limlari — belgilangan kompleks chora-tadbirlar quyidagi asosiy vazifalarni hal etishga qaratilgan.

Birinchidan - korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashni yanada jadallashtirish, zamonaviy, moslashuvchan texnologiyalarni keng joriy etish. Bu vazifa avvalambor iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari, eksportga yo'naltirilgan va mahalliyashtiriladigan ishlab chiqarish quvvatlariga tegishlidir.

Bu o'rinda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, xalqaro sifat standartlariga o'tish bo'yicha qabul qilingan tarmoq dasturlarini amalga oshirishni tezlashtirish vazifasi qo'yilmoqda. O'z navbatida, bu mamlakatimizning ham tashqi, ham ichki bozorda barqaror mavqiyega ega bo'lishini ta'minlash imkonini beradi.

¹ Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. - T.: "O'zbekiston", 2009. 11-bet.

Ikkinchidan - joriy kon'yunktura keskin yomonlashib borayotgan hozirgi sharoitda eksportga mahsulot chiqaradigan korxonalarning tashqi bozorlarda raqobatdosh bo'lishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha konkret chora-tadbirlarni amalga oshirish va eksportni rag'batlantirish uchun qo'shimcha omillar yaratish, xususan:

- aylanma mablag'larini to'ldirish uchun korxonalarga Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining 70 foizidan ortiq bo'lmagan stavkalarda 12 oygacha bo'lgan muddatga imtiyozli kreditlar berish;

- tayyor mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan, xorijiy investitsiya ishtirokida tashkil etilgan korxonalarni byudjetga barcha turdagi soliq va to'lovlardan - qo'shimcha qiymat solig'i bundan mustasno - ozod qilish muddatini 2012 yilgacha uzaytirish;

- banklar kreditlari bo'yicha to'lov muddati o'tgan va joriy qarzar miqdorini qayta ko'rib chiqish, byudjetga to'lanadigan to'lovlarning penyasidan kechish va boshqa muhim imtiyoz va preferensiyalar berish.

Uchinchidan - qat'iy tejamkorlik tizimini joriy etish, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini kamaytirishni rag'batlantirish hisobidan korxonalarning raqobatdoshligini oshirish. Shu maqsadda 2008 yili xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning iqtisodiyotimizdagi yetakchi tarmoq va sohalarida mahsulot tannarxini kamida 20 foiz tushirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish borasidagi takliflari ma'qullanganini qayd etish lozim.

Shuningdek, tannarxni kamaytirish bo'yicha belgilangan parametrlarga erishish uchun rahbar va mas'ul xodimlarni rag'batlantirishning ta'sirchan mexanizmini ishlab chiqish ko'zda tutilmoqda.

Shu bilan birga, Inqirozga qarshi choralar dasturida 2009 yilda barcha turdagi energiya manbalari va kommunal xizmatlarning asosiy turlari bo'yicha narxlarning ko'tarilishini cheklash, ya'ni ularni 6-8 foizdan oshirmaslik mexanizmi ishlab chiqilgan. Ayni vaqtda bu sohalarining ishlab chiqarish rentabelligini so'zsiz ta'minlashi kerak.

To'rtinchidan - elektroenergetika tizimini modernizatsiya qilish, energiya iste'molini kamaytirish va energiya tejashning samarali tizimini joriy etish choralarini amalga oshirish. Iqtisodiyotimizning raqobatdoshligini yanada kuchaytirish, aholi farovonligini yuksaltirish ko'p jihatdan bizning mavjud resurslardan, birinchi navbatda, elektr va energiya resurslaridan qanchalik tejimli foydalana olishimizga bog'liqdir.

Beshinchidan - jahon bozorida talab pasayib borayotgan bir sharoitda, ichki bozorda talabni rag'batlantirish orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qolishda g'oyat muhim ahamiyatga ega.

Bu vazifani bajarishda ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturini kengaytirish katta o'rin tutadi. Ushbu dastur doirasidagi loyihalar hajmini 3 - 4 barobar ko'paytirish mo'ljallanmoqda.

Oziq-ovqat va boshqa iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni kengaytirishni rag'batlantirish bo'yicha qabul qilingan dasturlarda mamlakatimiz ishlab chiqarish korxonalari uchun keng ko'lamli rag'batlantirish tizimi nazarda tutilgan. Jumladan, ular uchun 2012 yilning 1 yanvarigacha quyidagi soliq va bojxona imtiyozlari berilmoqda:

- go'sht va sutni qayta ishlashga ixtisoslashgan mikrofirma va kichik korxonalar uchun bo'shagan mablag'larni ishlab chiqarishni texnik qayta jihozlash va modernizatsiya qilishga maqsadli ravishda yo'naltirish sharti bilan yagona soliq to'lovi stavkasini 50 foizga qisqartirish;


- tayyor nooziq-ovqat tovarlarning muayyan turlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalarni foyda va mulk soliqlaridan, mikrofirma va kichik korxonalarni yagona soliq to'lovidan ozod qilish.

Hech shubhasiz, Inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirishda iqtisodiyotimizdagi har qaysi sub'yektning imkon qadar ko'proq manfaatdor bo'lishini, ushbu dastur ijrosi ularning har biri uchun eng muhim ishga aylanishini ta'minlash maqsadida qo'shimcha rag'batlantirish choralarini izlab topish katta ahamiyat kasb etadi.

Shunday bir sharoitda ushbu inqirozdan himoyalanish va uning salbiy oqibatlarini bartaraf etishning asosiy yo'l-yo'riqlari ko'rsatilgan, unga doir ko'pgina vazifalarni kun tartibiga qo'yilgan. Muhim manba sifatida hurmatli Prezidentimizning "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" nomli asarining yozilganligiga alohida e'tibor qaratdi.

Mazkur asarni atroflicha o'rganish, unda qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish masalalari bo'yicha mamlakatimizda keng miqyosda targ'ibot ishlari olib borilayotganligi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 20 martdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" kitobidagi materiallar, qoidalar va xulosalarni o'rganish yuzasidan chora-tadbirlar kompleksi to'g'risida"gi 125-F-sonli Farmoyishi e'lon qilinganligiga e'tibor qaratilgan. Ushbu Farmoyish asosida joylarda bir qancha tadbirlar, xususan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasida ushbu asarning taqdimotiga bag'ishlangan anjuman o'tkazilganligini va unda shaxsan ishtirok etganligini ma'lum qildi.





BOZOR INFRATUZILMASI BO'G'INLARI

1. Ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi (transport, aloqa, yo'l xo'jaligi, suv va energetika ta'minoti va boshqalar).


2. Tovarlar va xizmatlar muomalasiga, ya'ni savdo - sotiq ishlariga xizmat qiluvchi (birjalar, savdo uylari, aktsionerlik, reklama firmalari va agentliklari).

3. Moliya - kredit munosabatlariga xizmat qiluvchi (tijorat banklari, sug'urta kompaniyalari, soliq idoralari).

4. Aholiga xizmat qiluvchi yoki ijtimoiy (maorif, madaniyat, soliqni saqlash, uy - joy, kommunal xizmat va boshqalar).

5. Axborot xizmati ko'rsatuvchi infratuzilmalar kiradi.

O'ZBEKISTONDA MULK SHAKLLARI



1.Davlat mulki: O'zbekistondagi ma'muriy - hududiy birliklar mulklari (kommunal mulklar) kiradi: a) Er, suv, xizmat ko'rsatish ob'ektlari, er osti, ichki suvlar,o'simliklar, hayvonot dunyosi. b) O'zbekiston Respublikasi boshqaruvi va davlat hokimiyati organlarining mol - mulklari. v) Respublika xalqlarining madaniy, tarixiy qadriyatlar. g) Respublika byudjeti vositalari. d)Davlat ahamiyatiga molik korxonalar	2.Xususiy mulkchilik: o'z mol - mulkidan o'z erki bo'yicha foydala - nish, unga nisbatan xususiy erkinlikni bildiradi. Xususiy mulk – mulkchilik - ning boshqa shakllari bilan bir qatorda daxlsiz.	3.Jamoa (shirikat) mulki: oilaning mol - mulkini, shuningdek yuridik shaxs bo'lgan kooperativ - lar, ijara, jamoat va diniy tashkilot - lar, turli xo'jalik jamoalar va birlashma - larining mulklari.	4.Boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar ga tegishli yuridik va jismoniy shaxslarning mulki: O'zbekiston hududida joylashgan xorijiy yuridik hamda jismoniy shaxslarga foydalanish va tasarruf etish, egalik qilish huquqi bilan berilgan mulklar.	5.Mulkchi - likning aralash shakli: erishil - gan bitimga muvofiq mol - mulkning ma'lum qismi davlatga va nodavlat yuridik yoki jismoniy shaxslarga tegishli bo'lishi mumkin
---	---	---	---	---

Qisqacha xulosalar.

Mustaqillikning 20 yili ichida iqtisodiyotimizda ulkan o'zgarishlar bo'ldi. Mamlakatimiz don va yoqilg'i mustaqilligiga erishdi. Yalpi o'sish darajasi 2010 yil 8,5 foizga o'sdi. Iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlari va sohalari jadal va izchil rivojlanmoqda, mulk shakllarining xilma - xilligiga erishilgani, mamlakatimiz jahon iqtisodiyotining tarkibiy qismiga aylanganida namoyon bo'lmoqda.

Birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XIV sessiyasida Oliy majlis Qonunchilik palatasi va Senatning qushma majlisida Prezident I.A.Karimov ma'ruzasida milliy iqtisodiyotni har tomonlama erkinlashtirish bo'yicha belgilangan vazifalar, shuningdek, mamlakatimizda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish 2008 yilda mamlakatni ijtimoiy - iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustivor yo'nalishlari ma'ruzasida Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan ustuvor yo'nalishlariga tegishli vazifalar o'zini amaliy namoyon etib bormoqda.

Tayanch so'zlar

Iqtisodiy hayotni erkinlashtirish, bozor iqtisodiyoti, bozor munosabatlari, bozor infratuzilmasi, bozor qonunlari, valyuta, valyuta kursi, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor, investitsiya, konvertatsiyalangan valyuta, kichik biznes va tadbirkorlik, ko'p ukladli iqtisodiyot, mulk shakllari, milliy valyuta, chet el investitsiyalarini jalb etish, raqobatchilik.

Nazorat va muhoama uchun savollar

1. Iqtisodiy hayotni erkinlashtirish tushunchasining mohiyati qanday, mazmuni nimadan iborat?

2. Prezident I. A. Karimov erkinlashtirish kontseptsiyasini amalga oshirish jamiyatimizning barcha sohalarini o'zida qamrab olgan olita ustuvor vazifani bajarishni taqazo etishni asoslab bergan edi. Bu vazifalar qaysilar?
3. Bozor iqtisodiyoti islohotlarini chuqurlashtirish siyosatining yangi bosqichi birinchi chaqiriq Oliy Majlisning XIV sessiyasida milliy iqtisodiyotni har tomonlama erkinlashtirish bo'yicha belgilangan aniq chora-tadbirlar majmuini amalga oshirishdan boshlandi. Ushbu chora - tadbirlar qaysilar?
4. Kichik biznes va tadbirkorlikning taraqqiy etishi qanday ustuvorliklarga ega?
5. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida davlatning rolini aniqlang?
6. Har qanday davlatning iqtisodiy rivojlanishi investitsiyalarni talab etadi. Iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning roli nimalar bilan izohlanadi?
7. Demokratik jamiyat iqtisodiy hayotini erkinlashtirish tushunchasi va mazmunini tushuntirib bering?
8. Raqobatning demokratik jamiyat qurishdagi o'rni?
9. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining kelib chiqish sabablari va oqibatlari?
10. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining O'zbekistonga ta'siri hamda uning oqibatlarini oldini olish va yumshatish omillarini tushuntirib bering?

Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" Davlat dasturi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. "Xalq so'zi" 2011 yil 21 yanvar'.
2. "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 20 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. "Xalq so'zi" 2011 yil 7 aprel'.
3. Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. - T.: O'zbekiston, 2007.- 3-48-b.
4. Karimov I.A. . Yuksak ma'naviyat –engilmas kuch.-T.: Ma'naviyat.2008.- 176 b.
5. Karimov I.A. "Eng asosiy me'zon-hayot haqiqatini aks ettirish"-T.:O'zbekiston, 2009.-24 b.
6. Karimov I.A. "Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" - T.: O'zbekiston, 2009.- 56 b.
7. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi."Xalq so'zi", 2010 yil 13 noyabr'.
8. Karimov I. A. "Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qilsin". "Xalq so'zi", 2011 yil 23 yanvar.
9. Karimov I.A. "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida". –T.: O'zbekiston, 2011.- 157-192-b.
10. I. A. Karimovning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 20 yilligi tantanalaridagi nutqi. "Xalq so'zi", 2011 yil 1 sentyabr'.
11. .Karimov I.A. "Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir". "Xalq so'zi", 2012 yil 8 dekabr.
12. Karimov I.A. "Bosh maqsadimiz - keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davov ettirish". "Xalq so'zi", 2013 yil 20 yanvar.
13. Aliyev B., Hoshimov T., Yuldashev O. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. Darslik .-T. "Iqtisodiyot", 2008. -110-121-b.
14. Aliyev B., Yuldashev O., Qahhorova M. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. O'quv qo'llanma.-T.: "Iqtisodiyot".2011. 105-121-b.
15. Yuldashev O. Mustaqil taraqqiyot yo'li. -T.: Iqtisodiyot. 2011. 34 b.

7- Mavzu: OILA – DEMOKRATIK JAMIYAT QURISHNING ASOSIY BO'G'INI.

7.1. Demokratik jamiyatda oila institutining o'ziga xosligi hamda uning huquqiy asoslari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlaganidek: – “Oila haqida gapirar ekanmiz, avvalambor, oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydi, muqaddas urf-odatlarini saqlaydigan, shu bilan birga kelajak nasllari qanday inson bo'lib etishishlariga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i ekanini tan olishimiz darkor”¹.

Haqiqatda ham, oila - ma'naviy kamolat beshigi. Oila-jamiyat o'zagi va negizidir. U har bir xalq, millatning davomiyligini saqlovchi, milliy qadriyatlar rivojini ta'minlovchi, ma'nan etuk, axloqan pok, ruhan sog'lom va jismonan barkamol avlodni tarbiyalovchi muqaddas dargohdir. Oila kishilar birligining boshlang'ich shakli sifatida yakka va jamoa asoslarini o'zida mujassamlantiradi. Bu kishilarning faqat biologik va ijtimoiy hayotini emas, shu bilan birga yakka va jamoaviy hayotini ham o'zaro bog'lovchi bo'g'in, ularga ijtimoiy sifatlar va xulq-atvor mezonlarining dastlabki manbai sifatida xizmat qiladi. Bunda oila, er-xotinlik va otaonalik muhabbati, bolalarning ota – onaga mehri va hurmati, oilaviy birdamlik kabi ma'naviy boyliklarni berishdan tashqari, ana shunday ijtimoiy boyliklarni yaratadi ham. SHuning uchun ham kishilar oila qurishni, uni saqlab qolishni haqli ravishda baxtning asosiy shartlaridan deb biladilar.

Mustahkam va ahil oila yaratish, uning butun jamiyat miqyosida va har biri alohida yosh avlodni kamol toptirishdagi ahamiyatini oshirish faqat ohishni emas, balki muayyan bilimlar egallashni ham talab etadi. Shoiri Tursunoy Sodiqova ta'kidlaganidek: «Ma'naviyat gul ekishdan to shahar qurishgacha, vatan himoyasiga yarash, milliy oriyat, muhabbat, akalik, aka - ukalik, eru-ayollik ilmi, ro'zg'or tebratish siri, kuyni tinglay olish, tasviriy san'atni o'qish, fuqarolik mas'uliyati, tarix qoshidagi qarzdorlik, ota - buvangdan qolayotgan aqidalarni farzandiga ham eson-omon etkazishdir»².

Oila o'zaro farqlanuvchi kishilardan iborat ijtimoiy guruh bo'lib, unda yoshi, jinsi, kasb-kori har xil shaxslar jamlangan bo'ladi. Bu hol bolaga o'zining hissiy va aqliy imkoniyatlarini namoyon qilib, ularni hayotda amalga oshirish uchun qulay sharoitni vujudga keltiradi.

Oila jamiyat bilan bola o'rtasidagi oddiy vositachi bo'lib, o'zi kamol toptirayotgan shaxsning xulq - atvorini ko'p yillarga belgilaydi. Oiladagi yomon ruhiy va ijtimoiy vaziyat bolalarda salbiy xulq - atvor paydo bo'lishining jidiy sabablaridir.

Oila o'zining ta'lim - tarbiyaga oid vazifalarini lozim darajada amalga oshirishi uchun unga tegishli ijtimoiy tadbirlarni o'tkazish bilan yordam berishi zarur. Hozirgi jamiyatimizda oila to'g'risidagi ijtimoiy siyosatni badastur amalga oshirish talabi, shuningdek, oilaning, alohida shaxsning va butun jamiyatning manfaatlarini ko'zlab beriladigan turli tadbirlarni o'zaro muvofiqlashtirish hamda oilani mustahkamlashga va uning ma'murligini ta'minlashga qaratish talabi bag'oyat jiddiy tus olmoqda.

«Tarbiyaga daxldor kimki bo'lsa, ota - onami, muallimmi, yozuvchimi – bari dav'atchidir. Dav'atchining esa tili - yu dili pok bo'lishi kerak. Bola gunohsiz, bola musaffo! Unga ustozlik qilish uchun kishining ma'naviy huquqi bo'lishi kerak. Farzandlarimiz ma'nan sekin ulg'ayyaptimi, demak, ayb biz-kattalarda, dav'atchi o'zi tozarib, so'nggina bolaga yuzlanmaguncha, aytganlarimiz marraga etmay to'kilaveradi»–deb juda to'g'ri aytadi shoiri Tursunoy Sodiqova.

Oilaning ma'naviy olami serqirra hodisa bo'lib, naiki oilaning jamiyatdagi siyosiy - ijtimoiy mavqei, balki tarixiy taraqqiyotiga xos xususiyatlari, shuningdek, iqtisodiy imkoniyatlarini, demografik va etnografik an'alarini ham qamrab oladi. Prezidentimiz haqqoniy ta'kidlaganidek: «Xalqimiz tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, eng qimmatli an'alar: halollik, rostgo'ylik, or - nomus, sharm - hayo, mehru - oqibat, mehnatsevarlik kabi barcha insoniy fazilatlar eng avvalo oilada shakllanadi». Sirasini aytganda, o'zbek oilasining mustahkamlik va uzoq yashovchanlik siri va saodati ham ana shu ma'naviy an'alarga bog'liqligidadir. Xuddi shu mantiqdan kelib chiqib, o'zbek oilasining ma'naviy asoslarini tadqiq qish naqadar maroqlidir. Aslini olganda, bu jarayonga qiziqish qadim zamonlarda xalq og'zaki ijodining ertak, doston va qo'shiq singari bir qator

¹ 1998 yil – Oila yili. T.: “O'zbekiston”, 1999. 9-bet.

² T.Sodiqova. Mehr qolur. T.: “Mehnat”, 1997. 17-bet..

namunalarida, Qur'oni karim va hadislarda, Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy asarlarida, shuningdek, Kaykovusning «Qobusnoma», Alisher Navoiyning «Maxbub - ul qulub» va mumtoz adabiyotimizdagi qator didaktik asarlarda ko'ringan holda, muammoni oilashunoslik yo'nalishida o'rganish XIX asrning ikkinchi yarmi o'rtalarida o'ziga xos tus ola bordi. O'tgan yuz o'ttiz yildan ziyodroq tarixiy muddat davomida Markaziy Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbek oilasi tarixi va ma'naviyatini turli nuqtai nazarlardan o'rganib baholagan ko'plab tadqiqotlar yuzaga keldi.

Shu ma'noda oila bir - birini seva bilish, bir - birini tushuna bilish, bir-biriga sodiq va oqibatli bo'lish, bir - birini kechira bilish maskani sanaladi. Har bir inson, dastavval, oilada o'z o'rnini topadi, oilada o'rin topolmasa-jamiyatda o'rin topishi qiyin, oilada o'z qadrini topadi, oilada qadr topolmasa jamiyatda ham begonalarday yashaydi. Oila shunday ma'naviy rishtalar bilan Vatanga bog'lanadi, aylanadi va har bir inson uchun Vatan ichra Vatanga aylanadi. Oila va Vatan tushunchalari shu nuqtada o'zaro singishadi.

Oila jamiyat tashqarisida emas, balki uning tarkibida amal qiladi. Oilaviy munosabatlar jamiyatdagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy munosabatlar bilan belgilanadi va ular ta'sirida o'zgarib boradi. Shunga ko'ra har bir jamiyat o'ziga mos va xos oila turini tanlaydi va shakllantiradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIV bob 63 - 66 moddolari oila munosabatlariga bag'ishlangan. Konstitutsiyaning 63 - moddasida oila jamiyatining asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega deyilsa, uning 64 - moddasida ota-onalar o'z farzandlarini voyaga etgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburlar.

Davlat va jamiyat etim bolalarni va ota-onalarning vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi, bolalarga bag'ishlangan hayriya faoliyatlarini rag'batlantiradi deyiladi.

Xullas, Mustaqil O'zbekiston Respublikasining Asosiy Qonuni – Konstitutsiyada farzandlarning jamiyat, oila hamda ota - onalari oldidagi insoniy burchlari va mas'uliyatlari nimalardan iboratligi milliy qadriyatlarimizdagi asosiy g'oya va qoidalarga asosanib belgilab berilgan. Uning 66 - moddasida qayd qilinishicha, voyaga etgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota - onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburlar deb yozib qo'yilgan.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, O'zbekistonda irqi, millati, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar barcha oilalar va ularning farzandlari qonun oldida huquqan bir xil mavqedadirlar, imtiyozlardan ham bab - baravar foydalanadilar. Bu holat O'zbekiston Konstitutsiyasi va boshqa qonunlar bilan kafolatlangan.

O'zbekistonda oila barkamol inson avlodini kamol toptirishga jiddiy e'tibor berilmoqda. 1993 yil 4 martda O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning mahsus farmoniga asosan mamlakatimizning birinchi oliy davlat nishoni - "Sog'lom avlod uchun" ordeni ta'sis etildi. Quvonarli tomoni shundaki, bu orden ilk bor bizning mamlakatimizda qabul qilindi, vaholanki jahon tajribasida bunday orden bo'lmagan. Bu bejiz emas, albatta, chunki kelajak yo'lidagi barcha ezgu niyatlarni amalga oshirishga qodir bo'lgan sog'lom, jismoniy va ma'naviy kamol topgan avlodni tarbiyalab, voyaga etkazishdan iborat.

1998 yilda O'zbekiston Prezidentining "Sog'lom avlod uchun" hukumatga qarashli bo'lmagan "Xalqaro xayriya jamg'armasini tuzish to'g'risida"gi Farmonini bajarish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1993 yil 3 iyunda "Sog'lom avlod uchun" hukumatga qarashli bo'lmagan "Xalqaro xayriya jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" Qaror qabul qildi. Uning asosiy vazifalaridan biri mamlakatimizda yosh avlodni sog'lomlashtirish milliy dasturining ona salomatligini muhofaza qilish qismini amalga oshirish, onalik va bolalikni muhofaza qilish ishida xalqaro tashkilotlarni jalb etishdan iborat.

Oilaning jamiyatda tutgan o'rnini va ahamiyatiga nufuzli xalqaro tashkilotlar ham xolis baho berib kelmoqda. YUNESKO 1994 yilni "Oila yili" deb e'lon qilgan edi.

1997 yil Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilingan kunning besh yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan tantanali yig'ilishda

1998 yilni– “Oila yili” deb e’lon qilindi. Bu taklif va shu haqida 1997 yilning 9 dekabrda qabul qilingan maxsus farmoyish vaqtida anglab etilgan ijtimoiy haqiqatning e’tirofi va yorqin ifodasi bo’ladi. Negaki, istiqlol yo’liga qadam qo’yilgan dastlabki kundayoq mamlakatimizda bunga ma’naviy moddiy zamin yaratib kelinayotgan edi. “Sog’lom avlod uchun” ordenining ta’sis qilinganligi, hamda birin - ketin “Kamolot” va “Ulug’bek” jamg’armalarining tashkil etilganligi, qolaversa 1997 yilning 1 yanvarida “Bolali oilalarni ijtimoiy qo’llab-quvvatlash chora-tadbirlari to’g’risida” singari qator tadbirlarning amalga oshirilganligi, farmon va qarorlarning qabul qilinib, hayotga tadbiriq qilinganligi oila qadriyatini anglash, uni ijtimoiy muhofaza qilish va mustahkamligini ta’minlash yo’lidagi mislsiz ishlar edi.

Shunisi e’tiborliki, jahonning birorta mamlakatida oila va uning muammolarini bu qadar izchil va keng qamrovli ilmiy asosda o’rganish va echishga kirishilganligini tarix bilmaydi. O’zbekistonda oila saodati Vatan va xalq saodati negizi tarzida tushunilganidan shunday oqilona yo’l tutildi. Buning dastlabki isboti O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan O’zbekiston Respublikasining «Oila kodeksi»ning qabul qilinganligidir. Bu qonun demokratik davlatda oilaviy munosabatlarni to’g’ri va adolatli hal qilishga izm beradi.

1998 yil 2 fevrla “Respublika Oila ilmiyamaliy markazini tashkil etish to’g’risida”gi Qaror qabul qilindi. O’zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar qumitasi xuzurida Respublika “Oila ilmiy-amaliy markazi” tuzildi. O’tgan davr mobaynida oila manfaatlarini ta’minlash borasida tadbirlar Davlat dasturi kompleks xususiyatga ega bo’lib, u 150 dan ortiq tadbirlarni o’z ichiga olgan edi. 1998 yili oila manfaatlarini ta’minlash yuzasidan amalga oshirilgan dasturiy tadbirlarni ro’yobga chiqarish uchun davlat byudjetidan 144,8 mlrd. so’m mablag’ ajratildi. Birgina 2001 yili hukumatimiz tomonidan 85,9 mlrd. so’m mablag’ ajratildi.

Oila manfaatlariga qaratilgan davlat siyosati faqatgina 1998 yil bilan cheklanib qolmasdan, yilimiz qanday nishonlanishidan qat’iy nazar ushbu siyosat hozirgi kunda ham amalga oshirilib kelinmoqda.

2008 yilda “Yoshlar yili” Davlat dasturi doirasida yoshlarni moddiy va ma’naviy qo’llab-quvvatlash, ular uchun yangi ish o’rinlari yaratish, yosh oilalarning turarjoy va maishiy shart-sharoitlarini yaxshilash, yoshlarning ta’limi sifatini oshirish bo’yicha umumiy summasi 1363,5 mlrd.so’mlik chora-tadbirlar amalga oshirildi¹. Davlat byudjetida aholini ijtimoiy himoyalash bo’yicha ajratilgan moliyaviy mablag’lar miqdorini ancha oshirish ko’zda tutilgan. Sotsial va aholini ijtimoiy himoyalashga qaratilgan umumiy harajatlari 54,1 foizni tashkil etishi rejalashtirilgan. Bularni bari hayotimizni yangi bosqichga ko’tarish, muhtoj insonlar va kam ta’minlangan oilalarni moddiy jihatdan qo’llab-quvvatlash, komil inson, barkamol avlod tarbiyasi uchun xizmat qiladi.

O’zbek oilalarida ma’naviy - axloqiy muhitni shakllantirishda keksalar katta rol’ o’ynaydilar. Ular ajdodlar yaratgan boy ma’naviy - axloqiy qadriyatlarning xazinabonu, davomchisi va yangi sharoitdagi bunyodkori sifatida yosh avlodni tarbiyalovchi beminnat murabbiy sanaladilar. SHu boisdan xalqimizda «Qarisi bor uyning farishtasi bo’ladi», «Qari bilganini pari bilmas» singari maqollarning mavjudligi bejiz emas. Xuddi shu keksalar tufayli o’zbek xonadoni fayzli, to’kin va oboddir.

Boshni fido ayla ato boshig’a,
Jismni qil sadqa ano qoshig’a.
Tun - kuningga aylagil pur fosh,
Birsin oy angla, birsin quyosh.

Alisher Navoiy.

¹ Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish - davr talabi. “Xalq so’zi”, 2009 yil 14 fevral.

Bugun O'zbekistonda 27 mln.dan ortiq aholi, 5709 tadan ortiq oila 12,5 mingdan ziyod mahalla bor. Shundan 58,7 % ning 5 ta va undan ko'p bolali oilalar tashkil etadi. 2005 yilga kelib, mamlakatimizda maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning 70 foizi oilada tarbiyalandi.

Hech bir mamlakatda oilaga bunchalik katta g'amxo'rlik ko'rsatilmagan, buni quyidagilarda ko'rish mumkin: 1997 yil «Inson manfaatlari yili», 1998 yil – «Oila yili», 1999 yil – «Ayollar yili», 2000 yil – «Sog'lom avlod yili», 2001 yil – «Onalar va bolalar yili», 2002 yil – «Qariyalarni qadrlash yili», 2004 yil – «Mehr va muruvvat yili», 2005 yil – «Sihat salomatlik yili», 2006 yil – «Xomiyar va shifokorlar yili», 2007 yil – «Ijtimoiy himoya yili», 2008 yil – “Yoshlar yili”, 2009 yil – “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili”, 2010 yil-“Barkamol avlod yili” 2011 yil - “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik” yili, 2012 yil - “Mustahkam oila yili” deb e'lon qilinishining o'ziyoq buning yaqqol isbotidir.

2007 yil 19 may matubotda e'lon qilingan “Yosh oilalarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Prezident Farmoni ham inson va uning kelajagiga bo'lgan g'amxo'rlik va e'tiborning ajoyib namunasi sifatida mustaqil mamlakatimiz tarixi zarvaraqalarida muhirlanib qolishi shubhasiz.

Farmonda yosh oilalarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashni yanada chuqurlashtirishni, yoshlarimizning mehnat faoliyatini boshlashlarida va mustaqil hayotga kirib kelishlarida ularga zarur yordam ko'rsatish, oilalarni ta'minlashlari uchun uning barqaror daromad manbalarini shakllantirish yo'llari va amaliy rag'batlantirish omillari masalalari qamrab olingan. Ta'bir joiz bo'lsa, mazkur huquqiy xujjat mamlakatimizda yoshlarga g'amxo'rlik ko'rsatish va ularni har tarafлама qo'llab-quvvatlashning yana bir yordam namunasi, deyish mumkin.

7.2. O'zbek oilalarining o'ziga xos jihatlari, uning barkamol shaxs va demokratik qadriyatlar shakllanishidagi o'rni

O'zbek oilasining dunyodagi boshqa oilalarga o'xshash tomonlari ko'p. SHu bilan birga uning o'ziga xos jihatlari ham yo'q emas. Xalqimizda, nikoh eng avvalo Arshi a'loda o'qilur, keyin esa erda degan naql behuda aytilmagan. Ota - bobolarimizning azaliy tushunchalari bo'yicha, nikoh ilohiy ahd, oila - muqaddasdir, deyiladi Qur'oni karimning Baqara surasi, 223 - oyatida. Bu so'zlar bilan oila tuzishdan birinchi muddao farzand ko'rish ekaniga ishora qilinmoqda.

Ma'lumki, Hadisi shariflarning muayyan qismida axloq - odob, ma'naviyat, oilaning pokligi va mustahkam bo'lishiga oid qimmatli fikrlar mavjud.

«Er-xotin-qo'sh ho'kiz» deyiladi hadisi sharifda. Unda oilaning ustunlari bo'lishi er va xotin, ya'ni ota-ona oilaning quvonchida ham, tashvishida ham, ro'zg'or tutishda ham, farzandlariga yaxshi ta'lim - tarbiya berishda ham teng sherik, hamkoru - hamjihat ekanliklari uqtiriladi.

O'zbek oilasining tashqaridan sezilmaydigan o'ziga xos ichki qonun - qoidalari, axloqiy mezonlari bor. Avvalo o'rindan barvaqt turish shart. Kimki g'aflat bosib, o'rnida yotaversa, rizqidan quruq qoladi, deyiladi. Barvaqt turilgan kuni ish, o'qishning unumli bo'lishi xalqimizga ma'lum, qolaversa, tonggi havo musaffo bo'ladi, kishining sog'lig'i uchun foydali, kayfiyatni ham tetik qiladi.

Ikkinchidan, yuz - qo'lni yuvmasdan hol - ahvol so'ralmaydi; yuz - qo'lni yuvilgandan keyingina kichiklar kattalarga salom beradilar. Ayollar nonushta hozirlaydilar. qizlar, kelinlar hovli, ko'cha eshigi oldini supurib, suv sepib qo'yadilar. Bu ish oqshomda ham takrorlanadi.

Nonushtaga, umuman dasturxonga birinchi bo'lib oilaning yoshi ulug'i qo'l uradi, tabarruk nonni ham u ulashadi. Ish yoki o'qishga oilaning ulug'idan, deylik, hayot bo'lsalar bobolaridan, buvalaridan fотиha olib ketiladi. qaytishda ham avvalo ularga uchrashilib, salom beriladi. Ular bunday izzat - hurmatdan mamnun bo'lib, yoshlarni duo qiladilar. Bir og'izgina shirin so'z odamning charchog'ini yozib yuboradi, asabini joyiga keltiradi, ruhini tetiklashtiradi. Odam odam bo'lib yaratilganligidan, oilasi borligidan g'ururlanadi. Mana shuning uchun ham oilani rohat - farog'at, tinchlik - xotirjamlik maskani deyidilar.

Oila odobiga ko'ra katta yoshlilar bolalarga, balog'atga etgan farzandlar, kelinlar kattalarga ochiq - sochiq holda ko'rinmaydilar, bachkana qiliq qilmaydilar, pardasiz so'zlarni aytmaydilar, sizsirash hurmat belgisi hisoblanadi.

Ko'chaga uy kiyimida chiqmaydi, birov so'rab kelganda, ko'cha eshik oldida mahtal qilib qo'yilmaydi, darhol uyga taklif qilinadi. Mehmon kutilganda bolalar ozoda keyintirilib, supurgi kabi narsalar ko'zdan chetga olib qo'yiladi.

Xullas, o'zidan kattalarni, birinchi galda keksa bobolaru - otalarni, nuroniy buvilarni hurmat qilish, e'zozlash, ular uchun qo'ldan kelgan yordamni ayamslik o'zbek xalqining an'anaviy qoidasi bo'lib, ular o'zbek oilalarida yoshlikdan bolalar ongiga singdirilib yuboriladi. O'zbek oilalarida o'tadigan bironta ham marosim, to'y - tomosha, hashar keksalarning ishtirokisiz o'tmaydi. Keksalarning turmush tajribalari, bilim boyliklari, bosib o'tgan yo'llari, maslahatlari, saboqlari yoshlar uchun eng katta boylik, bitmas - tugalmas xazina konidir. Keksasi bo'lgan xonadonda fayz - baraka bo'ladi degan mazmunda aytilga qanchadan - qancha matallar, maqollar, afsona - rivoyatlarimiz borligini aytib o'tirmasak bo'ladi.

XI asrning atoqli shoiri, donishmandi va davlat arbobi Yusuf Xos Xojib qarilarni hurmat qilish, ular haqida behuda so'z aytmalik, ular huzurida odob va kamtarlik bilan so'zlashish joizligini uqtirgan edi.

Ko'pgina o'zbek oilalarida kattalar kichiklarni ham sizlaydi. Bunda kichiklarning ismlarida «jon», «xon» qo'shib muomala qilinadi. Bu bilan ular yoshlarni o'zlari bilan teng tutayotganliklarini namoyon qiladilar. Bunday muomalaning tarbiyaviy ahamiyatini ta'riflab chiqishda o'ziga xos vazifasini bajaradi.

O'zbek xalqining an'anasining yana bir o'ziga xos xususiyati qizlar tarbiyasiga alohida e'tibor berishi. Ularning xulqi, odobi, muomala madaniyati hamisha oilaning diqqat markazida bo'lgan. Qizlar ota - onaga itoatda, kattalarga hurmatda bo'lish ruhida tarbiyalanganlar. Ularga odobning nozik tomonlari o'rgatilgan. Shuning uchun ham ular doimo sernazokat bo'lishgan, ayniqsa, mehmonlar oldida muloyim odob saqlagan.

Xalq an'anasida oilaviy marosimlarning ahamiyati ham kattadir. Bolaning «atak - chechak» qilib mustaqil qadam tashlashdagi «Birinchi qadam bayrami», muchal yoshini nishonlash, «Beshik to'y» marosimlarini tayyorlash va o'tkazish jarayoni o'z tartib qoidalari va urflari bilan bolalar va yoshlar shaxsining shakllanishiga kuchli ta'sir etgan. Hozirda ham bunday an'anaviy marosimlarning tarbiyaviy ahamiyati beqiyosdir. Lekin bu marosimlarning dabdabali, isrofgarchilikka aylanib ketmasligi choralarni ko'rish, ularning ma'naviy - tarbiyaviy ta'sirchanligini esa oshirish zarur.

O'zbek xalqining eng qadimiy davrlaridan boshlab hozirga qadar davom etib kelayotgan, o'z ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan ajoyib qadriyatlaridan biri-ota-onani yuksak darajada e'zozlash, izzat-ikromlash, hurmatlarini joyiga qo'yishdan iboratdir. Farzand uchun dunyoda ota - onadan ko'ra mehribon, aziz va mu'tabar zot yo'q. Ota-onalar farzandlarining suyanchig'i, bitmas - tunganmas boyligidir. Hech ikkilanmasdan shuni aytish kerakki, ota - ona farzand uchun hech narsani ayamaydi. Ularning tabiat ato etgan buyukliklari ham ana shunda. O'zbek xalqi odob-axloqi bo'yicha, keksalarning, ota-onaning oldida salom bermasdan o'tishi gunoh hisoblanadi.

SHunday bular ekan, ota-onani qadrlash, ularning beo'lchov xizmatlariga bir umr sodiq bo'lish, duolarni olish-bolalarning farzandlik burchidir.

Buyuk bobomiz Alisher Navoiy aytganlaridek, ota-onani hurmat qilish farzandlar «...uchun majburiyatdir». Bu ikkisiga hurmatni bir xil qil, xizimating qancha ortiq bo'lsa ham kam deb bil. Otang oldida boshingni fido qilib, onang boshi uchun butun jismingni sadaqa qilsang arziydi! Ikki dunyoning obod bo'lishini istasang, shu ikki odamning roziligini ol! Tunu kuningga nur berib turgan-birisini oy deb bil, ikkinchisini quyosh. Ularning so'zlaridan tashqari bir narsa yozma, ular chizgan chiziqdan tashqariga bir qadam ham bosma. Hamma xizmatni sen odob bilan bajar, «odob» so'zidagi «dob» kabi qomatingni ham qil.

Kattalarga izzat-ikrom, kichiklarga mehr-shafqat, ota-onalarga e'zoz, farzandlarga, mehr-sadoqat-bular insonni inson sifatida ulug'laydigan, axloqiy, ma'naviy jihatdan go'zal va barkamol qiladigan qadriyatlardan bo'lib hisoblanadi.

Aytaversak, o'zbek oilasining fazilatlari ko'p. SHu bilan birga uning sirli tomonlari ham bor. Bu endi har bir oilaning o'z ichki ishi. Ular haqida gapirish o'rinsizdir. CHunki oila daxlsiz, muqaddas dargoh.

7.3. Oila muhiti hamda O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishda oila rolining oshib borishi.

Barkamol, ma'naviy boy, axloqan va jismonan sog'lom kishilarni tarbiyalab voyaga etkazish– ilk bor oilada amalga oshiriladi. Kishiga bir umr hamroh bo'ladigan insoniy fazilatlar–ezgulik, yaxshilik, yaratuvcchanlik, fidoiylilik, sadoqat, mardlik, insof, rahm–shafqat kabi xislatlar dastlab oilada shakllanadi. Oila yoshlarning odob–axloqli, rostgo'y, mehnatsevar, halol va samimiy bo'lib voyaga etishlari uchun zamin tayyorlaydi. Oila tarbiyasi bolaning kelajakda kim bo'lib etishishida muhim o'rin tutadi. Demak, bola oilada jamiyatning, fuqarolarning tabiati, dunyoqarashi va axloqiy qiyofasi kamol topib boradi. Bola uchun oiladagi sog'lom ijtimoiy ruhiy muhit, madaniy - ma'naviy, axloqiy qadriyatlar, an'analar, ijtimoiy tajriba va malaka, ko'nikma manbaidir.

Oila tarbiyasi o'z xarakteriga ko'ra boshqa har qanday tarbiyadan jushqinroqdir. Uning asosiy omili ota–onaning bolalarga muhabbati va bunga javoban bolalarning ota - onaga mehru - oqibat hissidir. Bola, ayniqsa ilk yoshlarida boshqa har qanday ta'sirlardan ko'ra ko'proq oilaning ta'siri ostida bo'ladi. Oila bolani kichik ijtimoiy guruhdan, asta - sekin katta ijtimoiy hayotga olib chiqish, unga ko'nikma hosil qilish hamda uning fikr doirasi va tajribasini kengaytira borishga eng muvofiq dargohdir.

Istiqbol ma'rifatining shuuri dastavval har bir xonadonni yoritmog'i lozim. Chunki bugun har bir o'zbek oilasida farzand o'stirayotgan ota - onalar Vatan istiqbolini millat va mamlakat taqdirini yaratmoqdalar. Shunday ekan, oilada ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish davlat miqyosidagi buyuk va ezgu vazifadir.

Oilaning asosi onadir, shaxsning shakllanishi uning oilasi tarbiyasidan, bolani o'rab turgan narsa va hodisalarga bergan bahosi - yu, umuman onaning dunyoqarashidan boshlanadi. Psixologlarning fikricha daholarni tarbiyalashda ona alohida imtiyozga ega, insonparvarlik unda hurmatdan boshlanadi. Oilada shaxs nafaqat shakllanadi, balki butun hayoti davomida rivojlanadi, kamol topadi. Har kuni uyidan chiqib ketadigan va uyiga qaytib keladigan bola o'zining muammolari, tashvish–quvonchlari bilan yashaydi. U ulg'ayib o'zi mustaqil oila qurgach esa muammolarini, ya'ni oilasi manfaatlari bilan bevosita yoki bilvosita bog'lab tahlil etadi, hal qiladi. Demak, barqaror oila bo'lmasa, mustahkam jamiyat ham, istiqboli porloq millat ham bo'lmaydi.

Oila–jamiyat negizi bo'lib, ko'p asrlik mustahkam ma'naviy tayanchlarga ega. Milliy mintalitetimizga xos bo'lgan ilk tushunchalar avvalo, oila muhitida singadi, iste'dodga munosabat ham oiladan boshlanadi. Bu jarayon bobolar o'giti, ota ibрати, ona mehri, butun oila a'zolarining xayrihohligi orqali amalga oshadi. Oiladagi sog'lom muhit–sog'lom ongni, sog'lom ehtiyojlarni, hayotga to'g'ri munosabatni shakllanirish manbaidir. Jamiyatda har bir oilaning mustahkamligini, farovonligini, o'zaro hurmat va ahillikni ta'minlash–milliy mafkurada ko'zda tutilgan maqsadlarni amalga oshirishda tayanch bo'ladi. Har bir oilaning jamiyatda tutgan o'rni va imkoniyatlari qanday bo'lishidan qat'iy nazar, o'ziga yarasha vazifalari bor:

- farzand orttirish–unga ma'naviy va jismoniy ozuqa berish, hayotda to'g'ri yo'lni ko'rsatish;
- farzandning fazilatini va iste'dodlarini ardoqlash, intilishlarini amalga oshirish;
- farzandlardagi nomaqbul yo'nalishlar va istaklarni yo'qotish va h.k.

Farzandlardan biri «Bizga yaxshi onalarni beringlar, biz yaxshi odamlar bo'lib etishishamiz», deb xitob qilganda, haq edi.

Jamiyatda fikr, intellektual ong o'sib takomillashib borayotan O'zbekistonda, ijtimoiy munosabatlar tubdan yangilanayotgan bir sharoitda har bir oila o'z a'zosini tarbiyalash, kamol toptirishda, dunyo masalalarini anglay bilishi, shu bilan birga raqobatga asoslangan hayotda o'zini himoya qila bilish ko'nikmasini yuzaga keltirishga qaratmog'i darkor. Bular o'z navbatida oilaviy qadriyatlarining milliy g'oya, milliy g'urur tuyg'ulari va boshqa milliy hamda umuminsoniy

qadriyatlar bilan birligini shakllantiradi. Zero, amerikalik pedagog F. Adler «Oila mo'jizagina bir jamiyatdir, butun insoniyat jamiyatimizning daxlsizligi uning jipsligiga bog'liq», –degan edi.

Oila tarbiyasida doimiy ta'sirchan kuch - oilaviy tartib, ya'ni oila a'zolarining bir - biriga munosabati, ota - ona va boshqa katta yoshli qarindoshlarning xulq - atvori, madaniy va siyosiy saviyasi, muomala madaniyati, oilaning daromadi, ya'ni sharoiti ana shu kabi omillardir.

Oila qanchalik tartibli, xulq - atvorli, uning a'zolarining o'zaro munosabatlari samimiy bo'lsa, oila tarbiyasi ham shunchalik samarali bo'ladi.

Bashariyat mutafakkirlari tarbiyaning dastlab bevosita oila bilan aloqadorligini qayta-qayta ta'kidlashgan. Buyuk allomalardan biri Rizouddin ibn Fahriddin o'zining "Oila" nomli asarida shunday muloxazani keltiradi: "Millatlar sharafiga yuqori martabaga ko'taradigan narsa millionlar ila sanalmoqda bo'lgan askarlaru, dunyoda eng buyuk va zo'r bo'lgan kemalar emas, balki eng oz e'tibor bermasdan keladiganimiz bo'lmish oiladir. Oila nizomsiz bo'lsa, uning yomon oqibati butun millatga ta'sir etadi va shu sababdan fazilat eriga razolat, taraqqiyot o'rniga tubanlik negiz qurar".

Buyuk mutafakkir Yusuf Xos Xojib farzandlar tabiatida sodir bo'ladigan fazilat va nuqsonlarning sababchisi bolaning o'zi emas, balki uning ota-onasidir deb ta'kidlaydi.

Shundan kelib chiqib, ulkan ikkita vazifani, ya'ni farzandlarni dunyoga keltirish hamda ularga to'g'ri tarbiya berishni yo'lga qo'yadi. Buyuk maqsadni o'z zimmasiga olgan ota-onalar oldida shunday vazifalar turadiki, ularni unutish mumkin emas. Bola hayotining birinchi kunidanoq unga sog'lom o'sishi va rivojlanishi hamda hulqining shakllanishiga yordam beruvchi rang - barang ijobiy odatlarda tarbiyalash, iste'dod egalarini kamol toptirish, bolalarda axloq madaniyatini shakllantirish, ularni umumiy qabul qilingan qoidalarga rioya qilgan holda uyda, bolalar bog'chasida, ko'chada, jamoat joylarida, atrofdagilarga hurmat bilan munosabada bo'lishga, ularning ishlari va qiziqishlari bilan hisoblashishga o'rgatish, odamlarga el bo'lishlilik, xushmuomalalik, jonkuyarlik, vazminlik, kamtarlik, sezgirlik, ko'pchilikning manfaatlari bilan hisoblashish ko'nikmalarida o'z aksini topadigan jamoatchilik malakalari-kattalar hamda tengdoshlar bilan bo'ladigan muomalada madaniyatli tarbiyalash, nutq madaniyatini, ya'ni odob bilan gaplashish ko'nikmalarini, kattalarga sizlab, muloyim va ortiqcha imo - ishorasiz gaplashishga o'rgatish singari qadriyatlarni tarkib toptirish tashkil etadi.

Maqsadimiz fuqarolik jamiyatini qurish, shunday ekan, unda yashaydigan insonlar qanday hislat va fazilatlariga ega bo'lishi kerak? Avvalo aytish mumkinki, bu jamiyat siz - bizning, har birimizning jamiyatimiz. U bizga erkin yashash, mustaqil fikrlash, o'z xatti - harakatlarimizdan doimo manfaatdor bo'lishga imkon beruvchi jamiyatdir. Bu jamiyat farzandiga mehr berib, mehrli farzand tarbiyalay oladigan onalar, ayolni muhtaram bilib, unga hamisha muruvvat qiluvchi erkaklar, ota-onasini, keksalarni umrining oxirgi daqiqalarigacha mo'tabar bilguvchi farzandlar, qonunlarni, jamiyat normalarini muqaddas biladiganlar jamiyatidir. Fuqarolik jamiyati qurishning dastlabki instituti rolini oila o'ynaydi.

Oilada jamiyatga xos bo'lgan tipik xususiyatlar va vaziyatlar o'z in'kosini topadi. Oilada har bir bolaga qadriyatlar tizimi nima yaxshi - yu, nima yomonligi, qaysi xatti - harakatlar ma'qul, qaysinisi noma'qul, qaysi fikr ma'nili - yu, qaysi biri be'mani ekanligi to'g'risidagi dastlabki tasavvurlar ota - ona, yaqin qarindosh, urug', qo'ni-qo'shni orqali singdiriladi. Oilada mulozamatni, takallufni, mehribonlikni, ish-yumushlarni to'g'ri bajarishni, insof diyonat kabi tushunchalarni, ish yoki o'qishda yoqtirmagan turli toifali odamlar bilan muomalani, qisqasi-insoniy muomalaga oid qadriyatlarni o'zlashtiramiz. Mahalla - kuyda, to'y - hashamlarda o'zini qanday tutishi, turli yoshli insonlar bilan yoshiga, jinsiga monand gaplashish malakalarini ong va shuurimizga singdirib boramiz.

Bundan tashqari, aynan oilada hokimiyat va obro'lilik - avtoritet to'g'risidagi, siyosiy ongga aloqador bo'lgan, siyosiy madaniyat va huquqni ifodalovchi tasavvurlar ham kurtak topadi.

Qisqasi, oila jamiyatdagi barcha ijtimoiy - siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy islohotlarning ma'no - mohiyati, fuqaro uchun ahamiyatini oila a'zolari ongiga bevosita singdiradigan muqaddas dargohdir.

Inson tug'ilibdiki, oila muhitiga tushganligi, uning issiq bir maskan ekanligini his qilgani kabi, u orqali jamiyatning ijtimoiy va siyosiy hayotni har bir tabiiy holday his qilishi lozim. Zero,

fuqarolik jamiyatida inson mamlakatning siyosiy hayotida ataylab, sun'iy tarzda qatnashish istagini bildirmaydi, u shu jamiyat hayotida faol yashab, har bir harakati, jamiyat taraqqiyoti va oilasi manfaatlarini ko'zlab, ongli tarzda o'zi mustaqil siyosat qiladi, ya'ni u shu siyosiy va ijtimoiy hayotda, qonunlar bilan kafolatlangan hayotda erkin yashaydi. Demak, fuqarolik ongi, sog'lom e'tiqod va ma'rifat tarbiyasida oilaning ham beqiyos katta o'rni bor ekan.

Xalqimiz uchun fuqarolik jamiyati qurish qanchalik sharaflilik va mas'uliyatli ish bo'lsa, unga mos insonlarni tarbiyalash ishi yanada muhim va murakkabdir. Lekin bu jamiyatda yashaydiganlar ham, uni quradiganlar ham oddiy insonlar, har birimiz bo'lganimiz uchun ham biz bugungi jamiyat a'zosining ma'naviy qiyofasi, dunyoqarashi, e'tiqodliligi va undan kelib chiqadigan ahloqiy fazilatlarini tarbiyalashda oila qanday rol o'ynashligiga qaratdik. Zero, Oliy Majlisning ikkinchi chaqiriq IX sessiyasida Yurtboshimiz ta'kidlagandek, "chinakam insoniy fazilatlarga ega bo'lgan yoki ega bo'lishga intilgan odam demokratiya ne'matlarining oddiy iste'molchisi emas, balki ularning faol yaratuvchisi va himoyachisiga aylanadi"

Xullas, oilaning jamiyatdagi mavqeini yanada oshirish, oilada sog'lom muhitni barpo etish, bolalarni sog'lom o'sishi uchun davlatimiz keng qamrovli ishlarni olib borishni o'zining diqqat markazidagi asosiy vazifasi deb qaramoqda.

"Oilani ijtimoiy jihatdan qo'llab quvvatlashga qaratilganligi, ijtimoiy siyosatimizning tamal toshidir. Biz jamiyatimizning ijtimoiy negizlarini, uning barqarorligini mustahkamlashda jismonan baquvvat, ma'naviy boy avlodni-mamlakatimizning ertangi kuni egalarini tarbiyalashda oilaning rolini oshirishga juda katta ahamiyat bermoqdamiz"¹.

OILA

¹ Karimov I.A O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: "O'zbekiston" 1997, 224-bet.

Oila odamlarning tabiiy, iqtisodiy, huquqiy,
ma'naviy munosabatlariga asoslangan
ijtimoiy birliqidir.

Tabiiy munosabat: er-xotinlik munosabatlari, bola ko'rish;

Iqtisodiy munosabat-mulkiy munosabatlar: uy-ro'zg'or, xovli joy-kichik Vatan;

Huquqiy munosabat- nikohni davlat yo'li bilan qayd etish;

Ma'naviy munosabatlar: er-xotin, ota-ona va bolalar o'rtasidagi mehr-muhabbat, odob-ahloq, ta'lim tarbiya kabi insoniy tuyg'ular va talablardir

Sotsiologik so'rov

Sotsiologik so'rovlar natijasiga ko'ra O'zbekistonda erkaklarning turmush qurishining eng ma'qul bo'lgan yoshi (respondentlarning 56,4 %) 24-25 yosh. so'ralganlarning har beshtasi (21,1%) erkak uchun oila qurish 21-25 yoshda, har sakkiztadan bittasi (13,8%) 26-27 yoshda deb hisoblaydi.

Ayollar uchun: so'ralgan respondentlarning ko'pchiligi oila qurish yoshini ancha past bo'lishi kerak deb hisoblaydilar. Respondentlarning yarmidan ko'pi (53,9%) qizlarning oila qurish yoshi 18-20, (38,8 %) 21-23 yoshda bo'lishi ma'qul deb hisoblaydilar.

(So'rov 2005 yil sentyabrida O'zbekistonning 12 viloyatida, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahrida o'tkazilgan. 191 kishidan so'ralgan)

Savollarga berilgan javoblarning taqsimlanishi. Sizningcha qanday oilada ahloqiy sog'lom, Vatanga sodiq farzandlar tarbiyalanadi?

(Foiz hisobida)

Oila turlari	Shahar	Qishloq	Jami
Axloqiy sog'lom oilada	46,4	41,4	43,3
Mehnatsevar va halol oilada	54,7	60,7	58,5
Ziyoli oilada	29,6	28,3	27,4
Diniy oilada	5,1	15,8	11,8
Ko'p bolali oilada	3,2	4,5	4,0
Do'stona va tinch oilada	27,0	18,7	21,8
Moddiy jihatdan ta'minlangan oilada	0,2	0,2	0,2

Qiyosiy tahlil

O'zbekiston aholisining yarmidan ko'prog'i, ya'ni 11 millioni 18 yoshgacha bo'lganlarni tashkil etib, xar bir oila boquvchisi o'zi bilan o'rtacha 5,2 kishini boqish ma'suliyatini zimmasiga olib yashaydi.

Ruminiya va Pol'shada har bir boquvchi zimmasiga 0,5 bolani boqib, o'stirish to'g'ri kelmoqda.

Polshaning 35 million aholisining 22 millioni, Ruminiyaning 23 million aholisidan 16 millioni moddiy, yoki nomoddiy ishlab chiqarish sohalarda mashg'ul bo'lib kelayotgan bo'lsalar, O'zbekistonning 27 million aholisidan 5 millioni ishlab chiqarish, boshqaruv, tijorat, maorif, tibbiyot singari sohalarda faoliyat ko'rsatmoqdalar.

HAYOT MAKTABI: U BOLALIKDAN BOSHLANADI

Shaxs kamolatida oilaviy tarbiya va muhitning o'rni katta. Zero, oiladagi to'g'ri tarbiya va sog'lom muhit insonning yuksalishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. shu boisdan ham tarbiya - o'ta nozik va mas'uliyatli yumush. Aytingchi sizning bolalik tarixingiz va tarbiya muhitingiz qanday kechgan? Berilgan savollarga sizning javobingiz.

1.Siz tug'ilgan oila va uning muhiti qanday edi?	4.Otangiz, u kishining tabiati, xarakteri haqida nimalar deya olasiz? Onangiz haqidachi?	7.Oiladagi har bir bolaning o'z Yumush - vazifasi bo'lganmi?
2. Ismingizni kim qo'ygan?	5.Sizning tabiatigizda bolalikda kimni hissasi ko'p bo'lgan , deb hisoblaysiz?	8.Hozir millatimizga qanday o'g'il - qizlar kerak deb hisoblaysiz?
3.Oilada nechta farzand bo'lgansizlar?	6.Bolalingizda ko'proq qanday o'yinlar o'ynagansiz?	9.shunday o'g'il - qizlar ko'paymoqdam? Nima uchun?

Qisqacha xulosalar.

Mustahkam oila demokratik jamiyat ko'zgusi. Oila demokratik davlat, fuqarolik jamiyatini qurishni tezlashtirish, jamiyatimiz kishilari yangi avlodni barkamol qilib tarbiyalashning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Oilaning ijtimoiy imkoniyatlarini, uning jamiyat turmushi barcha sohalaridagi aktivligini oshirish, nikoh - oila munosabatlarini yangi, demokratik asosda mustahkamlash kabi vazifalarning hammasi mamlakat ijtimoiy - iqtisodiy taraqqiyotini demokratik asosda tubdan qayta qurish, demokratik imkoniyatlari va afzalliklaridan yanada to'laroq foydalanish dasturini ro'yobga chiqarishga bevosita taalluqlidir.

Tayanch so'zlar.

Demokratik jamiyatda oila instituti, oila, davlat va jamiyat, oilada mehr-muruvvat masalasi, oilada totuvlik, oilada qariyalarning roli, oilada milliy va umuminsoniy qadriyatlar, farzandlar tarbiyasi, oila muhitida fikrlar birligi va plyuralizm, demokratik jamiyat qurishda oila roli.

Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. Demokratik jamiyat qurish sharoitida oilaning sotsial imkoniyati, aniq qilib aytganda, nimalardan iborat va bu imkoniyatlarning oshishi nikoh - oila munosabatlarini mustahkamlash bilan bog'liqligining sababi nimada?
2. Oilaning mustahkamligi haqida mamlakatdagi qo'ydi - chiqdilarining miqdoriga qarab fikr yuritish mumkinmi?
3. Ma'naviy etuk oila mojaro va ziddiyatlardan holimi?
4. Oilani mustahkamlashning hal qiluvchi omili nima: iqtisodiyotmi yoki madaniyatmi?
5. Oilaviy aloqalarning mustahkamligini ta'minlashda madaniyatning roli haqida gapirganda, odamlarning shaxsiy madaniyatligi nazarda tutiladimi yoki oila ehtiyojlarini ijtimoiy tushunishning muayyan darajasi tizimidagi madaniyatmi?
6. Biz aholini takror ko'paytirish to'g'risida gapirganimizda, doimo gap uning miqdor ko'rsatkichlari ustida borayotganligini ta'kidlaymiz. Xo'sh, uning sifat ko'rsatkichlari qanday?
7. Jamiyatimiz oldida turgan vazifalarni hal etishda oilaning rolini kuchaytirishga qaratilgan chora - tadbirlarning mohiyati nimalardan iborat?
8. Respublika Vazirlar Mahkamasining «Sog'lom avlod uchun» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi to'g'risida qaror qabul qilingan. Aytingchi uning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
9. 2012 yil «Mustahkam oila yili» deb nomlanishidan ko'zlangan maqsad?
10. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishda oilaning rolini baholang?

Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.: "O'zbekiston", 2011. 3-36-b.
2. O'zbekiston Respublikasining Oila Kodeksiga sharhlar. -T.: «Adolat», 2000.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yosh oilalarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. 2007 yil 19 may.
4. "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" Davlat dasturi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. "Xalq so'zi" 2011 yil 21 yanvar'.
5. "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 20 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. "Xalq so'zi" 2011 yil 7 aprel'.
6. Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. - T.: O'zbekiston, 2005.- 3-48-b.
7. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch.-T.:Ma'naviyat.2008.-176 b.

8. Karimov I.A. "Eng asosiy me'zon-hayot haqiqatini aks ettirish"-T.: O'zbekiston, 2009.-24 b.
9. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi "Xalq so'zi", 2010 yil 13 noyabr'.
10. Karimov I. A. "Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qilsin". "Xalq so'zi", 2011 yil 23 yanvar.
11. Karimov I.A. "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida". -T.: O'zbekiston, 2011.-157-192-b.
12. I. A. Karimovning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 20 yilligi tantanalaridagi nutqi. "Xalq so'zi", 2011 yil 1 sentyabr'.
13. Karimov I. A. "Bizning yo'limiz - demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo'lidir". "Xalq so'zi", 2011 yil 8 dekabr'.
14. Karimov I.A. "Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish - bizning bosh maqsadimizdir". "Xalq so'zi", 2012 yil 8 dekabr.
15. Karimov I.A. "Bosh maqsadimiz - keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish". "Xalq so'zi", 2013 yil 20 yanvar.
16. Aliyev B., Hoshimov T., Yuldashev O. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. Darslik. -T. "Iqtisodiyot", 2008. -122-135-b.
17. Aliyev B., Yuldashev O., Qahhorova M. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. O'quv qo'llanma.-T.: "Iqtisodiyot".2011. 121-135-b.

8 - Mavzu: DEMOKRATIK JAMIYAT SHAKLLANISHIDA MAHALLA VA FUQAROLARNING O'ZINI - O'ZI BOSHQARISH ORGANLARI. DEMOKRATIK JAMIYAT BARPO ETISHDA NODAVLAT VA JAMOAT BIRLASHMALARINING O'RNI

8.1. Mamlakatimizda mahalla o'zini - o'zi boshqarishning shakllari.

Mustaqil O'zbekistonning ko'p tizimli fuqarolik jamiyati, ilg'or iqtisodiy munosabatlar demokratiya an'analarga asoslangan dunyoviy davlat sifatida muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun avvalo o'zini-o'zi boshqarish deb ataluvchi mahalliy hokimiyat organlarining roli va huquqiy maqomini har tomonlama oshirish zarurligini taqozo etadi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarda davlat boshqaruvi organlarini qayta tuzish tajribasi shuni ko'rsatadiki, o'ta markazlashtirilgan boshqaruv tizimi davlat tuzilishidan ko'p tizimli fuqarolik jamiyatiga o'tishda oliy davlat muassasalarining ko'pgina vakolatlari mahalliy xokimiyat organlariga, ulardan esa-fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga beriladi.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar mahalliy hokimiyat organlarini boshqarish tizimini tubdan yangilash zarurligini ko'rsatdi. Chunki aynan mahalliy organlar tizimi davlatni boshqarish tizimining negizini tashkil etadi va qurilayotgan huquqiy demokratik jamiyatning mustahkam poydevori bo'lib xizmat qiladi.

Mahalliy hokimiyat va o'zini-o'zi boshqarish tizimi har bir mamlakatning o'z milliy xususiyatlari, milliy va jahon davlatchiligi tajribalariga asoslangan holda tashkil etiladi va rivojlantiriladi.

Mahalliy o'zini-o'zi boshqarish-mahalliy hududiy birlik aholisi-hudud jamoasi va uning saylab qo'yiladigan organlarining mahalliy ahamiyatiga molik ishlarni boshqarish faoliyati demakdir.

Mahalliy boshqarish organlaridan farqli o'laroq, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari davlatga bo'ysunmaydi, ya'ni davlat ularga biron-bir majburiyatlar yuklashga haqli emas.

Chet el olimlarining fikriga ko'ra, "o'zini-o'zi boshqarish" tushunchasi ilk bor mahalliy o'zini - o'zi boshqarish munosabati bilan buyuk frantsuz inqilobi davrida qo'llanila boshlagan va davlatga nisbatan jamoaning mustaqilligini tasdiqlash bilan bog'liq bo'lgan. Nemis olimining fikricha mazkur atama muallifi Prussiya vaziri baron fon Shteyn (1757 - 1831) bo'lib, u mahalliy

o'zini-o'zi boshqarishning, davlat ishlarini boshqarishda fuqarolar ishtirokining faol shakli deb hisoblagan.

Mahalliy o'zin-o'zi boshqarish (yoki munitsipal-munisipal-o'zini-o'zi boshqarish) deb, u yoki bu ma'muriy, hududiy birliklardagi aholining vakolatlarini ifodalovchi saylangan va uning ma'muriyati tomonidan amalga oshiriladigan mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan ishlarni boshqarishga nisbatan aytiladi

1985 yil 15 oktyabrda Yevropa Ittifoqi tomonidan qabul qilingan "Mahalliy o'zini-o'zini boshqarish to'g'risidagi Yevropa xartiyasi"ning 3 - moddasida bu tushuncha quyidagicha ifodalanadi, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish deganda, mahalliy aholi manfaatlari asosida, qonunlar doirasida davlat ishlarining aksariyat qismini boshqarish va uni real uddalay olish qobiliyatiga aytiladi. Bu huquqlar erkin, yashirin, teng, to'g'ridan-to'g'ri, umumiy saylovlarda saylangan a'zolardan iborat kengashlar yoki majlislar tomonidan amalga oshiriladi. Kengashlar yoki majlislar o'zlariga hisobot berib boruvchi yoki ijroya organlariga ega bo'lishi mumkin. Bu qoidalar fuqarolar majlislariga, referendumlariga yoki fuqarolar to'g'ridan-to'g'ri ishtirok etishining qonun yo'l qo'ygan boshqa shakllariga murojat etishni istisno etmaydi.

XX asr oxiriga kelib o'zini-o'zi boshqarish tushunchasi va mazmuni ham ancha o'zgardi. G. Xollis va K.Plokker (Yevropa Ittifoqi ekspertlari) kabi olimlar mahalliy o'zini-o'zi boshqarishga doir tushunchalarni yangicha talqin qildilar: "mahalliy boshqaruv" - davlat boshqaruvidan quyidagi barcha jihatlarni o'z ichiga oladi, "mahalliy hokimiyat" - "saylangan kengash va uning ijroya organlari vositasida o'z saylovchilari manfaatlarini ifoda etuvchi va harakat qiluvchi tashkilotlardir", "mahalliy o'zini-o'zi boshqarish" esa - milliy boshqaruvni quyi darajadagi demokratik muxtor birliklarning mahalliy aholi manfaatlarini asosida jamoatchilik muammolarini aksariyat qismini muvofiqlashtirishi va boshqarishidir". O'zini-o'zi boshqarish organlari turli mamlakatlarda turlicha nomlanadi: AQSh, Angliya, Italiya, Yaponiyada - munitsipalitet, Frantsiyada - kommuna, Pol'shada - gmina va h.k.

Hozirgi paytda rivojlangan mamlakatlardagi o'zini - o'zi boshqarish organlarini saylovlar yo'li bilan barpo etish, ular faoliyatini moliyalashtirish, fuqarolarni o'zini-o'zi boshqarishda, siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonidagi ishtiroki, mazkur organlarning aholi ijtimoiy - iqtisodiy ahvolini yaxshilashdagi o'rni yuksak maqomga ko'tarilgan.

O'zbekiston Respublikasida mahalliy o'zini-o'zi boshqarish tizimiga kelsak, uning tashkil etilishi va faoliyati boshqa davlatlarning mahalliy (munitsipal) tizimidan bir qator jihatlari bilan farq qiladi.

O'zbekistonda mahalliy o'zini-o'zi boshqarishning asosini:

- a) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi;
- b) O'zbekiston Respublikasi qonunlari va boshqa qonun hujjatlari;
- v) mahalliy hokimiyat organlarining hujjatlari tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XXI bobi mahalliy davlat hokimiyati asoslari masalalariga bag'ishlangan. 99-moddada viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo'ysunmaydigan shaharlardan, shuningdek shahar tarkibiga kirgan tumanlardan tashqari) hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo'lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatini ko'zlab o'z vakolatlariga taaluqli masalalarni hal etishlari qayd etilgan. Joylarda hokimiyatning taqsimlanish printsipiga asosan ikki mahalliy hokimiyat organlarini: vakillik va ijro etuvchi organlar faoliyat ko'rsatadi. Ular o'z faoliyatini yakkaboshchilik asosida amalga oshiradilar. Hokimlik instituti milliy an'analaridan kelib chiqib tashkil etilgan. 1991 yil 18 noyabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining "O'zbekiston poytaxti - Toshkent shahrining maqomi va uni boshqarish tizimi to'g'risida"gi Qaroriga asosan Toshkent shahrida vakillik va ijro etuvchi hokimiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan Hokimlik instituti tashkil etildi. 1992 yilning boshida bunday amaliyot butun respublikada amalga joriy etildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, hokim viloyat, tuman, shaharning oliy mansabdor shaxsi hisoblanadi. U tegishli hududdagi vakillik va ijro etuvchi hokimiyatni boshqaradi. Xalq deputatlari Kengashlari sessiyasini tayyorlash ishiga rahbarlik qiladi, sessiyalarni

chaqiradi, uning ishini boshqaradi, bo'lajak sessiya haqida xabar beradi, shuningdek sessiyada qabul qilingan qarorlarni imzolaydi.

Xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo'lib, fuqarolar mazkur organlarga o'z vakillari-deputatlarni saylaydilar. Mazkur deputatlar o'z saylovchilari olgan vakolatlarga muvofiq, ularning nomidan ish ko'radilar.

Konstitutsiyaning 100-moddasida mahalliy hokimiyat organlari ixtiyoriga kiradigan masalalar qayd etilgan. Mazkur moddada mahalliy hokimiyat organlarining umumiy majburiyatlari aniq belgilab qo'yilgan. Mahalliy hokimiyat organlari ixtiyoriga qo'yidagilar kiradi: qonunchilikni; huquqiy tartibotni va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash; hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish; mahalliy byudjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig'irlarni belgilash, byudjetdan tashqari jamg'armalarni xosil qilish, mahalliy kommunal xo'jalikka rahbarlik qilish, atrof-muhitni muhofaza qilish, fuqarolik holati aktlarini qayd etishni ta'minlash, me'yoriy hujjatlarni qabul qilish hamda O'zbekiston Konstitutsiyasiga va O'zbekiston Respublikasi qonunlariga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni amalga oshirish. Bu vazifalarni mahalliy hokimiyatning ijro etuvchi va vakillik organlari birgalikda bajaradilar. Ko'rinib turibdiki, xalq deputatlari mahalliy kengashlari davlat hokimiyatining vakillik idorasi bo'lib, hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga rahbarlik qiladi.

8.2. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda o'zini-o'zi boshqarish tizimining shakllanishi uni bosqichma-bosqich isloh qilish yo'llari.

Mahalla o'zini-o'zi boshqarishning asosiy bo'g'ini. Mahalla-O'zbekistonda ma'muriy-hududiy birlik, o'zini-o'zi boshqarishning xalqimiz an'analari va qadriyatlariga mos bo'lgan usuli.

Mahalla (arabcha "mahalla"-joy, o'rin, makon)-O'zbekistonning muayyan tarixiy sharoitlarda, asrlar davomida shakllanib, faoliyat kursatayotgan, aholi yashaydigan ma'muriy-hududiy birlik-uyushma. Mahalla turli mintaqalarda mahallot (joy), guzar, jamoa, elat, elod nomlarda aytilib kelingan. Adabiyotlarda mahallalarning ko'p ming yillik tarixga ega ekanligi haqida ma'lumotlar borligi ta'kidlanadi. Masalan, Narshaxiy o'zining "Buxoro tarixi" asarida Buxoroda bundan 1100 yil ilgari bir qancha mahallalar qayd etib o'tilgan. Alisher Navoiy o'zining "Xayrat ul-abror" asarida mahallani "Mahalla-shahar ichidagi shaharcha"lar deb ta'riflaydi. Hirot shahri yuz shaharcha ahamiyatiga ega bo'lgan mahallalardan tashkil topganligini aytib o'tadi. Mahallalar ayniqsa, Amir Temur davrida ravnoq topgan. Mahallalar fuqarolarning kasb-kori asosida shakllangan va shunga qarab nomlangan. Masalan, zargarlik, misgarlik, ko'ncilik, pichoqchilik, qo'shiqchilik, temirchi, egarchi, taqachi, o'qchi, professorlar shaharchasi, shifokorlar shaharchasi, talabalar shaharchasi va hokazolar.

Mahallalar kichik ma'muriy hudud bo'lishi bilan birga, turmush tarzi, qadriyatlar, an'analar, urf-odatlar umumiyliги bilan bog'langan kishilar jamoasi birligidir. Tarixning turli bosqichlarida, tizimlar biri ikkinchisi bilan almashgan davrlarda mahallaning vazifasi o'zgarib turgan bo'lsada, uning asl mohiyati: marosimlarni birgalikda o'tkazish, o'z hududini batartib saqlash va obodonlashtirish, yosh avlodni ijtimoiy ruhda tarbiyalash, jamiyat hayotida tartib saqlashni ta'minlash, barcha an'anaviy me'yorlarning bajarilishi ustidan nazorat o'rnatish, urf-odatlarga rioya qilish va ularni buzgan, jamoat majburiyatlaridan bo'yin tavlaganlarni jazolashdan iborat vazifasi saqlanib qolavergan.

Demak, mahalla bo'lib birlashib, uyushib yashash arablar istilosigacha yoki Islom dini qabul qilinishidan ancha ilgari paydo bo'lgan. Mahallada odamlar faqat qo'shnichilik munosabalarigina emas, balki ming yillar mobaynida shakllangan o'ziga xos ichki tartib-qoida, ma'naviy, axloqiy normalar, aniq intizom, urf-odat va an'analar bilan bog'langan.

"Mahalla kamdan-kam mamlakatda mavjud bo'lgan noyob idora,—deydi Prezidentimiz 2006 yili Toshkentda olib borilgan bunyodkorlik va obodonchilik ishlari bilan tanisha turib,—bu maskan

milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylashda, elyurtimiz tinchligi va osoyishtaligini mutahkamlashda, yoshlarimizni komil insonlar etib tarbiyalashda muhim rol o'ynab kelmoqda"¹.

Har bir mahalla tashkiliy tuzilmaga ega. Mahallalar faoliyati ularning raislari, maslahatchilari, faollarining har kunlik faoliyatlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Mahalla qoshida to'y marosimlarini o'tkazish, xotin-qizlar, yoshlar, urush va mehnat fahriylari bilan ish olib boruvchi, jamoat tartibini saqlash, obodonlashtirish, turar joy fondlarini saqlash va hokazolar bo'yicha komissiyalar tuziladi.

Mahalla rahbariyati 2,5 yilga saylanadi va har yili aholi oldida hisobot beradi. Joriy masalalarni hal etish uchun mahalla maslahatchilari, faollari oyda bir marta yig'iladi. Endilikda fuqarolarning o'zini - o'zi boshqarish organlari yuridik shaxs maqomiga ega bo'lib, belgilangan namunadagi muhrga ega hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarida ro'yxatga olinadi.

Demak, jamiyat manfaatlari bilan har bir alohida olingan fuqarolar va ular oilasi manfaatlari kesishgan joy-bu mahalladir. Unda o'ta qiziqish va ehtiyojlardan tortib, har bir oilaning moddiy va ma'naviy ehtiyojlari uyg'unlashadi. Shu bois ham barcha muammo va ularning echimlari kaliti mahalladan izlanadi. Prezidentimizning mahalla-haqiqiy demokratiya darsxonasidir degan, nurhikmat iborasining asl ma'nosi ham shunda. O'zini- o'zi boshqarishning milliy modeli bo'lgan mahalla xalqimizning azaliy udumlari, urf-odatlar, demokratik an'analari, oilani mustahkamlash borasidagi o'lmas qadriyatlari bilan erkin fuqaro tarbiyasida muhim rol o'ynaydi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, mahallaning keng faoliyat ko'rsatishlari uchun sharoitlar yaratildi. Nima uchun mamlakatimizda mahalla masalasiga shunchalik e'tibor berila boshlandi? Ushbu savolga Prezident I.A.Karimovning quyidagi so'zlari bilan javob berish o'rinli deb hisoblaymiz: "o'zbek farzandi dastlabki jamiyat tarbiyasini aynan mahallada oladi. Uning tafakkuri ko'pchilik ichida, qo'ni-qo'shnilarining yaxshi-yomon kunlarida birga bo'lish orqali shakllanadi. O'zidan kattalarning muomalasi, yurish-turishi, odob-axloqi, o'zaro oqibatiga qarab harakat qila boshlaydi.

Mahallamizda tong sahardan suv sepilishi, tanish-tanishmaslardan qat'iy nazar, odamlarning bir-biriga ezgi-tilak bilan salom berishi, oqsoqollarning yoshlar umriga baraka tilab duo qilishining o'zi katta tarbiya maktabidir.

Eng muhimi, ko'pchilik ichida yashash, insondan nafsni tiyishni, atrofdagilarning o'zi haqidagi, fikri bilan hisoblashib, ular kechirishini talab etadi"².

O'zbek mahallalarida qadimdan mavjud qonunlar qamrab olmagan qoida va tartiblar ishlab chiqilgan va shakllangan. Ana shu qoidaga va tartiblarga shu mahallada yashovchi har bir kishi amal qilishi zarur.

Bu borada Prezidentimizning yana bir fikrlarini keltirish o'rinlidir: "Mahallaning har qanday masalani echishga qurbi etadi. Nega deganda, eng adolatli muhit, eng adolatli ijtimoiy sharoit, vaziyat faqat mahallada bo'lishi mumkin. Har bir korxona, hech bir davlat idorasi yoki jamoat tashkiloti bu borada mahalla bilan tenglasha olmaydi. U erda hayot tajribasi katta, zaminga yaqin, ko'pni ko'rgan, barcha ishni joy - joyiga quya oladigan fidoyi odamlar yashaydi va ishlaydi"³.

Oqsoqollar mahallada eng hurmatga sazovor kishilar bo'lib, ular o'zlari yashayotgan mahallaga dog' tushirmaslik uchun har bir yoshu-qari o'rtasida o'zlarining, axloq-odobiga oid tarbiyaviy fikrlarini bildirib kelgan.

Mahallada insoniylik, odamiylik qadriyatlari saqlanib kelinmoqda. Mahalla ahli o'rtasida bag'rikenglik, keksalarga hurmat va ehtirom bilan qarash qadimdan avlod-ajdodlarimizdan bizgacha etib kelgan buyuk qadriyatlardir.

SHuni alohida ta'kidlash joizki, mahallada jamoatchilik fikrining kuchi g'oyat katta. SHundan kelib chiqib, mahallada yashovchi har bir yoshu - qari mahalladagi qonun-qoidaga itoat etadi. Bu tartib qoidalar quyidagi axloqiy, estetik tamoyillarga suyanadi:

¹ Karimov I.A. Barqarorlik va bunyodkorlik taraqqiyotning qo'sh qanoti. "Xalq so'zi" gazetasi, 2006 y. 5 anrel

² Karimov I.A. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T-7.-T.: "O'zbekiston", 1999, 22-23-betlar.

²² .Miralinov Sh. Mahalla mehri. T. 1994. 38-bet

- Mahallada yashovchi aholi o'rtasida oilalarning inoq yashashi va mustahkam bo'lishi, er-xotinlarni ajrashishi xollarining g'oyat kam bo'lishi;
- mahalla ko'chalarini gulzor va daraxtzor, salqin, ozoda, darvoza va devorlari suvalgan, oqlangan bo'lishi;
- mahalla aholisi o'rtasida o'g'ri, ishsiz, ko'chada sanqib yuradigan bezori yoshlarning bo'lmasligi;
- to'y va o'lim marosimlarini o'tkazishda, xasharlar uyushtirishda mahalla ahlining bir-biriga yordam berishi;
- shu mahallalarda ziyoli, o'qimishli kishilarning ko'p bo'lishi;
- mahalla aholisi o'rtasida oriyat, nomusning kuchliligi;
- islomiy va umumbashariy qadriyatlarga amal qilinishi kabi ma'naviy, madaniy, axloqiy yuksak tamoyillardan iboratdir.

Mamlakatimizning rivojlanish strategiyasi, islohotlarni chuqurlashtirish va jamiyatni yangilash borasidagi faoliyatimizda mahallalarning roli qanday va ularning oldida qanday vazifalar turadi:

- aholining davlat va jamiyat ishlarida faol ishtirokini ta'minlash;
- kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilishda ishtirok etish;
- eng muhim vazifa-mahallada yashovchi har bir shaxsning ongi, dunyoqarashi, ma'naviy kamolotini oshirish;
- shu bilan birga maxalliychilik, millatchilik, diniy ekstremistik, terroristik g'oyalardan aholini saqlash;
- milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analarni rivojlantirish, aholini Vatanga, davlatga muhabbatini uyg'otish.

Hozirgi kunda mahallalarning rolini oshirishga qaratilgan bir qator vazifalar belgilangan:

birinchidan, davlat hokimiyati bo'g'inlarining boshqaruv jarayonidagi faoliyatini takomillashtirish, ularning yuqoridan ko'rsatmalar kutib faoliyat ko'rsatishga moyilligidan tezroq qutulish;

ikkinchidan, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish idoralarining o'rni va nufuzini oshirib borishga erishish, ular faoliyatiga mahalliy hokimiyat organlarining aralashuvini cheklash kabi juda katta vazifalar mavjud.

Bu vazifalarni amalga oshirishda, ayniqsa aholining o'zini-o'zi boshqarish insitutlaridan biri bo'lgan mahallaning roli oshib borishi uchun imkoniyatlar yaratish katta ahamiyatga molikdir. Birinchi galda, uning avlod -ajdodlarimizdan bizgacha etib kelgan qadriyatlarni rivojlantirish borasidagi vazifasi beqiyos ahamiyatga ega. Mahalla o'zini-o'zi boshqarish insitutining eng maqbul vositasi sifatida, hokimiyat idoralari bilan hamkorlik qilgan holda, tashabbuskorlik ko'rsatishi va jamiyat hayotiga ta'sir o'tkazishga qodir bo'la oladigan insitutga aylanishi, fuqarolik jamiyatini shakllantirishning eng asosiy sharti ekanini ham e'tibordan chetda qoldirmasligimiz lozim bo'ladi.

Demokratik rivojlanish jarayonida mahalla insituti rolining oshib borayotgani millatimiz mintalitetiga xos bo'lgan xususiyat bilan bog'liqdir. Xalqimizning "Otang-mahalla, onang-mahalla" degan hikmatni o'z qadriyatiga aylantirgani bejiz emas. YA'ni, xalqimiz o'z turmushini va hayot mazmunini mahallasiz tasavvur eta olmaydi. Mana shu omil demokratik jarayonlar rivojida mahalla imkoniyatidan foydalanish zaruratini kuchaytirmoqda. Ana shuning uchun ham Prezidentimiz O'zbekiston Respublikasi Konsituttsiyasining 10 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan nutqida 2003 yilni "Obod mahalla yili" deb e'lon qilish taklifini kiritdi va u xalqimiz tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek "Obod mahalla deganda xalqimiz, millatimiz nafaqat ko'rkam, chiroyli, shu bilan birga, aynan tinchlik va osoyishtalik, o'zaro mehr-oqibat, ahillik, qut-baraka hukumron bo'lgan joylarni tasavvur qiladi. SHu nuqtai nazardan qaraganda mahalladek noyob tizim haqida ortiqcha gapirib o'tirishga hojat yo'q".

Nega deganda, har qaysi inson har qaysi xonadon hayotida, davlat va jamiyat boshqaruviga, odamlarning boshini qovushtirish, turar joylarda tartib-intizomni mustahkamlashda, o'zini-o'zi

boshqarish tizimini joriy qilishda mahallaning roli, ahamiyati va mohiyati kundan-kunga oshib borayotganini barchamiz ko'rib turibmiz.

Mahallaning imkoniyatlarini yana ham kengaytirib borish bugungi kunimizning dolzarb vazifasi hisoblanadi. Prezidentimiz bu masalada fuqarolik insitutlari o'zini-o'zi boshqarish organlarini rivojlantirish uchun eng maqbul tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni ya'ni tegishli qonunchilik asoslarini shakllantirish, tashkiliy-texnikaviy, moddiy sharoit yaratish lozimligini ta'kidlaydi.

Konstitutsiyaning 105-moddasida shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek ular tarkibidagi mahallalarda o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyatining asosiy qoidalari belgilangan. Shaharcha, qishloq va ovullardagi avvalgi davlat hokimiyatining vakillik organlari davlat hokimiyati tizimidan chiqarildi va ularga mahalliy o'zini-o'zi boshqarish maqomi berildi. Mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organi fuqarolarga ularning jamiyat va davlat boshqaruvida ishtirok etish konstitutsiyaviy huquqini ro'yobga chiqarishga, o'z hududida ijtimoiy va xo'jalik vazifalarini hal etishga ko'maklashadilar, ommaviy sog'lomlashtirish tadbirlarini o'tkazadilar, Respublika qonunlari, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, mahalliy deputatlar Kengashlari va hokimlarning qarorlarini muvofiq ravishda amalga oshirish jarayonida tegishli hokimiyat organlariga yordam beradilar.

O'zbekistonda o'zini-o'zi boshqarish va mahalliy hokimiyatlar rolini takomillashtirish asosida mamlakatda demokratik jarayonlarni chuqurlashtirishni maqsadida Oliy Kengashning 1993 yil sentyabrda qabul qilingan «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonuni alohida ahamiyatga ega. Tub islohotlar davrining eng muhim va dolzarb talablariga muvofiq tarzda yuzaga kelgan Ushbu qonun ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy hayotimizda katta voqea hisoblanadi. Ushbu qonunning 1-moddasida o'zini-o'zi boshqarish organlari jamiyat va davlat ishlarini bajarishda qatnashishga doir o'z huquqlarini ro'yobga chiqarishda fuqarolarga ko'maklashadi, o'z hududlaridagi ijtimoiy va xo'jalik masalalarini hal etish, ommaviy-madaniy tadbirlar o'tkazish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga O'zbekiston Respublikasi qonunlarini, mamlakat hukumatining qonunlarini bajarishda yordamlashadi.

Fuqarolar yig'ini vakolatlari kengaytirildi. Ular qonunning 17 - moddasiga muvofiq, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan kelishgan holda savdo, umumiy ovqatlanish va aholiga madaniy - maishiy xizmat ko'rsatish korxonalarining ish vaqtini aholiga qulay holda belgilashlari, ma'muriy komissiya tashkil etishlari mumkin. Bu mamlakatda fuqaro faolligini oshirish, shu asosda o'z turmishini yo'lga qo'yish va jamiyat umumiy qiyofasini shakllantirish imkonini berdi.

O'zbekiston Prezidentining mamlakat «Mahalla hayriya jamg'armasini tashkil etish to'g'risida»gi 1992 yil 12 sentyabrdagi hamda mamlakat «Mahalla hayriya jamg'armasiga mablag' ajratish to'g'risida»gi 1992 yil 8 oktyabrdagi, shuningdek 1999 yil noyabrdagi Respublika Mahalla Kengashini tashkil etish to'g'risidagi farmonlari katta siyosiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'ldi. Ayni paytda mahalla qumitalari o'z hududlarida istiqomat qiluvchi kambag'al oilalarga, nogironlarga, yolg'iz keksalarga moddiy yordam berish hamda aholini ijtimoiy himoya qilish borasida keng miqyosli ishlarni olib bormoqda. Respublika Mahalla Kengashi tarkibiga eng katta nufuzli oqsoqollar va mahalla fuqarolari hamda «Mahalla jamg'armasi» viloyat bo'limlarining vakillari kiritildi.

Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari huquqiy asosini shakllantirish va takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qator farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilingan.

Mamlakatimizda bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan islohatlar va milliy taraqqiyot talablaridan kelib chiqib, 1999 yil 14 aprelda «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonun yangi tahrirda qabul qilindi.

Mazkur qonun fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyatida tub burilish yasadi. Qonunning 7-moddasiga asosan fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari davlat hokimiyati tarkibiga kirmaydi deb to'g'dan-to'g'ri belgilab qo'yildi. Bu qonunda mahallalar bajarilishi zarur bo'lgan an'anaviy vazifalar bilan bir qatorda yangi vazifalar yuklatilgan. U o'z hududida savdo va maishiy xizmatni, sanitariya va ekologik holatni nazorat qilishga ko'maklashadi, yong'in xafsizligi,

turar joy fondini saqlash aholidan soliq va majburiy to'lovlarning o'z vaqtida tushishini ta'minlashga yordam beradi.

Bugungi kunda Respublikamizda mahallalarning umumiy soni 9941 tani tashkil etadi. SHu jumladan 1629ta - shaharchalar, qishloqlar va ovullar fuqarolar yig'ini, 1887ta - ular tarkibidagi mahallalar fuqarolar yig'ini hamda 2278 ta-shaharlardagi mahallalar fuqarolar yig'inidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 10 martdagi PQ - 24 sonli «Jamiyatni demokratiyalashtirish va yangilash, mamlakatni isloh qilish hamda modernizatsiyalash maqsad va vazifalarini amalga oshirish dasturi to'g'risida»gi Qarorida davlat qurilishi va boshqaruvi, qonun chiqaruvchi hokimiyatning roli va ta'sirini ko'chaytirish sohasida islohotlarning ustivor yo'nalishlarini amalga oshirish Konstitutsiyaga ko'ra, fuqarolarning o'zini - o'zi boshqarish organlarining roli va vakolatlarini kuchaytirish maqsadida ularga davlat tomonidan yordam berish shakllarini tartibga solish, joylarda ijtimoiy-iqtisodiy hamda boshqa muammolarni hal qilish uchun ularning huquq va vakolatlarini kengaytirishni nazarda tutuvchi takliflarni ishlab chiqish, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyatiga davlat yordamini kuchaytirishga doir tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqish va amalga oshirish belgilangan.

2006 yilning 4 aprelida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati kengashining «Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va ularning maslahatchilari saylovi to'g'risida»gi Qarori e'lon qilindi.

Ushbu qarorda qayd etilganidek, o'zini-o'zi boshqarish organlarining rahbarlari saylov yo'li bilan belgilanadi. Mahalla rahbarlarini saylash O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasida quyidagicha belgilab qo'yilgan: «Shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek, ular tarkibidagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'zini-o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular 2,5 yil muddatga raisni va uning maslahatchilarini saylaydi». «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi yangi tahrirdagi Qonunda fuqarolar yig'ini raisi tegishli tuman, shahar hokimi bilan kelishilgan holda, maslahatchilar esa fuqarolar yig'ini raisining taqdimiga binoan saylanadi.

2011 yil mayr-iyun oylarida O'zbekistonda bo'lib o'tgan fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga saylovlar yuqorida nomlari zikr etilgan qaror va qonunlarga to'liq rioya etilgan holda uyushqoqlik bilan o'tkazildi. Saylovlarda 12 mln.ga yaqin fuqarolar qatnashdilar. Bu ko'rsatgich mamlakat katta yoshli aholisining qariyb 90 foizini tashkil etdi. Fuqarolarning 9641 yig'inida, shu jumladan, 1556 ta shaharcha, qishloq va ovul yig'inlarida, qishloqlardagi 4151 mahallalar va shaharlardagi 2133 mahallalar yig'inlarida, shuningdek jamoatchilik asosida faoliyat ko'rsatayotgan 1782 mahalla fuqaro yig'inlarida saylovlar bo'lib o'tdi.

Mamlakatdagi o'zini-o'zi boshqarish organlarining 9641 ta yig'inlari oqsoqoli rahbarligiga ishchi guruhi tomonidan tavsiya etilgan 22000 nafar nomzod orasidan tanlab olinishi saylovlarni muqobilik asosida o'tishiga va fuqarolar oqsoqolligi va raisligiga munosib nomzodlarni saylanishiga imkon yaratdi.

O'zini-o'zi boshqarish organlariga bo'lgan saylovlar natijasi shuni ko'rsatdiki, bu saylovlar aholining keng qatlamlari uchun ijtimoiy-siyosiy faollik bag'ishladi va o'ziga xos demokratiya maktabi vazifasini ham o'tadi.

2006 yil fevral-mart oylarida Buxoro va Namangan viloyatlarida o'tkazilgan jami 523 nafar respandentlarni qamrab olgan, mahallalarning roli va vakolatlarini kengaytirish, uning tom ma'nodagi fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish institutiga aylanishi uchun zarur bo'lgan barcha sharoitlar yaratilayotganligi, shunday bo'lsada, «Fuqarolarning o'zini - o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonunni takomillashtirish lozim deb so'ralganlarning 87 foizi ijobiy fikr bildirdilar. SHu jumladan fuqarolar yig'inlari raislari-95 foiz, tadbirkorlar-89 foiz, fuqarolar-87 foiz va mahalliy davlat hokimiyati vakillari-38 foizni tashkil etishdi. Yuqorida aytilganlarga xulosa sifatida shuning ta'kidlash lozimki, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarini rivojlantirish shunchaki maqsad emas, balki jamiyat va davlat hayotining barcha sohalari taraqqiyoti uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan zaruriyatdir.

Mustaqillik yillarida qabul qilingan tegishli qonunlar, mamlakat Prezidentining bir qator farmon va qarorlari mahallalarda faoliyat yuritayotgan fuqarolar yig'inlari va ularning

saylanadigan organlari– kengashlarning huquqlari, vakolatlari va burchlari kengayishiga xizmat qildi. Tegishli hududlarda turmush tarzini yaxshilash, infratuzilmalarni rivojlantirish, kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, hamda tartibotni saqlash, ma'naviy va axloqiy tarbiya kabi masalalarni hal etishda o'zini - o'zi boshqarish organlarining roli sezilarli o'sdi. Fuqarolar yig'inlariga ba'zi nazorat funktsiyalarining berilishi, ya'ni ularning o'z yig'inlarida viloyat, tuman va shahar hokimiyati rahbarlarining tegishli vakolat doirasida har chorakda hisobotlarini eshitishi huquqi ham qonuniy jihatdan mustahkamlab qo'yildi.

8.3. Nodavlat, notijorat, jamoat birlashmalari va ko'ppartiyaviylik tushunchalarining mfi'no-mazmuni hamda ular faoliyatlari huquqiy asoslarining yaratilishi.

Mamlakatimizda bugungi kunda ijtimoiy - iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy - ma'rifiy sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar fuqarolik jamiyati asoslari bo'lmish demokratik institutlarning tashkil etilishi, faoliyati va rivojlanishi uchun xizmat qilmoqda.

Fuqarolik jamiyatining muhim institutlaridan biri nodavlat notijorat tashkilotlaridir. Hozirgi kunda mamlakatimizda 5 mingdan ortiq nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyat ko'rsatmoqda.

Nodavlat notijorat tashkilotlar dastlab jamiyatni o'zini-o'zi boshqarish asosida, ya'ni fuqarolik jamiyatini mustaqil ijtimoiy borliq sifatida yashashni ta'minlash ehtiyojlari va manfaatlari negizida paydo bo'ldi. XX asrga kelib nodavlat notijorat tashkilotlar fuqarolik jamiyatining muhim va asosiy insitutlaridan biriga aylandi.

Hozirgi davrda fuqarolik jamiyatini shakllantirish, huquqiy davlat qurish vazifalari nodavlat notijorat tashkilotlarni rivojlantirish ehtiyojlarini davr kun tartibiga qo'ymoqda. Fuqarolik jamiyati sharoitida fuqarolarning turli-tuman o'zaro munosabatlari va hamkorligi, ularni ixtiyoriy ravishda jamiyat boshqaruvida ishtirok etish jarayonlari asosan nodavlat tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi. Davlat bilan jamiyatning bir-biridan begonalashmasligi ham nodavlat tashkilotlari faoliyatining rivojlanishi bilan bog'liqdir.

Nodavlat notijorat tashkilotlar to'g'risida tasavvurga ega bo'lish uchun avvalo manfaatlar, shuningdek, ijtimoiy va siyosiy manfaatlar tushunchalariga aniqlik kiritishga ehtiyoj seziladi.

Ma'lumki, manfaatlar individlar va guruhlarining ijtimoiy xatti-harakatlarini belgilovchi sababdir. Ijtimoiy guruhlarini birlashishga, xulosa qilishga undovchi kuch bu ularning manfaatlaridir. Manfaatlar alohida ijtimoiy guruhlarining manfaatlari sifatida shakllangan bo'lsada, bu guruhlarining a'zolari faqat mazkur bir guruhning emas, balki bir vaqtning o'zida boshqa ijtimoiy guruhlarining ham a'zosi bo'lishi mumkin.

Fuqarolarning ma'lum ijtimoiy guruhiga mansubligidan kelib chiqib, nodavlat notijorat tashkilotlarga uyushishi natijasida manfaatlar uyg'unlashuvi ro'y beradi.

Institutlashgan ijtimoiy guruhlar shaklini olgan manfaatlar guruhlari turli mamlakatlarda ularning tarixiy tajriba va an'analardan kelib chiqib, turlicha nomda ataladi. Masalan, AQSHda manfaatlar guruhlari fuqarolik insitutlari, volonterlar tashkilotlari, umumiy manfaatlar guruhlari, bosim o'tkazish guruhlari deb atalsa, G'arbda nodavlat notijorat tashkilotlari, xayriya tashkilotlari, jamg'armalar kabi nomlar bilan ataladi.

Shuningdek, AQSh va G'arb sotsiologiyasida esa bu tashkilotlar, "Manfaatlar guruhlari" nomi bilan keng tarqalgan. O'zbekistonda esa mustaqillikning ilk davridan boshlab bu tashkilotlar jamoat tashkilotlari, nodavlat notijorat tashkilotlar ijtimoiy tashkilotlar, jamg'armalar, uyushmalar kabilar bilan ommalashgan. Bular fuqarolik jamiyati institutlari deb ham nomlanadi.

Malakatimizda demokratik institutlar tizimini parlament-Oliy Majlis, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombutsman), Inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Amaldagi Qonun hujjatlari monitoring instituti, Ijtimoiy fikr jamoatchilik fikrini o'rganish markazi, jamoat birlashmalari, nodavlat notijorat tashkilotlari, siyosiy partiyalar, referendum, saylovlar, fuqarolarni o'zini-o'zi boshqarish organlari kabilar tashkil etadi.

Fuqarolik jamiyati institutlari maqsad va vazifalarining asosiy yo'nalishi mamlakatimizda demokratik qadriyatlar va tamoyillar, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iboratdir. Fuqarolik institutining asosiy tashkiloti-bu nodavlat notijorat tashkilotlaridir.

Nodavlat notijorat tashkilotlar jamiyatda mavjud bo'lgan barcha manfaatlarni qamrab olib, ularni ifodalagandagina, ular o'z maqsadlarini samarali bajaradilar. Jamiyatda turlicha, jumladan, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy, milliy, mafkuraviy, madaniy, ekologik, hududiy, mintaqaviy, diniy, shuningdek yana o'nlab sohalarga doir manfaatlar mavjuddir.

Nodavlat notijorat tashkilotlar individlarining ixtiyoriy birlashmasidir. Ular siyosiy partiyalardan farq qilib, hokimiyatni egallash bilan shug'ullanmaydilar. Lekin ular hukumat va boshqa siyosiy tashkilotlarga ta'sir qilish uchun harakat qiladilar. Mafaat guruhlarining harakat usullari siyosiy organlarni ishontrish, maslahat berish, jamoatchilik fikrini shakllantirish siyosiy arboblarga ijtimoiy guruhlarining ehtiyojlarini etkazish, o'z manfaatlarini qondirish uchun tashkiliy tadbirlar o'tkazish bilan chegaralanadi.

Nodavlat notijorat tashkilotlarning funktsiyalari:

- nodavlat notijorat tashkilotlar tomonidan ma'lum bir ijtimoiy guruhning turli manfaatleri bir tizimga solinib, ularni keng jamoatchilikning xohish–rodasi sifatida davlat va hukumat organlariga etkazishi – siyosiy qarorlar qabul qilish uchun muhim ahamiyatga egadir;

- integratsiya qilish –(bir butunlikka birlashtirish):

- davlat, hukumat va partiyalarning turli darajalarda qarorlar qabul qilish uchun axborotlar to'plash va ularni etkazib berishdan iborat.

Shu bilan birga, nodavlat notijorat tashkilotlarini tuzishdan ko'zlangan asosiy maqsad bunday tashkilotlarning sonini yohud turini ko'paytirishdan iborat emas.

Ular, avvalo, fuqarolik jamiyati shakllanishi va ravnoq topishiga ko'maklashishi zarur. Ayni vaqtda jamiyatimizda mavjud turli manfaatlar, borinki, qarama–qarshi kuchlar va harakatlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydigan samarali mexanizm sifatida hayotimizning barqaror va mustahkam taraqqiyotini kafolatlash yo'lida xizmat qilishi kerak.

Mustaqillik yillarida nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining huquqiy asoslari yaratilgani katta ahamiyatga ega bo'ldi. “Nodavlat notijorat tashkilotlari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to'g'risida” Qonun qabul qilindi. Ommaviy axborot vositalari, jurnalistik faoliyatini himoya qilish, axborot erkinliklari printsiplari va kafolatlari to'g'risidagi qonunlarning kuchga kirishi katta ijtimoiy - siyosiy ahamiyat kasb etdi.

2006 - 2009yillar davomida qonunchilik va amaliy darajada qabul qilingan, turli xalqaro va xorijiy nohukumat va notijorat tashkilotlar, fondlarning O'zbekistondagi faoliyatini tartibga soluvchi va ular tomonidan mamlakatdagi fuqarolik jamiyati institutlarini moliyalashtirish tartibiga oid chora–tadbirlarning ishlab chiqilganligi ularning “Inson huquqlari” va “Xayriya” kabi sohta va qalbaki shiorlar ostidagi faoliyati bilan jamiyatimizda beqarorlikni yuzaga keltirish vaziyatni keskinlashtirish, “sohta demokratik ekspansiya”ni hayotga tatbiq etishlariga samarali to'siq bo'lib hisoblanadi.

2005 yilda O'zbekiston Nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi tuzildi. Ushbu assotsiatsiya ixtiyoriylik, erkinlik va tenglik asosida tuzilgan bo'lib, maqsadi mamlakatimizda demokratik tamoyillarning hayotga tatbiq etilishini rag'batlantirish, respublika nodavlat notijorat tashkilotlarining huquq va manfaatlarini ifoda etish, ularni himoya qilish, hamda har tomonlama qo'llab–quvvatlash, demokratik kuchlarni birlashtirishdan iboratdir. Assotsiatsiya xuzurida O'zbekiston Nodavlat notijorat tashkilotlarini ko'llab quvvatlash fondi tuzildi. Yangi fond, yuridik maqomga ko'ra, a'zoligi bo'lmagan xayriya nodavlat notijorat tashkilotidir.

Endi jamoat birlashmalari va tashkilotlari xususida: Jamoat birlashmalari O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirishda, demokratik qadriyatlarni qaror toptirishda, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishda muhim ahamiyatga egadir.

Hozirgi kunda jamoat tashkilotlariga oid qonunchilik muayyan tizimini tashkil etadi. “O'zbekiston Respublikasi Jamoat birlashmalari to'g'risida”gi Qonun qabul qilindi. 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 56–62 moddalaridan iborat XIII–bobi aynan jamoat birlashmalariga bag'ishlandi. Konstitutsiyaning 56–moddasida: “O'zbekiston Respublikasida qonunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin - qizlar, fahriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari, jamoat

birlashmalari sifatida e'tirof etiladi" deb belgilandi. SHundan so'ng 1992 yildan to 2004 yilgacha bo'lgan davr mobaynida bu sohada jamoat tashkilotlarning turli tashkiliy - huquqiy shakllariga taalluqli 9 ta mahsus qonunlar qabul qilindi. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

- 1). O'zbekiston Respublikasining "Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari tug'risida"(1992 y.);
- 2). "Siyosiy partiyalar to'g'risida" (1996 y.);
- 3). "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"(1998 y.);
- 4). "Uy - joy mulkdorlarining shirkatlari to'g'risida"(1999 y.);
- 5). "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida" (1999 y.);
- 6). "Fuqarolarning o'zini - o'zi boshqarish organlari to'g'risida"(1999 y.);
- 7). "Jamoat fondlari to'g'risida" (2003 y.);
- 8). "Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida"(2004 y.);
- 9). "O'zbekiston Respublikasi Savdo - sanoat palatasi to'g'risida"(2004 y.)
- 10). «Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini ko'chaytirish to'g'risida» (2007y.), qonunlari shular jumlasidandir.

Bundan tashqari 1996 yilda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksi"ning 73 - 78 moddalarini tijoratchi bo'lmagan tashkilotlarga bag'ishlangan bo'lib, aynan 74 - moddasida ma'naviy yoki o'zga nomoddiy ehtiyojlarni qanoatlantirish uchun o'z manfaatlarining mushtarakligi asosida qonunda belgilangan tartibda birlashgan fuqarolarning ixtiyoriy birlashmalari jamoat birlashmalari deb e'tirof etishi belgilandi.

Har bir davlatning faqat iqtisodiy jihatdangina rivojlanishi uning dunyo hamjamiyatida tutgan o'rnini belgilamaydi, shuning uchun ham o'z oldiga fuqarolik jamiyati barpo etishni maqsad qilib qo'ygan mamlakatlar siyosiy tizimni demokratik tamoyillar asosida shakllantirishlari tabiiy. Mamlakatimizda siyosiy tizimni demokratlashtirish jamiyatimiz taraqqiyoti hozirgi bosqichining dolzarb yo'nalishidir.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek,—"Hozirgi vaqtda biz huquqiy demokratik, bozor iqtisodiyotiga asoslangan davlat, hech kimdan kam bo'lmagan hayot qurish uchun kurashmoqdamiz. Bu hayotning siyosiy - ijtimoiy asoslari bo'lgan demokratiya tamoyillarini, ko'ppartiyaviylik muhitini mustahkamlash, partiyalar faoliyatini tashkil qilish va rivojlantirish bugungi hayotimizning eng muhim vazifasi, ertangi taraqqiyotimizning garovi bo'lib qolmoqda"¹.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mamlakatda ko'ppartiyaviylik va siyosiy xilma-xillik rivojlanishi uchun zarur bo'lgan siyosiy huquqlarning keng ko'lami ko'zda tutilgan. Konstitutsiyaning XIII-bob 60-modda, XVIII-bob 77-moddasi, XXIII-bob 117-moddasida va O'zbekiston Respublikasining "Saylovlar to'g'risida"gi Qonunida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, keng jamoatchilik muhokamasidan so'ng qabul qilingan "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi Qonun mamlakatda ko'ppartiyaviylikni rivojlantirishning huquqiy asosini yaratishda yana bir jiddiy qadam bo'ldi.

2004 yilning 30 aprelida "O'zbekiston Respublikasining Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida"gi Qonun qabul qilinishi bilan mamlakatimizda siyosiy partiyalar faoliyati uchun mustahkam moliyaviy zamin yaratildi. Demak, ko'ppartiyaviy tizimni yanada rivojlanishi uchun keng ufqlar ochildi.

Biz talabalarga shu holatni eslatib o'tmoqchimizki, jamiyatimizda nechta partiya bo'lmasin (5-10 ta, oz yoki ko'p) ular xalqimizni parchalab yuborish uchun emas, aksincha parlamentda baxslashib, tortishib xalqqa foydali fikr berish bilan jamiyat rivojiga o'z hissalarini qo'shsinlar.

Mustaqillik yillarida Respublikada ko'ppartiyaviylik tizim qaror topib, saylovlarni ko'ppartiyaviylik asosida o'tkazish oddiy bir demokratik qadriyatga aylandi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda beshta siyosiy partiya va "Xalq birligi" harakati mavjud bo'lib ular quyidagilar:

¹ Karimov I.A. Tadbirkorlar va ishbilarmonlar ijtimoiy qatlami O'zbekiston siyosiy maydonida o'z o'rnini egallashi lozim. T.: "O'zbekiston", 2003 yil 7-bet.

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi–1991 yil 1 noyabrda Toshkentda bo'lib o'tgan I (ta'sis) quriltoyida uning tuzilganligi e'lon qilinib, Dasturi va Nizomi qabul qilindi. Uning 13730 ta boshlang'ich tashkiloti bo'lib, a'zolarining soni 585200 tadan ortiq.

Uning dasturiy maqsadlari:

- milliy mustaqillikni mustahkamlash;
- tub iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy islohotlarni amalga oshirish orqali ravnaq topgan, qudratli, demokratik davlat, adolatni, insonparvar jamiyatni bunyod etish;
- kishilarning millati, siyosiy qarashlari, diniy e'tiqodlaridan qat'i nazar, munosib hayot kechirishi uchun teng imkoniyatlarni yaratish;
- fuqarolarning erkinligi va huquqlari, tinch hayot kechirishlarini kafolatlash.

Partiyadan Oliy Majlis Senatiga 3 ta, Qonunchilik palatasiga 26 deputat saylangan bo'lib ular o'z fraktsiyasiga ega.

“Adolat” sotsial–demokratik partiyasi–1995 yil 18 fevralda Toshkentda bo'lgan Ta'sis quriltoyida tashkil etilgan. Uning 3120 boshlang'ich tashkilotlari bo'lib, a'zolarining soni 50 mingdan ortiq.

Partiyadan Oliy Majlis Senatiga 2 ta, Qonunchilik palatasiga 10 ta deputat saylangan.

O'zbekiston “Adolat” sotsial–demokratik partiyasi o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'ygan:

- demokratik jarayonlarni jadallashtirish;
- fuqarolar siyosiy ongi va siyosiy madaniyatining rivoji uchun kurash;
- Vatanga sadoqat bilan xizmat qiladigan kishilarni tarbiyalash;
- ijtimoiy himoyaga muhtoj aholining muhofazasini ta'minlash;
- milliy qadriyatlarni tiklash;
- millatchilik g'oyalariga qarshi kurash olib borish;
- rivojlangan davlatlar bilan o'zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirish.

“Milliy tiklanish” demokratik partiyasi–1995 yil 3 iyunda bo'lgan Ta'sis quriltoyida tashkil etilgan. 70000 a'zosi bor bo'lib, 1000 dan ortiq boshlang'ich tashkilotlariga ega. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida 11 deputatli fraktsiyasi, Senatda esa 3 ta vakili faoliyat ko'rsatmoqda.

Partiyaning oliy maqsadi –Milliy tiklanish g'oyasini amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari:

- millatning ma'naviy birligi;
- farovon turmush va etuk shaxs tarbiyasi;
- kuchli demokratik davlat;
- milliy qadriyatlar;
- ilmiy–texnikaviy taraqqiyot va umumjahon integratsiyasi;
- zamon kishisi;
- milliy istiqbol.

O'zbekiston Liberal demokratik partiyasi 2003 yilning 15 noyabrda bo'lgan Ta'sis quriltoyida tashkil etilgan. Uning 7000 ortiq boshlang'ich tashkiloti bo'lib, a'zolari 140000 kishi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasida 41 ta deputatlik mandatiga hamda o'z fraktsiyasiga ega. Partiyaning 36 a'zosi Senatga saylangan.

Partiyaning asosiy maqsadi:

- tadbirkorlar va ishbilarmonlar uchun yangi imkoniyatlarni yaratish, ularning istiqbolini ham nazariy, ham amaliy jihatdan asoslab berish, jamiyatni mazkur qatlami manfaatlarini himoyalash va ertangi kunini ta'minlash;
- boshqa siyosiy partiyalar va harakatlar bilan hamkorlik;
- siyosiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda faol ishtirok etish;
- liberal–demokratik g'oya va qadriyatlarni keng omma ongiga singdirish, o'z saflarini kengaytirish.

“Xalq birligi” harakati–1995 yil may oyida O'zbekiston jamoatchiligining tashabbusi bilan tashkil qilingan. Asosiy maqsadi: demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurish uchun kurashda O'zbekistonda istiqomat qilayotgan barcha millatlar va elatlarni tenglashtirish.

O'zbekistondagi siyosiy partiyalarning mavqei hozirgi kunda etarli emas, ta'sir doirasi hali ko'p jihatdan yuzaki va tor. "Siyosiy partiyalarimizning, –deb ta'kidlaydi Prezident I.A.Karimov,– faoliyati hali–beri real hayot muammolaridan uzoq bo'lib turgani haqida ko'p chiqishlarimizda ilgari ham aytilgan"¹

«Ekologik harakat» 2008 yil avgust oyida tashkil topgan. Maqsadi O'zbekistonda atrof mo'hitni mo'hofaza qilish.

Ana shu holatlarning echimini topish uchun "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning roli to'g'risida" Konstitutsiyaviy Qonun 2007 yil 11 aprelda qabul qilindi. Unda siyosiy partiyalarning huquq va vakolatlari yanada kengaytirish, ularni Qonunchilik va davlat boshqaruvi idoralari faoliyatiga, mamlakatimizda olib borilayotgan ichki va tashqi siyosatga amaliy ta'sirini kuchaytirish yo'lida yangi imkoniyatlar ochildi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu qonun siyosiy partiyalarini hayotimizdagi roli va amaliy ta'siri keskin kuchayishining yaqqol isbotidir.

8.4. Mamlakatimizda xalqaro va xorijiy nodavlat tashkilotlari faoliyatlari hamda O'zbekistonda «Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari» kontseptsiyasi.

«Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari» kontseptsiyasining mohiyati qanday? Nima uchun kuchli jamiyat kuchli davlat shakllanishi va rivojlanishi negizida vujudga keladi? Masalani ana shu savollarning echimiga qaratsak. «Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari» kontseptsiyasi – bu mustahkam iqtisodiy asosga ega bo'lgan, demokratik qadriyatlar qaror topgan, ma'naviy - ma'rifiy yuksaklikka erishgan va boshqaruvning demokratik uslublari shakllangan davlatdan jamoat va nodavlat tashkilotlari hal qiluvchi o'rin tutadigan jamiyatchilik fikri, tashabbusi va davlat idoralari ustidan nazorati ustivor ahamiyat kasb etadigan, fuqarolarning o'zini–o'zi boshqarish idoralari rolini mutassil ortib boradigan jamiyatga o'tish demakdir.

Kuchli davlat deganda omma faoliyatiga asoslangan kuchli boshqaruv tizimiga, rivojlangan iqtisodiyot yuksak ma'naviyatga ega bo'lgan davlat nazarda tutiladi. Bunday davlat mustahkam iqtisodiy huquqiy va ma'naviy asosga ega bo'ladi. Uning qudrati fuqarolar hamjihatligi, jamiyatdagi do'stlik va bag'rikenglik, har bir fuqaroning onglilik darajasi, davlat boshqaruvidagi faol ishtirokiga asoslanadi.

Kuchli jamiyat–bu mustahkam negizning barqarorligi ta'minlangan, davlatning boshqaruvchilik faoliyati qisqarib, jamoat tashkilotlarining roli kuchaygan, fuqarolarning qonun asosida, ularning huquq va erkinliklari oliy qadriyatga aylangan jamiyat.

Kuchli jamiyatda, birinchidan, fuqarolarning siyosiy, huquqiy va ma'naviy madaniyati yuksaladi, ularning manfaatlari umumiyliqi qaror topadi; ikkinchidan, davlat hokimiyati va fuqarolar o'rtasidagi ishonch va hamkorlik mustahkamlanadi; uchinchidan, kuchli jamiyat degani davlatni zaiflashtirish yohud inkor etish degani emas, balki fuqaro va davlat o'rtasidagi hamkorlikni tobora kuchayib borishi, jamiyatning bugungi hayoti hamda istiqboli uchun ularning ma'suliyatini o'z zimmasiga olish darajasiga ko'tarish asosida erishiladigan taraqqiyot bosqichi tushuniladi.

Shu bilan birga, kuchli jamiyat sharoitida ham davlat jamiyat xavfsizligini ta'minlash, uning mudofaasi qudratini mustahkamlash, pul - kredit masalalari, fuqarolarning huquq va erkinligini ta'minlash, ishlab chiqarishning davlat hayoti bilan bog'liq bo'lgan strategik yo'nalishlarini rivojlantirishdagi vazifalari saqlanib qoladi.

Kuchli jamiyat kuchli davlat shakllanishi va rivojlanishining negizida yuzaga keladi. U jamiyatda va fuqarolar hayotida sodir bo'ladigan o'zgarishlarga mos ravishda evolyutsion tarzda takomillashib boraveradi.

Kuchli davlatdan kuchli jamiyatga o'tishning asosiy mezon hokimiyatning jamiyat taraqqiyotida ommaga suyanishi, ishonchiga ega bo'lish va u bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish

¹ "Xalq so'zi" gazetasi, 2006 yil 8 dekabr.

hisoblanadi. Prezidentimiz mamlakatimizdan kuchli davlatdan kuchli jamiyatga o'tish vazifasini kun tartibiga qo'yganda albatta, avvalo davlatning jamiyat hayotiga ijobiy ta'siri pasayishigina emas, balki uning bu boradagi hamkorligini mustahkamlash, ko'pgina funktsiyalarni nodavlat va jamoat tashkilotlariga bosqichma - bosqich o'tkazib borish orqali ta'minlashni nazarda tutadi.

Kuchli davlat negizida shakllanadi va hukumatning mamlakat ichkarisidagi ko'pgina faoliyati cheklanib, u fuqarolarning qo'liga o'tadi va ularning davlat faoliyatini nazorat qilish to'liq ta'minlanadi. Uni evalyutsion tarzda amalga oshirishni Prezidentimiz quyidagicha ifoda etadi; "Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari" degan tamoyilni amalda hayotga joriy etish ijtimoiy - iqtisodiy jarayonlar bilan bog'liq ko'p masalalarni hal qilishda davlat tizimlarining rolini kamaytirish va bu vazifalarni bosqichma-bosqich jamoat tashkilotlariga o'tkaza borishni taqozo etadi¹.

Shu bilan birga bu jarayonlar rivojlanishda bo'lsa, davlatning roli va mavqei tushib ketmaydimi yoki davlat bunday sharoitda qaysi sohalarida faoliyat ko'rsatish lozim bo'ladi, degan savollarga Prezidentimiz I.A.Karimov aniq javob beradi. "... davlatning iqtisodiy sohaga, xo'jalik yurituvchi tuzilmalar, birinchi galda xususiy faoliyatga aralashuvini cheklash lozim. Shu o'rinda savol tug'ilishi mumkin: bunday vaziyatda davlat tizimining roli nimadan iborat bo'ladi? Bu masalada davlatning roli avvalo iqtisodiyotning rivojlantirish borasidagi ustuvor yo'nalishlarini aniqlashga, qabul qilingan qonunlar va huquqiy normalarning barcha tomondan so'zsiz bajarilishini ta'minlashga, tashabbus va tadbirkorlikni rivojlantirishga, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida raqobat muhitini qaror toptirish uchun zarur va hammaga barobar bo'lgan shart-sharoitlar yaratishga qaratilmog'i lozim"².

Ko'rinib turibdiki, davlat ishlab chiqarish, boshqarishni tashkil qilish, rahbarlik kabi masalalarga bexuda aralashmasligi lozim bo'ladi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, davlatning roli, ayniqsa mamlakat taraqqiyoti uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan yo'nalishlarini belgilash, qonunlarning barqaror ishlashini ta'minlashda saqlanib qoladi.

Hozirgi davrda fuqarolik jamiyatining asosiy belgilari shakllandi. Bular asosan quyidagilardan iborat:

Iqtisodiy sohada: nodavlat tashkilotlar; kooperativ-shirikatlari; ijara jamoalari; aktsiyadorlik jamiyatlari; uyushmalar; kooperatsiyalarning mavjudligi.

Ijtimoiy sohada: oila, partiyalar, jamoat tashkilotlari va harakatlar; ish va yashash joylaridagi o'zini-o'zi boshqarish organlari; nodavlat ommaviy axborot vositalari; jamoatchilik fikrini aniqlash, shakllantirish va ifoda etishning madaniylashgan tartibotlari; ijtimoiy ixtiloflarni kuch ishlatmasdan, taziqsiz, qonunlar doirasida hal qilish imkoniyatlarining mavjudligidir.

Ma'naviy sohada: so'z, vijdon va fikrlar erkinligi; o'z fikrini ochiq bildirishning real imkoniyatlari; ijodiy, ilmiy va boshqa uyushmalar mustaqilligining ham qonuniy, ham amaliy jihatlarida ta'minlanganligi.

Shuningdek, fuqarolik jamiyatining barqarorligini ta'minlovchi shart -sharoitlar ham borki, ularsiz bu jamiyatning institutlari rivojlanmaydi.

¹ Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. "Xalq so'zi", 2003 yil 30 avgust.

² O'sha joyda.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida o'zini–o'zi boshqarish organlariga berilgan huquqiy ta'rif.

«Shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek ular tarkibidagi mahallalarning yig'inlari o'zini–o'zi boshqarish bo'lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini saylaydi. O'zini–o'zi boshqarish organlarini saylash tartibi, faoliyatini tashkil etishi hamda vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi.»

**«Fuqarolarning o'zini–o'zi boshqarish organlari to'g'risida
(Yangi tahriri) »gi Qonunning
1-moddasida o'zini o'zi boshqarishning huquqiy
tushunchasiga ta'rif berilgan.**

Fuqarolarning o'zini–o'zi boshqarishi organlari vakolatlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari bilan kafolatlanadi, ularning o'z manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, mahalliy urfd–odatlar va ananalaridan kelib chiqqan holda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilish borasidagi mustaqil faoliyatidir.

Mahallada olib borilayotgan ikki yo'nalishdagi vazifalar.

Birinci yo'nalish

Ma'naviy vazifa bo'lib, u xalqimizning ming yillar tarixidagi noyob, eng aziz an'analarni, qadriyatlarni qaytadan tiklash va rivojlantirishdan iborat

Ikkinchi yo'nalish

Prezident I. Karimovning mahalla institutini bugungi zamon talablariga muvofiq tarzda tiklash barobarida viloyat, tuman, shahar hokimliklari zimmasiga yuklangan ko'pchilik vazifa va huquqlarni o'z–zini boshqarish organlariga berib, ular maqomini ko'tarib, shu tariqa jamiyatimiz hayotini demokratiyalashda yangi imkoniyatlarga erishish

Mahalla maqomini mustahkamlash sohasida qilingan ishlar.

1. Fuqarolarning mahalliy o'zini-o'zi boshqarishning qonuniy maqomi mustahkamlandi.

2. Ularni fuqarolik jamiyatining asosiy institutiga aylantirishga doir jiddiy islohotlar amalga oshirildi.

3. Mamlakatda shaharcha, posyolka, qishloq, ovul va mahalla fuqarolar yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari huquqiy maqomini oldilar.

4. 8142 ta mahallalar mustaqil tashkilot sifatida qaytadan mustahkamlandi va ularning aksariyati o'zining qadimgi nomlarini va xalq o'rtasidagi obro'-e'tiborini qaytadan tiklab oldilar.

Mahalliy o'zini – o'zi boshqarish tushunchasi turli xalqaro tashkilotlar hujjatlari va olimlar talqinida.

“Mahalliy o'zini-o'zi boshqarish to'g'risidagi Evropa hartiyasi”

Mahalliy o'zini-o'zi boshqarish deganda, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarining o'z mas'uliyatiga, mahalliy aholi manfaatlarini asosida, qonunlar doirasida davlat ishlarining aksariyat qismini bajarishga va uni real uddalay olish qobiliyatiga aytiladi.

G.Xollis va K.Plokker Evropa Ittifoqi ekspertlari

“Mahalliy o'zini-o'zi boshqarishni–milliy boshqaruvdan quyi darajadagi demokratik avtonom birliklarning mahalliy aholi manfaatlarini asosida jamoatchilik muammolarini aksariyat qismini muvofiqlashtirish va boshqarish”dir.

Olim Antosis de Tokvil

“Mahalliy o'zini-o'zi boshqarish shunday bir siyosiy institutdirki, u nafaqat siyosatchilar uchun, umuman barcha fuqarolar uchun bir maktabdir. Bu institutga xos bo'lgan imkoniyatlar shu qadar yuksakki, u fuqarolarning keng siyosiy ishtiroki uchun shart–sharoitlarni yaratib beradi”.

“Mahalla” jamg’armasining vazifasi quyidagi yo’nalishlarda bo’lishi belgilandi:

Fuqarolarning o’zini-o’zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish.

Fuqarolarning o’zini-o’zi boshqarish organlarining huquq va manfaatlarini himoya qilish.

Mahallalarda madaniy, ma’naviy–ma’rifiy targ’ibot ishlarini yo’lga qo’yish.

Fuqarolarning o’zini-o’zi boshqarish organlarining davlat organlari va nodavlat tashkilotlar bilan bo’lgan munosabatlarini takomillashtirish.

Fuqarolarning o’zini-o’zi boshqarish organlarining o’zaro tajriba almashishida ko’maklashish.

Ularning vakolatlari doirasida barcha masalalarni hal etish, moliyaviy-xo’jalik faoliyatini yuritish, uslubiy takomillashtirishda amaliy yordam ko’rsatish.

Nodavlat notijorat tashkilotlar va ularning faoliyat yo’nalishi.


Nodavlat notijorat tashkilotlar individlarning ixtiyoriy birlashmasidir.


Ular hokimiyatni egallash, lavozimlarga nomzodlar ko’rsatish bilan shug’ullanmaydilar.

Ular hukumat va boshqa siyosiy tashkilotlarga ta’sir qilish uchun harakat qiladilar.


Ularning faoliyati siyosiy tashkilotlar vositasisiz bo’ladi.

Nodavlat notijorat tashkilotlarining harakat usullari siyosiy organlarni ishontirish, maslahat berish, jamoatchilik fikrini shakllantirish, siyosiy arboblarga ijtimoiy guruhlarining ehtiyojlarini yetkazish, o’z manfaatlarini qondirish uchun tashkiliy tadbirlar bilan chegaralanadi.







Jamoat birlashmalari




Ko'p partiyaviylik tizimi

Jamiyat ichida ijtimoiy faoliyatni shakllantiruvchi, tashkil etuvchi siyosiy institutlar majmuasi. Bu tizimda fuqarolarga turli partiyalardan nomzodlarini tanlab olishga va jamiyatni demokratiyalashtirishda u yoki bu dasturga afzallik berishga imkon yaratadi.







Qisqacha xulosalar

Kishilarning tarixan shakllangan, oiladan keyingi birligi–bu mahalladir. Har qaysi inson, har qaysi xonadon hayotida, davlat va jamiyat boshqaruvida, odamlarning boshini qovushtirish, turar - joylarda tartib- intizomni mustahkamlashda, o'zini - o'zi boshqarish tizimini joriy qilishda mahallaning roli, ahamiyati va mohiyati kundan - kunga oshib bormoqda. SHu bilan mahallaning hayotimizdagi mavqei yuksak, uning qonuniy, huquqiy asoslari har tomonlama mustahkam bo'lib rivoj topsa, bu idorani jamiyatimiz siyosiy-iqtisodiy va ma'naviy hayotining ajralmas bir qismi, quyi boshqarish tizimi sifatida nechog'li kuchaytirsak, buning uchun barcha moddiy - moliyaviy sharoitlarni tashkil qilsak jamiyat o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishadi.

Jamiyat hayotida nodavlat va jamoat tashkilotlarining o'zni va ahamiyatini keskin kuchaytirish fuqarolik jamiyatini barpo etishning asosiy omillaridan biridir. O'zbekistonda siyosiy partiyalar va jamoat birlashmalarining vujudga kelishi ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotning ob'ektiv jarayoni bo'lib, u jamiyat ijtimoiy-siyosiy tizimi bilan bog'liq. Ko'ppartiyaviylik jamiyatda sog'lomlikka, turlicha yondoshuvga, muqobillikka, sog'lom raqobat va samarali tanqidga olib keluvchi muhim omildir. "Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari" kontseptual siyosiy dasturidan kelib chiqib siyosiy hokimiyatning o'z vazifalarini to'liq bajarishga kengroq va qulayroq imkoniyatlar yaratish, siyosiy hokimiyatga nisbatan jamiyat a'zolarining ishonchini kuchaytirish, uning aholi tomonidan keng va faol qo'llab- quvvatlashga erishish asosiy vazifadir.

Tayanch so'zlar

Mahalliy o'zini-o'zi boshqarishning asosiy belgilari, mahalla boshqaruv shakli, munitsipalitet, shaharcha ichidagi shaharcha, «Mahalla hayriya jamg'armasi», mahalla fuqarolar yig'inlari, «Obod mahalla yili». Siyosiy partiya, ko'ppartiyaviylik, muxolifat, ko'pg'oyalik, xalq harakatlari, rasmiy va norasmiy harakatlar, tashkilotlar, uyushmalar, birlashmalar, fuqarolik jamiyati, kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari, kuchli davlat, kuchli jamiyat, nodavlat, notijorat tashkilotlari, jamoat birlashmalari.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Aytingchi, G'arbda mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari qanday nomlanadi?
2. Mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari qanday saylanadi va uning vakolatlari qanday?
3. Siz "Obod mahalla" deganda qanday munosabatlar hukmron bo'lgan joylarni tasavvur etasiz?
4. Fuqarolik jamiyatini qurishda mahallaning roli qanday?
5. Prezident I.A.Karimovning O'zbekistonda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari va ularni isloh qilishning asosiy yo'nalishlari?
6. Nodavlat va jamoat tashkilotlarining fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishdagi roli qanday?
7. «Kuchli davlatdan kuchli jamiyatga o'tish» kontseptsiasining amalda joriy etish qanday sodir etiladi?
8. Qanday tashkilotlarni jamoat tashkilotlari deymiz? Ular ko'proq qanday ishlarni bajaradilar?
9. Fuqarolik jamiyati qanday asosda vujudga keladi, unda davlat va jamiyat boshqaruvi kimlar orqali amalga oshiriladi?
10. Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan jamoat tashkilotlari faoliyatini qanday baholaysiz?

Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.- T.: "O'zbekiston", 2011. 3-36-b.
2. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida" gi Qonuni (Yangi taxrir). 1999 yil 14 aprel.

3. Nodavlat, notijorat tashkilotlar to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonuniga sharhlar. – Toshkent, 2003.
4. Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Toshkent, 2004.
5. Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratiyalashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini ko'chaytirish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Toshkent, 2007. 13 aprel.
6. “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili” Davlat dasturi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. “Xalq so'zi” 2011 yil 21 yanvar'.
7. “O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 20 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. “Xalq so'zi” 2011 yil 7 aprel'.
8. Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. - T.: O'zbekiston, 2005.- 3-48-b.
9. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat –engilmas kuch.-T.: Ma'naviyat. 2008.- 176 b.
10. Karimov I.A. “Eng asosiy me'zon – hayot haqiqatini aks ettirish”-T.: O'zbekiston, 2009.- 24 b.
11. Karimov I.A. “Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari” - T.: O'zbekiston, 2009.- 56 b.
12. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi “Xalq so'zi”, 2010 yil 13 noyabr'.
13. Karimov I. A. “Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qilsin”. “Xalq so'zi”, 2011 yil 23 yanvar.
14. Karimov I.A. “O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”. –T.: O'zbekiston, 2011.- 157-192-b.
15. I. A. Karimovning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 20 yilligi tantanalaridagi nutqi. “Xalq so'zi”, 2011 yil 1 sentyabr'.
16. Karimov I.A. “Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir”. “Xalq so'zi”, 2012 yil 8 dekabr.
17. Karimov I.A. “Bosh maqsadimiz - keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davov ettirish”. “Xalq so'zi”, 2013 yil 20 yanvar.
18. Aliyev B., Hoshimov T., Yuldashev O. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. Darslik .-T. “Iqtisodiyot”, 2008. -136-164-b.
19. Aliyev B., Yuldashev O., Qahhorova M. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. O'quv qo'llanma.-T.: “Iqtisodiyot”.2011. -135-163-b.

9 - mavzu. DEMOKRATIK JAMIYAT QURILISHIDA KUCHLI IJTIMOIIY HIMOYA VA ADOLAT TAMOYILLARI

9.1. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurilishida kuchli ijtimoiy himoya, ijtimoiy adolat va ijtimoiy kafolat tushunchasi hamda tamoyillari.

«Ijtimoiy himoya», «ijtimoiy adolat» tushunchalarining shakllanib borishi insoniyatning demokratik tafakkuri bilan bog'liqdir. Xususan, Abu Nasr Forobiyning «Fozil odamlar shahri» asarida ifodalangan fozil jamiyat g'oyasi bugungi kundagi demokratik jamiyat kontsepsiyasiga hamohangdir.

Forobiyning fozil jamiyat kontsepsiyasiga ko'ra, baxt - saodatga intiluvchi jamiyatda qonun ustuvor bo'lib, butun ijtimoiy hayot ana shu ustuvor tamoyil asosida tuziladi. SHu ma'noda fozil jamiyatda avvalo erkinlik mavjud bo'ladi. Unda adolat, erkinlik va tenglik tushunchalari kun tartibida bo'lib, bu me'yorlar fozil jamiyatning asosi bo'ladi. SHu bilan birga, Forobiy fikricha, jamiyat davlat bilan kuchlidir. U etuklashgan sayin o'z a'zolarini himoyaga ola boradi. SHuni ham

alohida aytish kerakki, agar o'tmish mutafakkirlari ijtimoiy kafolatlanish uchun inson faolligi masalasini ilgari surgan bo'lsalar, Forobiy qarashlarida insonni ijtimoiy kafolatlashda jamiyatning roli alohida o'qitila boshlandi. Demak, jamiyat ham himoya vositasi bo'lishga mas'ul, degan g'oya ilgari surilgan.

Jamiyat o'z fuqarosiga millati, dini va maslagidan qat'iy nazar, inson sifatida namoyon etishi, qobiliyatini, iste'dodini oshkor qilishi, o'z hayotini yaxshiroq, munosibroq, ma'naviy boyroq qilish uchun shart - sharoitlarni yaratib bermasa, u o'zini ijtimoiy kamsitilgan hisoblaydi.

Odamlar uchun munosib erkin va farovon hayotni ta'minlab bermagan jamiyatda ular o'zlarini adolatsiz ravishda hamma narsadan bebahra bo'lib qolgan yoki haq-huquqlari kamsitilgan hisoblaydilar. O'zbekistonda o'tkazilgan barcha iqtisodiy, demokratik, siyosiy islohotlardan ko'zlangan pirovard maqsad insonning mehnat, ijodiy va ma'naviy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishni ta'minlaydigan munosib turmush sharoitini yaratishdan iborat.

Ijtimoiylik, shuningdek inson faoliyati, uning omilkorligi, tashabbuskorligi va aqliy ijodni, umuman, ma'naviy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish omillarini yaratish asosida tabiat tomonidan insonga berilgan barcha imkoniyatni, qobiliyatni to'liq namoyon etishi ham asosiy masala ekanligini hisobga oladi. Buning uchun mamlakatda sog'lom muhitni yaratish va fuqarolarga har tomonlama shart-sharoitlarni yaratish, siyosiy erkinlik berish orqali maqsadga erishilishi hisobga olinishi kerakligi nazarda tutiladi.

«Inson aniq maqsad sari intilsa, –deydi yurtboshimiz, –unga barcha shart-sharoit yaratilsa, moddiy va ma'naviy jihatdan rag'batlantirilsa, u eng yuksak marralarni egallashga qodir bo'ladi»¹.

Endi «adolat» va «tenglik» tushunchalariga to'htalaylik. Adolat (arabcha «adolat»–odillik, to'g'rilik) axloq va huquqning me'yoriy kategoriyalaridan biri bo'lib, mavjud ijtimoiy voqelik inson mohiyatiga va huquqlariga mos yoki mos emasligini ajratishda mezon bo'lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy adolatning birinchi amaliy vazifasi ijtimoiy munosabatlarning insonparvarligini ta'minlash. Ikkinchi vazifasi jamiyatda mavjud bo'lgan turli guruhlar va tabaqalar manfaatlarini himoya qilish. Adolatning uchinchi talabi rahbar kadrlarni tanlash va ularni joy - joyiga qo'yish.

Adolat shunday bir narsaki, u hech qachon zulm, zo'ravonlik, milliy ezish, talonchilik, asoratda tutish bilan chiqisha olmaydi. Bular bilan adolat o'rtasida antagonizm mavjud. Adolatni tiklash, adolatli hukm, adolatli qaror, adolatli tanqid har bir shaxsning hayotida juda katta o'rin tutadi. Ularning tugal qonuniyligi va haqqoniyligi inson hayotiga mo'tadillik bahsh etadi, shular bilan u o'zini to'la baxtiyor va erkin sezadi. Adolat mo'tadillik, e'tidol, muodillik, muvoso, toqat bilan bog'liq. Odil tuyg'u, odil burch shulardan yaraladi.

Ilgari o'tgan zamonlarning barchasida adolat, hukm, hukumronlik bilan bog'liq edi. Ideal hukumdor orzusi ham shundan tug'ilgan. Qadimdan adolat va tenglik tushunchalari bir-biri bilan tug'ishgan, birodar ekanligiga urg'u berishgan. Tik, to'g'ri turuvchi, to'g'ri fikr aytuvchi, to'g'ri hukm chiqaruvchi odamlarni «odil» deb ataganlar. Ishlarni to'g'ri hal qiluvchi, qonun - qoida, nizom-intizom, tuzukka e'tibor beruvchi idorani «adliya» (yustitsiya) deb ataganlar. Tenglik, barobarlikka rioya qilishlikni «taodiy» deganlar. «E'tidol», «mo'tadil», «mo'taodil», «muodil» singari mumtoz adabiyotimiz iste'foda etgan so'zlar ham kelishilganlik, uyg'unlik, bir-biriga barobarlik, o'rtachalik, tenglashganlik, kuchlarning tengligi kabi inson uchun juda qimmatli ma'nolarni bildirgan.

Sezayotgan bo'lsangiz so'z borayotgan «taqsimlash adolati», «teng bo'lish»ning mohiyati markazida xalq, axloq turibdi. Ma'lumki xalqlar axloqlarining yig'indisidan ma'naviyat hosil bo'ladi. Jamoa kuchlar vositasida erishilgan, ko'pning mehnati, peshona teri to'kishi tufayli yuzaga kelgan ne'matlarni jamoa o'rtasida teng bo'lish, taqsimlashdan insoniyat ilk bora adolat printsipini kashf etdi. U odamzotning yashovchangligini ta'minlagan o'lmas, yo'qolmas, tuganmas ma'naviy-axloqiy tamoyilga aylandi. Uni insoniyat butun amalda qo'llayotgan barcha ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy, axloqiy, huquqiy tamoyillarning onasi desak ham o'rinlidir. Bugun u inson mohiyati va uning asosiy huquqlariga to'g'ridan - to'g'ri tegishli tushunchaga aylandi. Hozir u «Inson huquqlari haqida umumjahon Deklaratsiyasi» tamoyillariga javob beradi, chunki:

¹ . «Xalq so'zi» gazetasi. 2007 yil 13 fevral.

- a) demokratik umuminsoniy tamoyillarga suyanadi;
- b) insonning daxilsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi;
- v) demokratik huquqlar va erkinliklar, Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi;
- g) barchaning qonun oldida tengligi tamoyili ta'minlanadi.

Adolat barchaning qonun oldida tengligi va qonunning barchaga teng tegishligidir. Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek, biz shunchaki demokratik davlat emas, balki adolatli demokratik davlat qurishga intilyapmiz. Adolatga intilish-xalqimiz ma'naviy-ruhiy dunyosiga xos eng muhim xususiyat. Adolatparvarlik g'oyasi butun iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar tizimiga singib ketishi, ijtimoiy ko'maklashuv mexanizmidagi o'z aksini topishi kerak. Darhaqiqat, O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat va bozor iqtisodiyotiga asoslangan fuqarolik jamiyatini barpo etishda adolat omili muhim o'rin tutadi. Shu ma'noda adolat tushunchasi, uning erkinlik, demokratiya va barqaror taraqqiyot g'oyalari bilan mushtarak jihatlari bugungi kunda ham zamonaviy mazmun kasb etmoqda.

Lekin tarixan oladigan bo'lsak, ijtimoiy adolat g'oyasi insoniyatning butun tarixi orqali o'tib kelgan. Shu bilan birga jamiyatni adolatli tashkil etish orzusi va uning hayotdagi haqqoniy mavjudligi o'rtasida doimo ziddiyat bo'lib kelgan. Shunga qaramay uni «naqd qilib qo'yishga» urinish to'xtamagan. Shu nuqtai nazardan, insoniyat tsivilizatsiyasining butun tarixi ijtimoiy adolatni kengaytirish tarixi hamdir. Albatta, Sharq va G'arb jamiyatlaridagi bu kabi qadriyatlar bir-biriga zid emas, ular o'zaro uyg'unlikda umuminsoniy qadriyat darajasida jamiyat hayotida ijtimoiy adolat qoidalarining barqaror bo'lishiga xizmat qiladi. Sharq va G'arb an'analarida asrlar davomida shakllanib kelgan bu kabi tushunchalar hamda qadriyatlar mustaqillik davrida jamiyatimizda umuminsoniy g'oyalar sifatida qayta shakllanishi shu jihatdan katta ahamiyatga ega. Zero, bu jamiyatimizda insonparvarlik, birdamlik, inson erki va mas'uliyatini, manfaatlar uyg'unligi, qonun ruhi va demokratiya qadriyatlari asosida amalga oshirishga va shu tariqa ijtimoiy adolatni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Umuman, mustaqillik davrida xalqimiz ongida ijtimoiy adolatning yangicha tushunchasining shakllanishi mamlakatimiz kelajagi va islohotlar muvaffaqiyati garoviga aylanmoqda. Adolatli jamiyat qurish haqidagi umuminsoniy orzular va qarashlarni yangi jamiyat barpo etish manfaatlariga bo'ysundirish muhim amaliy masala bo'lib turibdi. Biz barpo etayotgan jamiyat insonparvar bo'lmog'i zarur. Bunda demokratik modellarni ko'r - ko'rona ko'chirib olmasdan, balki ilg'or demokratik jamiyatlar tajribasini tanqidiy o'rganish asosida fuqarolik jamiyatini qurish ehtiyojlariga xizmat qildirish talab etiladi.

Ijtimoiy himoya-ayrim ijtimoiy guruhlariga har tomonlama yordam berish uchun yo'naltirilgan davlat tadbirlari yig'indisi. Ijtimoiy himoya manbalari: davlat byudjeti, ijtimoiy sug'urta jamg'armasi, korxona va jamoat tashkilotlari ajratadigan mablag'lar, xayriya jamg'armalari. Ijtimoiy himoya ob'ekti: nogironlar, nafaqaxo'rlar, yosh bolalar, qariyalar va hokazo.

9.2. O'zbekistonda ijtimoiy adolat printsplari va ularning amal qilish xususiyatlari

Ijtimoiy kafolat-ijtimoiy ta'minot bo'lib, insoniyat jamiyatining demokratiya va huquqiy davlat tomon rivojlanish jarayonida qo'lga kiritgan yutug'i. Ijtimoiy kafolat deganda O'zbekistonning barcha fuqarolarining millati, tili, dini, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishi va ijtimoiy holatidan qat'iy nazar Konstitutsiya va boshqa qonunchilik hujjatlarida belgilangan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy huquqlar bilan birga ularning hayot darajasi pasayib ketishiga yo'l qo'ymaslik, ehtiyojmand oila va fuqarolarning ijtimoiy muhofazasini ta'minlash, g'amxo'rlik qilish va ish bilan ta'minlash ekanligidir.

O'zbekistonda kuchli ijtimoiy himoya muammolari siyosat darajasiga ko'tarildi. Buning uchun esa dastavval qonunlar tizimi yaratildi, keskin tabaqalanishdan xoli bo'lgan mulkdorlar sinfi shakllantirila boshlandi va nihoyat, iqtisodiy taraqqiyot inson manfaatlariga yo'naltirilayapti. Bir so'z bilan aytganda, «davlatning ijtimoiy tizimi bilan xalq ehtiyojlari o'rtasidagi jarlik» bartaraf etildi. SHu bilan birga bugungi kunda mamlakatimizda insonning jamiyatdagi o'rnini anglashi,

o'zini-o'zi tarbiyalay olishi va o'zini-o'zi taraqqiy ettira olishiga mas'uliyatining kuchayib borishi ijtimoiy himoya tizimini amaliy jihatdan mustahkamlashga ko'maklashishi zarur.

Demokratik jamiyatning mohiyati shundaki, adolat va haqiqat g'oyasi ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qamrab oladi. Jamiyatda mulkiy jarayonlarning ob'ektiv o'zgarishi yuz berayotgan bir paytda jamiyatning keskin tabaqalanishiga, ya'ni oshib-toshib ketgan boylaru, kambag'al-qashshoqlarga bo'linib ketishiga yo'l qo'yilmaydi. Shu ma'noda ijtimoiy himoya muhofazaga muhtojlarni davlat himoyasiga olishdir. Shu bilan birga, ijtimoiy himoya insonning jamiyatdagi munosib o'rnini belgilovchi va faolligining yuksalishini ta'minlovchi asosiy ko'rsatkichdan biriga aylanadi

O'zbekistonda yuritilayotgan ijtimoiy siyosatdagi o'zgarish jamiyat tabaqalarining manfaatlarini himoya qilishda amaliy ahamiyat kasb etishi zarur. Aynan ushbu ijtimoiy talab bajarilsagina, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan kuchli ijtimoiy siyosatning asoslaridan biri-ijtimoiy totuvlik saqlanadi.

Ijtimoiy totuvlik ustuvor bo'lgan jamiyatdagina kuchli ijtimoiy siyosat yuritish uchun imkoniyat yaratiladi. Ammo ijtimoiy totuvlik o'z-o'zidan kelib chiqmaydi. Zero, har qanday jamiyatda turli ijtimoiy tafovutlarning bo'lishi tabiiy holdir. Mutaxassislar fikricha, bu ijtimoiy tafovutlar quyidagi guruhlar o'rtasida ma'lum ma'noda ijtimoiy farqlarning mavjudligida o'z ifodasini topadi:

- turli ijtimoiy qatlamlar;
- ko'pmillatli davlatlarda aholining etnik guruhleri orasida;
- aholining diniy guruhleri orasida;
- markaz va mintaqalar orasida;
- erkaklar va ayollar orasida;
- turli avlodlarga mansub odamlar orasida.

Bu tafovutlar O'zbekiston jamiyatida ham ko'zga tashlanadi. SHu sababli imkon qadar aytib o'tilgan tafovutlar ko'rinishini kamaytirish borasida chora - tadbirlar amalga oshirilib borilishi ijtimoiy siyosatning maqsadlaridan biridir.

O'zbekiston jahonning eng polietnik va polikonfessionalistik mamlakatlaridan biri sifatida qaralmoqda. Bugungi kunda O'zbekistonda 136 millat va elat vakillari yashamoqda. Ularning 75,5 foizi o'zbeklar, 7 foizi ruslar, 4,2 foizi tojiklar, 4 foizi qozoqlar, 1,7 foizi qoraqalpohlardan iborat.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi hududida jami 15 ta noisloimiy diniy konfessiyaga mansub 187 ta diniy tashkilot faoliyat olib bormoqda.

O'zbekistonda istiqomat qilayotgan millat va elat vakillarining nafaqat etarli daromadlarga ega bo'lgan qismi, balki himoyasiz va muhtoj tabaqalari ham o'z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatiga ega bo'lgan taqdirdagina ko'pmillatli jamiyatimizning munosib turmush sharoitlari haqida gapirishimiz mumkin bo'ladi. Xuddi shuning uchun ham ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslangan ijtimoiy himoya tizimining yuzaga keltirilgani yurtimizdagi etnoslar manfaatleri va ehtiyojlarini qondirish mexanizmining samarali ishlay boshlaganligidan dalolatdir. «O'zbekiston aholisining ko'pmillatligi, o'zbek xalqining milliy o'zligini anglashi va ma'naviy qayta tiklanishining o'sishi bilan chambarchas bog'liq holda jamiyatni yangilash, uni demokratlashtirishga undovchi zo'r kuch bo'lib xizmat qilmoqda».¹

Aholining yordamga eng muhtoj qatlami-bolalar, yolg'iz qariyalar, nogironlarga ijtimoiy yordam ko'rsatish va ularni qo'llab - quvvatlash ishlarini aniq mo'ljali tarzida amalga oshirish zarur. Shu bois, islohotlarning hozirgi bosqichida ijtimoiy ko'maklashuv tizimini takomillashtirish, aholini ijtimoiy himoyalashning ta'sirchan mexanizmini shakllantirish davom ettirilmoqda. Muayyan moddiy yordam aniq oilalarga etib borishi, jamiyatning ijtimoiy zaif qatlamlariga mo'ljallangan tabaqalashtirilgan yordam bo'lishi va haqiqatan ham bunday yordamsiz kun kechira olmaydiganlarga borib tegishi lozimligini hayotning o'zi ko'rsatmoqda.

¹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: «O'zbekiston», 1997, 72-bet.

Lekin hozirgi paytda faqatgina aholining ijtimoiy zaif qatlamlariga davlat tomonidan shunchaki moddiy yordam ko'rsatishgina emas, balki jamiyat a'zolarining aksariyat qismini fundamental ehtiyoj va manfaatlarini qondirish va ro'yobga chiqarishda avvalo, ularning o'z tashabbusi, intilishi va mas'uliyatini kuchaytirish asosidagi ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish vaqti etdi. Aynan shu ma'noda ijtimoiy sohada amal qilib kelayotgan ustuvor tamoyillar, xususan, qonun ustuvorligi, islohotlarni bosqichma - bosqich joriy etish, kuchli ijtimoiy siyosat kabi tamoyillar ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Har qanday demokratik jamiyat muayyan ma'noda ijtimoiy asoslarni birlamchi manba sifatida qabul qiladi. Ijtimoiy asoslari bo'lmagan jamiyat o'z taraqqiyotida sobit bo'la olmaydi. SHu ma'noda demokratik jamiyat taraqqiyoti uchun kuchli ijtimoiy himoya va adolat tamoyillari muhim rol o'ynaydi.

Umumiy ma'noda ijtimoiy himoya demokratik huquqiy davlat tomonidan fuqarolar, turli jamoalarning huquqlarini ta'minlash bilan cheklanib qolmay, ulardan amalda foydalanishni kafolatlash, amalga oshirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berishni anglatadi. SHu ma'noda insonlar davlat uchun emas, davlat xalq uchun xizmat qiladi, bu inson va uning qadr-qimmatiga hurmat deb baholanadi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy adolatning mohiyati har bir shaxs o'z qobiliyat va imkoniyatlarini namoyon qila olishi uchun to'liq imkoniyatlar yaratish, bunda ularning farovon turmush kechirishlariga erishish jarayonida to'liq namoyon bo'ladi. Kishilarning jamiyatdan olayotgan ulushlari (ish haqi, daromadlari, mukofotlari, unvoni, mansablari) ularning jamiyat rivojiga qo'shayotgan hissalariga (mehnatga qobiliyati, zakovati, alohida xizmatlari sarmoyasi va h.k.) mos kelishi shu ma'noda inson rivoji imkoniyatlariga bog'liq.

O'tgan 16 yillik mustaqil hayotimiz bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy himoya, aholining kam ta'minlangan qatlamini ko'p kulfatlardan asrab qolganini ko'rsatadi. SHuni ham ta'kidlash kerakki, ijtimoiy himoya—bu odamlarni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlashgina emas, balki uning zaminida vatanparvarlik g'oyalari, adolat tamoyillari mujassamlashgan. «Biz shunchaki demokratik jamiyat emas, demokratik odil jamiyat qurmoqchimiz» degan so'zlar ma'no—mazmunida adolat, ham inson manfaati bosh omil sifatida ko'zda tutilgan.

9.3. Jamoatchilik fikrida adolat tuyg'usi, ijtimoiy himoya tushunchasining turli qatlam, guruh manfaatlarida aks etishi.

O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishib, o'z taraqqiyot yo'lini belgilab, ilmiy jihatdan puhta va chuqur asoslangan keng ko'lamli islohotlarni ishlab chiqib, ularni sobitqadamlik bilan amalga oshirar ekan, hamma yangilanishlar va o'zgarishlar markazida inson, uning manfaatlari qo'yildi. Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan va butun jahon islohotlarning «O'zbek modeli» deb e'tirof etilgan mashhur besh tamoyilning eng asosiylaridan biri ham kuchli ijtimoiy siyosat olib borishdir.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish davrida muqarrar ravishda aholi, ayniqsa, uni nochor qatlamlari—kam ta'minlangan va ko'p bolali oilalar, yolg'iz keksalar, nogironlar, etimlar, talaba va nafaqaxo'rlarga salbiy ta'sir ko'rsatadigan og'ir oqibatlarni imkoni boricha engillashtirishga qaratilgan yo'l—bu kuchli ijtimoiy siyosat yo'lidir.

Endi bir zumgina bo'lsada, o'ylab ko'raylik, bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonini ijtimoiy himoyasiz tasavvur qilib ko'raylik. Bunday sharoitda boquvchisini yo'qotgan oilalar yoki nafaqaxo'rlar, nogironlar, shifokorlar, o'qituvchilar, talabalar, ilmiy xodimlar kabi kam ta'minlangan qatlamning ahvoli nima kechadi? Masalan, bozor munosabatlarini vujudga keltirishning dastlabki bosqichini olaylik, ma'lumki, respublika bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayoni juda noqulay ijtimoiy sharoitda boshlandi. O'zbekiston boshqa mustaqil respublikalardan farqli ravishda, tub iqtisodiy islohotlarni aholining turmush darajasi juda past bo'lgan sharoitda o'tkazishga majbur bo'ldi. Respublika aholi jon boshiga to'g'ri keladigan haqiqiy daromad, o'rtacha oylik ish haqi va pensiyalar miqdori jihatidan, oziq-ovqat mahsulotlari, ashyoviy buyumlar

bilan ta'minlanish, pulli xizmat ko'rsatish, uy-joy maydoni, ijtimoiy-madaniy muassasalar tarmog'i jihatidan eng so'nggi o'rinlardan birida edi. Respublika aholisining deyarli to'rtidan uch qismi o'zining eng zaruriy ehtiyojlarini ham qondirishga qodir emasdi, davlatning madadiga muxtoj edi.

Bunday sharoitda kuchli ijtimoiy kafolatni vujudga keltirmay turib ko'zlangan maqsadga erishish mumkin bo'lar edimi? Tabiiyki, bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida bu qatlam o'ta qashshoqlashib, hayotning og'ir zarbalariga duch kelardi, turli xil ko'ngilsizliklar avj olardi. Yurtboshimiz ta'kidlagandek, istiqlohning dastlabki kunlaridan boshlab yurtimizda olib borilayotgan kuchli ijtimoiy siyosat el - yurtimiz hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan og'ir oqibatlarni imkon qadar kamaytirdi, nochor qatlamni bozor iqtisodiyotining ko'pgina shafqatsizliklaridan asrab qoldi.

Tegishli ijtimoiy himoya va ijtimoiy kafolat choralarini ta'minlash, bozor munosabatlariga o'tishning hamma bosqichlari orqali o'tadigan uzluksiz jarayondir. Bozor tomon harakat qilingani sari, ijtimoiy siyosatning ustivor jihatlari, aholiga ijtimoiy madad berish va uni himoya qilish choralari ham o'zgarib boradi. Islohotlarning turli bosqichlariga ijtimoiy siyosatning o'ziga xos qoidalari mos keladi. Bozor munosabatlarining vujudga keltirishning dastlabki bosqichlarida narxlarni erkinlashtirishni va pulning qadirsizlanish darajasining ortib borishi munosabati bilan daromadlarning eng kam va o'rtacha darajasini muntazam oshirish ijtimoiy himoyalash chora-tartiblari tizimidagi eng ustun yo'nalishlaridan biri bo'lib keldi. Bu yo'nalish aholining barcha tabaqalarini qamrab oldi va islohotlarning birinchi bosqichi davomida keng miqyosda qo'llanildi.

Iqtisodiy islohotlarning dastlabki bosqichida ishlab chiqilgan va amalga oshirilgan ijtimoiy siyosat o'z oldiga qo'ygan barcha vazifalarni to'la-to'kis bajardi. Respublikada erkin narxga o'tish amalda tugallandi. Respublika aholisi ijtimoiy jihatdan ishonchli ravishda himoya qilingan bo'lib, daromadlar miqdori, asosiy iste'mol mollari va xizmatlaridan foydalanish darajasi ko'tarildi. O'zbekistonda ish haqi va pensiyalarning eng kam miqdori 1995 yilda 1994 yilga nisbatan 2,5 marta ortdi.

Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda sifat jihatdan yangi bosqich, ya'ni ijtimoiy himoyalash vositasini chuqurlashtirish, uni o'zgarib borayotgan sharoitlarga moslashtirishga zarurat etildi. Natijada ijtimoiy himoyalash chora tadbirlari butun aholiga emas, balki faqat shunday himoyaga haqiqatdan ham muhtoj bo'lganlarga nisbatan qo'llanila boshlandi. Bu narsa ijtimoiy himoyaning mavjud usullarini, ularni moliyaviy ta'minlash man'balarini tubdan o'zgartirishni taqozo etdi.

Xullas aholini aniq ijtimoiy himoyalash mexanizimini ishlab chiqish va amalga oshirish borasida katta ishlar qilindi. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning butun tizimi tenglik va boqimandalik kayfiyatini tugatishga qaratildi. Barcha nafaqalar va moddiy yordam faqat oila orqali ko'rsatiladigan bo'ldi. Ularni asosan kam ta'minlangan oilalar, keksalar va bolalar ola boshladi. Ijtimoiy himoya yangi tizimining eng muhim xususiyati aholining turli qatlamlariga qat'iy tabaqalashtirilgan tarzda yondoshish xususiyati bilan ajralib turdi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj odamlar davlat nazaridan chetda qolmaslik uchun, odamlarning moddiy ahvolini yaxshilash uchun bir qator jamoat tashkilotlari va xayriya tashkilotlari, shuningdek turli-tuman nodavlat notijorat tashkilotlar faol qatnasha boshladi. Bunda o'zbek xalqi qadimdan mehr-shafqatli bo'lganligini, doimo muhtoj insonlarga yordam ko'rsatib kelganligini bir namunasi sifatida qarash mumkin.

«Navro'z», «Mahalla», «Mehr-shafqat», «Sog'lom avlod uchun» va boshqa jamg'armalarning aholini ijtimoiy himoyalashda davlat tomonidan berilayotgan moddiy yordamga qo'shimcha ravishda aholining muhtoj qatlamlariga namunali yordamlarini berib kelmoqdalar. Buning ma'nosi shuki, pensiya ta'minoti, talabalarga, ko'p bolali va muhtoj oilalarga haq to'lash tizimida ularning turmush darajasi byudjet asosida va davlat kafolati yo'li bilan ham, shuningdek turli xayriya jamg'armalari, korxonalar, tashkilotlar va xo'jaliklarning jamg'armalari orqali ham qo'llab-quvvatlashi mustahkamlanib qo'yilishi bo'ldi.

1997 yildan boshlab yurtimizga kirib kelayotgan yilga nom berish bilan ijtimoiy masalalarni hal etishga katta e'tibor berilmoqda. «Qaysi yilga qanday nom berishidan qat'iy nazar—bu oila yoki ayollar masalasi bo'ladimi, sog'lom avlod tarbiyasi, mahallalarimizni obod qilish yoki qariyalarni

qadrlash bo'ladimi, onalik va bolalikni muhofaza etish yoki jamiyatimizda mehr–muruvvat, insonparvarlik ruhini kuchaytirish bo'ladimi–bularning barchasini birlashtiradigan umumiy bir mezon bor. U ham bo'lsa, inson, uning hayoti, orzu–niyatlari, dardu–tashvishlarini e'tiborimiz markaziga qo'yib, odamlarning og'irini engil qilishga qaratilgan intilishlarimiz misolida yaqqol namoyon bo'lmoqda»¹.

2006 yil «Homiylar va shifokorlar yili» dasturi doirasida aholi uchun yangi ish o'rinlarini tashkil etish, jumladan qishloq joylarida kasanachilik harakatiga keng yo'l ochib berish, uy sharoitida chorva mahsulotlari etishtirish bilan shug'ullanayotgan kishilarga mehnat daftarchasi ochish va pensiya badallarini jamg'arib borish imkoniyati yaratilgani muhim ahamiyat kasb etdi.

Faqatgina 2006 yilda dasturda ko'zda tutilgan tadbirlar ijrosi uchun qariyb 284 milliard so'm, jumladan, 133 milliard so'm byudjet mablag'i, 151 milliard so'mdan ziyod idora va tashkilotlar, homiylar mablag'i sarflanganligi, mamlakatimizda sahovat va ximmatlikning yana bir yorqin misoli bo'ldi, desak hech qachon xato bo'lmaydi.

Millionlab yurtdoshlarimiz ishtirok etgan umumxalq xayriya hasharlaridan tushgan mablag'lar hisobidan 2 ming nafar yolg'iz keksa va 65 ming kam ta'minlangan oilalarning 3 mln. 570 ming kvadrat metr uy–joyi ta'mirlab berildi.

Qariyb 23 ming nafar qarovsiz qariya va nogiron kishilarga ijtimoiy xizmat ko'rsatildi, barcha «sahovat» va «muruvvat», mehribonlik uylari hamda maxsus maktab–internatlarga homiylar tomonidan 3,5 milliard so'mlik moddiy yordam berildi.

Nogiron bolalarni sog'lomlashtirish maqsadida Sog'liqni saqlash Vazirligi «Sog'lom avlod uchun jamg'armasi» tashabbusi bilan, xorijiy hamkorlarni jalb etgan holda, tug'ma nuqsonlari mavjud bo'lgan bolalarni murakkab jarrohlik yo'li bilan davolash ishlari amalga oshirildi.

Aholi ijtimoiy himoyasida xalq salomatligini saqlash muhim o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 41–moddasida «Aholi malakali tibbiy xizmatdan foydalanishga haqlidirlar»–deb yozib qo'yilgan.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab, sog'liqni saqlash tizimini yangi ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlarga javob beradigan hamda zamon talablariga mos keltirish, tibbiy muassasalar tarmog'ini qayta tashkil etish, birlamchi tibbiy yordamni rivojlantirish, tibbiyot xodimlarini tayyorlash, onalar va bolalar sog'lig'ini muhofaza qilish, aholi o'rtasida yuqumli kasalliklarni oldini olish, tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish, nodavlat xususiy tibbiy tizimni kengaytirish va chet davlatlar bilan aloqalarni kuchaytirib, tibbiyot fanini rivojlantirish ishlariga alohida ahamiyat berildi.

Sog'liqni saqlash muassasalarining moddiy–texnika bazasini rivojlantirish, ularni zamonaviy asbob–uskunalar, zarur jihoz va mebellar bilan ta'minlash maqsadida davlat byudjetidan 7,6 milliard so'm, ya'ni 2005 yildagiga nisbatan taxminan bir yarim barobar ko'p mablag' ajratildi, kapital ta'mirlashga esa homiylar hisobidan 7 milliard so'm sariflandi.

Mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi «Tibbiyot xodimlari kunini belgilash to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi va bu sana 2006 yil 12 noyabr kuni birinchi bor yurtimizda keng nishonlandi, shuningdek Vazirlar Mahkamasining maxsus qarori bilan «Sog'liqni saqlash a'lochisi» ko'krak nishoni ta'sis etildi.

Mamlakatimiz aholisining qariyb yarmini tashkil qiladigan yoshlarimizning hayotiy manfaatlarini ta'minlash, ularni zamonaviy ta'lim va tarbiya olishi, zarur kasb hunarni egallashi, yangi ish o'rinlari bilan ta'minlash, ish qobiliyati va salohiyatini yuzaga chiqarish, yosh oilalarni qo'llab–quvvatlash eng muhim ustivor vazifa bo'lib keldi.

Yoshlarimizning sportga bo'lgan qiziqishlarini nazarga olgan holda qilinayotgan ishlar katta salmoqqa ega bo'lmoqda. Buni quyidagi misollar to'liq tasdiqlaydi. 2006 yilda jami 161 ta bolalar sport majmuasi foydalanishga topshirildi, shulardan 18 tasi yangitdan barpo etildi, 108 ta maktab sport zali hamda 35 ta sport majmuasi esa rekonstruksiya qilindi.

Birgina misol Abu Rayhon Beruniy nomidagi Toshkent Davlat Texnika universiteti qoshida zamonaviy talablar asosida sport majmuasi bunyod etildi. Unda sport zali, yopiq suv havzasi,

¹¹ «Xalq so'zi» gazetasi, 2006 yil 8 dekabr.

basketbol, voleybol, mini futbol maydonlariga ega majmuaning qo'shimcha xonalarida murabbiylar va sportchilar uchun barcha qulayliklar mavjud.

O'zbekistonning sport majmuasi 46 mingdan ortiq turli inshootlar, shu jumladan, o'yingohlar, sport zallari, maydonlar va hokazolardan iborat. Badantarbiya va sport bilan 7 mln.dan ortiq yurtdoshimiz shug'ullanadi. Ushbu misol bu borada qilingan ishlardan bir shingil xolos.

Mamlakatni modernizatsiya qilish va aholiga munosib turmush sharoitini yaratib berish borasida erishilgan natijalar salmoqli, rejalar esa undan ham salohiyatli bo'layotganligi Prezidentimizning O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasida «Yangilanish va barqaror taraqqiyot yo'lidan yanada izchil harakat qilish, xalqimiz uchun farovon turmush sharoiti yaratish-asosiy vazifamizdir» mavzusidagi ma'ruzasida o'zining yaqqol ifodasini topganini ko'ramiz.

2006 yili aholi jon boshiga real pul daromadlari 2005 yilning shu davrdagiga nisbatan 20,1 foizga, o'rtacha nominal ish haqi 33,8 foizga o'sdi. Respublikamiz bo'yicha 438 mingta yangi ish o'rni yaratildi.

Ma'ruzada Prezidentimiz, —«Mamlakatimiz iqtisodiyotining rivoji uchun mustahkam va barqaror poydevor yaratilganini hamda shakllanib borayotgan tendentsiyalarni hisobga olgan holda, biz o'z oldimizga 2007 yilda o'rtacha ish haqini kamida uchdan bir miqdorda, 2010 yilga borib esa, ya'ni uch yil davomida uni 2,5 barobar oshirish vazifasini qo'ymoqdamiz»—deb ta'kidladi. Statistik ma'lumotlar va sotsiologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, mamlakatimizda 2006 yilning oxirida o'rtacha real oylik ish haqi 185 ming so'mni yoki 150 AQSh dollarini tashkil etdi¹.

Tabiiyki shunga mos ravishda, pensiyalar, nafaqalar, stipendiyalar va aholiga to'lanadigan boshqa xil to'lovlar miqdori ham o'sib boradi.

2007 yilning davlat byujetidan ijtimoiy soha yo'nalishlari bo'yicha ajratilgan moliyaviy mablag'lar miqdori anchagina oshirilgan. Davlat byudjetining sotsial soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan umumiy harajatlari 2006 yilda 51 foizni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatgich 2007 yilda 54,1 foizni tashkil etadi. Kam ta'minlangan, yosh bolali oilalarga beriladigan ijtimoiy nafaqalar uchun mo'ljallangan harajatlar miqdori 2007 yil byudjetining 7 foizni tashkil etishi lozim.

2007 yilni yurtimizda «Ijtimoiy himoya yili» deb e'lon qilindi. Shu munosabat bilan 2007 yil 24 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ijtimoiy himoya yili Davlat dasturi to'g'risida» Qarori e'lon qilindi.

«Ijtimoiy himoya yili» Davlat dasturi quyidagilarni qamrab oladi:

- ijtimoiy himoya tizimi samaradorligini oshirish maqsadida aholining ijtimoiy nochor qatlamlariga tabaqalashtirilgan holda yondoshuvni kuchaytirishga xizmat qiladigan huquqiy me'yor va qoidalar qayta ko'rib chiqiladi;

- nochor oilalar, nogironlar va yolg'iz keksalarga aniq va samarali yordam ko'rsatish, ular ehtiyojlari yanada to'liq qondirilishini ta'minlash, ularga moddiy va ma'naviy madad berish, umuman aholini ijtimoiy himoya qilishda mahallaning roli yanada kuchaytiriladi;

- mehribonlik uylari va maxsus maktab-internatlarning moddiy-texnika negizini mustahkamlash, boquvchisiz qolgan bolalarga e'tiborni kuchaytirish, «Sen yolg'iz emassan» insonparvarlik shiori hayotga amaliy joriy etilishini ta'minlash chora-tadbirlari ko'riladi;

- jismoniy sog'lom, ma'naviy boy avlodni shakllantirish chora-tadbirlari yanada kengaytiriladi, onalik va bolalik to'g'risida g'amxo'rlik kuchaytiriladi. «Sog'lom ona - sog'lom bola» harakati rivojlantiriladi;

- «Mehribonlik», «Sahovat» va «Muruvvat» uylarining ijtimoiy xizmat ko'rsatish xodimlari mehnatini rag'batlantirish va munosib baholash mexanizimi yanada takomillashtiriladi;

- yoshlarning hayotiy manfaatlarini ta'minlash, ularning qobiliyati va salohiyatini yuzaga chiqarish uchun zarur sharoitlar yaratiladi, yosh oilalar mustaqil hayotga qadam qo'yishda ular moddiy va ma'naviy rag'batlantirish yo'li bilan qo'llab-quvvatlanadi.

¹. Karimov I.A. Yangilanish va barqaror taraqqiyot yo'lidan yanada izchil harakat qilish, xalqimiz uchun farovon turmush sharoiti yaratish-asosiy vazifamiz "Xalq so'zi", 2007 yil 13 fevral


«Ijtimoiy himoya yili» Davlat dasturida aholini ijtimoiy muhofaza qilishni yanada kuchaytirish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan yana ko'pgina muhim chora - tadbirlar ham ko'zda tutilgan. Ular nafaqat muhtoj insonlar va kam ta'minlangan oilalarni moddiy va ma'naviy jihatdan ko'llab - quvvatlashga, balki yanada muhimi jamiyatimizda o'zaro qadr - qiymat, mehr - oqibat, bag'rikenglik muhitini mustahkamlashdek olijanob maqsadlarga ham xizmat qiladi. Demak, qarorda aholini ijtimoiy himoya qilish ko'lamlarini yanada kengaytirish va kuchaytirish, aholining muhtoj toifalari va oilalarga, nogironlar va yolg'iz keksalarga aniq, tabaqalashtirilgan tarzda yordam ko'rsatish samaradorligini oshirish, aholi daromadlari darajasidagi farqlarning keskin oshishiga yo'l qo'ymaslik, jamiyatda hamjixatlik, ezgulik va mehr-shafqat muhitini qaror toptirish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish nazarda tutilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirish Prezidentimiz aytganidek, -hayotimizni yanada obod va farovan etishga xizmat qiladi.

«Ijtimoiy» degan so'z ko'pchilikka, jamoatchilikka mansub degan ma'noni ifoda etishini hisobga olgan holda ijtimoiy himoya masalasi-bu faqat davlat va hokimiyat tashkilotlari, ijtimoiy ta'minot va hayriya muassasalarining ishi emas, bu o'ta muhim masala jamiyatimizning, barchamizning burchimizdir.

2008 yil mamlakatimizda-"Yoshlar yili" deb e'lon qilindi. Yoshlar yili Davlat dasturi bo'yicha yurtimizdagi yoshlarni ayniqsa, yosh oilalarni ijtimoiy himoya qilish Davlat dasturining asosiy asosiy maqsadidir.

«Biz shunchaki demokratik davlat emas, balki adolatparvar, demokratik davlat qurishga intilmoqdamiz. Adolatga intilish-xalqimiz ma'naviy-ruhiy dunyosiga xos eng muhim xususiyat. Adolatparvarlik g'oyasi butun iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar tizimiga singib ketishi, ijtimoiy ko'maklashuv mexanizimida o'z aksini topishi kerak».


I.A. Karimov



Bozor munosabatlari sharoitida ijtimoiy himoya modellari

Skandinaviyacha modeli	Bismark modeli	Bekerij modeli
(Finlyandiya, Shvesiya, Norvegiya)	(Germaniya, Fransiya, Italiya, Bel'giya)	(Angliya)

Ijtimoiy adolat tamoyilining jamiyat hayotidagi oʻrni.



O'zbekistonda ijtimoiy imoya muamolari qanday hal etilmoqda

1.Buning uchun dastavval qonunlar tizimi yaratildi.

2. Keskin tabaqalanishdan xoli bo'lgan mulkdorlar sinfi shakllantirila boshlandi.

3.Iqtisodiy taraqqiyot inson manfaatlari tomon yo'naltirilyapti.

**Ijtimoiy himoyaning davlat siyosatidagi o'rnini
belgilovchi sabablar.**

1.O'zbekistonda qishloq xo'jalik ma'sulotlari ishlab chiqarishning texnologiyalashuvi endigina oyoqqa turmoqda.

2. Mamlakat aholisining 65% qishloqda yashaydi. Agrar sohaning yaxshi rivojlanmaganligi aholining bu qismi orasida himoyaga muhtoj oilalarning ko'pligiga sabab bo'ladi. Bu esa o'z navbatida ularni ijtimoiy himoyalash vazifasini qo'yadi.

3.Mamlakat aholisi orasida yoshlar katta salmoqqa ega, bu esa yoshlarni ijtimoiy himoya tizimi orqali mu'ofaza qilishni talab etadi.

Jamiyatning o'zini-o'zi ijtimoiy himoyalash tizimiga o'ta borishini ta'minlash uchun qanday tadbirlarni amalga oshirish kerak.

Nodavlat, nohukumat tashkilotlar, jamg'armalar, uyushmalar va turli shakildagi mulk egasi bo'lgan tashkilotlarning moddiy ahvolini yaxshilashni qo'llab-quvvatlash;

Nomi zikr etilgan muassasalarning xorijiy turdosh muassasalar bilan hamkorligini yo'lga qo'yishda ko'maklashish;

Ijtimoiy himoya tizimida ijtimoiy muhofazalanishni asta-sekin ijtimoiy fondlar zimmasiga o'tkaza borish;

Ijtimoiy muhofazalanishda boqimandalik, masuliyatsizlik, beparvolik singari illatlarga barham beruvchi ta'sirchan vosita va usullarni qidirib topish va hayotga joriy etish.

Qisqacha xulosalar

Odamlar ijtimoiy himoyalangan va kafolatlarning kuchli, ta'sirchan vositasi mavjud bo'lgan taqdirdagina bozor iqtisodiyoti sari jadal harakatni ta'minlash, tarkibiy qayta qurish, ishlab chiqarish munosabatlarini tubdan isloh qilish va ayni paytda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni saqlab qolish mumkin.

O'zbekiston ichki siyosatining negizi-inson man'faatlariga qaratilgan mehnatni rivojlantirish kuchli mexanizmiga ega bo'lgan va aholining ijtimoiy nochor qatlamlarini davlat yo'li bilan himoya qiladigan bozor iqtisodiyotini qurishdan iboratdir.

Ana shu qoidaga asoslangan holda O'zbekistonning bozor munosabatlariga o'tish yo'li ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti nomini oldi. O'tish davrining barcha bosqichlarida oldindan kuchli ijtimoiy siyosatni o'tkazish asosida olib borish ko'zda tutildi. Iqtisodiy islohotlarning hamma tamoyillari va barcha qoidalari ijtimoiy islohotlarning vazifalarini hal etishga, aholini ijtimoiy himoyalash sohasidagi qat'iy kafolatlarni vujudga keltirishga bo'ysundirildi.

Tayanch so'zlar

Ijtimoiy himoya, ijtimoiy adolat, fozil jamiyat, qonun ustuvorligi, iqtisodiy erkinlik, ijodiy imkoniyatlar, teng bo'lish, taqsimlash adolati, tabaqalanish, kam ta'minlangan, nochor, qarovsiz, yordamga muhtoj, ijtimoiy zaif qatlam, moddiy qo'llab-quvvatlash va inson manfaati.

Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. O'zbekiston ichki siyosatining negizini nima tashkil etadi?
2. Bozor iqtisodiyotiga o'tishdan ko'zlangan maqsad nima?
3. Bozor iqtisodiyotiga o'tishda ijtimoiy himoyaning zarurligi?
4. Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tishdan ko'zlangan maqsad?
5. Adolat inson hayotida qachon paydo bo'ladi?
6. Keskin tabaqalanish salbiy holatmi?
7. Ijtimoiy adolat printsiplari qaysilar?
8. Inson omili va uning ahamiyati?
9. 2012 yil «Mustahkam oila yili» deb nomlanishidan ko'zlangan maqsad?
10. Sahovat va muruvvat so'zlarining ma'nosi?

Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.: "O'zbekiston", 2011. 3-36-b.
2. «Homiylilik to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining Qonuni. "Xalq so'zi". 2007 yil 3 may.
3. "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" Davlat dasturi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. "Xalq so'zi" 2011 yil 21 yanvar'.
4. "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 20 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. "Xalq so'zi" 2011 yil 7 aprel'.
5. Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. - T.: O'zbekiston, 2005.- 3-48-b.
6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch.-T.: Ma'naviyat.2008.- 176 b.
7. Karimov I.A. Eng asosiy me'zon – hayot haqiqatini aks ettirish.-T.:O'zbekiston,2009.-24 b.
8. Karimov I.A. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. - T.: O'zbekiston, 2009.- 56 b.
9. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi "Xalq so'zi", 2010 yil 13 noyabr'.
10. Karimov I. A. "Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qilsin". "Xalq so'zi", 2011 yil 23 yanvar.
11. Karimov I.A. "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida". –T.: O'zbekiston, 2011.- 157-192-b.
12. I. A. Karimovning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 20 yilligi tantanalaridagi nutqi. "Xalq so'zi", 2011 yil 1 sentyabr'.
13. Karimov I. A. "Bizning yo'limiz – demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo'lidir". "Xalq so'zi", 2011 yil 8 dekabr'.
14. Karimov I.A. "Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir". "Xalq so'zi", 2012 yil 8 dekabr.
15. Karimov I.A. "Bosh maqsadimiz - keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish". "Xalq so'zi", 2013 yil 20 yanvar.
16. Aliyev B., Hoshimov T., Yuldashev O. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. Darslik .-T. "Iqtisodiyot", 2008. -164-179-b.

17. Aliyev B., Yuldashev O., Qahhorova M. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. O'quv qo'llanma.-T.: "Iqtisodiyot".2011. -198-217-b.

10 - Mavzu. O'ZBEKISTONNING JAHON HAMJAMIYATI BILAN HAMKORLIGIDA DEMOKRATIK TAMOIYILLARGA ASOSLANISHI.

10.1. O'zbekiston va jahon hamjamiyati. O'zbekistonning xalqaro hamjamiyatga qo'shilishidagi demokratik tamoyillar haqida. Demokratik tartibotlar va uning asosiy yunalishlari.

Har bir mamlakat, davlat jahon hamjamiyatida o'ziga munosib o'rnini egallashga intiladi. O'zbekiston mustaqil davlat sifatida dunyo mamlakatlari orasida mustahkam o'rnini egalladi. Siyosat ijtimoiy-iqtisodiy hayotda o'zi tanlagan yo'ldan ishonch bilan olg'a bormoqda.

O'zbekiston o'z mustaqilligini e'lon qilgandan so'ng 50 dan ortiq jahonning eng nufuzli tashkilotlariga a'zo bo'ldi. BMT, YUNESKO, Yevropa Xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Xalqaro Valyuta jamg'armasi, Xalqaro Moliya korporatsiyasi, Xalqaro Mehnat tashkiloti, Jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti va boshqa xalqaro, mintaqaviy tashkilotlar hamda assotsiyalardir. O'zbekistoni dunyodagi 170 tadan ortiq davlat tan olgan, 120 tasi bilan diplomatik munosabatlar o'rnatilgan. Ma'lumki, har qanday davlat xalqaro tashkilotlarda qanchalik keng qatnashsa, u xalqaro hamjamiyatga shu darajada keng kirib boradi. Jahonda tinchlik, osoyishtalik, o'zaro hamkorlik uchun ko'rashda tegishli darajada faol qatnasha oladi. Insoniyat taraqqiyotiga qo'shayotgan o'z ulushini yanada oshirib boradi, jahonning rivojlangan davlatlari bilan tobora yaqinlashadi, ularning fan, texnika va texnologiya sohasidagi yangiliklarini samaraliroq qabul qilib oladi. Ayni vaqtda, davlatimizning xalqaro tashkilotlarga keng miqyosda kirib borishi, terrorizm, narkobiznes, mintaqaviy xavfsizlik hamda tanglikka rahna soluvchi tahdidlarga qarshi kurashda keng imkoniyatlar yaratadi.

Bugungi kunda o'z mustaqil tashqi siyosatini konstitutsiyaviy qoidalarga tayanib yuritayotgan «O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli sub'ektdir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning dahlisizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umum e'tirof etgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi»¹.

O'zbekiston butun dunyoda o'zini tashqi siyosiy va madaniy aloqalarning boy tarixiga ega bo'lgan va mustaqil ravishda zamonaviy diplomatik aloqalarni amalga oshirayotgan tinchliksevar huquqiy davlat sifatida namoyon etmoqda. Halqaro huquqiy jihatdan O'zbekistonga asrlar osha buyuk bo'lib qolgan davlatlar ham, davlatchilik tarixi ko'p jihatdan biznikiga o'xshash yosh mamlakatlar ham bab-barobardir.

O'zbekiston Jahon Iqtisodiy anjumani Shvetsariyaning Davos shahrida taniqli iqtisodchilar, tijoratchilar, olimlar, davlat va hukumat boshliqlari, jamoat arboblarning muntazam ravishda o'tkazilib turadigan mo'tabar uchrashuvlarining doimiy ishtirokchisidir. Jahon Iqtisodiy anjumanining Istanbul va Toshkent shaharlaridagi kabi yalpi va mintaqaviy uchrashuvlari respublikamiz uchun amaliy aloqalar o'rnatishning va islohotlar qay darajada asosligini xalqaro iqtisodiy ekspertizadan o'tkazishning muhim vositasiga aylandi.

O'zbekiston tashqi siyosatining jug'rofiyasi uzluksiz kengayib bormoqda. Bu esa davlatimizning strategik yo'lga mos keladi. Davlatimiz suverenitetining eng muhim kafolatlaridan biri esa, jahon hamjamiyatining ishonchidir.

O'zbekiston tashqi siyosatining asosida davlat mustaqilligi, o'zbek xalqining, butun xalqning yuksak manfaatlari, uning farovonligi va xavfsizligi yotadi. Tabiiyki bunda o'z sheriklarining manfaatlari, ularning hayotiy yo'nalishlari hisobga olinadi, chunki I.A.Karimov ta'kidlab ko'rsatganidek, mushtaraklik bo'lmasa tashqi siyosat ham bo'lmaydi.

¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: «O'zbekiston». 2003, 10-bet.

Xalqaro munosabatlarda foydalilik deganda faqat hozirgi moddiy manfaatlarning bir o'zi tushunilmaydi, agar shunday deb tushuniladigan bo'lsa, hurmat va ishonchni boy berib qo'yishi mumkin.

Bizning xalqaro maydondagi ilk qadamlarimiz, munosabatlarimizning davlat sha'niga va hurmatiga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. O'zbekiston Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari singari jahon hamjamiyati hayotida faollik ko'rsatishni, o'z mustaqilligining tashqi siyosatdagi ustivorligi deb hisoblaydi.

O'zbekiston diplomatiyasining yana bir muhim tamoyili, har bir xalqaro bitimning mustahkam huquqiy zaminga ega ekanligidir. Shu bois ham mamlakatimizning qonun chiqaruvchi yuqori organi–Oliy Majlisda xalqaro shartnomalar va bitimlarni ratifikatsiya qilish bilan bog'liq bo'lgan hech qanday ziddiyatlar yo'q. O'zbekiston qonunlari respublikamizning barcha tashqi siyosiy majburiyatlarining bajarilishini ta'minlaydi. Ha, chegaralarining barqarorligi masalasida ham, inson huquqlari va milliy guruhlarining huquqlari bo'yicha ham, chet ellik investorlar, mulkdorlar, fuqarolarning huquqlariga so'zsiz rioya etishi xususida ham bu huquqlarning bajarilishi kafolatlangan.

Bizning suveren davlatimiz o'zining huquqiy qiyofasini yo'qotmagan holda, jahon hamjamiyatiga kirish uchun zarur bo'lgan xalqaro talab va standartlariga rioya qilishga tayyor. Xo'sh, bu erda so'z nima haqida boradi? Umumjahon inson huquqlari Deklaratsiyasiga asoslangan kafolatlar to'g'risida, BMT ustavi va Xel'sinki bitimlari to'g'risida, Yevropa Xavfsizlik va hamkorlik kengashining asosiy hujjatlari:–hujum qilmaslik, xalqaro munosabatlarda urush bilan tahdid solishdan voz kechish va hokazolar to'g'risida. Xalqaro huquqning milliy huquqdan ustunligiga O'zbekiston har doim amal qilib kelmoqda.

O'zbekiston tashqi siyosatida iqtisodiy omillar hal qiluvchi rol' o'ynaydi. Mamlakatimiz ana shu muhim sohani o'zlashtira borib, o'z mustaqilligini, uning eng jiddiy yo'nalishi bo'lgan iqtisodiyotda mustahkamlanmoqda. Xalqaro Valyuta fondi, Xalqaro Tiklanish va taraqqiyot banki bilan yaqindan va mustahkam aloqalar o'z samarasini bermoqda. Dunyoning 80 dan ortiq etakchi banklari bilan korrespondentlik aloqalari yo'lga qo'yildi. Chet mamlakatlar bilan hamkorlik qilish to'g'risida, shu jumladan investitsiyalarni rag'batlantirish va himoya qilish to'g'risida 300 dan ortiq tashqi iqtisodiy hujjatlar amal qilib turibdi, 80 ga yaqin mamlakatlarning vakillari O'zbekistonda qo'shma korxonalar ochdilar.

2006 yilda O'zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalarini kengaytirish, tashqi savdo hajmini oshirishda sezilarli yutuqlarga erishildi. Jumladan, tashqi savdo ayirboshlash hajmi 10 mlrd. 500 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Bu esa 2005 yil natijalari bilan solishtirganda 9,0 foiz ko'p demakdir. Bunda eksport hajmi 31,5 foizga o'sib 2000 yilga nisbatan 2 martadan ko'proq ortdi. Tashqi savdo aylanmasining ijobiy sal'dosi yil davomida qariyb 2 milliard AQSH dollariga o'sdi.

Xalqaro tashkilotlarda faol qatnashish O'zbekistonni jahon miqyosida tanishtirish, uning xalqaro mavqeini oshirishning muhim va samarali yo'lidir. Buning uchun xalqaro tashkilotlar darajasida fikr yuritib, xalqaro tillarda erkin so'zlashib, Vatanimizni ulug'lay oladigan yoshlarimizning saflarini kengaytirishimiz zarur va kerak.

10.2. O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo'shilishi. O'zbekistonning AQSh Rossiya va boshqa Yevropa, Osiyo davlatlari bilan hamkorligi.

O'zbekiston Respublikasi hayotidagi asosiy voqealaridan biri, bu – O'zbekistonning 1992 yil 2 martda BMTga qabul qilinishi bo'ldi. BMT bilan hamkorlik doirasida O'zbekiston rahbariyati tomonidan uchta asosiy vazifa belgilangan:

- BMTni isloh qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining nuqtai nazarini ilgari surish;
- Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli hudud yaratishni nihoyasiga etkazish;
- BMTning Narkobiznes, ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash bo'yicha Mintaqaviy markazini barpo etish haqidagi O'zbekiston Prezidenti tashabbusini amalga oshirish;
- Markaziy Osiyoda ekologik vaziyatni sog'lomlashtirish yo'lida bu faoliyatning samaradorligini oshirish va miqyoslarini kengaytirish yo'lida birgalikda harakat qilish.

Birlashgan millatlar tashkilotining mavqe va obrusi yil sayin oshib bormoqda. Unga a'zo bo'lishni va a'zolikka qabul etilishni har bir mustaqil davlat faxrli qadam deb biladi, chunki bunday voqea ushbu davlat jahon demokratik davlatlar hamjamiyatiga qabul qilindi va kirdi degan ma'noni anglatadi.

O'zbekistonning Yevropa Xafsizlik va hamkorlik tashkiloti bilan hamkorligi mamlakatimiz uchun avvalgidek ustivor yo'nalish bo'lib qolmoqda. O'zbekistonning YXHT bilan hamkorligi tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, u ilk mustaqillik davrimizga borib taqaladi. 1992 yil 26 fevral kuni Xel'sinki shahrida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov Yevropa Xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti konferentsiyasining 1975 yilgi yakuniy aktini imzoladi. SHu kundan boshlab O'zbekiston YXHTning teng huquqli a'zosiga aylandi.

1994 yil YXHT (Vena shahri)da O'zbekiston Respublikasining vakolatxonasi o'z faoliyatini boshladi. 1995 yil 16 martda Yevropa Xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti Doimiy Kengashining qarori bilan Toshkent shahrida Markaziy Osiyo aloqalari bo'yicha YXHT Byurosi ochildi. 2000 yil 14 dekabrda Markaziy Osiyo aloqalari bo'yicha Toshkent shahridagi YXHT Byurosi YXHT Markaziga aylantirildi.

YXHT O'zbekistonda amalga oshirayotgan ishlarni qo'yidagicha tahlil qilish mumkin. YXHTning Toshkentdagi markazi asosan quyidagi yo'nalishlarda ish olib boradi: terrorizmga qarshi kurash, o'q otar qurollar va giyohvand moddalarning O'zbekistonga kirib kelishining oldini olish, chegaralar xavfsizligini kuchaytirish, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish, atrof muhit bo'yicha bilimlarni oshirish, ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish, inson savdosiga qarshi kurash kabi masalalar bo'yicha o'quv seminarlari tashkil qilish, hamda boshqalar.

O'zbekistonning AQSh, Frantsiya, Germaniya, Yaponiya, Xitoy, va dunyoning boshqa salohiyatli davlatlari bilan har tomonlama munosabatlari rivojlanmoqda. Ushbu davlatlar bilan o'zaro hamkorlik uzoq muddatli asosga ega. Terrorizmga qarshi kurash va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash, mintaqada narkotik moddalarining noqonuniy aylantirishga to'sqinlik qilish masalalari bo'yicha, siyosiy muloqotini rivojlantirish, huquqni muhofaza qilish va harbiy–texnikaviy sohalaridagi hamkorlik–O'zbekiston milliy manfaatlariga mos keladi.

Ushbu davlatlar bilan hamkorlikning yana bir muhim sohasi–sarmoyalar jalb qilish sa'y–harakatlarini kuchaytirish, etakchi davlatlar bilan ikki tomonlamalik asosida, shuningdek xalqaro tashkilotlar doirasida iqtisodiy hamkorlikni faollashtirishdir. Madaniyat, ta'lim sohalaridagi o'zaro munosabatlarining yuqori mavqeni saqlab qolishga ham katta ahamiyat berilmoqda.

O'zbekiston AQSh bilan hamkorlikni tashqi siyosatining ustivor vazifasi deb qaraydi. AQSh bilan aloqalar to'g'risida Prezidentimiz I.A.Karimov shunday deb ta'kidlagan edi: - «Dunyoning etakchi davlati bo'lgan, juda katta siyosiy, iqtisodiy, harbiy–texnikaviy, intellektual salohiyatga ega bo'lgan AQSh bilan ko'p tomonlama munosabatlarni rivojlantirish va chuqurlashtirish hozir biz uchun ustivor ahamiyat kasb etmoqda. Qo'shma Shtatlar jamiyatimizni yangilash, isloh qilish va demokratlashtirish, respublikamizning davlat mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash jarayoniga salmoqli hissa qo'shmoqda. Biz Amerika firmalari va kompaniyalari bilan qo'shma investitsiya loyihalarini amalga oshirishga, ular bilan uzoq muddatli, o'zaro foydali sherikchilik munosabatlarini o'rnatishga, Amerika kapitalining bizning bozorimizdagi ishtiroki kengayishiga katta ahamiyat beramiz»¹.

O'zbekiston bilan AQSh o'rtasidagi aloqalar mustaqillikning dastlabki yillaridayoq yo'lga qo'yildi. 1992 yil 15–16 fevral kunlari AQSh davlat kotibi Jeyms Beyker O'zbekistonga rasmiy tashrif buyurdi va ikki davlat o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatildi. Toshkentda AQSH elchixonasi ochildi.

1993 yili Amerika–O'zbekiston Savdo palatasi tuzildi. Ushbu qo'shma palata ikki tomonlama savdo–iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga ko'maklashish va O'zbekiston iqtisodiyotiga Amerika sarmoyasini jalb qilish vazifasini qo'ydi.

Buning natijasi sifatida Muruntov oltin konida O'zbekiston–Amerika «Zarafshon–N'yumont» qo'shma korxonasi tashkil topdi. Yuqori sifatli oltin ishlab chiqarish bo'yicha

¹ Karimov I.A. O'zbekiston buyukkelajak sari.-T.: «O'zbekiston». 1998,48-bet

respublikamiz jahondagi etakchi mamlakatlar qatoriga kirdi. Mazkur qo'shma korxona 1995 yildan foydalanishga topshirilgan. «Zarafshon - N'yumont» butun sobiq sho'ro respublikalari ichida chiqindilardan tijorat asosida oltin oluvchi yagona korxona hisoblanadi. Qo'shma korxonada qo'llanilayotgan o'ta zamonaviy texnologiya tufayli olinayotgan oltin arzonga tushmoqda.

O'zbekiston sanoatining bugungi kundagi ravnaqi uchun AQSh sarmoyasining kiritilishi katta ahamiyatga ega bo'lmoqda. Masalan, AQShdagi xorijiy xususiy sarmoyalar korporatsiyasi OPEK ajratgan 400 million AQSh dollari O'zbekistonda gaz sanoatini rivojlantirishga xizmat qildi. AQSh ning Eksport–import banki (Eksimbank) 800 million AQSh dollari hajmidagi krediti bilan O'zbekistonda o'ndan ortiq loyihalarni amalga oshirishda ishtirok etmoqda. Jumladan, Ko'kdumaloq Kompressor stantsiyasi, Buxoro Neftini qayta ishlash zavodi, Sho'rtangaz Kimyo majmui va boshqalardir.

O'zbekiston va AQSh o'rtasidagi munosabatlar rivojlaib, «Boing», «Uayd - end», «Koka-kola», «Katerpillar», «Kargil», «Enron», «Ekson», «N'yumont Gold», «Ameriken interneyshanl Grupp», «Teksako» kabi jahonga mashhur kompaniyalar faoliyat ko'rsatmoqda. So'nggi yillarda O'zbekiston va AQSh o'rtasidagi munosabatlar biroz susaygan bo'lsada, bu masala O'zbekiston uchun muhim bo'lib qolaveradi.

Respublikamiz Prezidenti Islom Karimov ta'kidlashicha: - «O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan hamkorlik qilishida Yevropa imkoniyatlari hayotiy muhimdir. Yevropa va butun g'arb texnologilari va investitsiyalar manbaidir, hozirgi zamon demokratiyasi va inson huquqlarining ramzidir. XXI asrga xavfsizlik ta'minlangan va barqaror rivojlanayotgan, yuksak darajada taraqqiy etgan va zamonaviy demokratik davlat bo'lib kirish maqsadida yangilanish va taraqqiyotni o'zining strategik vazifasi qilib olgan O'zbekiston davlati uchun hayotiy zaruratdir».

Yevropa bilan hamkorlik 1993 yil 28 aprel' kuni Prezident I.A.Karimovning Germaniyaga rasmiy tashrifidan so'ng boshlandi. Bu safarni jahon jamoatchiligi katta qiziqish bilan kuzatgan edi. Chunki, ular iqtisodiy inqirozdan endigina chiqayotgan yosh, mustaqil O'zbekistonni iqtisodiy jihatdan baqquvat Germaniyadek davlatdan moddiy yordam so'rab kelmoqda, degan fikrda edilar. Islom Karimov samolyot pillapoyasidan tushgan zamoni jurnalistlarning savollariga shunday javob berdi: –Men O'zbekistonni nemislarga tanishtirishga keldim, O'zbekiston hech kimdan sadaqa so'ramaydi, faqat tengma–teng hamkorlikka tayyor»¹. Bunday javob ko'pgina jurnalistlar va siyosatdonlarni hayratga soldi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda Germaniyaning 60 dan ortiq qo'shma korxona va kompaniyalari faoliyat ko'rsatmoqda. Ular orasida «Mersedes–bents», «Alkatel», «Semens» va boshqalardir. 2000 yilning bahorida Germaniya va Avstriya hamkorligida Toshkentda qurilib ishga tushirilgan «Xobas–TAPO» qo'shma korxonasi nometall, turli diametrdagi plastmassa quvurlar ishlab chiqara boshladi. Bu quvurlardan foydalanish muddati metall quvurlarga nisbatan 3–4 barobar yuqori. Korxona mahsulotiga bo'lgan ehtiyoj O'zbekistonda ham, xorijda ham ortib bormoqda.

Yevropada rivojlangan davlatlardan biri bo'lgan Frantsiyaga Prezidentimiz I.A.Karimovning rasmiy tashrifi 1993 yil 28 - 30 oktyabr' kunlari bo'ldi. Ushbu tashrif bilan ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikka asos solindi. Frantsiya bilan O'zbekiston o'rtasida do'stlik, hamkorlik, madaniyat, ilmiy–texnikaviy, maorif sohasida, sarmoyalarni o'zaro rag'batlantirish va himoyalash to'g'risida bitimlar imzolandi. O'zbekiston Prezidentining «Parij Xaritasi»ni imzolashi, O'zbekistonning Yevropa va boshqa taraqqiy etgan mamlakatlar bilan yanada yaqinlashuvida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Hozirgi kunda Frantsiyaning «Texnil», «Dileplang», «Ron - pulenk agroshimi», «El'f–akiten», «Kopiko», «Sofinfro», «Shobon sa», «Bofuribsen» kabi taniqli firma va kompaniyalari faoliyat ko'rsatmoqda. Masalan: «Texnil» firmasi «O'zbekneftgaz» korporatsiyasi bilan birgalikda Buxoroda Neftni qayta ishlash zavodining ishga tushirilishidir. Bu zavod 300 gektar erni egallab, qiymati 500 mln. AQSH dollariga teng. 1997 yildan bu korxonaning ishga tushirilishi natijasida respublikamiz neft borasida mustaqillikka erishdi. 1991 yilda respublikamizga 4,5 mln. tonna neft va neft mahsuloti olib kelingan bo'lsa, hozirgi kunda bu mahsulotlarni eksport qiladigan

¹ Karimov I.A. O'zbekiston burok kelajak sari.-T.: «O'zbekiston». 1998, 665-bet

mamlakatga aylandi. Yoki «Bung» qo'shma korxonasi 21 oyda qiymati 181 mln. frank turadigan «Xitoy–Toshkent» mehmonxonasini qurib ishga tushirdi. O'zbekiston–Frantsiya o'rtasidagi tovar ayirboshlash 2000 yil 200 mln. AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2005 yilda bu ko'rsatkich 300 mln. AQSH dollaridan oshib ketdi.

O'zbekistonning Osiyodagi eng yirik sheriklaridan biri Xitoy Xalq Respublikasidir. U o'tgan asrning 80–yillaridan boshlab uzluksiz ravishda nafaqat Osiyoda, balki butun dunyoda rivojlanishning iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari bo'yicha etakchi o'rinlarni egallab kelmoqda. O'zbekiston va Xitoy xalqining azal–azaldan «Buyuk Ipak yo'li» bog'lab kelgan. Oxirgi yillarda ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik yangi ma'no kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezident I.A.Karimovning 2005 yil 25–27 mayida, XXR raisi Xu Izintao takliflariga binoan Xitoyga buyurgan davlat tashrifi natijasida ikki mamlakat o'rtasida ko'p tomonlama munosabatlarni yanada rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasida do'stlik, hamkorlik va sheriklik munosabatlari to'g'risidagi bitim imzolandi. Bundan tashqari, tashrif chog'ida imzolangan iqtisodiy va investitsion sohalaridagi hamkorlikni yanada kengaytirishga qaratilgan hujjatlarga ko'ra, yaqin yillarda 1,5 milliard AQSh dollariga teng bo'lgan Xitoy sarmoyalarini mamlakatimiz iqtisodiyotiga jalb etish ko'zda tutilgan. Ta'kidlab o'tish joizki, mamlakatlarimiz o'rtasidagi o'zaro savdo aylanmasi ham muntazam ravishda o'sib bormoqda. Masalan, 2000 yil natijalari bo'yicha u atigi 95 million AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2005 yil natijalari bo'yicha ushbu ko'rsatkich qariyb besh barobarga ko'payib, 485,4 mln AQSh dollariga etdi. Yaqin yillar ichida O'zbekiston–Xitoy o'zaro savdo aylanma miqdori 1 mlrd. AQSh dollaridan oshadi.

Yaponiya ham ko'p yillar davomida O'zbekistonning ishonchli hamkoridan biri bo'lib kelmoqda. Ikki mamlakat o'rtasida ko'p qirrali hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Mintaqaviy va global miqyosdagi muammolar echimini topish hamda globalizatsiya jarayonidagi iqtisodiy rivojlanishning istiqbolli usullariga nisbatan Toshkent bilan Tokio yaqin va hamoxang yondoshuvga ega. O'zbekiston Yaponiyaning "Markaziy Osiyo - Yaponiya" ko'rinishidagi hamkorlikni yo'lga qo'yishga qaratilgan tashabbusni qo'llab - quvvatlaydi.

Yaponiyaning ko'plab ilg'or texnologiyalariga ega ekani va uning katta investitsion salohiyatini e'tiborga olgan holda, hozirgi kunda O'zbekiston - Yaponiya iqtisodiy hamkorligini yanada kengaytirishni talab qilinadi. Qo'shma korxonalarni tashkil etish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Davlatlarimiz o'rtasidagi mavjud savdo ayirboshlash hajmi bu sohadagi salohiyatimizdan ancha past va yaqin kelajakda bu ko'rsatkichni bir necha barobar oshirish uchun barcha imkoniyatlar bor.

2006 yilning 28–30 mart kunlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Koreya Respublikasiga qilgan tashrifi natijasida mamlakatimiz iqtisodiyotining qator sohalarida, jumladan, neft' va gaz, engil sanoat, mineral xom–ashyo qazib chiqarish va boshqa sohalarida Janubiy Koreyaning yirik korporatsiyalari tomonidan investitsion loyihalarning amalga oshirilishi ko'zda tutilmoqda. Koreya sarmoyalarining umumiy hajmi 1,8 mlrd AQSh dollarini tashkil etishi kutilmoqda. 2005 yil natijalariga ko'ra mamlakatimiz o'rtasidagi o'zaro savdo ayirboshlash hajmi 565 mln. AQSh dollariga teng bo'ldi, bu esa 2004 yil ko'rsatkichlari bilan taqqoslaganda, u ko'payib 152 mln. AQSh dollariga, ya'ni 37,2 % ga ko'paydi.

Janubiy Osiyoda jadal o'sib kelayotgan va hozirgi kunda jahon siyosatiga jiddiy ta'sir ko'rsata oladigan yana bir buyuk mamlakat Hindiston bilan O'zbekiston doimiy va o'zaro manfaatli munosabatlarini rivojlantirib kelmoqda.

2005 yilning 25–26 aprelida I.A.Karimovning Hindistonga buyurgan tashrifi chog'ida savdo, kichik biznes, madaniyat, ta'lim, turizm shuningdek, harbiy–texnikaviy va bank sohalaridagi o'zaro hamkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan 14 ta hukumatlararo va idoralararo hujjat imzolandi. 2006 yilning aprelida Hindiston bosh vaziri Manshoxon Singxin O'zbekistonga buyurgan tashrifi ikki tomonlama siyosiy, iqtisodiy gumanitar va boshqa sohalaridagi o'zaro hamkorligimiz izchil rivojlanib kelayotganiga misol bo'la oladi

Pokiston Islom Respublikasi va O'zbekiston respublikasi o'rtasida yo'lga qo'yilgan izchil siyosiy aloqalar, Markaziy va Janubiy Osiyoda tinchlikni mustahkamlash, shu jumladan,

Afg'onistonda bo'lib o'tayotgan murakkab tiklanish jarayonlariga imkon qadar ko'maklashish bo'yicha o'zaro hamkorlik qilishga qaratilgan. SHuningdek, Pokiston bilan terrorizm, narkobiznes va diniy ekstremizmga qarshi kurashning, hamda o'zaro foydali iqtisodiy hamkorlikni yanada kengaytirishning asosiy yo'nalishlari Prezident P.Musharrafning 2005 yil mart oyida va Pokiston hukumati boshlig'ining 2007 yil martida O'zbekistonga buyurgan tashriflari chog'ida atroficha ko'rib chiqildi va belgilangan maqsadlarga erishish bo'yicha tegishli kelishuvlar imzolandi.

O'zbekistonning Arab malakatlari, Janubiy Osiyo va Osiyo Tinch okeani mintaqasi davlatlari bilan munosabatlari izchil rivojlanib bormoqda.

Mamlakatimiz ushbu mintaqa davlatlari bilan ikki tomonlama va ko'p tomonlama o'zaro siyosiy munosabatlarni rivojlantirib, xalqaro tashkilotlar, jumladan BMT, Islom Konferentsiyasi tashkiloti kabi tizimlararo doirasida samarali hamkorlik qilib kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda, davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan tashqi siyosat mamlakatimizning tinch - totuv yashashini ta'minlash, Markaziy Osiyo mintaqasida barqarorlikni saqlash, O'zbekistonning milliy manfaatlarini himoyalash va iqtisodiyotimiz rivojlanishi uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha doimiy ravishda aniq va puhta o'ylab chiqilgan rejaga asosan olib borilmoqda.

10.3. O'zbekistonning Shanxay Hamkorlik tashkiloti (ShHT)dagi o'rni. Xalqaro terrorizm, ekstremizm va separatizmga qarshi kurashda o'zaro hamkorlikning ahamiyati bilan hamkorligi.

Shanxay hamkorlik tashkilotiga ana shu 2001 yil 15 iyunda O'zbekiston ham kirdi. Bu tashkilot a'zolari orasida BMT Xavfsizlik kengashining doimiy a'zolari bo'lmish Rossiya va Xitoy borligi bilan e'tiborga molik.

Bu tashkilot oldida turgan dolzarb muammolar:

- 1) Afg'oniston mojarosi, bu erdagi xunrezlik tugamas ekan, tahdid saqlanib qolaveradi. Natijada o'z-o'zidan yangidan-yangi muammolar kelib chiqaveradi.
- 2) Terror, ekstremizm, ayirmachilik va narkobiznes bir-biridan ayrim muammolar emasligi yaxshi ma'lum. Narkotik savdolar moddalar savdosidan kelgan milliard dollarlar evaziga qo'poruvchilar yollanmoqda. Unga qarshi bahamjihat kurashilmasa, natija kutilganidek bo'lmaydi.

Demak, Shanxay hamkorlik tashkiloti tuzildi, tuzish to'g'risida Dekloratsiya qabul qilindi, va terrorchilik, ayirmachilik va ekstremizmga qarshi kurash borasidagi SHanxay konvensiyasi imzolandi.

2001 yil 15 iyunda Xitoyning Shanxay shahrida 6 mamlakat rahbari SHHTni tuzish to'g'risidagi deklaratsiyaga imzo chekdi. 2004 yil 17 iyun kuni Toshkentda (Poytaxtning «Interkontinental» mehmonxonasida) Shanxay Hamkorlik Tashkilotining (ShHT) sammiti bo'lib o'tdi. Bu Toshkent uchrashuvida ko'rilgan masalalar orasida ShHT faoliyatining 2 asosiy yo'nalishi

Dunyoda yadroviy, kimyoviy, biologik, elektron terrorchilik havfi paydo bo'ldi. SHularni hisobga olganda ShHT egallagan mintaqada tahdidlarning oldini olish uchun bir tizim, umumiy mexanizm ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Toshkentda ochilgan Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi zimmasiga axborot almashish, chegara va bojxona qo'mitalarining, maxsus xizmatlarning hamkorligini muvofiqlashtirish, shu orqali terrorchilikning oldini olish vazifasi yuklangan. Prezident Islom Karimov tomonidan terror va narkobiznes uchun «tranzit davlat» tushunchasining o'zi yo'qligi qayd etildi.

Mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashda va beqaror rivojlantirishda Shanxay Hamkorlik tashkiloti (ShHT)ga alohida o'rin ajratilmoqda. Shu bois mazkur tuzilma tashqi siyosatning dolzarb masalalardan biri xavf - hatarlar darajasini pasaytirishdan iborat. Mamlakatimiz poytaxti Toshkentda faoliyat ko'rsatayotgan SHHTning Aksilterror tuzilmasi, terrorizm, diniy ekstremizm va separatizm kabi tahdidlarga qarshi kurashda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, ushbu tashkilot doirasida transport sohasida, iqtisodiy loyhalarni amalga oshirish, hamkorlikning muhim yo'nalishi bo'lib qoldi.

Shanhay Hamkorlik Tashkilotiga –Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekiston a'zo.

Tashkilotning asosiy maqsadi:

- a'zo davlatlar o'rtasidagi o'zaro ishonch va yaqin qo'shnihilik munosabatlarini mustahkamlash;

- mintaqada tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikning birgalikda ta'minlash va saqlab turish, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy - texnikaviy, madaniy aloqalardagi samarali hamkorlikka keng yo'l ochib berish;

- energetika, transport, turizm, atrof - muhitni himoya qilish va boshqa sohalardagi hamkorlikni kuchaytirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 2006 yil 15 iyunda ShHTning yubiley sammitida ishtirok e'tib bir necha masalalar bo'yicha a'zo davlatlar kelishib oldilar.

O'zbekiston rahbariyati o'z nutqida xalqaro hamjamiyatning sa'y-harakatlariga qaramay jahon tahdid va xavf-xatarlardan xalos bo'la olmayotganligi t'a'kidlandi.

10.4. Markaziy Osiyodagi demokratik jarayonlar va davlatlararo hamkorlik, hamjihatlik aloqalari.

Markaziy Osiyodagi mustaqil davlatlari bilan do'stona, qardoshlik munosabatlarini mustahkamlash, ular bilan qalin ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy munosabatlarni mustahkamlash, chuqurlashtirish va yanada rivojlantirish O'zbekiston tashqi siyosatining g'oyat muhim ustivor yo'nalishi hisoblanadi. Bu, bir tomondan, azaliy qon-qardosh bo'lgan an'analari, turmush tarzlari va urf-odatlarini bir bo'lgan xalqlarni yaqinlashtirish asosida ulkan hududda iqtisodiy barqarorlikni vujudga keltirib, tinchlik va osoyishtalikni mustahkamlash, turli ig'vogarliklar avj olayotgan bir paytda mazkur xalqlar bir-birini to'g'ri tushunib, og'a-ini bo'lib, eng og'ir paytlarda bir-biriga suyanib turishini ko'zda tutadi. Ikkinchidan, qiyin sharoitlarda iqtisodiy barqarorlikni saqlab turish va xalq turmush darajasini ko'tarishda mintaqaviy imkoniyatlardan ko'proq foydalanish zaminini yaratadi.

Mazkur respublikalarning iqtisodiyoti o'zaro chambarchas bog'langan va bir - birlariga ta'sir o'tkazib turgan bo'lib, bab-barobar mushkul ahvolda qolgan xo'jalik aloqalarini saqlab qolish va mustahkamlash zarurligi, yaxlit energetika, transport, irrigatsiya tarmoqlaridan, suv va gaz ta'minoti tizimidan birgalikda foydalanish shart-sharoitidan ham kelib chiqadi. Mineral xom-ashyo resurslarini va qishloq xo'jaligi mahsulotini qayta ishlash sohasida tarkib topgan ichki mintaqaviy kooperatsiya ham shuni taqozo etadi.

Orol buyidagi ekologiya falokat oqibatlarini bartaraf etish Orol dengizini qutqarish buyicha birgalikdagi chora-tadbirlarni amalga oshirish, mintaqalararo hamkorlik doirasida alohida ahamiyatga ega. Markaziy Osiyo davlatlarining samarali hamkorligi chegaradosh mamlakatlar, avvalo musulmon Sharq mamlakatalari bilan qo'shma loyihalarni birmuncha muvaffaqiyatli ravishda ro'yobga chiqarishga ham ko'maklashadi.

Jahon davlatchilik tarixi turli xildagi hamkorliklar-iqtisodiy, ijtimoiy hamda siyosiy hamjihatlik mintaqalarni rivojlanishiga sabab bo'lishiga guvoh bo'lmoqda. Eng taraqqiy etgan davlatlarda ham ana shunday hamkorlikni tashkil etishga ehtiyoj sezilmoqda. Yevropa Hamdo'stligi, Arab davlatlari Mavrit uyushmasi deb ataladigan OPEK –neft' ishlab chiqaradigan davlatlar hamkorligi faoliyat ko'rsatmoqda.

Bunday hamkorlikning boshqa turlari Afrika va Lotin Amerikasida ham bor. Hozirgi zamon jahon taraqqiyoti shuni ko'rsatadiki, hech bir mamlakat yakka o'zi, hech qaysi mamlakat bilan hamkorlik qilmasdan rivojlana olmaydi. O'z xalqi ehtiyojini har tomonlama qondirish imkoniyatiga ega bo'la olmaydi. Mabodo o'zini-o'zi ta'minlab, o'z ehtiyojlarini o'zi qondirgan taqdirda ham, hozirgi zamon siyosati bunday o'ziga «ishonuvchan»likni man-manlik, ibtidoiy va zo'rma-zo'raki ravnaq deb ta'riflaydi.

Qaysidir mamlakatning boshqa bir mamlakat bilan hisob - kitob qilishi, qaysidir qo'shni davlat bilan umumiy bozorni vujudga keltirishi, mahsulot ayirboshlashi, qolaversa, bir qator xalqaro

tashkilotlarga a'zo bo'lib, uning doirasida faoliyat ko'rsatishi tabiiydir. Ana shunday yo'ldan bormagan davlatlar ham mavjud. Jumladan, Samoli, Sudan, Zambiya va boshqa mamlakatlarda faqat o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanib ish tutish ayanchli oqibatlariga olib keldi. Bu mamlakatlarda urug' - aymog'chilik, toju - taxt uchun kurash ommaning kambag'allashib, qashshoqlikda yashashiga, mamlakat boshqaruvining izdan chiqib ketishiga olib keldi. Hokimiyat tepasiga kelgan yangidan - yangi hukmdorlar milliy boylikni talon - taroj qilishdi, mamlakat qarzga botdi.

Aytish joizki, o'tgan davr mobaynida O'zbekiston qo'shni davlatlar bilan muhim munosabatlarni hal etishda hurmat va o'zaro manfaatli munosabatlarni izchil rivojlantirishga erishdi.

Prezident taklifiga binoan 2006 yilning 19–20 mart kunlari Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Nursulton Nazarboev malakatimizga davlat tashrifi bilan keldi. Tashrif chog'ida qator muhim ikki tomonlama hujjatlar imzolandi. Ta'kidlash lozimki O'zbekiston bilan Qozog'iston o'rtasidagi ko'p tomonlama hamkorlikni istiqbollari talaygina. Xususan tomonlarning 2005 yilda o'zaro tovar ayrboshlash hajmi 516 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

O'zbekiston bilan Qozog'iston Markaziy Osiyoning eng yirik davlatlari bo'lib, ikki mamlakat aholisining soni 42 mln. kishini, ya'ni mintaqamiz aholisining qariyb 70 foizini tashkil etishini inobatga olsak, malakatlarimiz o'rtasida o'zaro hamkorlikni yanada rivojlantirish mintaqada barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlashda integratsion jarayonlarni tezlashtirishda juda muhim ahamiyatni kasb etishi namoyon bo'ladi.

O'ta dolzarb vazifalardan yana biri, Markaziy Osiyo Hamkorligi tashkiloti rahbarlari tomonidan 2005 yil 7 oktyabrda Sank–Peterburg shahrida tasdiqlangan, Markaziy Osiyo Umumiy bozori kontseptsiyasini Evroosiyo iqtisodiy hamjamiyat doirasida nihoyasiga etkazish hamda uning amaliy ijrosini bilishdan iborat. Bu borada O'zbekiston tashabbusi bilan Markaziy Osiyo Hamkorligi tashkilotining Evroosiyo iqtisodiy hamjamiyatiga qo'shilishi va O'zbekistonning ushbu hamjamiyatga a'zo bo'lishi mintaqadagi integratsion jarayonlarni va iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi alohida qayd etish zarur.

2006 yilning 25 yanvarida Evroosiyo Hamjamiyatining navbatdan tashqari davlatlaro kengashida ushbu tashkilotni tuzilishi to'g'risida bitimga O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risidagi protokol imzolandi. 2007 yil fevral o'yida esa ushbu protokol O'zbekiston parlamentining yuqori va quyi palatasi tomonidan ratifikatsiya qilindi.

Markaziy Osiyodagi tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash maqsadida xavfsizlik sohasidagi hamkorlikni kengaytirish O'zbekiston tashqi siyosatining o'ta muhim yo'nalishidir va shunday bo'lib qolaveradi. Shu bois davlatimiz rahbariyati O'zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federatsiyasi o'rtasida terrorizm, mintaqaviy xavfsizlik hamda tinchlikka rahna soluvchi taxdidlarga qarshi kurashish bo'yicha hamkorlik qilishga doimo katta o'rin berib kelgan. Prezident I.A.Karimov Rossiya istiqbolini, iqtisodiy hamkor va katta sarmoyador bo'lganini ta'kidladi. O'shbu holat O'zbekiston va Rossiyaning sarmoya sohasida, shu jumladan yoqilg'i-energetika kompleksi hamda O'zbekiston hududida neft va gaz qazib olish va tashish yo'nalishlari bo'yicha keng miqyosli hamkorlikni rivojlantirishga qulay zamin yaratadi. Rossiyaning "Gazpom" va "Lukoil" kabi yirik korporatsiyalari tomonidan sarmoya sifatida 2,5 mlrd. AQSh dollaridan ziyod mablag' kiritilishi boshlab yuborildi.

2004 yil 16 noyabrda imzolangan Rossiya bilan O'zbekiston o'rtasidagi «Strategik sheriklik to'g'risida»gi bitimga qo'shimcha ravishda 2005 yilning 14 noyabrida katta tarixiy ahamiyatga ega hujjatga «O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi ishtirokchilik munosabatlari to'g'risida»gi bitimga imzo chekdilar.

Ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlikning samarasi o'laroq, O'zbekistonning Rossiya bilan o'zaro savdo ayrboshlashi yildan - yilga oshib bormoqda. Jumladan, 2005 yil natijalariga ko'ra, o'zaro savdo ayrboshlash miqdori 2 mlrd. 60 mln AQSh dollarini tashkil etib, 2004 yilga nisbatan 25,5 foizni tashkil etdi. O'zbekistonning sanoat va qishloq xo'jaligi korxonalari uchun Rossiya bozori ayniqsa katta imkoniyatlar ochadi. Mutaxassislarning fikricha, mamlakatimiz o'rtasidagi savdo ayrboshlash yaqin 5–7 yil mobaynida 5 mlrd. AQSh dollariga ko'payishi mumkin.

Turkmaniston, Tojikiston va Qirg'iziston bilan savdo-iqtisodiy hamkorlikda mavjud imkoniyatlardan etarlicha foydalanilmayotganini afsus bilan tan olishimiz mumkin. Ta'kidlash joizki, ushbu davlatlar bilan o'zaro savdo hajmini kamida ikki barobar ko'paytirish imkoniyatlari mavjud. Bunga mamlakatlarimizning bir - biriga yaqin joylashgani va Evroosiyo Iqtisodiy Hamjamiyatiga a'zoligi yaqindan yordam beradi.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi 1991 yil 8 dekabrda Minsk shahrida SSSRning barham topishi munosabati bilan shakllandi. 1991 yil 21 dekabrda sobiq SSSRning uch slavyan, Markaziy Osiyodagi besh, Zakavkaz'edagi uch respublika rahbarlari Almatada uchrashib, Hamdo'stlik hujjatlariga jami 11 respublika imzo chekdi. Keyinchalik Moldova qo'shildi.

MDH – bir butun davlat, federatsiya yoki mamlakat emas, harbiy blok ham emas, balki davlatlar hamdo'stligining yangicha shakli. Unga kiruvchi o'n bir davlat xalqaro huquqning mustaqil va teng huquqli sub'ektdir.

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov MDH davlatlari o'rtasidagi siyosiy va iqtisodiy munosabatlar, hamma integratsiya jarayonida bir muhim holatga katta etibor beradi. Mustaqil respublikalarda, xususan O'zbekistonda ham sobiq Ittifoq ko'lamida yaqin - qarindosh, urug'chilik aloqalariga ega bo'lgan ko'p millatli aholi yashaydi. Hamdo'stlik doirasida chegaralarning ochiqligini, aholining bir joydan ikkinchi joyga borishi va axborot uzatish erkinligini saqlab qolish, respublikalarda fuqarolar, hamda millatlararo totuvlikni ta'minlash sharti, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikning muhim omili bo'lib xizmat qiladi. Bu siyosatning muhim tomoni shundaki, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, tinchlik, millatlararo totuvlikni qaror toptirish, ayni paytda mamlakatlararo munosabatlarni ham barqaror rivojlanishning kafolati bo'lish bilan birga MDH davlatlari o'rtasidagi iqtisodiy integratsiyaga rahna soluvchi har qanday to'siqlar olib tashlanishga katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Masalaning yana bir muhim tomoni shundaki, hali MDH mamlakatlarining hamkorlik masalalaridagi yo'li aniq bo'lmasdan ancha ilgari, ya'ni O'zbekiston mustaqilligining birinchi kunlaridanoq MDH davlatlari uchun o'ta foydali bo'lgan integratsiyali holatni egallagan hamda uni o'zining tashqi siyosati asoslarida bayon qilgan edi.

Sir emaski, MDH doirasidagi ko'p tomonlama hamkorlik Ittifoq parchalanib ketgandan so'nggi iqtisodiy inqirozdan chiqish yo'lida kutilgan natijalarni bermayotir. Imzolangan hujjatlarning aksariyati qog'ozda qolib ketayotgani Hamdo'stlikka a'zo davlatlar o'rtasida, bu Markaziy Osiyo davlatlariga ham taalluqli, ko'p tomonlama aloqalar bilan birgalikda ikki tomonlama aloqalarni ham kengaytirishni taqozo etmoqda. Endi mustaqil davlatlarga sobiq Markaz manfaatlarinigina ko'zlagan g'ayriixtiyoriy hamkorlik emas, aksincha, har bir xalq va mamlakat manfaatlariga mos keladigan, farovonlikka xizmat qiladigan iqtisodiy integratsiya zarur. Bunday integratsiya Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi ikki tomonlama aloqalarni kengaytirishni ham nazarda tutadi.

Mana MDHning tuzilganiga 15 yildan oshdi. 2006 yil 30 noyabrda MDH davlatlari rahbarlarining Hamdo'stlik tuzilganining 15 yilligi munosabati bilan Sank-Peterburgda uchrashuvi bo'lib o'tdi. Bu uchrashuvda MDHning 15 yillik faoliyati tahlil qilindi. MDH o'z oldiga qo'ygan shartnomalarni bajarmagani, ba'zi mustaqil davlatlarning ikki tomonlama aloqalar qilayotgani ta'kidlandi.

MDH a'zolarining birgalikdagi faoliyati sohasiga quyidagilar kiritilgan:

- tashqi siyosiy faoliyatlarni muvofiqlashtirish;
- umumiy iqtisodiy muhitni shakllantirish va rivojlantirish. UmumYevropa va Evroosiyo bozorini shakllantirish;
- iqtisodiy islohot o'tkazish;
- bojxona siyosatini birgalikda olib borish;
- transport va aloqa, shuningdek, energetika tizimini rivojlantirish;
- salomatlik, atrof-muhit va ekologik xavfsizligini saqlash;
- uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish.

10.5. Mustaqil O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan o'zaro manfaatli hamkorligining istiqbollari

Har bir mamlakat, davlat jahon hamjamiyatida o'ziga munosib o'rnini egallashga intiladi. O'zbekiston mustaqil davlat sifatida dunyo mamlakatlari orasida mustahkam o'rnini egalladi. Siyosat ijtimoiy-iqtisodiy hayotda o'zi tanlagan yo'ldan ishonch bilan olg'a bormoqda.

O'zbekiston o'z mustaqilligini e'lon qilgandan so'ng 50 dan ortiq jahonning eng nufuzli tashkilotlariga a'zo bo'ldi. BMT, YUNESKO, ShHT, Yevropa Xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Xalqaro Valyuta jamg'armasi, Xalqaro Moliya korporatsiyasi, Xalqaro Mehnat tashkiloti, Jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti va boshqa xalqaro, mintaqaviy tashkilotlar hamda assotsiyalardir. O'zbekistoni dunyodagi 170 tadan ortiq davlat tan olgan, 120 tasi bilan diplomatik munosabatlar o'rnatilgan. Ma'lumki, har qanday davlat xalqaro tashkilotlarda qanchalik keng qatnashsa, u xalqaro hamjamiyatga shu darajada keng kirib boradi. Jahonda tinchlik, osoyishtalik, o'zaro hamkorlik uchun ko'rashda tegishli darajada faol qatnasha oladi. Insoniyat taraqqiyotiga qo'shayotgan o'z ulushini yanada oshirib boradi, jahonning rivojlangan davlatlari bilan tobora yaqinlashadi, ularning fan, texnika va texnologiya sohasidagi yangiliklarini samaraliroq qabul qilib oladi. Ayni vaqtda, davlatimizning xalqaro tashkilotlarga keng miqyosda kirib borishi, terrorizm, narkobiznes, mintaqaviy xavfsizlik hamda tanglikka rahna soluvchi tahdidlarga qarshi kurashda keng inkoniyatlar yaratadi.

Bugungi kunda o'z mustaqil tashqi siyosatini konstitutsiyaviy qoidalarga tayanib yuritayotgan «O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli sub'ektdir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning dahlisizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umum e'tirof etgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi».

O'zbekiston butun dunyoda o'zini tashqi siyosiy va madaniy aloqalarning boy tarixiga ega bo'lgan va mustaqil ravishda zamonaviy diplomatik aloqalarni amalga oshirayotgan tinchliksevar huquqiy davlat sifatida namoyon etmoqda. Halqaro huquqiy jihatdan O'zbekistonga asrlar osha buyuk bo'lib qolgan davlatlar ham, davlatchilik tarixi ko'p jihatdan biznikiga o'xshash yosh mamlakatlar ham bab-barobardir.

O'zbekiston Jahon Iqtisodiy anjumani SHvetsariyaning Davos shahrida taniqli iqtisodchilar, tijoratchilar, olimlar, davlat va hukumat boshliqlari, jamoat arboblarning muntazam ravishda o'tkazilib turadigan mo'tabar uchrashuvlarining doimiy ishtirokchisidir. Jahon Iqtisodiy anjumanining Istanbul va Toshkent shaharlaridagi kabi yalpi va mintaqaviy uchrashuvlari respublikamiz uchun amaliy aloqalar o'rnatishning va islohotlar qay darajada asosililigini xalqaro iqtisodiy ekspertizadan o'tkazishning muhim vositasiga aylandi.

O'zbekiston tashqi siyosatining jug'rofiyasi uzluksiz kengayib bormoqda. Bu esa davlatimizning strategik yo'lga mos keladi. Davlatimiz suverenitetining eng muhim kafolatlaridan biri esa, jahon hamjamiyatining ishonchidir.

Yuqoridagi tadbirlar yurtboshimiz Islom Karimov boshchiligida amalga oshmoqda va nufuzi ortmoqda

Xalqaro tashkilotlarda faol qatnashish O'zbekistonni jahon miqiyosida tanishtirish, uning xalqaro mavqeini oshirishning muhim va samarali yo'lidir. Buning asosiy sababi har bir davlat shartnomalar shartini o'z vaqida basharishidir.

Xalqaro hamkorlik

O'zbekiston davlat mustaqilligini 170 ga yaqin mamlakatlar tan oldi.

Jahonning 120 mamlakati bilan diplomatik aloqalar o'rnatildi.

Toshkentda 43 mamlakatning elchixonalari ochildi.

Respublikada 88 ta xorijiy mamlakatlar vakolatlari akkreditatsiya qilingan,
24 hukumatlararo 13 nohukumat tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda.

Dunyodagi 30 dan ortiq davlatda O'zbekistonning elchixonalari ishlab turibdi.


O'zbekiston 41 ta nufuzli xalqaro iqtisodiy va moliya tashkilotlarining teng huquqli a'zosi.

Jahonning 140 davlati bilan savdo-iqtisodiy munosabatlar o'rnatildi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston iqtisodiyotiga 20 mlrd. AQSh dollari miqdorida xorijiy
investitsiyalar jalb qilindi.

Jahonning 80 mamlakatiga mahsulotlari eksport qilinmoqda.

Tashqi savdo aylanmasining ijobiy saldosi (qoldig'i) 2007 yilga kelib qariyb
2 milliard AQSh dollarigacha o'sdi.



**O'zbekiston – xalqaro hamjamiyatining
teng huquqli a'zosi**

1992 yil 2 mart O'zbekiston Respublikasi Birlashgan Millatlar Tashkilotiga (BMT) qabul qilindi

1992 yil fevral Yevropa Xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YXHT) ga qabul qilindi

1992 yil fevral Qo'shilmaslik harakati a'zosiga aylandi.

1992 yil oktyabr Parlamentlararo Ittifoqqa qabul qilindi.


1993 yil 29 oktyabr YUNESKOga a'zolikka qabul qilindi.

2001 yil iyun Shanxay Hamkorlik tashkilotiga a'zo bo'lib kirdi.

2005 yil oktyabrdan Evroosiyo Hamkorlik tashkiloti a'zosi.

Mintaqaviy tashkilotlar: Yevropa Ittifoqi, EKO bilan samarali hamkorlik qilmoqda. Xalqaro Valyuta fondi, Butunjahon banki, Xalqaro Moliya korporatsiyasi, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (IHT), Osiyo va Tinch okeani mamlakatlari uchun BMTning iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasiga a'zo.

BMT qachon tashkil topgan? Unga nechta mamlakat a'zo? Bu mamlakatlarda qanday siyosiy tuzum xukmron? Mazkur davlatlarning aholisi qancha, xalqining iqtisodiy ahvoli qanday? Ularni kim boshqaradi – Prezidentmi, imperatormi, qirolmi yoki bosh vazir? Bu kabi savollar bugun ko'pchilikni maktab partasidan tortib, universitetda saboq berayotgan o'qituvchini ham, oddiy gazetxondan tortib olimu–fuzalolarni ham qiziqtirishi, tabiiy.



Qisqa xulosalar.

O'zbekiston o'zining tashqi siyosatida dunyoning etakchi davlatlari bilan hamkorlik qilishda teng huquqlik, ikki tomonlama manfaatdorlik asosida ish olib bormoqda. O'zbekistonning Yevropadagi davlatlar bilan hamkorlik qilish milliy manfaatlarimiz nuqtai nazardan hayotiy zaruratdir. Yevropa va butun G'arb biz uchun yuksak texnologiya va sarmoyalar manbaidir, hozirgi zamon demokratiyasi va inson huquqlarining ramzidir.

O'z urf-odatlarimiz va tarixiy an'analарimiz yaqin bo'lgan Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari bilan madaniy-iqtisodiy aloqalarimiz yildan-yilga rivojlanib bormoqda.

O'zbekistonning tashqi siyosatida Markaziy va Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari alohida o'rin tutmoqda. Umuman O'zbekistonning tashqi aloqalarida bu davlatlar bilan hamkorlikni rivojlantirish uchun har tomonlama imkoniyatlar mavjud.

O'zbekistonning Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyati, MDH davlatlari, jumladan Rossiya bilan aloqalar yuksalmoqda. Shanxay Hamkorlik tashkilotlari bilan olib borayotgan hamkorligi yildan-yilga kuchayib o'zining samarali natijalarini bermoqda.

Tayanch so'zlar

Xalqaro hamkorlik, jahon hamjamiyati, xalqaro tashkilotlar, mintaqaviy tashkilotlar, ikki tomonlama, ko'p tomonlama hamkorlik, tashqi siyosiy, iqtisodiy hamkorlik tamoyillari. «Yevroosiyo Iqtisodiy hamkorligi», «Shanxay Hamkorlik tashkiloti», «Sho'rtangaz kimyo majmuasi», Konrad Adenauer Jamg'armasi. «Tereza» O'zbekiston-Frantsiya qo'shma korxonasi, «Uzplastital» O'zbekiston-Italiya qo'shma korxonasi, «UzDEU avto» O'zbekiston-Koreya qo'shma korxonasi.

Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan hamkorligi qanday tamoyillarga asoslangan? O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi moddasida ushbu tamoyillar o'z aksini topgan?
2. O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan hamkorligi unga qanday imkoniyatlarni ochib berishi mumkin?
3. Prezident I.A.Karimovning aytgan quyidagi so'zlari «Biz jahon hamjamiyatidagi integratsiyalashuv haqida gapirganimizda eng avvalo, BMT faoliyatida ishtirok etishimizni nazarda tutamiz» qaysi asariga tegishli?
4. Aytingchi Yevropada Xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti qanday tashkilot? O'zbekiston unga qachon a'zo bo'lgan? O'zbekiston u bilan hamkorlikdan qanday naf ko'radi?
5. O'zbekistonning BMT homiyligidagi ta'lim, fan va madaniyat bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilot – YUNESKO bilan hamkorligi qanday yo'lga qo'yilgan. YUNESKO–O'zbekiston hamkorligida qanday tadbirlar amalga oshirilgan.
6. Dunyoda turli doiralarda faoliyat ko'rsatayotgan xalqaro tashkilotlar anchagina. Siz qanday yo'nalishda faoliyat ko'rsatayotgan shunday tashkilotlarni bilasiz?
7. «O'zbekiston Rossiya Strategik hamkorlik to'g'risida» bitim imzolangan. Aytingchi, strategik hamkorlik qanday ma'noni anglatadi?
8. Markaziy Osiyodagi qanday tashkilotlarni bilasiz?
9. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi qanday tashkilot?
10. ShHT qanday tashkilot va unga O'zbekiston qachon a'zo bo'lgan?

Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.: "O'zbekiston", 2011,- 3-36-b.
- 2."Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" Davlat dasturi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. "Xalq so'zi" 2011 yil 21 yanvar'.
- 3."O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 20 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori."Xalq so'zi" 2011 yil 7 aprel'.
- 4.Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. - T.: O'zbekiston, 2005.- 3-48-b.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. - T.: "Ma'naviyat". 2008. -176 b.
6. Karimov I.A. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. - T.: O'zbekiston, 2009.- 56 b.
7. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi "Xalq so'zi", 2010 yil 13 noyabr'.
8. Karimov I. A. "Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qilsin". "Xalq so'zi", 2011 yil 23 yanvar.
9. Karimov I.A. "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida". –T.: O'zbekiston, 2011.- 157-192-b.
10. I. A. Karimovning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 20 yilligi tantanalaridagi nutqi. "Xalq so'zi", 2011 yil 1 sentyabr'.
11. Karimov I. A. "Bizning yo'limiz – demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo'lidir". "Xalq so'zi", 2011 yil 8 derabr'.
- 12.. .Karimov I.A. "Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir". "Xalq so'zi", 2012 yil 8 dekabr.
- 13.Karimov I.A. "Bosh maqsadimiz - keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davov ettirish". "Xalq so'zi", 2013 yil 20 yanvar.
14. Aliyev B., Hoshimov T., Yuldashev O. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. Darslik .-T. "Iqtisodiyot", 2008. -180-211-b.
15. Aliyev B., Yuldashev O., Qahhorova M. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. O'quv qo'llanma.-T.: "Iqtisodiyot".2011. -217-244-b.

XULOSA

Mustaqillik–tom ma'noda inson erki, ozodligi va haq-xuquqlari bilan bog'liq bo'lgan ulkan qadriyat. Shunday ekan, mustaqillikni demokratiya uchun shart-sharoit deb hisoblasak bo'ladi.

Ma'lumki, o'zida dunyo tajribasini mujassamlashtirgan jamiyatni idora etish uslubi sifatida demokratiya insoniyat taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shdi va o'zining afzalligini doimo isbot qilib kelgan va kelmoqda. Lekin, bu uni shunchaki qanday bo'lsa shunday O'zbekistonga tadbiq etsak bo'laveradi degani emas. Har bir davlat yoki millat umirboqiylikka yo'g'rilishi uchun aholisi va yashash joylaridan tashqari, o'ziga xos va mos urf-odat va axloq qonunlar majmuasi, bosh qomus, ya'ni Konstitutsiya hamda ularga tayanib tuzilgan milliy boshqaruv uslubi ya'ni davlatchilik va hayot tarzini shakllantirish kerak. Demokratiyaga keladigan bo'lsak, adolatli jamiyat qurish uchun O'zbekiston aynan shu omillarga amal qildi.

Demokratiyaning O'zbekiston uchun eng maqbul boshqaruv uslubi bir tomondan uning umumiy tomonini nazarda tutsa, ikkinchi tomondan milliy xususiyatga, ya'ni vazminlik, bag'rikenglik, o'zaro hurmat va muruvvat, insofilik, atrof-muhitga falsafiy munosabat, donolik, o'z qarori va ajdodlar o'gitiga sodiqlik va jamoatchilik ko'nikmalari, qolaversa, geografik joylashuv, unga monand holda asrlar osha shakllangan xo'jalik yuritish vositalari va ko'nikmalari hamda insonlararo aloqalarni ham hisobga olishni taqazo etadi. Ana shundagina demokratiya xalqimizga beminnat xizmat qilishi mumkin.

O'zbekiston qandaydir bechora, kimningdir etaklashiga muhtoj bo'lgan davlat yoki xalk emas.

O'zbekiston o'z kelajagining buyukligini siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy ta'minlash uchun barcha asoslarga ega bo'lgan davlatdir.

O'zbekistonning qulay geografik–strategik o'rni va imkoniyatlari haqida gapirganda, avvalo, u:

–Amudaryo bilan Sirdaryo oralig'ida joylashgan bo'lib, xalqaro aloqalarni yo'lga qo'yish nuqtai nazaridan va o'z taraqqiyot istiqbollari jihatidan qulay jug'rofiy–strategik mavqega ega;

–Markaziy Osiyoning qoq o'rtasida joylashgan bo'lib, u boy tabiiy boyliklar, homashyo resurslarga egadir;

–hududlaridan qadim zamonlarda Sharq bilan G'arbni bog'lab turgan "Buyuk ipak yo'li" o'tgan;

Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va Afg'oniston davlatlari o'rtasida bog'lovchi xalqa vazifasini o'taydi.

O'zbekistonning haqiqiy boyligi va mulki uning mehnatsevar, sahiy va mehmondo'st xalqidir. Jamiyatning eng oliy boyligi bo'lgan xalq abadiy qadriyatlarni, qudratli salohiyatni o'zida jamlagan. Bu salohiyatni yuzaga chiqarish jamiyatimizni rivojlantirish va taraqqiy ettirishning juda kuchli omili bo'lib xizmat qiladi. Inson salohiyati eng faol, eng bunyodkor omil bo'lib, u mamlakatning islohotlar va tub o'zgarishlar yo'lidan tinimsiz ilgarilab borishni ta'minlab beradi.

Mamlakatimizda ochiq demokratik davlatni qurish bozor munosabatlarini vujudga keltirish xalqaro e'tirof etilgan Konstitutsiyaviy hamda huquqiy asosga qurilgan. Bu asos iqtisodiyotni isloh qilishi, uning keng ko'lamda jahon hamjamiyatga integratsiyalashuvi uchun qulay huquqiy kafolatlar va shart-sharoitlarni ta'minlab beradi.

Sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manba'i bo'lib xizmat qilayotgan madaniy qadriyatlarimiz, ma'naviy merosimiz yangi jamiyat qurishning ma'naviy negizi hisoblanadi. Bizning ma'naviy qadriyatlarimizni hozirgi demokratik jamiyatimizning qadriyatlari bilan uyg'unlashtirish kelajakda yanada ravnaq topishimizning, jamiyatimiz jahon hamjamiyatiga qo'shilishning garovidir.

Respublikaning o'ziga xos shart-sharoitlari va xususiyatlari, an'analari, urf-odatlari, turmush tarzini har tomonlama hisobga olgan O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tishning «O'zbek modeli»ning hayotda o'z aksini topayotganligi va boshqa ko'plab ob'ektiv va sub'ektiv omillar

Prezident I.A. Karimov ta'kidlaganidek, –«O'zbekiston xalqining munosib turmushini, huquqlari va erkinliklarini kafolatlashi, milliy qadriyatlarimiz va ma'daniyatimiz qayta tiklanishini, insoning ma'naviy–axloqiy barkamolligini ta'minlash kerak».

O'zbek xalqi, O'zbekiston yuqorida tilga olingan o'z kuch qudratiga tayangan va ishongan holda demokratik, adolatli fuqarolik jamiyatini qurish tomon ishonchli odim tashlab bormoqda.

Demak, biz kim ekanligimizni, hayotni qanday qurayotganligimizni, undan nimalarni kutayotganligimizni yaxshi bilamiz.

Milliy uyg'onish jarayonini boshidan kechirayotgan har bir xalq o'zining milliy qadriyatlarini umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'liq holda his qilish lozim. Millatning millat sifatida anglashi dastavval insonning inson sifatida o'z–o'zini anglashdan boshlanadi. Aks holda milliy mahdudlik, milliy kalondimog'lik, milliy mansubligi orqali o'ziga bino qo'yish illatlari avj oladi va natijada demokratik tamoyillar barbod etiladi.

Milliy qadriyatlar insonning inson sifatida anglatishi, o'zini–o'zi himoya qila olishi, erishgan zafar yo'li va mag'lubiyatlari, sitamli damlarining yodnomalaridir. Har bir xalq dunyoga o'zining ana shu tarixiy dasturi bilan kirib keladi. Demak, inson o'zini bashariyatning uzviy bir bo'lagi deb his etishi orqali milliy biqqlik, tor manfaatparastlik, xudbinlik botqog'idan xalos etadi. SHundagina u olam va odam o'rtasidagi munosabatlar, alohidalik va umumiylik o'rtasidagi bog'liqliklar haqida o'ylashga qodir bo'ladi. Ana shu ma'naviy, intellektual, ruxiy, axloqiy imkoniyatlar insonni har qanday tor doiralardan keng dunyoga olib chiqadi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan yalpi yangilanishlar jarayonida demokratik tamoyillar alohida o'rin tutadi. U demokratiya jarayonlarini chuqurlashtirishda, jamiyatni erkinlashtirishda, fuqarolar siyosiy va ijtimoiy faolligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni paytda tub o'zgarishlarning «O'zbek modeli» sifatida jahon islohotchilik tajribasida o'ziga xos va o'ziga mos hissa bo'lib qo'shiladi. Chunki, unga bizning milliy manfaatlarimiz, taraqqiy etgan mamlakatlarning tajribalari, mamlakatimiz boshidan kechirgan tarixiy sinovlar va ularning saboqlari, xalqimizning turmush va tafakkur tarzi asos qilib olingan.

Mamlakatimizning jahon xalqlari tinchligi va xavfsizligiga mos bo'lib tushgan tinchliksevar tashqi siyosati uning jahonda mustaqil davlat sifatida tezda tan olinishini ta'minladi.

Xalqaro terrorizmga, diniy va siyosiy ekstremizmga qarshi kurashni tashkil etish bo'yicha jahon hamjamiyati tomonidan o'tkazilayotgan nufuzli yig'ilishlarda O'zbekiston faol qatnashmoqda, o'zining samarali takliflarini ilgari surmoqda.

Xalqaro hamjamiyat O'zbekistonning puxta o'ylab amalga oshirayotgan izchil ichki va tashqi siyosatining, Markaziy Osiyo mintaqasida vaziyatni barqarorlashtirish hamda oldini olishdagi ahamiyatini va kuchayib borayotgan rolini borgan sari ko'proq anglamoqda.

ATAMALAR IZOHI

Ahloq–odob–xalqimiz asrlar davomida e’zozlab kelgan buyuk qadriyatlardan biri. Ahloq–odob shaxsning o’z–o’ziga, oila va jamiyat a’zolariga bo’lgan kundalik amaliy munosabatlarida namoyon bo’ladi

Aholini ijtimoiy himoyalash–aholini bozor iqtisodiyotining salbiy ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlardan asrash, shu oqibatlarning aholi ijtimoiy iqtisodiy ahvoriga ta’sirini yumshatish.

Barqarorlik –1) jamiyat hayotining osoyishtaligi; 2) ijtimoiy tuzum elementlarining uyg’unligi; 3) jamiyatdagi ijtimoiy birliklar (millat, din, qatlam va boshqalar) vakillarning hamkorligi va hamjihatligi.

Banklar–kredit–moliya muassasasi, ularning eng asosiy vazifasi– vaqtincha bo’sh pul mablag’larini bir joyga to’plash, korxonalarga va umuman pulga muhtojlarga kredit, ssuda berish, pul hisob–kitoblarini amalga oshirish, turli qimmatli qog’ozlar chiqarish, oltin va chet el valyutalari bilan bog’liq masalalarni amalga oshiruvchi muassasa.

Biznes (inglizcha–business)–tadbirkorlik, tijorat ishlari bilan shug’ullanish, pul topish maqsadida biror ish bilan band bo’lish. Biznes - tovar ishlab chiqarish va uni sotish, xizmat ko’rsatish, transport va boshqa sohalardagi faoliyatdir.

Birja–standartlar yoki namunalar asosida savdo qilinadigan ommaviy tovarlarning muntazam ulgurji bozori (tovar birjasi) yoki qimmatli qog’ozlar, oltin, chet el valyutalari bozori (fond birjasi).

Bozor–sotuvchi bilan xaridor o’rtasida tovarni pulga ayirboshlash munosabati; tovarlar bilan oldi–sotdi munosabatlari, tovar ishlab chiqarish, tovar ayirboshlash va pul muomalasi qonunlariga binoan amalga oshiriladi.

Bozor iqtisodiyoti–tovar–pul munosabatlariga asoslangan va ularga iqtisodiy qonunlar asosida amal qiladigan iqtisod.

Bozor munosabatlari–sotuvchi va xaridor, ishlab chiqaruvchi va iste’molchi o’rtasidagi iqtisodiy aloqalar.

Bozor qonunlari–pul vositasida bozordagi tovar ayirboshlashning mohiyatini ifoda etuvchi, uni boshqarib tartibga solib turuvchi iqtisodiy qonunlar majmuidir.

Byudjet–davlat, viloyat, shahar, tuman, muassasa, tashkilot va boshqalarning ma’lum muddatdagi daromad va xarajatlarining pul xisobi.

Valyuta–(ital.Valuta, lotin. Voleze –qadrlanmoq, qiymat) mamlakatning pul birligi va uning tipi (oltin, kumush, qog’oz) pulga tenglashtirilgan to’lov vositalari; pul xisob–kitoblarini taqozo etadigan xalqaro iqtisodiy ayirboshlash va boshqa aloqalarda qatnashadi.

Valyuta auktsioni–chet el valyutasining milliy valyutaga kimoshdi savdosi orqali kelishilgan baholarda sotilishi.

Valyuta kursi–mamlakat pul birligining boshqa bir mamlakat pul birligida ifodalangan bahosi.

Valyuta rezervlari–Markaziy Bank va moliya organi ixtiyoridagi xalqaro hisob–kitob va to’lovlar uchun foydalaniladigan chet el valyutasi va oltin jamg’armalari.

Vijdon erkinligi–bu fuqarolarning xar qanday e’tiqod qilishi yoki xech qanday dinga e’tiqod qilmaslik huquqidir.

Davlatning nazorat etilishi–demokratik davlatlar biror bir tarmog’ini juda kuchli bo’lib ketishini oldini oladigan turli xil tartibga solish ishlarini amalga oshiradi. Masalan, AQSH Konstitutsiyasida siyosiy xukumatni shtatlar va federal xukumat o’rtasida taqsimlangan. Hokimiyatning ma’lum qismi faqat federal hukumatga va ma’lum qismi ikkilasiga tegishlidir. Shuningdek, Konstitutsiya AQSH hukumatini Prezident, Kongress va federal sudlar o’rtasida ham taqsimlangan. Bu uchala hukumatning har birini xokimiyati bir - birlarining hokimiyatini tekshirish va muvozanatlash uchun mo’ljallangandir. Barcha demokratik davlatlarda, hukumat amaldorlari qonunga bo’ysunadilar va xalq oldida mas’ul hisoblanadi. Amaldorlar qonuniy hatti–harkatlari yoki boshqa bir qator sababli ishdan bo’shatiladilar.

Devol'vatsiya—mamlakat savdo va to'lov balansining keskin yomonlashuvi, valyuta rezervlarining kamayishi, xalqaro valyuta bozorlarida milliy valyuta kursining pasyishi bilan bog'liq holda milliy pul birligi qiymatining rasmiy tartibda pasaytirilishi.

Dotatsiya—davlat byudjetidan qaytarib bermaslik sharti bilan mablag' ajratish; iqtisodiyotga byudjet orqali ta'sir etish vositalaridan biri.

Demokratiya—bu xukumat shakli, bu hayot yo'li, bu maqsad yoki ideal, ya'ni eng yuksak orzu va siyosiy falsafa. Bu termin xukumatning demokratik shakliga ega mamlakat uchun ham tegishlidir. “ Demokratiya “ so'zi xalq xokimiyati degan ma'noni anglatadi. AQSH prezidenti Abraxim Lin Koln “demokratiya”ni ya'ni “xalq hokimiyati”ni quyidagicha tasvirlagan: “Demokratiya bu xalq hukumati, bu xalq tomonidan boshqariladigan hukumat, bu xalq uchun xizmat qiladigan hukumat “. Demokratiya (ya'ni hukumatning demokratik shakliga ega mamlakat) fuqarolari hukumat ishida yoki bevosita qatnashadilar. Bilvosita demokratiyada—bu ko'pincha “sof demokratiya” deb ham ataladi, odamlar o'z jamoalari uchun zarur qonunlar ishlab chiqish maqsadida bir joyda uchrashadilar. Bunday demokratiya qadimgi Yunonistondagi Afina shahar ko'rinishidagi davlatida amalga tadbiiq qilingan va hozirgi kunda yangi Angliya shahar majlisida ham qo'llanilib kelinmoqda.

Eng zamonaviy demokratiya bo'lib—vakillik demokratiyasi hisoblanadi. Ma'lumki katta jamoalarda, ya'ni shaharlarda, barcha xalqni bir joyga yig'ib masala hal etishga imkon yo'q. SHuning uchun shunday jamoalarni fuqarolari qonunlari va boshqa masalalar bo'yicha qaror qabul qilishda ular tomonidan ishtirok etish uchun o'zlarining shaharlari yoki yurtlari bir guruhni saylaydilar. Fuqarolar tomonidan saylangan vakillar birlashmasi kengash (council), qonun chiqaruvchi xokimiyat (legislatura), parlament (parlament), yoki kongress (congres) kabi nomlar bilan ataladi. Xalq tomonidan mustaqil tarzda saylangan vakillar orqali boshqariladigan xalq xokimiyati ba'zida respublika xukumati yoki demokratik respublika deb ataladi.

Demokratiya xususiyatlari—bu har bir mamlakatda o'ziga xos tarzda o'zgarib turadi. Biroq demokratiya quyidagi asosiy xususiyatlari barcha demokratik davlatlar uchun bir xildir.

Demokratik parlamentarizm—parlamentning faoliyatini demokratik tamoyillar asosida tashkil etish tushuniladi. Buning uchun parlament keng demokratik saylovlar asosida tashkil etilishi kerak.

Demokratik tamoyillar—xalq hokimiyatchiligini amalga oshirishning asosiy tamoyillaridir. Bular hokimiyat va boshqaruv organlari chiqargan qarorlardan xalqning xabardorligi; ushbu qarorlar bajarilishi ustidan xalqning nazorati, qonun va qarorlarni qabul qilishda xalqning ishtiroki tamoyilidir.

Diniy ekstremizm—ma'lum siyosiy maqsadlar yo'lida va maktabi ostida mutasaddilar yoki ularning irodasiga ko'ra ish ko'ruvchi guruhlar tomonidan olib boriladigan o'ta ashaddiy harakatlar va qarashlar majmuini anglatadi.

Diniy aqidaparastlik—siyosiy maqsadlar yo'lida mavjud ijtimoiy muammolarni ilk, ya'ni mazkur din paydo bo'lgan arkonlar asosida hal etmoq niyatidagi harakatlar va qarashlardan iborat.

“Xizbut taxrir al-islomiya” tashkiloti asosiy maqsadi: tinch, osoyishta davlatda fuqarolar urushini vujudga keltirish, mamlakat iqtisodiy faoliyatini izdan chiqarish, millatlararo va dinlararo nizolarni qo'zg'ash, mamlakatga qurol aslaha va narkotik moddalarini olib kirib, fuqarolarning hayotiga rahna solish va pirovard natijada mavjud konstitutsiyaviy tuzumni ag'darib tashlab, hokimiyatni egallashdan iborat.

Diniy bag'rikenglik—xilma-xil diniy e'tiqodga ega bo'lgan kishilarning bir zaminga, bir Vatanda oliyanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor va hamjihat bo'lib yashashi demakdir.

Dunyoviylik—ikki qarama qarshi qutbning oralig'ida joylashgan ma'naviy—madaniy xolat. Diniylikni ham, dahriylikni ham inkor etmaydigan, ularning har ikkalasini ob'ektiv ijtimoiy hodisa ekanligini anglatuvchi tushuncha piyuralistik ya'ni hurfikirlik tamoyiliga asoslangan.

“Yevroosiyo Iqtisodiy hamjamiyati” (YOIH) tashkiloti—xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash, integratsiya jarayonlarini faollashtirishga qaratilgan. A'zolari: Rossiya, Belorussiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekiston.

Jahon valyuta tizimi—jahon bozorining rivojlanishi asosida shakllangan va davlatlararo bitimlar bilan mustaxkamlangan xalqaro pul - kredit munosabatlari.

Jahon bozori—xalqaro mehnat taqsimoti orqali bir–biriga bogʻlangan mamlakatlar oʻrtasidagi barqaror oldi–sotdi munosabatlari. Jahon bozori xizmat qiluvchi maxsus infratuzilmaga ega boʻlib, u xalqaro uyushmalar, banklar, birlashmalar, auksionlar, birjalar va har xil fondlardan iborat.

Istiqlol—(arabcha ozodlik, mustaqillik, erkin boʻlish) inson, millat, davlatning erkin rivojlana olish imkoniyatlarini anglatuvchi tushuncha.

Islom omili—hozirgi islomshunoslikda keng ishlatilayotgan tushuncha. SHarqda musulmon mamlakatlarining ijtimoiy siyosiy hayotida islom dinining siyosiy aktivlashuvi jarayonini ifoda etadi.

Islom fundamentalizmi—hozirgi islomdagi uch oqimdan (traditsionalizm va modernizm bilan birga) biri. Uning asosiy kontseptsiyasi islomning fundamental printsiplariga, yaʼni islom dinidagi dastlabki fundamental gʻoyalarga qaytish demakdir.

Islom traditsionalizmi—hozirgi islomdagi uch oqimdan (fundamentalizm va modernizm) biri. Islom traditsionalizmi tarafdorlari oʻrta asr aqidalariga izchil amal qilib, dinni har qanday isloh qilishlariga qarshi chiqadilar.

“Islom ekstremizmi”—musulmon mamlakatlari jamiyati hayotida va xukumat siyosatida gʻarbdagi kuchli davlatlar taʼsiriga va mustaqillikni yoʻqotish xavfiga qarshi qadimgi islom gʻoyalari va ideallarini qayta tiklash uchun harakat qilayotgan diniy siyosiy guruhlar. Eng taʼsirli eksterimistik guruhlardan biri “Musulmon brodarlari” (“Al-ixvon al-muslimin”) uyushmasidir.

Islom modernizmi—hozirgi islomdagi uch oqimdan (traditsionalizm va fundamentalizm bilan birga) biri. Islom diniy va ijtimoiy taʼlimotini yangi zamon sharoitlariga muvofiqlashtirish, islom dinining siyosiy, huquqiy, ijtimoiy muammolariga taʼluqli aqidalarni yangicha taqdim etish, xoʻjalik hayotini tartibga solish va islom printsiplari asosida yangi taraqqiyot modellarini, yoʻllarini ishlab chiqish.

Ijtimoiy adolat—tamoyili jamiyat barqaror va toʻlaqonli rivojlanishi uchun oʻta zarur omildir. U birinchidan, shaxs, jamiyat, davlat aloqadorligida tenglik va oʻzaro hamkorlikni taqozo etadi. Ikkinchidan, mazkur tamoyil shaxsning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va huquqiy neʼmatlardan bahramand boʻlishda teng huquqli boʻlishini taʼminlashga qaratilgan mezonlar va kafolatlarining mavjudligini bildiradi. Ijtimoiy adolatni taʼminlash xar bir huquqiy davlatning asosiy vazifalaridan biridir.

Inson omili—amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning bosh yoʻnalishi va samaradorligining pirovard natijasini belgilab beruvchi asosiy tamoyil. Inson omili tarkibian ikki muhim jihatni oʻz ichiga oladi. Birinchi jihat Oʻzbekistonda jami ijtimoiy tuzilma, taʼlim va sogʻliqni saqlash, nafaqa bilan taʼminlash tizimini, axolini ekologik va boshqa xavf– xatardan himoya qilishdan iborat. Davlatning doimiy eʼtiborini oʻzida ifodalaydi. Ikkinchi jihat esa yalpi ijtimoiy taraqqiyot jarayonlarida shaxsning oʻz ishtiroki, bunyodkorligi, yaratish zavqi, saʼy– harakatlari va shijoatini ifodalanishini nazarda tutadi.

Inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari—insonga bekamu– kust yashash imkoniyatlarini beruvchi va iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, siyosiy sohalarida oʻzining imkoniyat va talablarini amalga oshirishni taʼminlovchi huquqiy maqom. Inson va fuqarolarning huquq hamda erkinliklariga rioya etish Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy tuzumining asosidir.

Ijtimoiy hamkorlik—xilma–xil fikr va qarashlarga ega boʻlgan, turli millat, irq va dinga mansub shaxs va guruhlarining umumiy maqsad yoʻlidagi hamjihatligi.

Inson huquqlari—odamlarning yashash va faollashib borishi uchun ularga berilgan huquqlardir.

Ijtimoiy fikr—aholining muayyan guruhlari, qatlami, tabaqalarining voqelikdagi turli xodisalar va harakatlarga nisbatan baholovchi munosabatidir. Bunday baho maʼqullash, qoralash yoki betaraf pozitsiyada namoyon boʻlishi mumkin.

Ijtimoiy yoʻnaltirilagn bozor munosabatlari—bozorning oʻz–oʻzini tartibga solish gʻoyasiga asoslanadi yaʼni, talab va taklif, narxning erkin shakllanishi va raqobatchilik bozorining shart–

sharoitlarini belgilaydi. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodi erkin tadbirkorlikka, iste'mol tovarini ixtiyoriy tanlashga, bozordagi muayyan ahvoldan kelib chiqqan xolda tadbirkorlar imkoniyatlari belgilanishiga asoslanadi.

Import–ichki bozorda sotish uchun mamlakatga xorijiy tovarlar kiritish va xizmat ko'rsatish. Import miqdori va tarkibi mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotida tutgan o'rni va milliy iqtisodiyot ehtiyojiga hamda uning eksport salohiyatiga bog'liq.

Investitsiya–ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida mamlakat yoki chet ellarda iqtisodiyotning turli tarmoqlariga uzoq muddatli kapital kirgizish.

Integratsiya, iqtisodiy integratsiya–mustaqil xo'jalik faoliyatining milliy, mintqa va xalqaro miqyosda o'zaro birlashib yahlit xo'jalik tizimini tashkil etishi. Natijada iqtisodiyotning xalqaro darajada globallasuvi yuzaga keladi.

Inflyatsiya–talab va taklifning narxlar o'sishida namoyon bo'ladigan nomutanosibligi, iqtisodiyotda narxlarning umumiy darajasi o'sadi va pul muomalasi kanallari to'lib ketadi. Inflyatsiya bu muomalada keragidan ortiqcha pul paydo bo'lib, narx–navo o'sib, pul qadr–qiymati, ya'ni xarid qobiliyatining pasayishidir.

Kapital–o'zini–o'zi ko'paytiruvchi qiymat. Kapital doimiy va o'zgaruvchan, asosiy va aylanma kapitalga bo'linadi; sanoat kapitali, savdo kapitali, ssuda kapitali shakllarida faoliyat yuritadi.

Konvertatsiyalangan (erkin almashtiriladigan) valyuta–har qanday xorijiy davlatlar valyutalariga erkin va cheklanmagan miqdorda almashtirilishi mumkin bo'lgan valyutalar.

Kredit–pul vositalarini, tovar va xizmatlarni ma'lum ustama haq to'lab qaytarib berish sharti bilan biror muddatga qarzga berish.

Ko'p ukkladli iqtisod–mulkchilikning turli shakllariga asoslangan bozor iqtisodiyoti. Bunda, asosan erkin bozor qonunlari va tamoyillari hukmronlik qiladi. Bozor iqtisodiyoti xilma–xil, bir biri bilan erkin raqobatlashadigan xo'jalik tuzilmalarini taqozo etadi, o'z tabiatiga ko'ra xilma–xil iqtisodiy asosga ega bo'lgan ishlab chiqarishdan iborat bo'ladi.

Komil inson–ham milliy, ham bashariy mohiyatga ega bo'lgan, odamzotga xos eng yuksak ma'naviy va jismoniy barkamollikni mujassam etgan, uni hamisha ezgulikka undaydigan oliyjanob g'oya asosida tarbiyalangan shaxs.

Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari–mustaxkam iqtisodiy asosga ega bo'lgan, demokratik qadriyatlar qaror topgan, ma'naviy–ma'rifiy yuksaklikka erishgan va boshqaruvning demokratik uslublari shakllangan davlatdan jamoat va nodavlat tashkilotlari hal qiluvchi o'rin tutadigan jamoatchilik fikri, tashabbusi va davlat idoralari ustidan nazorati ustivor ahamiyat kasb etadigan, fuqarolar o'zini - o'zi boshqarish idoralirining roli muttasil ortib boradigan jamiyatga o'tish kontsepsiyasi.

Kuchli davlat–omma faoliyatiga asoslangan kuchli boshqaruv tizimiga, rivojlangan iqtisodiyot, yuksak ma'naviyatga ega bo'lgan davlat. Bunday davlat mustahkam iqtisodiy, huquqiy va ma'naviy asosga ega bo'ladi. Uning qudrati fuqarolar hamjixatligi, jamiyatdagi do'stlik va bag'rikenglik, xar bir fuqaroning onglik darajasi, davlat boshqaruvidagi faol ishtirokiga asoslanadi.

Kuchli jamiyat–mustahkam negizning barqarorligi ta'minlangan, davlatning boshqaruvchilik faoliyati qisqarib, jamoat tashkilotlarining roli kuchaygan, fuqarolarning qonun asosida, ularning huquq va erkinliklari oliy qadriyatlarga aylangan jamiyat.

Konstitutsion hukumat–demokratik hukumat qonunga va ayniqsa yozma hujjat–konstitutsiyasiga asoslanadi. Konstitutsiyalar hukumatning vakolati va majburiyatlari ta'minlaydi. Shuningdek, ular qonunlar qanday tayyorlanishi va hayotga tadbiiq etilishini ham o'zida aks ettiradi. Aksariyat konstitutsiyalar hukumatning vakolati va majburiyatlarini ta'minlaydi.

Konstitutsiyalar yozilmagan protseduralarni ham aks ettiraberishi kerak. Chunki bunday protseduralar yozilgan qonunlarga qaraganda mavjud favqulotda biron–bir konstitutsiya deb atalmish yozilgan hujjt mavjud emas. Bu mamlakatda, aniq konventsiyalar, asosiy hujjatlar va ko'plab qonunlar tizimining asosiy qoidalariga kiritiladi va foydalaniladi xolos. Demokratik hukumatning eng muhim xususiyati bu mustaqil sud tizimidir. Bu haqqoniyat tizimi bo'lib, u

xukumat tomonidan ishlab chiqilgan qonunlarni fuqarolar huquqlari bilan yaxlitligini tekshirish bilan shug'ullanadi.

Konstitutsion burch—O'zbekiston fuqarolari Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan, fuqarolar bajarishlari shart bo'lgan majburiyatlardir.

Muxolifat—rasmiy hokimiyat bilan g'oyaviy va amaliy jihatdan raqobatlasha oladigan, amaliy takliflar kirita biladigan, jamiyatiyamizning turli siyosiy qatlamlari manfaatlarining ifodachisi tariqasida maydonga chiqqa oladigan bo'lishi kerak demakdir.

Mustaqillikni saqlab, avaylash—istiqlolga erishgan xalq va millatning uni saqlab qolish sohasidagi asosiy vazifasi.

Mustaqillikni himoya qilish—istiqlolni asrab avaylash borasidagi faoliyatning tarkibiy qismi bo'lib, bu yo'lda faol, omilkor harakat qilishni, vatan, xalq xizmatiga shay bo'lishni anglatuvchi tushuncha.

Mustaqillikni mustahkamlash—istiqlolga erishgan har bir xalq, millatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ma'naviy sohalaridagi asosiy vazifalardan biri: davlatning ichki va tashqi siyosatini amalga oshirishdagi bosh tamoyillar qatoriga kiradigan faoliyatni anglatuvchi tushuncha.

Millataro totuvlik—milliy istiqlool mafkurasining asosiy g'oyalaridan biri, muayyan xudud, davlatda turli millat vakillarining bahamjihat yashashi, hamkorlikda faoliyat yuritishini ifodalovchi tushuncha.

Ma'naviyat—xalqimiz asrlar davomida e'zozlab kelgan uch buyuk qadriyatlardan asosiysi. Unda shaxs, millat o'z taraqqiyoti davomida to'plagan bilim va ma'nolar majmui o'z ifodasini topadi.

Mehnat jamoalari—inson umrining asosiy qismi o'tadigan, uning tafakkuri, hayotga munosabati shakllanadigan ijtimoiy - ma'naviy muhitdir. Ular kishida jamoa ruhi, mehnatsevarlik, omilkorlik, adolat tushunchasi, mehr—oqibat tuyg'ularini tarbiyalaydigan o'ziga xos maskan.

Millatlararo totuvlik—bir jamiyatda yashab, yagona maqsad yo'lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilar o'rtasidagi o'zaro hurmat, do'stlik va hamjihatlikning ma'naviy asosi.

Milliy valyuta—muayyan mamlakatning pul birligidir. Mamlakatda ichki muomala, quvvati va xolatiga qarab tashqi savdo va xalqaro hisob—kitob ishlarida qo'llaniladi.

Milliy daromad—moddiy ishlab chiqarish sohalarida bir yilda yangidan hosil qilingan qiymat yoki yalpi ichki maxsulotning ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan ishlabchiqarish vositalari qiymati chegirib tashlangandan so'ng qolgan qismi.

Moliya bozori—resurslarni taqsimlanishi va qayta taqsimlanishini ta'minlovchi moliyaviy tizim. Moliya bozori valyuta, real kapitallar, qimmatli qog'ozlar bozorlarini hamda fond birjalarini o'z ichiga oladi.

Monopoliya (yunoncha—mono—tanho, polio—sotaman)—iqtisodiyotning biron—bir sohasida yakka xukmronlik.

Mulkchilik—kishilar o'rtasida ishlab chiqarish vositalari va mehnat mahsulini o'zlashtirish yuzasidan paydo bo'lgan va tarixan aniq bir shaklda namoyon bo'luvchi ijtimoiy munosabatlar.

Narx (baho)—tovar qiymatining pul shakli; bozor iqtisodi mexanizmida amal qiluvchi iqtisodiy dastak.

Nodavlat va jamoat tashkilotlari—davlatga qarashli bo'lmagan, ammo ma'lum qonunlar yoki me'yoriy xujjatlarga bo'ysungan holda faoliyat ko'rsatadigan tuzilmalar nodavlat va jamoat tashkilotlari xisoblanadi.

Oltin zahirasi—mamlakatning markaziy bankida quyma (yombi) va tanga shaklida to'plangan markazlashgan oltin rezerv fondi.

Ochiq bozor—mamlakatga tovar hamda xizmatlarning boshqa mamlakatlardan erkin keltirilib va chegaralanmagan holda oldi - sotdi qilinishi.

Ombudsman—inson huquqlarini himoya qiladigan maxsus tashkilot. U inson huquqlarini turli ma'muriy organlardan himoya qilishni maqsad qilib qo'yadi.

Ozodlik g'oyasi–mazlumlarni o'z erki uchun chorlaydigan. Qullik va qaramlikning har qanday ko'rinishlarini inkor etadigan umuminsoniy g'oya.

Ommaviy axborot vositalari–gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, axborot agentliklari, televideniya (kabelli, efrli televideniya) va radio eshittirishlar, hujjatli kino, axborot tizimi, shuningdek doimiy nomga ega bo'lgan, davlat tasarrufidagi, mustaqil va boshqa ommaviy davriy nashrlardir.

Oppozitsiya, muholifat–kelishmovchilik, qaramaqarshilik, ziddiyat ma'nosini anglatib, rasmiy siyosatga, davlat tuzumiga mos bo'lmagan nuqtai - nazar, alohida siyosiy yo'l deb tushunish mumkin. Oppozitsiya parlament doirasida, undan tashqarida va siyosiy partiyalar ichida bo'lishi mumkin.

Parlament–frantsuzcha “ parle” gapirmoq so'zidan kelib chiqqan bo'lib, rasmiy so'zlashish joyi ma'nosini anglatadi.

Parlament davlatning oliy vakillik organi hisobdanadi va qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi. Parlament qonun bo'yicha belgilangan sondagi deputatlardan iborat bo'lib, hududiy saylov okruglari ko'ppartiyaviylik asosida belgilangan yoshga to'lgan fuqarolar saylanadi.

Parlament fraktsiyasi–parlament uchun saylovlarda har bir partiya o'z a'zolaridan deputatlikka nomzodini qo'yib, ko'proq ovoz to'plash maqsadida kurashadilar. Siyosiy partiya a'zolaridan parlamentga deputat etib saylanganlari o'z partiyasi siyosiy yo'lini o'tkazish uchun bir guruhga birlashadi. Bu guruh partiya fraktsiyasi deyiladi va parlament tomonidan fraktsiya sifatida ro'yxatga olinadi.

Prokuratura–(lotincha procure – g'amxo'rlik qilish) davlat tizimidagi mavjud jinoyat ishini qo'zg'atuvchi, ayblovchi va sud jarayonida davlat nomidan ayblov olib borish vakolatiga ega bo'lgan organ.

Privatizatsiya–davlat mulkini, iqtisodiyotdagi davlat sektorini xususiylashtirish. Privatizatsiya davlat mulki monopliyasini tugatish, erkin tadbirkorlik tashabbusiga yo'l ochish, bozor iqtisodiyotini rag'batlantirish maqsadida amalga oshiriladi.

Pul–hamma tovarlar va xizmatlar ayirboshlanadigan, umumiy ekvivalent bo'lmish maxsus tovar, bozor iqtisodiyotining eng asosiy vositasi.

Raqobat–mustaqil tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasida qulay sharoitda ishlab chiqarish va yaxshi foyda keltiradigan narxda, katta hajmda sotish; umuman bozor iqtisodiyotida o'z mavqeini mustaxkamlash uchun kurash.

Referendum–lotincha so'z bo'lib, davlat va jamiyat hayotining eng muhim masalalarini xalq maslahatiga taqdim etish, umumxalq ovozigga qo'yish degan ma'noni bildiradi.

Saylov huquqi–ikki xil ma'noda ishlatiladi. Birinchisi, saylovni tashkil etish va o'tkazishni tartibga soluvchi huquqiy me'yorlar yig'indisidir; ikkinchi ma'nosi fuqarolarning saylov huquqi, ya'ni ovoz berish, saylanish, saylov davrida va boshqa tadbirlarda ishtirok etishdir.

Siyosiy partiyalar–demokratik xokimiyatning eng muhim qismi hisoblanadi. Raqobatchi partiyalar saylovlarni ta'sirli va g'oyatda qiziqarli qilib o'tazadilar. Ular bunga saylovchilarga turli xil g'oya va dunyoqarashlarga ega nomzodlar orasidan keraklisini tanlab olishlariga imkon yaratish orqali erishadilar. AQSh va Buyuk Britaniya asosan ikki palatali tizimga ega. Ko'plab demokratik davlatlar ikkita asosiy partiyadan ko'proq partiyaga ega bo'lgan multi–partiyali tizimga egadirlar. Odatda, bunday davlatlarda biror bir partiya qonun chiqaruvchi kengashda ko'pchilikni tashkil etmaydi. Natijada ikki yoki undan ortiq partiyalar shunday ko'pchilikni tashkil etish uchun birlashishga majbur bo'ladilar. Tuzilgan xukumat koalitsion xukumat deyiladi. Demokratik mamlakatlarda, xukumatga bo'ysunmaydigan, ya'ni uning doirasidan tashqarida bo'lgan partiya va partiyalar “Sobiq muxolifat” sifatida harakatlanadi. Sobiq muxolifat hukumatdagi siyosiy partiya va xarakatlarni tanqid qiladi. Turli xil diktaturalarda hukumatdagi partiyani tanqid qilish xoinlik deb baholanadi va faqatgina hukumat partiyasiga faoliyat ko'rsatishga ruxsat etiladi. Bunda kishilar nomzodlarni haqiqiy tanlab olish va davlat siyosatiga qarshi fikr yuritish huquqiga ega bo'la olmaydilar.

Sud—muayyan davlat qonuni bilan mustahkamlangan protsessual tartibda jinoiy, fuqarolik, ma'muriy va boshqa kategoriyadagi ishlarni ko'rib chiqish va hal etishni amalga oshiruvchi davlat organi.

Soliqlar—davlatning korxona va tashkilotlaridan hamda aholidan undiriladigan pul mablag'lari.

Tashqi iqtisodiy siyosat—davlatning tashqi iqtisodiy faoliyati samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan maqsadlar, qoidalar va ularni amalga oshirish vositalari tizimi hamda mamlakatning siyosiy, ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanish vazifalarini aks ettiradi.

Tashqi savdo—chet mamlakatlar bilan savdo—sotiq ishlarini yuritish, xorijga tovar chiqarish va xorijdan tovar keltirishni o'z ichiga oladigan savdo.

Taraqqiyotning “O'zbek modeli”—milliy davlatchiligimizning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy jihatdan kamol toptiruvchi o'z taraqqiyot yo'lidir. Taraqqiyotning “O'zbek modeli” besh tamoyilga asoslanadi.

Tovar birjasi—bir yoki bir nechta xil tovar bilan ulgurji savdo - sotiqni amalga oshiruvchi tijorat korxonasi, bozor iqtisodiyoti infratuzilmasining ajralmas qismi. Tovar birjasi xo'jalik sub'ektlari o'rtasidagi oldi-sotdi aloqalarini yurgizadi.

Tovar—bozorda oldi-sotdi orqali ayirboshlanadigan mehnat mahsuli. Tovar shunday mahsulotki, u ishlab chiqaruvchilarning emas, balki boshqalarning talab ehtiyojlarini qondirish uchun yaratiladi.

Fuqarolik mas'uliyati—jamiyatning demokratik rivojlanishi jarayonida erishgan yutuq va muvaffaqiyatiga fuqarolarning ongli munosabati, yutuqlarni yanada ko'paytirish va ulardan foydalanishda faol qatnashishi.

Fuqarolik jamiyati—Konstitutsiyaviy huquq nazariyasida ijtimoiy hayotning huquq va demokratiyaga asoslangan zaruriy va oqilona usuli, insonga uning iqtisodiy va siyosiy borliqning shakllarini erkin tanlash huquqi kafolatlanadigan, inson huquqlari qaror topadigan, mafkuraviy plyuralizm ta'minlanadigan ijtimoiy tuzum.

Fuqarolik institutlari—jamiyatda qaror topgan nodavlat tashkilotlaridir. Ular muayyan ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy va siyosiy faoliyatni amalga oshiradilar.

Xususiy tashkilotlar—demokratik davlatlarda, individuallar va xususiy tashkilotlar mustaqil ish yuritishga harakat qiladi. Masalan ro'znoma va oynomalar xususiy tarzda boshqariladi. Davlat maktablari bilan xususiy maktablar ham faoliyat ko'rsatadi. Ko'plab korxonalar xususiy tarzda boshqariladi. Britaniya, SHvetsiya va ko'plab davlatlarda (ya'ni demokratik davlatlarda) sanoat va xizmat ko'rsatishni ayrim tarmoqlariga davlatning o'zi egalik qiladi. Totalitar davlatlarda esa hukumatning o'zi aksariyat uyushmalar va tashkilotlarni shakllantiradi va nazorat qiladi. Bu davlatlarda odamlar davlatning ruhsatisiz biror bir guruhga birlasha ham olmaydilar.

Shanxay Hamkorlik tashkiloti—SHHT—1996 yilda Shanxayda, 1997 yilda Moskvada bo'lib o'tgan Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston davlat rahbarlarining sammitida harbiy sohada hamda chegara xududlarida o'zaro ishonchni mustahkamlash, qurolli kuchlarni qisqartirish to'g'risida shartnoma imzolandi. Shu tariqa “Shanxay forumi” yoki “Shanxay beshligi” tashkiloti tuzildi. 2001 yil 14 - 15 iyun kunlari Xitoydagi navbatdagi sammitda O'zbekiston Respublikasi unga teng huquqli a'zo bo'lib qo'shildi. “Shanxay forumi” nomi SHanxay hamkorlik tashkiloti deb o'zgartirildi.

Shaxsni muntazam kamol toptirish—fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etishning muhim sharti va tarkibiy qismi. Shaxsni rivojlantirish jarayonlari insonning salohiyat va maqsadlarini ro'yobga chiqarish borasida nafaqat davlat, jamiyat ta'siri, balki shaxsning o'z sa'y - xarakatlarini faollashtirishni ham taqozo etadi.

Erkinlashtirish—mamlakatning demokratik jamiyatga o'tish va islohotlar o'tkazish jarayonida mavjud bo'ladigan turli to'siqlar, cheklashlar va yon berishga majbur etadigan omillardan qutilishga qaratilgan amaliy faoliyatdir. U demokratik jarayonlarning samarali rivojiga yangi kuch, quvvat va ilxom bag'ishlash imkoniyatini yaratadi.

Eksport potentsiali—chet elga tovar ishlab chiqarib sotish imkoniyati; korxonalar, tarmoqlar va ayrim mamlakatlarning xorijga tovar chiqarib, chet el bozorida raqobat qila bilish qobiliyati, shuning xisobiga valyuta to'play olishini anglatadi.

Erkin saylovlar—xalqqa o'z liderlarini tanlash huquqini hamda liderlar va xalqqa o'z fikrlarini baxsli masalalarda erkin bildirish huquqini beradi. Saylovlarda saylangan shaxslar chindan ham xalqning vakillari ekanligiga ishonirish uchun vaqti - vaqti bilan o'tkazib turiladi. Saylanish imkoniyati bunday vakillarni xalq fikr irodasiga e'tibor berishlarini kafolatlash uchun ko'mak bo'ladi. Ko'plab demokratik davlatlarda, ovoz berish uchun yoki saylanish uchun qo'yiladigan qonuniy talabnomalar fuqarolarning yoshi, yashash joyi va fuqaroligiga e'tiborni qaratadi. Demokratik jaryon fuqarolarga hech qanday tazyiqsiz, erkin tarzda yashirin ovoz berishga imkon yaratadi. Bu ham saylov natijalarini adolatsizlikka qarshi himoya qilinishini talab qiladi

Yalpi ichki maxsulot (YAIM) – bu mamlakatning iqtisodiy faoliyatini umumlashtirib ifodalovchi natijaviy ko'rsatkichdir. U mazkur mamlakat xududida joylashgan barcha xo'jalik sub'ektlari tomonidan pirovard iste'mol uchun ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlar qiymatini anglatadi.

O'z-o'zini boshqarish—bu tushuncha jamiyat ishlariga rahbarlik qilishning shunday tizimi bilan bog'liqki, unda kishilar o'z faoliyatining asosiy masalalarini o'zlari hal etadilar, o'zlari uchun majburiy bo'lgan hujjatlar atvor qoidalarini o'zlari ishlab chiqadilar va qabul qiladilar hamda ularga rioya etadilar.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati—O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining Senati (yuqori palatasi) xududiy vakillik palatasidir. Senat a'zolari (senatorlar) Qoraqalpog'iston Respublikasi Juqorgi Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat xokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo'shma majlislarida mazkur deputatlar orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda kishilar saylanadi.

Senatning o'n olti nafar a'zosi fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo'lgan hamda aloxida xizmat ko'rsatgan eng obro'li fuqarolar orasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi—qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning xujjatlari Konstitutsiyaga qanchalik mosligiga doir ishlarni ko'radi.

Konstitutsiyaviy sud siyosat va huquq sohasidagi mutaxassislar orasidan—Konstitutsiyaviy sud raisi, rais o'rinbosari va sudyalardan, shu jumladan Qoraqalpog'iston Respublikasining vakilidan iborat tarkibda saylanadi. Konstitutsiyaviy sud sudyalari o'z faoliyatlarida mustaqildir va faqat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga bo'ysunadilar.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi—fuqarolik, jinoiy va ma'muriy sudlov ishlarini yurgizish borasida sud hokimiyatining oliy organi hisoblanadi. Oliy sud tomonidan qabul qilingan hujjatlar qat'iy va respublikaning barcha xududida bajarilishi majburiydir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Xo'jalik sudi—xo'jalik sud ishlarini yuritish sohasida sud xokimiyatining oliy organidir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Xo'jalik sudi Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudining, viloyatlar va Toshkent shahri xo'jalik sudlarining sudlov faoliyati ustidan nazorat olib borish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi Harbiy doktrinasi—(doktrina—ta'minot, nazariya) 1995 yil 30 avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan harbiy doktrina qabul qilingan. Bu hujjat davlatimizning harbiy siyosati asosida harbiy faoliyat hamda harbiy qurilishning yo'nalishlari va tamoyillarini belgilaydi.

O'tish davri—taraqqiyotga to'siq bo'lgan avvalgi davlat siyosiy hayoti, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy negizlari bilan bog'liq barcha mexanizmlariga javob beradigan yangi mexanizmlarni shakllantirishga ketadigan oraliq vaqt, davr.

Qonun ustivorligi—ushbu tamoyilning mazmuni shuni anglatadiki, qonun ijtimoiy hayotning barcha soxalarida qat'iy xukmron bo'ladi. YA'ni hech kim, xech bir davlat organi, mansabdor shaxs, tadbirkor yoki boshqa bir fuqaro qonunga bo'ysunishi, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy

munosabatlar faqat qonun bilan tartibga solinadi; uning barcha ishtirokchilari esa, hech bir istenosiz, huquq normalarini buzganligi uchun javobgarlikka tortilishi kerak. Huquqiy normalarni tadbiq etishda konstitutsiya va qonunlarning normalari boshqa huquqiy normalardan ustun turadi.

Qonun—oliy yuridik kuchga ega bo'lgan, davlatning qonun chiqaruvchi muassasasi tomonidan yoki aholi tomonidan to'g'ridan-to'g'ri, referendum o'tkazish talablariga muvofiq qabul qilingan va o'zida qonunning amal qilish xududi, muddati va shaxslar doirasida huquqiy munosabatlar sub'ektlari faoliyatining umumiy namunasini mujassamlashtirgan normativ–huquqiy xujjat.

Qonunchilik – 1) davlat tomonidan o'z funksiyalarini amalga oshirishning asosiy usullaridan biri bo'lib, davlat hukumati organlari tomonidan qonunlar chiqarishda ifodalanadi;

2) ijtimoiy munosabatlarni to'la tartibga soluvchi huquqiy normalar yig'indisi yoki ijtimoiy munosabatlarning bir ko'rinishi.

Qimmatli qog'ozlar – aktsiyalar, obligatsiyalar, xazina majburiyatlari, depozit sertifikatlar, veksellar, xosilaviy qimmatli qog'ozlar–f'yucherslar, opyonlar va boshqa moliyaviy vositalar bo'lib, foyda olish, moliyaviy va boshqa manbalarni tadbirkorlik faoliyatiga etarli jalb qilishning asosiy yo'lidir.

Qimmatli qog'ozlar bozori—qimmatli qog'ozlarning muomalaga chiqarilishi, harakatlanishi va muomaladan chiqarilishi bilan bog'liq bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasidagi munosabatlar tizimidir.

Qonunchilik palatasi—bu O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining quyi palatasidir. Qonunchilik palatasi saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida saylanadigan bir yuz yigirma deputatdan iborat. Qonunchilik palatasining ishi palata barcha deputatlarning professional doimiy faoliyat ko'rsatishiga asoslanadi.

Hokimiyat va boshqaruv tizimlari – davlat hokimiyati va boshqaruvni amalga oshiruvchi davlat organlari tizimidir.

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 2011.33-34-b.
2. "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida"gi Qonuni. 2004 yil 29 aprel'.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001 yil 18 yanvarda qabul qilgan "Milliy istiqlool g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" fani bo'yicha ta'lim dasturlarini yaratish va respublika ta'lim tizimiga joriy etish to'g'risida"gi Farmoni."Ma'rifat" gazetasi, 2001 yil 20 yanvar.
4. "Davlat boshqaruini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi Qonuni. "Xalq so'zi" 2007 yil 12 aprel.
5. "Obod turmush yili" Davlat dasturi. – "Xalq so'zi", 2013 yil 21 yanvar'.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari

6. "Tadbirkorlik sub'ektlarini tekshirishlarni yanada qisqartirish va ular faoliyatini nazorat qilishni tashkil etish tizimini takomillashtirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "Xalq so'zi" 2011 yil 5 aprel'.
7. "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 20 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. "Xalq so'zi" 2011 yil 7 aprel'.

III. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va O'zbekiston Respublikasi vazirliklarining huquqiy-me'yoriy hujjatlari

8. О мерах по дальнейшему развитию и модернизации предприятий текстильной промышленности и расширению производства отечественных непродовольственных потребительских товаров на 2009-2011 годы: Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 20 августа 2009 года № 236 //Собрание законодательства Республики Узбекистан – 2009. - № 34. – 372.

9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Mahsulotni ishlab. chiqarish va sotishning xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi" to'g'risida Qarori. – T.: O'zbekiston. Adliya vazirligi, 2000.-15-20 b

IV. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

10. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shaotlari va taraqqiyot kafolatlari. T.6. - T.: O'zbekiston, 1997. 279-297, 326-b.
11. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. T.11-T.: O'zbekiston, 2003. 64-69, 248-265, 274-280-b.
12. Karimov I.A. Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi o'z kuch-qudratimizga, xalqimizning hamjihatligi va bukilmas irodasiga bog'liq. - T.: O'zbekiston, 2004.
13. Karimov I.A. El-yurtga halol, vijdonan xizmat qilish – har bir rahbarning muqaddas burchi. Andijon viloyat xalq deputatlari Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida so'zlangan nutq. «Ishonch», 2004 yil 26 may.
14. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz–jamiyatni demokratiyalashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir.- T.:O'zbekiston, 2005. 94 b.
15. Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. - T.: O'zbekiston, 2007.- 3-48-b.
16. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat–engilmas kuch.-T.: Ma'naviyat.2008. - 176 b.
17. Karimov I.A. Eng asosiy me'zon – hayot haqiqatini aks ettirish.-T.: O'zbekiston, 2009.- 24 b.

18. Karimov I.A. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. - T.: O'zbekiston, 2009.-56 b.
19. . Karimov I.A. "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida". –T.: "O'zbekiston" NMIU, 2011. - 327-b.
- 20 Karimov I. A. 2012 - yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. "Xalq so'zi", 2012 yil 20 yanvar
21. .Karimov I.A. "Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir". "Xalq so'zi", 2012 yil 8 dekabr.
- 22.. Karimov I.A. "Bosh maqsadimiz - keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davov ettirish". "Xalq so'zi", 2013 yil 20 yanvar.

V. Darsliklar

23. Ergashev I. va boshqalar. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. – T.: Navro'z, 2005. 368 b.
24. Aliev B., Hoshimov T., Yuldashev O. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. T.: TDIU. 2007. 242 b
25. Aliyev B., Hoshimov T., Yuldashev O. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. Darslik .-T. Iqtisodiyot. 2008. 216 b.

VI. O'quv qo'llanmalar

26. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" kitobini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma. –T.: O'zbekiston, 2012.-176-b.
27. Aliyev B., Hoshimov T. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanidan o'quv-uslubiy qo'llanma. (ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari asosida). – T.; 2006. 160 b.
28. Aliyev B., Hoshimov T. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. O'quv qo'llanma. - T.; 2006. 196 b.
29. Aliyev B. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanidan o'quv-uslubiy majmua. Toshkent islom universiteti. 2007.174-b.
30. Aliyev B., Yuldashev O., Qahhorova M. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. O'quv qo'llanma.-T.: "Iqtisodiyot".2011.264-b.

VII. Doktorlik, nomzodlik va magistrlik dissertatsiyalari

31. Собитов Ш.А. Внешняя политика Китая в годы реформы (1978-1998 гг.) перспективы сотрудничества с Республикой Узбекистан. Диссертация та соискание ученой степени кандидата политических наук. Ташкент – 2004.

VIII. Ilmiy monografiyalar, maqolalar va boshqa asarlar

32. Azizxo'jaev A.A. Mustaqillik: kurashlar, iztiroblar, quvonchlar. –T. Akademiya, 2001, 3-85-b.
33. Yakovlev A.N. Qaytadan kashf etilgan mamlakat. (So'z boshi o'rnida) «Xalq so'zi», 2001 yil 9 fevral
34. Ergashev I. O'zbekistondagi demokratik jarayonlar: uydirma va haqiqat. «Xalq so'zi», 2004 yil 18 may.
35. Ergashev I. Demokratiya - milliy va umumbashariy qadriyat. «Jamiyat va boshqaruv», № 2, 2004.
36. Нарзуллаев О., Ходжаев А. Роль Шанхайской организации сотрудничество в обеспечении безопасности и устойчивого развития региона Центральной Азии. "Ijtimoiy fikr" 2005 yil 1-son, 56-58-b.

37. Abdullaev M. va boshqalar Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug'at.-T.: Sharq, 2006.- 528 b.
38. Yuldashev O. O'zbekiston bozor iqtisodiyoti sari. T.: TDIU. 2007. 42 b.
39. Aliyev B., Yuldashev O. Istiqlol va iqtisodiy taraqqiyot. T.: TDIU. 2008. -44 b.
40. Aliyev B., Sultonov T. "Yoshlar yili" davlat dasturi va yangi avlod iste'dodlarini tarbiyalash. -T.: "Iqtisodiyot". 2008.- 44 b.
41. Yuldashev O. Milliy mustaqillikka erishish. -T.: Iqtisodiyot. 2009. 38 b.
42. Yuldashev O. Mustaqil taraqqiyot yo'li. -T.: Iqtisodiyot. 2011. 34 b.

IX. Internet saytlari

43. www.ref.uz
44. www.zuyo.edu.uz
45. www.gov.uz
46. www.google.uz
47. www.yandex.ru
48. www.referat.ru

MUNDARIJA

Kirish.....	4
BIRINCHI BO'LIM. O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH	
NAZARIYASI VA RIVOJLANISH.....	7
1 - mavzu. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanining predmeti, maqsadi va vazifalari. Demokratik jamiyat to'g'risidagi dastlabki qarashlar va uning rivojlanish bosqichlari	7
2 - mavzu. Mustaqillik va demokratik jamiyat qurishning «O'zbek modeli». O'zbekistonda demokratik jamiyatni barpo etishda “o'tish davri”ning zarurligi va uning xususiyatlari.....	27
3- mavzu: O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning milliy, umumbashariy tamoyillari va qadriyatlari	46
IKKINCHI BO'LIM O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK, FUQAROLIK JAMIYATINI	
BARPO ETISH ASOSLARI.....	55
4- mavzu: . Qonun ustuvorligi demokratik fuqarolik jamiyati qurilishining asosi. Milliy - ma'naviy negizlarga tayanish - demokratik jamiyat qurishning zaruriy sharti.....	55
5- mavzu: Fuqaro erkinligi va faolligini ta'minlash - demokratik jamiyat qurish omili.....	78
6 – mavzu: Jamiyat iqtisodiy hayotini erkinlashtirish va demokratlashtirish....	88
7 - mavzu: Oila – demokratik jamiyat qurishning asosiy bo'g'ini.....	100
8 - mavzu. Demokratik jamiyat shakllanishida mahalla va fuqarolarning o'zini - o'zi boshqarish organlari. Demokratik jamiyat barpo etishda nodavlat va jamoat birlashmalarining o'rni.....	111
9 - mavzu. . Demokratik jamiyat qurilishida kuchli ijtimoiy himoya va adolat tamoyillari.....	134
10 – mavzu: O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan hamkorligida demokratik tamoyillarga asoslanishi.....	148
Xulosa.....	164
Atamalar.....	166
Foydalanilgan adabiyotlar.....	175

B. ALIEV, O.YULDASHEV

**O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH NAZARIYASI
VA AMALIYOTI**

DARSLIK

Muharrir: T. Sultonov
Musahhih: M. Mallaboev

Terishga berildi:
_____ 2013. bichimi 60x30 1/10
Shartli bosma tabog'i 11.
Adadi 100 nusxa
108-sonli buyurtma.

“Iqtisodiyot”- 2013